



2022-yil. 8-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584



8-son

«Til va adabiyot ta'limi» «Преподавание языка и литературы» «Language and literature teaching»

ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor Saidov
Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Nargiza Rahmonqulova
Yorqinjon Odilov
Nasirullo Mirkurbanov
Jabbor Eshonqulov
Valijon Qodirov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
Tolib Enazarov
To'liq Saydaliyev
Ravshan Jomonov
Zulxumir Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Tajixon Sabitova
Salima Jumayeva
Nilufar Namozova
Qayum Baymirov
Manzar Abdulkayrov
Lutfullo Jo'rayev

(bosh muharrir o'rinbosari)

Alijon Safarov (elektron nashr uchun)

Sayyora Halimova (elektron nashr uchun)

Latifa Xudayqulova (elektron nashr uchun)

Muharrirlar:

Nilufar Namozova
Nigora Uralova
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

MUNDARIJA

TAHLIL

Gulhoyo Bo'riyeva. O'zbekistonda baholash tizimidagi kamchiliklar.....	2
Klara Busyorova. Imkoniyatlarning qo'sh eshigi.....	3
Abdunazar Jurayev. Bo'lajak gid-tarjimonlarga lug'atni o'qitishda korporadan foydalanishning afzalliklari.....	6
Abdurazzoq Qo'chqorov. "Leksikologiya" grammatik kompozitsiya tadbirini o'tkazish.....	10
Aziza Husenova. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'qituvchi va o'quvchi ta'lim jarayoni subyekt sifatida.....	14
Adiba Bekchanova. Ona tili darslarida matn bilan ishlashni o'rganish.....	16
Dilrabo Quvvatova, Rahima Sharipova. Rauf Parfi she'riyatida shamol, bulut, yomg'ir, qor ramzlari.....	18
Nodira Xolikova. "Yangi yo'l" jurnali: xotin-qizlar ma'rifati.....	20
Oysha Rajabova. «Xorijiy tillarni o'qitishda axborot texnologiyalarining o'rni».....	23
Nargiza Mirzayeva. Bolalar nashrlarida lisoniy va nolisoniy vositalarning qo'llanilishi.....	24
Abdullo Xudayqulov. O'zbek tilidagi ayrim anglitsizmlarning dinamikasi xususida.....	26
G. Muxamedjanova. "Yulduzli tunlar" romanining yaratilish tarixi.....	28
Akram Hamdamov Abdulla Oripov fenomeni va adabiy-ijodiy muhit.....	31
Nasiba Yarashova. Growth and development of child speech in modern science research.....	33
Nodira Khatamova. Main characteristics of the theatre of the absurd as an anti-play movement.....	35
Vahobiddin Bozorov. "Sabot ul-ojiz" - ilmiy-ma'rifiy asar.....	36
Farangiz Fayziyeva. "Mahbub ul-qulub" asarida komil inson g'oyasi asosida ilohiy sifatlarining namoyon bo'lishi.....	38
Diana Ruzmetova. Ingliz tilini o'qitishda grammatik interferensiyaning oldini olish tadqiqoti.....	40
Muyassarxon Bahridinov. O'zbek va nemis yuridik terminlarida ichki va tashqi omillar.....	42
Dilnozaxon Murotova. Muloqotda uzr so'rashning lingvopragmatik tadqiqi.....	43
Alijon Esanov. O'zbek bolalar mavsumiy marosim folklorining o'rganilish tarixi.....	45
Yulduz Hayitova. Surxon adabiy muhitining zamonaviy she'riyatiga bir nazar.....	48
Gulnigir Mavlanova. XIX-asr oxiri XX - asr boshlarida yaratilgan ingliz va o'zbek adabiyotlarida davr ruhiyati.....	52
Shoxista Abdujabborova. Topishmoqlarning lingvopragmatik xususiyatlari.....	54
Muxlisaxon Saydaliyeva. Pretsedent nom va deonimlashish hodisasi.....	56
Nilufar Karimova. Alisher Navoiy devonlaridagi lirik janrlar miqyosida hamd mavzusining yoritilishi.....	59
Gulnora Xolmuratova. Ona tili ta'limida lug'at bilan ishlash kompetentligini shakllantirish.....	60
Iqboloy Ilasheva, Saidbek Hasanov ilmiy biografiyasi va matnshunoslik faoliyati.....	62
Nilufar Namazova. Ulug' mo'jizalardan biri tarixi.....	63
Almardanova Iroda Shukur Xolmirzayev hikoyalarining poetik xususiyatlari.....	65
Nilufar Ataqulova, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida estetik kategoriyalarning badiiy in'tikosi.....	67
Navro'z Madalov. Maqollarda sinonimik munosabatlarning ifodalanishi.....	69
Abduraxxon Orifjonov. Munisning hayoti va ijodiga va unga oid manbalar tahlili.....	72
Navro'za Karimova. Jamiyatda muallimning o'rni.....	74
Dilafroz Ismoilova. Ta'lim jarayonida tarbiya xususiyatlari.....	75
Diana Abduramanova. Franz Kafka's revolt and obedience.....	77
Ezoza Hazratkulova, Jamila Djumabaeva. The role and brief history of psycholinguistics and its aspects.....	79
Fazilat Xudayqulova. Kasb tanlashda PIRLS xalqaro baholash dasturining roli.....	81
Komila Turabaeva. Motivation and its role in language acquisition.....	83
Nargiz Artikova. Ilmiy tadqiqot va diagnostika.....	85
Olima Khalilova. Vocabulary is a vital part of language teaching.....	88
Tumaris Kabulova. Moral crisis in American literature of the 20th century.....	90
Dilshod Rajabov, To'xtamurod Rajabov. Badiiy ko'chim vositasida ramzlarning yuzaga kelishi va ularning badiiy xususiyatlari.....	92

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАТЕЛЯ

Рашид Матенов. Об актуальных задачах методики преподавания русского языка в группах с узбекским языком обучения в вузе.....	94
Рануша Атаева. Пересказ как одна из эффективных форм работы по развитию речи учащихся.....	95
Азиза Балтабаева. Изучение жанра сатиры Кантемира по «Истории русской литературы XVIII века».....	98

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Ферузахон Якубова. Современные методы преподавания русского языка студентам технических вузов.....	100
Севара Султанова. Языковое варьирование в процессе деривации и употребление существительных в русском языке с точки зрения лингвопрагматики.....	102
Умида Ёркулова. Вариативность в русском языке.....	105
Лобар Юнусова. О формальном варьировании фразеологических единиц.....	106
Мафтуна Насриддинова. Экспрессивно-стилистические функции иноязычных заимствований.....	107

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Мактуба Сатторова. Сопоставительный анализ клишированных единиц с числовым компонентом в русском и узбекском языках.....	110
--	-----

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Наргиза Тошпулатова, Каххоржон Юлчиев. Моделирование архаического мира в современной сказке.....	112
Жавохир Содиков, Немат Сабилов. Характер и функция природы в рассказах А.П.Чехова.....	114

Gulhayo BO'RIYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti ingliz tili o'qituvchisi

O'ZBEKISTONDA BAHOLASH TIZIMIDAGI KAMCHILIKLAR

Har bir sohada bo'lgani kabi aynan pedagogika sohasida ham ba'zi bir kamchiliklar uchrab turadi. Shulardan biri noto'g'ri tuzilgan baholash tizimi yoki baholashni tashkil etishdagi pedagogik tajribaning yetishmasligidir. Hammaga tanish bo'lgan holatni shu o'rinda keltirib o'tmoqchiman: qachonki bizdan qandaydir test yoki imtihon olinishi haqida eshitsak, xoh u o'qishda yoki kasbiy faoliyatimizda bo'lsin, ko'pchiligimiz xavotirga tusha boshlaymiz. Aslida esa baholash tizimi shunchalik hammani vahimaga soladigan holatda bo'lishi kerakmi? H.Douglas Brown "Languagae Assessment" [1] kitobida yozishicha, baholash tizimi biz haqiqatdan yaxshi bilgan, yetarlicha o'zlashtira olgan bilim va ko'nikmalarimizni tekshirishga asoslangan bo'lishi kerak va judayam murakkab, judayam qiyin savollarni o'z ichiga olishi kerak emas. Axir insoniyatda kompyuter xotirasidagidek katta bo'shliq yo'q va har bir individual o'ziga xosdir. Shu boisdan biz umumiy o'rganuvchilar yoki imtihon topshiruvchilarning o'rtacha holatidan kelib chiqib test yoki baholash uchun vazifalar tashkil qilishimiz kerak.

Afsuski O'zbekiston ta'lim tizimida pedagoglarimizda test tuzishga oid tajribaning yetishmasligi asosiy muammodir. Ehtimol ba'zi xorijiy til o'qituvchilarida bu ko'nikmalar qanchadir miqdorda shakllangan bo'lishi mumkin. Chunki ular ko'pgina xorijiy til test tizimlari bilan kasbiy faoliyatlarida duch kelishadi. Ammo til o'rgatishga ixtisoslashmagan fan o'qituvchilari, xususan, aniq fan sohalari, tabiiy fanlar va boshqa bir qator soha o'qituvchilarida bu kamchilik yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, test deganda ko'pchilik pedagoglar ko'z o'ngiga bizda qo'llaniladigan ochiq va yopiq test keladi. Yanayam aniqroq tushuntiradigan bo'lsak, ochiq testda asosan 3 yoki 4 ta muqobil javob variantlari berilib alifbo harflari tartibida, ularning birini tanlash talab qilinadi. Yopiq testda esa faqatgina savol berilib javoblarni imtihon topshiruvchining o'zi yozishi talab qilinadi. Aslida esa testing bir qancha turlari bor, masalan, Moslashtirish (*Matching*), Xulosa qismini to'ldirish (*Summary Completion*), Tushirib qoldirilgan so'zlarni topish (*Fill in the gaps*), Xaritani to'ldirish (*Fill in the gaps in the map*), Sarlavhalarni matnga moslashtirish (*Matching headings*) [2] va boshqalar.

Yana bir holat shundaki, allaqachon bizning ta'lim tizimimizda uzoq vaqtdan keyin baholash odatiy holatga aylanib qolgan. Yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, odatda uzluksiz biror fan yoki kursni uzoq vaqt mobaynida o'rgatib, so'ngra oradan ko'p vaqt o'tib ketgach, o'qituvchi talabalardan imtihon olib, bilim darajasini

tekshirib ko'radi. Buni oliy ta'lim tizimimizdagi yakuniy imtihonlar misolida ko'rishimiz mumkin. Bu o'ziga yara-sha ko'pgina muammolar, stresslarga sabab bo'ladi. Bir tarafdin ustozlar 6 oy davomida o'tgan mavzularni o'z ichiga olgan savollar tuzishlari kerak bo'lsa, ikkinchi tarafdin talabalarga o'qitilgan 6 oylik bilim va ma'lumotlarni takrorlab chiqish qiyinchilik tug'dirishi tayin. Xuddi shu kabi vaziyatlarni keltirib chiqarmaslik uchun ba'zida chet el tajribasidan foydalanish bizga aslo zarar qilmasdi. Masalan AQSh ta'lim tizimida 2 oy davom etuvchi kurslar bo'lib, har bir kurs tugaganidan so'ng talabalar kurs bo'yicha talab qilingan kurs ishini yozishadi xolos. Bu ikki oy ichida ham ular har hafta o'ziga xos kichik vazifalarni bajarib borishadi, tushunganlarini yanada aniqlashtirib olish uchun, ular asosan *ink shed* va *reflective writing* ko'rinishida bo'ladi. Bunday tizimlar anchagina samarali hisoblangani sababli ko'pgina davlatlar ta'lim tizimida keng qo'llanilyapti, va bular uzoq vaqtdan keyin tekshiriladigan tizim (*Summative*) va qisqa vaqtda tekshirib boriladigan tizim (*Formative*) deb yuritiladi.

Yana bir muhim jihati shundaki talabaning o'zlashtirish darajasini tekshirishga oid vazifalar ko'pincha nazariyadan tashqari amaliyotga ko'proq asoslanadi. Xususan, oddiygina o'rgatilgan bilimlar qaytadan yodlatib so'rab olinmasdan, uning o'rniga shu bilimlarni amaliyotda qo'llashga oid topshiriqlar beriladi. Masalan, maqola yozishga bog'liq dars o'tilsa, bu o'rgatilganlarni, aytaylik maqola yozish talablarini qanchalik o'quvchi o'rganganini test qilib tekshirmasdan, balki ularda shu talablarga amal qilgan holda maqola yozib kelishi so'raladi. Shuningdek, o'zbek tilidan farqli ravishda muallif o'zi istagan fikrni istagan yo'sinda bermasdan, balki har bir aytayotgan fikriga asos keltirishi talab qilinadi, yoki bo'lmasa, aynan nima sababli shu fikrga kelganini dalillab, misollar bilan tushuntirib berishi kerak.

Yana bir xorijiy tajribalardan biri shundaki, vazifalarning deyarli ko'pchiligi mustaqil ta'lim (*Self Study*) olishga asoslangan. Bu metodikada o'qituvchi markazda turadigan (*teacher-centered*) emas, balki talaba markazda turadigan (*student-centered*) o'qitish usuli deb yuritiladi.

Shu o'rinda bizda testologiya sohasida ham oqsashlar mavjudligini ta'kidlab o'tish kerak. Bundan ancha yillar avval davlat test tizimida aynan qaysi darajaga mos bilimga ega ekanligimizni isbotlab, o'sha daraja testini topshirishimizga to'g'ri kelardi va, afsuski, bu testlar talab darajasida tuzilmagan bo'lib, B2 darajali testda C1, hattoki, C2 darajadagi lug'atlardan foydalanilganligi buning isboti bo'lishi mumkin. Ehtimol test tuzishda ta-

jriba yetishmasligi oqibatidir bu. Quvonarlisi shundaki, bu kabi muammoning oldini olish uchun hozirda Davlat test markazi Milliy CEFR daraja testini aynan bir daraja uchun emas, balki *Multilevel* ko'rinishiga o'zgartirdi. Natijada o'z bilim darajasini xorijiy til bo'yicha sinab ko'rayotgan talabgor qaysi darajaga javob bera olsa, shu til darajasi sertifikatini qo'lga kiritadi. Bu ham aslida yaxshi o'ylangan islohot bo'lib, test natijasi sifatida hamma sertifikat olishi mumkin.

Garchi shunday o'zgarishlar bo'lishiga qaramasdan, yuqorida ta'kidlanganidek, aynan pedagoglar orasida test tuzish va baholashga oid kamchiliklar tez-tez uchrab turadi. Bu kabi holatlarning oldini olish uchun, bizningcha, pedagogika sohasi o'quv rejasiga Testalogiya fani kiritilishi kerak. Chunki har bir pedagog pedagogik faoliyati mobaynida o'quvchilarining bilim va saviyasini tekshirib ko'rish uchun hech bo'lmaganda bir

marta test tuzishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun ularda yetarlicha tajriba, mahorat bo'lishi zarur. Oxirgi bosqichda o'qiyotgan talabalarga bu fanni joriy etish ayni mudao bo'lar edi, negaki ular bo'lajak mutaxassislar sifatida o'qishni bitirishlari bilan o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llashlari mumkin. Shu sabali Testalogiya fanini juda chuqur bo'lmasa-da, hech bo'lmaganda, fundamental darajada o'rgatish uchun ketadigan soatlarni hisoblab chiqilib, o'qitiladigan fan soatiga muvofiq taqsimlash dardor. Agarda testolog-mutaxassislar yetishmasligi bilan bog'liq muammoga duch kelinsa, xorijdan bu soha ekspertlarini yollash ham oqilona yechim bo'lar edi. Keyinchalik esa bu fanni yaxshi o'rganib, a'lo natijalar bilan bitirgan kadrlar bu fandan dars o'tishlari mumkin. Aynan mana shu islohot kelajakda tajribali pedagoglar yetishib chiqishiga yetarlicha hissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown H.D. Language Assessment. – Pearson, 2004.
2. Brown H.D. Principles and classroom practices. – Pearson, 2004.

Klara DUSYOROVA,

Qarshi davlat universiteti

“Adabiyotshunoslik” kafedrasida o'qituvchisi

IMKONIYATLARNING QO'SH ESHIGI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2017- yil 13- sentyabr sanasida «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi qarorini imzolagan bo'lsa, 2019 -yil 7-iyunda “O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarori imzolandi va bu jahonshumul ikki qaror azaldan kitobsevar bo'lgan o'zbek xalqi aholisi, xususan yosh avlod uchun katta imkoniyatlar sari qo'sh eshiklarni ochib bergan edi.

Qarorga ko'ra, “Ma'naviy hayotimizni yuksaltirishda ulkan ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday muhim vazifalarni kompleks hal qilish, kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, o'zbek va dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini internet tarmoqlariga joylashtirish va ularni targ'ib qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga etkazish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida:

Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanib, dasturda ko'zda tutilgan

quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilishi beg'ilangan edi.

Bunda: kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, noshirlik va matbaa sohalarini yanada rivojlantirishga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

kitob mahsulotlari bo'yicha davlat buyurtmasining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish, adabiy-badiiy, o'quv-uslubiy, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop va ko'rgazmali adabiyotlarni chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan kitob do'konlari faoliyatini rivojlantirish;

jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilish bo'yicha davlat buyurtmalari berish, ularni ko'p nusxada yuksak sifat bilan nashr etish va moliyalashtirish tizimini yo'lga qo'yish, kitob tarqatish tizimini yanada rivojlantirish va kitob mahsulotlarining narxini shakllantirish va sotish bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish choralari belgilash;

axborot-kutubxona faoliyatini kuchaytirish, ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlarining kutubxona fondlari, kutubxonalar, tashkilot va muassasalarni

gan alohida e'tibor samarasida kitob mahsulotlarini chop etish ko'lamini va sifati tubdan oshdi. Buning natijasida bugungi kunda kitobxonlar qo'liga etib borayotgan kitoblarning ham shakli, ham mazmun nuqtai nazaridan davr talablariga, demakki yurtodoshlarimizning zamonaviy estetik didiga to'la javob beradi, deyish mumkin.

Yurtimizda kitoblarning nashri bilan bir qatorda, ularning savdosi va targ'ibotiga qaratilgan ta'sirchan amaliy qadamlar ham qo'yilmoqda. Xususan, hozirgi paytda "Kitob olami", "SHarq ziyokori" va "O'z davkitob savdota'minoti" majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko'rsatilmoqda. Xususan, Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan "Kitob olami" majmuasiga qarashli zamonaviy kitob do'konlari nafaqat Toshkent shahrida, balki Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarida ham ishlab turibdi.

Mamlakatimizda "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" shiori ostida har yili respublika "Kitob bayrami" tadbirlarini o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Aytish joizki, u shbu ma'naviy-ma'rifiy tadbir davlatimiz tomonidan adabiyotni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor va erishilayotgan natijalarni keng jamoatchilikka etkazish, xalqimiz, jumladan, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ijodkorlar va kitobxonlar o'rtasidagi muloqotni yaxshilash, kitobga bo'lgan ehtiyojini to'liq qoplashda o'z samaralarini bermoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, birinchi qaror nashriyotlar va noshirchilik ishini tubdan yaxshilash, mamlakatda mazmunli kitoblarning nashr etish, kitobxon avlodni yanada kitobga, mutolaaga ko'niktirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi qaror ya'ni "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ 4354 sonli qaror avvalda tugatilib ketgan va "Ommaviy kutubxona" maqomini saqlab qololmagan kutubxonalarga kitobxonlarning qaytish, maroqli mutolaaga sho'ng'ish, ishini sevgan, kitobsevar kitobxonlarini unutmagan kutubxonachilarga esa yana o'z kitobxonlariga kitob va axborot xizmati ko'rsatish imkonini berdi. Bu ezgu qarorni imzolash barobarida muhtaram Prezidentimiz Sohibqiron Amir Temur ta'biri bilan aytganda, «Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir». SHu ma'noda, shaklidan qat'i nazar, barcha kitoblarning milliy o'zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarini targ'ib etishga xizmat qilishi ayni muddao ekanligini ham soha xodimlari va kitobsevar xalqimizga yana bir bora eslatdi.

Prezidentimiz o'z suhbatlaridan birida "Hududlarga kitob etkazib berish yaxshi. Lekin ularni o'qish, o'qitish etarli darajada emas. Bolalarimizni bog'cha yoshidan, boshlang'ich sinflardan kichik-kichik kitoblarga o'rgatish, shu orqali ularni kitobsevar etib ulg'aytirish zarur. SHundagina jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllanadi, boshqalar ham kitob o'qishga qaytadi», -

degan edilar.

Yurtboshimiz rahnamoligida kitobsevar millat farzandlarining kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar bejizga emas, binobarin, kelajak avlodning kamoloti ilm olish, bilimli bo'lish bilan belgilanadi. Bu borada mazkur ikki qaror xalqimiz va farzandlarimiz uchun qo'sh eshiklar, qo'sh imkoniyatlar eshigini ochdi deyish mumkin, o'z navbatida, yurtimizda kitobxonlik saviyasi oshishiga, yangidan-yangi sermazmun kitoblarning chop etilishiga omil bo'luvchi muhim odimdir. Ana shunday imkoniyatlardan oqilona foydalanib, yangidan-yangi nashrdan chiqayotgan sermazmun asarlarni o'qib borish yoshlarning ongi o'sishi, tafakkuri teranlashib, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lishiga imkon beradi.

Dinimizda ilmli bo'lishga chorlanadi. Buni biz «ilm» so'zi Qur'oni karimning 811 joyida turli ma'nolarda kelganidan ham ko'rishimiz mumkin. Qur'on va hadislarida ilm insoniyatni turli axloqsizliklar, yomon yo'l va amallardan qaytarishi zikr etilgan. SHuningdek, nodir manbalarda ilm eng ko'p yoritilgan masalalardan sanaladi. Ma'rifat egallashning eng muhim sharti esa kitob o'qish bilan bo'lishi barchamizga ma'lum. Bu borada Mujodala surasining 11-oyatida: "... Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba) larga ko'tarur", deya marhamat qilinadi.

Ulug'larimizdan biri: "Kitobni muqovasiga qarab oladilar, ichiga qarab baho beradilar", degan ekanlar. Darhaqiqat, kitobning asl ma'nosi uni o'qiganda ayon bo'ladi.

Xalqimiz azaldan kitobni aziz sanagan, kechalari kitobxonlik davralari uyushtirilgan, oila a'zolari yig'ilib kitoblarni o'qigan. Asarlar haqida mulohazalar bildirilgan. SHunday oiladagi farzandlar ham kitobga mehri bo'lib voyaga etganlar. Biz ana shunday ajdodlarning avlodlarimiz, qalbimizdan, ongimizdan kitob o'qishni sevuvchi millatmiz. Buni hamisha unutmasligimiz lozim.

Donolar aytganidek, har bir inson dastlabki tarbiyasi, ya'ni ma'naviy ozuqani oilada ota-onadan oladi. Keyin esa maktabga boradi. Jamoada o'zini qanday tutishni o'rganadi. Ma'naviy ozuqa olishning, chin inson bo'lib etishishning birdan bir yo'li bu kitob mutolaasi hisoblanadi. Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog'liq. U insonni komillik sari etaklaydi. Darhaqiqat, bu ma'naviy sarchashma farzandlarimizning dunyoqarashini boyitadi, nutqini o'stirib, xotirasini mustahkamlaydi.

Bugun ham qaysi xonadonga kirmang, uyning to'rida, javonini bezab turgan kitoblarga ko'zingiz tushadi, oila kattalarining yoshlarni kitob o'qishga chorlovchi so'zlari ulg'ayib kelayotgan bolalar ongiga singadi, kitobga bo'lgan mehri ortadi. Ajdodlarimizdan qolgan bebaho fazilatimiz – kitobsevarligimizni boy bermaylik, kelajak avlodlarga ham bus-butunligicha etkazaylik.

Hayotimiz kitob bilan sermazmun o'tadi, yaxshi kitob bizga to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Mutolaa bizni nafaqat

ilmiy qiladi, balki biz hech qachon his etmagan zavqni ham baxsh etadi va albatta ajru savoblarga noil etadi. Mamlakat miqyosidav o'tkazilishi ko'zda tutilayot-

gan yirik tanlovlar, kitobxonlik kunlari, haftaliklari, kitob bayramlari to'g'risida alohida navbatdagi maqolada izoh berishni o'rinli deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda «2020 - 2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida» gi 781-sonli Qarori .
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev 2017 yil 13 sentyabrda " Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271 sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyunda " O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati krsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 4354-sonli qarori. —"Xalq so'zi" gazetasi, 2019 yil.
4. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish -halqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. (Prezident Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi). - «Halq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 4 avgust.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 yanvarda "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatishni rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi."Halq so'zi" gazetasi, 2017 yil. 13 yanvar.
6. Munavvarov. A. Pedagogika – Pedagogika Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 1996-2008.
7. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
8. Yoshlar va kitobxonlik: an'anaviy va zamonaviy usullar

Tilshunoslik

Abdunazar JURAYEV,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali O'zbek, rus va xorijiy tillar kafedrasida dotsenti

BO'LAJAK GID-TARJIMONLARGA LUG'ATNI O'QITISHDA KORPORADAN FOYDALANISHNING AFZALLIKARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"[1] va "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlaridan[2] so'ng lug'atni o'rgatishga bo'lgan qiziqishning qayta tiklanishi ikkita omil bilan bog'liq.

So'zlarning kompyuterlashtirilgan ma'lumotlar bazalarining mavjudligi (til korpuslari).

So'z birikmalarida so'zga asoslangan yoki leksik yondashuvni rivojlantirish.

Uzoq vaqt davomida biz grammatikani o'rgatishga e'tiborni ko'proq qaratar edik. Lekin 2000-yillardan boshlab yondashuv keskin o'zgardi. Shiddat bilan o'zgarayotgan ilm-fan, texnika, biznes, tibbiyot sohalari zarur mutaxassislarining, til o'rganuvchilarning ehtiyojini va talabini hisobga olgan holda samarali muloqot qilish uchun kommunikativ kompetensiyaning asosini tashkil etuvchi so'z boyligini oshirish vazifasi yuzaga keldi. Yevropada ham bu leksik kompetensiya-ga o'qitish masalasiga katta e'tibor berish boshlandi va tadqiqotlar olib borildi [3].

Gid-tarjimonlar sayyohlar bilan til sohiblari darajasi-da muloqot qilishi uchun ma'lum miqdordagi leksika

(lug'at)ni o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Biz til o'rganuvchilarning "Chet tilda gapira olish uchun nechta so'z yodlash va qanday yodlash kerak?" degan savollariga javob berishimiz kerak.

Kuzatishlarimizdan ma'lumki, kollej o'quvchilariga so'zlarni o'rgatish jarayoni ancha qiyin masala. Buning sabablari:

1) maktab davrida olingan bilimlarning yetarli emasligi;

2) bir sinfda turli bilim darajasidagi o'quvchilarning o'qishi;

3) bir sinfda ingliz tilidan boshqa tillarni o'qigan o'quvchilarning o'qishi.

L2 lug'atini o'rganish yangi konseptual tizimni o'rganishni ham, ikkinchi lug'at tarmog'i – ikkinchi aqliy leksikonni yaratishni ham o'z ichiga oladi [4]. Masalan, ingliz tilida gapiruvchi mamlakatga xizmat safariga va universitetga o'qishga boradigan shaxslarga ingliz tili lug'atini turli miqdorda bilish talab etiladi. Demak, qancha lug'at yodlash ehtiyojidan kelib chiqadi.

Yangi so'zlarni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirishlari yordamida aniq (ongli ravishda) yoki ongsiz ravishda davom etishi mumkin, bu tilni bilish, masalan, turli matnlarni tushunib o'qish orqali osonlashadi.

1-rasm.

2-rasm.

O'qituvchining vazifasi – o'quvchilarga kerakli ma'lumotlarni yetkazish va ularning kontekstidan so'zlarning ma'nosini aniqlash strategiyasi haqida xulosa qilish [5].

Donesch-Jezo yozishicha, 2000 so'zni o'zlashtirgan holda o'quvchilar turli matnlarni tinglash yoki o'qish paytida past chastotali so'zlarni *implicit* (aniq bo'lmagan) egallashi, shuningdek, so'zlarning ma'nosini kontekstdan osonroq aniqlashi mumkin [5]. Bu so'zlarning qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga o'tishiga yordam beradi. R.Schmidt o'quvchi turli mashqlar va vazifalarni bajarishda qanchalik so'zlarni "boshqarishni bilsa", uning uzoq muddatli xotirasi shuncha mustahkamlanadi, deydi [6]. Biz taklif qilayotgan korpora orqali o'qitishda so'zlarni yodlash oson bo'lib, matnlarning tahlili o'quvchilarga ko'p so'zlar tahlilini o'rgatadi. Korporada matn tahlilida so'zlar yashil rang ko'p asl ingliz tilida uchraydigan so'zlarni bildirsa, sariq rang bilan ajratilgan so'zlar akademik ingliz tilida foydalanilmasligini bildiradi.

Quyida korpus haqida tushintirishlar beramiz. Shunday qilib korpus nima?

Korpus (ko'plikda = korpora) – kompyuterda saqlangan yozma yoki og'zaki matnlar to'plami. Bu bir so'z yoki iboraning turli ro'yxatlar bo'yicha haqqoniy tilda gapiruvchilar tomonidan kontekstda qanday ishlatilishini aniq ko'rsatishdir. Ular ko'p maqsadlarda:

- leksikograflarga lug'atlar, grammatikaning ma'lumotnoma materiallari, grammatikaning amaliyoti materiallari va imtihon amaliyoti testlarini yaratishda;
- o'qituvchilarga lug'atni, idioma, iborali fe'llar va kollokatsiyalarni (tanlangan so'z bilan birga ishlatiladigan boshqa so'zlar) o'qitish vositalarini ishlab chiqishga yordam berishda;
- so'zning haqiqiy ishlatilishini tushunishni istagan ikkinchi tilni o'rganuvchilar tomonidan umumiy til malakalarini oshirish va so'z boyliklarini kengaytirishda;

- uni ko'proq o'rganishdan manfaatdor har bir kishi tomonidan ishlatiladi [7].


Bugungi kundagi eng yetakchi korpuslar – Corpus of Contemporary American English <https://www.english-corpora.org/coca/> va British National Corpus (BNC) - English corpora <https://www.english-corpora.org/bnc/>. Xo'sh ular bilan qanday ishlanadi va ular tilni o'rganuvchilarga nima beradi?

1) Ushbu saytlardan foydalanish uchun <https://www.english-corpora.org/> saytiga kirib, "my account" bo'limidan elektron pochta kiritib ro'yxatdan o'tish shart, ro'yxatdan o'tilmasa, bu korporada ishlab bo'lmaydi (1-rasm).


2) Saytga kirish uchun mufavvaqiyatli ro'yxatdan o'tgandan so'ng ekranda quyidagi ko'rinishdagi fayl ochiladi (2-rasm):

Saytdan foydalanuvchining ismi sharifi, ish joyi, dav-


3-rasm. Corpus of Contemporary American English




4-rasm



5-rasm



6-rasm



7-rasm

lati ko'rsatiladi. *Academic* yoki *premium* litsenziyaga ega bo'lish lozim. Agar universitet ma'lum miqdorda pul to'lamasa, har 10–15 ta murojaat va 200 ta qidiruvdan keyin *premium license* oling degan xabar keladi va korporaga kirish cheklanadi.

Korporaning turizm kollejlari o'quvchilariga so'zlarni o'rgatishdagi o'zni quyidagicha. Corpus of Contemporary American English (COCA) bo'limiga kirilsa, u yerda quyidagi fayl ochiladi (3-rasm):


U yerga, masalan, qidirmoqchi bo'lgan *tourism* so'zi kiritiladi. Ko'rinib turibdiki, turizm so'zi 236298 marta uchraydi. Bu ekranda ishlashning qulayligi u "turizm" so'zining kontekstda (Context) qanday kelishini, turli tillardagi tarjimasini (Translate (Uz)), turizm to'g'risidagi rasmlarni (Image), videolarni (pron/video), kitoblarni (Book) ko'rsatib turadi. Kerakli sohani topib, ishlayveriladi (4-rasm).

Turizm so'zining ustiga bosilsa, uning qayerlarda ishlatilganligi ko'rinadi. Masalan, 1985–1994-yillardagi "The Daily Mirror". London: Mirror Group Newspapers, 1992, 9942 s-units gazetasidan olingan parchani ko'rish mumkin (5-rasm).


Quyida esa turizm so'zining jami (all) 1410 marta ishlatilganligini, shundan nutqda (spoken) 1410, kinoda (fiction) 24, jurnalda (magazine) 128, gazetada (news-paper) 226, akademik bo'lmagan holatda (non-academic) 452, akademik (academic) 99, boshqalarda (miscellaneous) 440 marta ishlatilganini ko'rish mumkin (6-rasm).

O'quvchilar so'zlar bilan ishlashni o'rgangandan so'ng matnlar bilan ishlash va ularni tahlil qilishni o'rganishadi. Bu jarayon ularga ko'plab yangi so'zlarni yodlash va haqiqiy inglizlardek muloqot qilishlariga yordam beradi. Buning uchun biz "*I am a guide interpreter*" nomli turizm kollejlari o'quvchilariga mo'ljallangan o'quv qo'llanmadagi matndan bir parchani tahlil qilib ko'ramiz. Matn tahlilga berilgandan so'ng u ranglar bilan ajratilgan holda ko'rinadi. Ko'k rang ingliz tilida tez-tez ishlatiladigan so'zlarni bildiradi. Masalan, *should have* eng ko'p ishlatiladigan 500 ta so'zga mansub. Bizning matnda 44% so'zlar akademik ishlatiladigan so'zlar qatori-ga kiradi.

Yashil rang o'rtacha ishlatiladigan 12% so'zni va sariq rang kam ishlatiladigan 22% so'zni bildiradi. Matnda



8-rasm



9-rasm

tourizm so'zi kam – 2 marta, *professional* so'zi o'rtacha – 2 marta, *the* artikli eng ko'p – 14 marta ishlatilganigini ko'rish mumkin (7-rasm).

Endi shu matndan *turizm* so'zining ustiga bosib uning sinonimlarini, topiklarini, kollokatsiyalarini, unga tegishli so'zlarni ham tahlil qila olamiz (8–9-rasmlar).

Qisqacha aytganda, korpus lingvistikasi tabiiy ravishda yuzaga keladigan til (korpora)ning katta, qat'iy ma'lumotlar bazalarini tahlil qilish uchun kompyuter texnikasi yordamida foydalanishga asoslangan ti o'rgan-

ish yondashuvidir. Tilning real hayotda ishlatilishini ifodalovchi tavsiflarni olish uchun korpus tilshunoslari o'zlarining tahlilini kompyuterda saqlanayotgan matnlarning katta to'plamlariga asoslaydilar [8].

Korporadan foydalanib ingliz tilidagi bilimlarni rivojlantirish chet tillarni o'qitishda olib borilayotgan amaliyotdan foydalanishni taqozo etadi. Biz tahlil qilmoqchi bo'lgan korpora orqali so'zlarni o'rganish va o'qitish bo'lajak gid-tarjimonlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabragi PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-may 312-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. Coady J., Huckin T. Second language vocabulary acquisition. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997.
4. Saville-Troike M. Introducing second language acquisition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
5. Ewa Donesch-Jezo. Using language corpus in teaching foreign language vocabulary // International Multidisciplinary e-Journal, 2013, II, pp. 11-25.
6. Schmidt R. The role of consciousness in second language learning // Applied Linguistics, 11, pp. 129-158.
7. <https://textinspector.com/help/british-national-corpus-bnc/>
8. [https://www.tesol.org/read-and-publish/journals/other-serial-publications/compleat-links/compleat-links-volume-2-issue-3-\(september-2005\)/corpus-what](https://www.tesol.org/read-and-publish/journals/other-serial-publications/compleat-links/compleat-links-volume-2-issue-3-(september-2005)/corpus-what).

Abdurazzoq QO'CHQOROV,

Farg'on aviloyati, Dang'ara tumanidagi 11-umumiy o'rta ta'lim maktabi faxriy
ona tili va adabiyot o'qituvchisi, O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi

“LEKSIKOLOGIYA” GRAMMATIK KOMPOZITSIYA TADBIRINI O'TKAZISH

Ona tilining “Leksikologiya” bo'limini o'quvchilar ongiga singdirish jarayoni o'qituvchidan katta mahorat, tajriba, ijodkorlikni talab etadi. So'zlarning eng nozik qirralarini o'quvchilarga ochib berish, ularning bir-biriga yaqin va farqli tomonlarini ajrata olish ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish uchun o'qituvchi tinimsiz izlanishi, mahorat va ko'nikmalarini shakllantirib borishi lozim.

Tajribalar asosida maktabda “Leksikologiya” grammatik kompozitsiyasini o'tkazish xususidagi o'z fikr-mulohazalarimizni bayon etamiz. Tadbir “Yosh tilshunos” to'garagi a'zolari tomonidan o'tkaziladi. Tadbir o'tkazilishidan ikki oy avval “Yosh tilshunos” to'garagi a'zolari va o'quvchilar tadbir rejasi bilan tanishtirilib, bu bo'lim bo'yicha o'qib, o'rganib tayyorgarlik ko'rib borish lozimligi uqtiriladi.

Belgilangan kun faollar zali barcha talablar darajasida zarur jihozlar bilan bezatiladi. “Ilmiy-uslubiy adabiyotlar”, “Badiiy adabiyotlar olamida”, “Xalq og'zaki ijodi namunalar” kitob ko'rgazmalari, “Leksikologiya”, “O'zbek tilining lug'at boyligi”, “So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari”, “So'zlarning sehrli qanoti”, “So'z ko'rki – maqol”, “So'z haqida so'z”, “Tilimiz – boyligimiz” kabi ko'rgazma vositalari, “Yosh tilshunos”, “Yosh adabiyotshunos” devoriy gazetalarning maxsus soni qo'yiladi.

Tadbir “Tilshunos” va “Savodxon” guruhlar o'rtasida musobaqa tarzida o'tkaziladi. Hakamlar hay'ati tomonidan nazorat qilib boriladi. O'quvchilarga namoyish etiladigan ko'rgazmalar kartonga yozilgan holda yoki ekran orqali namoyish etiladi. Kompozitsiya qismlari kuy-qo'shiqlar, raqslar, sahna ko'rinishlari bilan uyg'unlashtirilsa yanada qiziqarli va jozibador ko'rinish kasb etadi.

Boshlovchi: Hurmatli ustozlar, aziz mehmonlar, o'quvch-yoshlar! Sizlarning e'tiboringizga “Yosh tilshunos” to'garagi a'zolari tomonidan tayyorlangan “Leksikologiya” grammatik kompozitsiyasini namoyish etamiz.

So'zlar yozar qanotin,
Jilolanar, tovlanar.
Bayon aylab sir-sehrin,
Qalblarda lov-lov yonar.

Leksikologiya:

Harflar qiyofasidagi o'quvchilar davraga chiqib,
she'riy satrlarda “Leksikologiya”ning sir-sinoatlarini

bayon etadilar.

L: “Lexikos” yunoncha bu so'z demakdir,
“Logos” deganidir zarur ma'lumot.

“Leksikologiya” bo'ladi hosil,
Bag'ri so'zga to'la, tengsiz ma'lumot.

E: Ellarda ming-minglab turfa tillar ko'p,
Tovusday tovlanib sochadi yog'du.

O'zbek tilin o'rni beqiyosdir xo'p,
Jahon minbarida yangraydi mangu.

K: Kam emas har bitta so'zning qiymati,
Ezgulik urug'in ekib urar bong.

Jaranglar madhiya jo'shqin sadosi,
Dunyo kezib tinmas har lahza, har tong.

S: So'zlar qator-qator kelib bo'lsa jam,
Tilimiz boyligi-so'zning sandig'i.

Tengsiz xazinaga tilni to'ldirar,
Har bir so'zning bordir nurli qo'shig'i.

I: Ilmlar sari olsang agar nurli yo'l,
Qanot qoqib so'zlar ochar qulochin.

Do'st tutinsang sirlarin ochar,
Misoli quyoshdek sochar ziyosin.

K: Kaliti har bitta ajoyib so'zning,
O'qishu o'rganish qunt-la tinimsiz.

Sehrini sochadi tashna dillarga,
Ato etar darmon, kuch-quvvat cheksiz.

O: Oqillar so'ziga quloq tut har dam,
Har bitta o'giti qalbingga malham.

Yuragin yoquvchi do'stga bo'l hamdam,
Bag'ring butun qilar, bo'lmaysan hech kam.

L: Labingdan uchmasin aslo hech mahal,
Nojo'ya, besamar, beibo bir so'z.

Atridan dimog'lar yayrasin, kulsin,
Asil so'zdan ajib guldastalar tuz.

O: Olam xazinas misoli zarhal,
Yangi-yangi so'zlar kelar quyulib.

Tilning chiroyiga beradi sayqal,
Qanotiga sirli yulduzlar taqib.

G: Gullarning shohida sayraydi bulbul,
Har so'zin sehridan eriydi ko'ngil.

Mayin sabolarning xush navosidan
Shodliklar jam bo'lur gulshanda butkul.

I: Insonlik kitobin o'qi, erinma,
Mehribon ustozning qo'lini tutgin.

Odob bo'stonida tinma, sayr ayla,
Yaxshilar izin bos, yo'lini tutgin.

Y: Yashnaydi tinimsiz, u mehriyogi,

So'zlar olamida kezaman tinmay.
Sehru nag'masiga bo'lib mahliyo,
Quvonch jilo sochar muattar gulday.
A: Ajdodlarning buyuk, boqiy mersin,
O'qib-o'qib tinmay dilga joylaymiz.
Bilimlarning tubsiz bahrida suzib,
Ona yurt ishiga belni bog'laymiz.

Boshlovchi: Navbat olib galma-gal,
Ular jo'shib so'zlaydi.
Orom berar dillarga,
Go'zallikni ko'zlaydi.

Sinonimlar: Sinonimman puxta bil,
Bir ma'noli degani.
Shakllarim xilma-xil,
Bildirgum bir ma'noni,
Boshqa-boshqa so'z ular,
Nozik ma'no farqi bor.
Bir-biriga ma'nodosh,
Har bittasi ham darkor.
Ma'nodoshlar jamlansa,
Sinonimlar qatori.

Ma'no nomdor, faol so'z,
Bosh so'zdir-so'z sardori.
Osmon, samo, ko'k, falak,
Tinch,osuda, sokindir.
Xalq, xaloyiq, el, ulus,
Ahil, inoq, totuvdir.

Har bir so'zni o'rnida,
Adashmay qo'lla doim.
Yozma ishda, ijodda.
Nutqing silliq, muloyim.

Omonimlar: "Homos " bir xil degani,
"Onuma" - nom sanalar.

So'z ma'nosi har turli,
Omonim deb atalar.
Yoz g'animat yerni hayda, donni soch,
Keksalik kelmay, oqarmay boshda soch,
Qushchalar bog'ingda yayrab sayrasin,
Eng go'zal qushdir chug'urchuq ichra soch. (Habibiy)
Soch-sochmoqdir rizqu zar,
Soch-boshdagi o'sgan mo'y.
Soch-go'zal qush, maftunkor,
Har so'z o'zga xush, chiroy.
Sharqning nazmida tuyuq.
So'z mag'zini sayratar,
Omonim-la u buyuk,
O'qisang dil yayratar.

Antonimlar: "Anti" – ziddir grekchada,
"Onuma" – nom degani,
Qarama-qarshi so'zman,
Antonim atar meni.
Katta-kichik, baland-past,
Yaxshi-yomon, do'st-dushman,
Oq-u qora, rost-yolg'on,
Kecha-kunduz, yer-osmon.
Ma'no o'zga, so'z o'zga,

Farqi boshqa har birin.
Antonimlar bu so'zlar,
Yuklar zidlik ma'nosin.
Antonimdan ba'zida,
Yangi so'z ham tuzilar.
Juft holatda kelishib,
Chiziqcha-la yozilar.

Paronimlar: Talaffuzim yaqindir,
Boshqachadir ma'noim.

So'zlar o'zga, farqlidir,
Nom berishgan paronim.
Azim-katta, azm-qaror,
Bop loyiqdir, bob-bir qism.
Sof tozadir, saf-qator,
Bol asaldir, bal-sho'x bazm,
So'zlaganda, yozganda,
So'zlarga ber e'tibor,
Gar noo'rin qo'llansa,
Fikring bo'lar bemador.

Yangi paydo bo'lgan so'zlar:

Kirib kelib ochgan yuz,
Yangidan iste'molga,
Yangi paydo bo'lgan so'z,
Qo'yilgan ko'z uzukka.
Planshet, sayt, monitor,
Klaviatura, virus.
Vunderkind, shou, xaker,
Fleshka, antivirus.
Lug'atda xos o'rni bor,
Yangilikka eltadi.
Xizmat uchun shay, tayyor,
Magnit kabi tortadi.

Tarixiy va arxaik so'zlar:

Tilimizda ma'lum vaqt,
Bo'lishgandir bir safda.
Tarixiy so'z atalar,
Hozir yo'qdir qatorda.
O'z o'rmini bo'shatib,
Almashingan bir so'zga.
Arxaik so'z sanalar ,
Kam qo'llanar amalda.
Degrez, hojib, madrasa.
Payg'om, gisu, handasa.
Sovut, paykon, dubulg'a.
Tarixiy, arxaik so'z-da.
Tarixga xos asarda,
Har birining o'rni bor.
Voqealar rivojin,
Bayonida xo'p darkor.

Terminlar: Fanlar yoki kasb-hunar,
Aniq, tiniq ma'nolar,
Ifodalab u so'zlar,
Termin deya atalar.
Qo'lanishga mos ular,
Ikki turga bo'linar.
Biri ilmiy terminlar,
Biri kasbiy terminlar.

Yaxshining so'zi - qaymoq,

Yomonning so'zi-to'qmoq.

Halol pishib chiqar,

Harom teshib chiqar.

Achchiq savol berib,

Shirin javob kutma.

6. Ko'z **qo'rqqoq**-qo'l **botir**.

7. Jahl –**dushman**, aql-**do'st**.

8. Oyning o'n beshi **qorong'i**, o'n beshi **yorug'**.

9. Bir **kattaning** gapiga kir, bir **kichikning** gapiga.

10. **To'g'ri** bola o'stirsang,

El ichida sher bo'lar.

Egri bola o'stirsang,

Ikki ko'zi ko'r bo'lar.

Boshlovchi: Mana, so'zlar qatori,

Har bittasi jilvakor.

Topib bir-bir sinonim,

Marjon tizing betakror.

1. Odam (Odam, odamzod, kishi, inson, kimsa, bashar).

2. Xat (Xat, maktub, noma).

3. Xursand (Xursand, xushvaqt, shod, xurram, xushnud, masrur, sarafroz).

4. Yuz (Yuz, bet, aft, bashara, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor).

5. Shamol (Shamol, shabada, yel, sabo).

6. Abadiy (Abadiy, mangu, umrbod, toabad)

7. Baxt (Baxt, iqbol, tole, saodat).

8. Rost (Rost, to'g'ri, chin, haq, haqqoniy, ochiq).

9. Tez (Tez, ildam, jadal, shitob, shahd, zud).

10. Chopqir (Chopqir, chopag'on, yuguruk, uchqur).

11. Qobiliyat (Qobiliyat, layoqat, iste'dod, talant, salohiyat, uquv).

12. Chiroyli (Chiroyli, go'zal, husnli, xushro'y, ko'hlik, ko'rkam, barno, suluv, zebo, latofatli, sohibjamol)

Boshlovchi: Shoirlarning nazmidan,

Tuyuqlarning bazmidan,

Omonimlarni toping,

Ma'nolarini ayting.

Shoirlarning tuyuqlaridan namunalar namoyish etiladi. O'quvchilar ulardagi omonimlarni topib, ma'nolarini izohlab beradilar.

Uyimda kunduzi vaqt edi choq **tush**,

Yotib uyqumda ko'rdim bir ajib **tush**,

Qo'pol do'q qildi bir mansabga mag'rur,

Dedim, o'pkangni bos, bir parda past **tush**!

Kelur sel ko'kda bo'lsa goho **chaqmoq**,

Zarar qilgay danakni tishda **chaqmoq**.

Yomondir ikki o'rmoq o'rtasida -

Urishtirmoq uchun bir-biriga **chaqmoq**. (Habibiy)

Yigitlarning mardiyatini maydon aro **ot**,

Undan qolur el-u yurtida mudom yaxshi **ot**.

Ona -Vatan qurol berur-tinchlikni deya,

Aytur unga yov kelganda ko'krigidan **ot**! (H. Yahyoyev)

Toshni kesa olmas pichoqning **dami**,

Pok tanga o'tmaydi saraton **dami**.

Ilm va hunarga bag'ishla o'zni,

G'animat yoshlikning har o'tgan **dami**. (A. Shukurov)

Osh berur, kim ish bilan to'ydirsa **yer**,

Ishlamas kim qayga borsa dakki **yer**.

Ishlagan yayrab farovonlik bilan.

Yaxshi kiygay, yaxshi yurgay, yaxshi **yer**. (Habibiy)

Boshlovchi: Paronimlar berilgan,

Har birida o'zga sir.

Gaplar tuzing ulardan,

Izohlabon birma-bir.

1. Yod-yot, zamin-zomin, faqir-paqir, ahl-ahil, qullik-qulluq, borlik-borliq, qiymat-qimmat.

2. Gaz-g'oz, juda-judo, da'vo-davo, sher-she'r, hol-xol, uchmoq-o'chmoq.

Boshlovchi: Qator-qator savol ber,

Javob aylaydi ustoz.

Amal qilgin har nafas,

Elda topgin ming e'zoz.

O'quvchi: So'zning nozik qirrasin,

Qiynalaman bilmasdan.

Kamalakday jilosin,

O'rganay ayting qaydan?

O'qituvchi: Sinonimlar zanjirin,

O'qi, o'rgan, bilib ol.

Nozik sir-sinoatin,

Yuragingga tizib ol.

Lug'atlarning sandig'in,

Varaqlagin erinma.

Badiiy ijod gulshanin,

Durin tergin hech tinma.

O'quvchi: Bir so'zning ming jilosin,

Bilolmayman chin dildan.

Qaydan topay kalitin,

Maslahat olay kimdan?

O'qituvchi: She'riyatga dil ochgin,

Tuyuqlarni yod olgin.

Omonimning bil sirin,

Tafakkurga joylagin.

Omonimlar lug'atin,

Bir-bir kuzat, nazar qil.

Chaqqin uning to'q mag'zin,

Har birining farqin bil.

O'quvchi: Talaffuzi, yozuvi,

Yaqin so'zlar qiynaydi.

Qanday qilay harakat?

Ular sirin ochsaydi.

O'qituvchi: Lug'atlarni bilib boq,

Paronimdan marjon taq.

Matbuotga, ijodga,

Mehr qo'ygin, kulib boq.

Ber har so'zga e'tibor,

Nozik farqqa sol nazar.

Chappa aytma, to'g'ri yoz,

Mazmun chekmas g'am, ozor.

O'quvchi: Kosa tagi nimkosa,

Iboralar juda ko'p.

Tilsimini ochmoqqa,

Qaydan topay yo'riq xo'p?

O'qituvchi: Iboralar g'aznasin,

Tinim bilmay ovlagin.

Donishmand bobo, buvin,

Gap xaltasin kovlagin.

Xalq og'zaki ijodin,

Namunasin o'qib bil.

Oqillar so'z gavharin.

Xotirangga payvand qil.

Boshvovchi: "Leksikologiya" mavzusidagi gram-

matik kompozitsiyamiz ham nihoyasiga yetdi. Sizlar bu tadbirdan ilmiy-uslubiy, ma'naviy jihatdan ozuqa olgan bo'lsangiz biz g'oyatda mamnunmiz. Barchangizga tashakkur!

Tadbir yakunida faol o'quvchilar faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar. O'tkazilgan tadbir o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq qobiliyatlarini o'stirish, so'z va uning nozik qirralarini o'quvchilar qalbiga puxta singdirish, badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnallar, oynayi jahon ko'rsatuvlari, radio eshittirishlariga qiziqish va mehr-muhabbatlarini shakllantirishda ham yaxshi samaralar beradi.

Aziza HUSENOVA,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI TA'LIM JARAYONI SUBYEKTI SIFATIDA

So'nggi yillarda xalq ta'limi tizimi, xususan, umumiy o'rta ta'limning poydevori bo'lgan boshlang'ich ta'lim sohasi yangi bosqichga ko'tarildi. Buning tasdig'i sifatida 2022–2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmonga muvofiq maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, Rivojlantirish dasturining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilab olindi:

maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish;

jamiyatda o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag'batlantirish;

o'qituvchilarning yoshlarga ta'lim va tarbiya berishdagi mas'uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg'or maktab direktori va namunali o'qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yo'nalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yo'lga qo'yish, bola ta'lim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning o'rnini oshirish;

o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning xalq ta'limi tizimiga integratsiyasini kuchaytirish hamda inklyuziv ta'lim jarayonlarini jadallashtirish;

umumiy o'rta ta'limda barcha ma'lumot almashinuvi jarayonlarini Xalq ta'limi tizimini boshqarishning yagona dasturiy majmuasi orqali amalga oshirilishini hamda ushbu sohada elektron davlat xizmatlari ko'lamini kengaytirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarining navbatlilik koeffitsiyentini optimal darajaga yetkazish, zamonaviy modellar bo'yicha maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash hamda zarur jihozlar bilan ta'minlash.

Pedagogik jarayonning mohiyati o'qituvchi hamda o'quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o'quvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi.

Pedagog axborotlarni e'lon qilish, ko'rsatish, eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo'naltirish, haqqoniy lashtirish, kengashish, bartaraf yetish, hamdardlik qilish, ilhomlantirish, qiziqish va hurmatni izhor qilish, talabchanlikni qo'llab-quvvatlash kabi ko'rinishlarda yordam beradi.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari majmuaviy integral (butun, uzviy bog'liq) tizim bo'lib, unda ta'lim maqsadlari asosida bedgilangan ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ularda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash-

ga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma'lum tartibga solingan to'plami sifatida aks etadi.

Bu o'rinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?), mazmunni tanlash va ishlab chiqish (nima?), ta'lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday?), ta'lim metod va vositalarining belgilanishi (nimalar yordamida?), shuningdek, o'qituvchilar malaka darajasi (kim?), erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo'l bilan) inobatga olinishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy tarzda qo'llanilishi o'quv jarayonining mohiyati va texnologiyasini belgilab beradi. Ta'lim texnologiyasini loyihalash jarayonida pedagogik vazifaning qo'yilishi va uni hal etishga alohida e'tibor berilishi zarur.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning bilim darajasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik bilim tushunchasi pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo'lish degan xulosaga kelinadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tarbiyalashda yangi avlod "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarining roli beqiyosdir. Ushbu darsda avvalgi darsliklardan farqli ravishda o'quvchi ijodiy tafakkurini yuksaltirishning hamda o'qituvchi-o'quvchi hamkorligining quyidagi jihatlari ko'zga tashlanadi:

O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat.

Avvalgi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilgan edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar mavjud.

Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning

grammatikasini o'rgatish, til strukturasiga oid qoidalar-ni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan. Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham ishlab chiqilgan.

Eski darsliklar til strukturasini o'rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasidan ko'ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinlari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan.

Amalda bo'lgan darslikdan o'rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo'lishidan ko'ra, didaktik ahamiyatiga urg'u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan.

Darsliklardagi tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohsiz qoldirilgan edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan.

Tayyorlangan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rinlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi. Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan, og'zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan.

Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Ma'lum mavzu doirasida asotsiativ tasavvur darajasidan og'zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so'z qo'llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida pedagogik jarayonning mohiyati o'qituvchi hamda o'quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog bevosita jarayonning boshqaruvchisi bo'libgina qolmay, o'quvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. O'quvchi esa mazkur jarayon subyekti sifatida mustaqil ravishda qarorlar qabul qila oladi hamda matn qiyin tafakkurini rivojlantirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni.
2. Azimova I. va boshqalar. 2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi(1-2-qismlar) T.: Respublika ta'lim markazi, 2021. –240 b.
3. Azimova I. va boshqalar. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma – T.: Respublika ta'lim markazi, 2021. –128 b.
4. Khomeriki OG Education, science and culture in the global information space. – M.: Perspective, 2008. – 152 p.
5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari portal: www.lex.uz
6. <https://yuz.uz/uz/news/maktablarda-ona-tili-va-oqish-savodxonligi-deb-nomlangan-fan-tashkil-etiladi>

Adiba BEKCHANOVA,
Xorazm viloyati Urganch shahar 18- sonli
umumta'lim maktabining o'zbek tili fani o'qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA MATN BILAN ISHLASHNI O'RGANISH

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, savodxonlik, asosan, o'qish tajribasi orqali shakllanadi. Ko'proq matn bilan ishlash kerak.

Matnlar har qanday ma'lumotni yozib olishga imkon beradigan yozma hujjatlardir. Biroq uning mazmunini to'g'ri talqin qilish uchun har bir matnning har xil turga javob berishi aniq bo'lishi kerak, demak u o'ziga xos maqsadlar va tarkibiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Ona tili darslarida o'quvchilarga matnlar orqali topshiriqlar berish o'quvchini izlanuvchan, zehni o'tkir qiladi. Matn ustida ishlash darslarida bir matn orqali turli xil topshiriqlar berish mumkin. O'quvchilar ona tili darslarida matn bilan qancha ko'p ishlasalar imlo xato qilmaydilar, ko'p badiiy asar o'qigan o'quvchi o'zidan o'zi xatosiz yoza oladi. Matn tuzganda ham so'zlarni to'g'ri qo'llay oladi, kelishiklarni ham o'z o'rnida ishlata oladi. O'quvchilar badiiy, rasmiy, publitsistik va ilmiy-ommbop uslubdagi matnlar bilan ham ishlasalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Ona tili darslarida quyidagi ikki badiiy uslubdagi matnni va u bilan qanday ishlashni o'quvchilarga quyidagicha o'rgatish mumkin. Matn bilan ishlagan o'quvchilarda o'qib tushunish, tinglab tushunish, og'zaki nutq tuzish, yozma nutq tuzish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Oldin o'quvchilar matn bilan tanishtiriladi.

Topshiriq. Matn bilan tanishish.

Kichik qishloqda gap tez tarqaladi: emishki, baqqol tarozidan urib qolib, odamlarni aldayotgan ekan. Hammasi novvoyning qishloq qozisi oldiga shakar sotuvchi savdogar ustidan shikoyat qilib borishidan boshlandi. "Men undan pishiriq uchun har kuni yuz misqol shakar sotib olaman. Odatimga ko'ra, undan olgan shakarni ishlatishdan oldin tarozida tortdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, muttaha savdogar menga sotgan qadoqda yuz emas, sakson misqol shakar bor ekan. Bilasiz, pishiriqning mazali chiqishi uchun masalliq me'yorida bo'lishi kerak. Ammo u har gal shuncha shakar urib qolsa, men xonavayron bo'laman. Sizning oldingizga adolat istab keldim",- dedi jabrdiyda novvoy umidvor ko'zlarini qoziga tikkanicha.

Ko'p o'tmasdan nozirlar shakar sotuvchi baqqolni topib keldilar. O'ziga qo'yilgan ayblovni eshitgan savdogar avvaliga shoshib qoldi. Bir fursat o'tib, xotirjamlik bilan gap boshladi:

Oqil qozi janoblari, o'sha kuni odatimga ko'ra novvoydan tushlik uchun non olib, do'konga borgan edim. Aftidan, bolalar tarozini o'ynashgan ko'rinadi, uning yuz misqollik toshini hech qayerdan topa olmadim. Noiloj

tarozining boshqa pallasiga novvoy yuz misqol deb sotadigan o'sha nonni qo'yib, bir necha qadoq shakar o'lchashga majbur bo'lgan edim. Ammo bu holat faqat o'sha kuni sodir bo'ldi. Ehtimol novvoy olgan shakar ham o'sha kungi qadoqdandir.

Qozi biroz o'yga cho'mgach, novvoyning do'konidan bir nechta non keltirishlarini buyurdi. Keltirilgan nonlar o'lchab ko'rilganida ularning barchasi me'yoridan ancha yengil ekani ma'lum bo'ldi. Tegishli jazoni olgan novvoy qishloqdoshlari qarshisida uyatdan mulzam bo'ldi.

Matnni o'rganishda quyidagigi savollar o'quvchilarga beriladi va ularning fikri eshutiladi, keyin o'qituvchi tomonidan to'g'ri xulosalar beriladi.

Notanish so'zlarni belgilang;

Ma'nosini taxmin qilib ko'ring;

Lug'atdan izohini toping;

Ko'chma ma'nodagi so'z va birikmalarni aniqlang;

Yashirin ifodalangan ma'lumotni bormi, bo'lsa matndan belgilang;

Matnning umumiy mazmunini tushundingizmi?;

Matnni qismlarga ajrating.

O'quvchilar fikri tinglanadi va quyidagi topshiriqlar yozilgan tarqatmalar tarqatiladi. Bu tarqatmalarga o'quvchilar javob yozadilar.

I. topshiriq. Quyida berilganlar orasidan hikoyatga sarlavha tanlang va xulosangizni yozing.

1. 1Qilmish-qidirmish.

2. Savdodagi yolg'on barakani ketkazar.

3. Kim aybdor?

4. Yolg'onning umri qisqa.

5. Tarozi pallasidagi yolg'on.

II topshiriq. Matndagi tarixiy so'zlarni belgilang.

Baqqol, qozi, qadoq, misqol, nozir.

III topshiriq. Izohli lug'atdan ma'nosini toping.

Baqqol-a. - oziq-ovqat mollari, sabzavot sotuvchi mayda savdogar.

Qozi-a. - Musulmon davlatlarida hukmdor tomonidan tayinlanib, shariat asosida sud vazifasini bajaruvchi, sudya, shar'iy mahkama raisi.

Savdogar-f. "Savdo bilan shug'ullanuvchi kishi"-degan ma'noni anglatadi. Xususiy savdo- sotiq bilan shug'ullanuvchi, savdo- sotiqni kasb qilib olgan kishi.

Qadoq- qiymat jihatdan 1 funtga tang bo'lgan qadimgi og'irlik o'lchov birligi. (1 funt= 409,512g)

Misqol.a.-Qadimgi og'irlik o'lchov birligi: taxminan 4,24 grammga teng.

Nozir.a.- Bajarilayotgan ish harakatning to'g'riligini, mavjud qonun, qaror va nizomlarga rioya qilib amalga oshirilishini nazorat qiluvchi mansabdor shaxs.

III. Matnga mos keladigan maqol qaysi javobda berilgan.

1



3



2- matn.

Go'zal

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen,
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir:men uni tushda ko'ramen.
Tushimda ko'rganda, shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!

Ko'zimni olamaen oy chiqqan yoqqa,
Boshlaymen oydan-da seni so'rmoqqa.
Ul-da aytadir: bir qizil yanoqqa
Uchradim tushimda, ko'milgan oqqa.
Oqqa ko'milganda shunchalar go'zal,
Mendan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!
Erta tong shamoli sochlarin yoyib,
Yonimdan o'tganda so'rab ko'ramen.
Aytadir: bir ko'rib yo'limdan ozib,
Tog'-u toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko'rdim men uni- shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Ul ketgach, kun chiqar yorug'lik sochib,
Undan-da so'raymen sening to'g'ringda.

2



4



Ul-da o'z o'tidanbekinib, qochib
Aytadir: bir ko'rdim tushdama, o'ngda.
Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Men yo'qsil na bo'lib uni suyibmen,
Uningchun yonibmen, yonib-kuyibmen,
Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen,
Men suyib...men suyib, kimni suyibmen?
Men suygan suyukli shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Cho'lpon. 1919.

1-topshiriq. She'rdagi Go'zal obrazi nimaning ramzi?

- A. Odam timsoli.
- B. Mustaqillik ramzi.
- C. Baxt ramzi.
- D. Taqdir ifodasi.

2-topshiriq. Bu she'rda yo'qsil so'zi "kambag'al", "faqir" ma'nolarida kelgan.

To'g'ri.

Noto'g'ri.

3-topshiriq. Birinchi ustundagi topshiriqlarga mos javobni ikkinchi ustundan topib, strelka orqali belgilang.

1. Bu misrada shoir zulmat qo'ynida osmonga qarab, yorug' yulduzdan lirik qahramonni so'rayapti.	A. Ul-da o'z o'tidan bekinib, qochib Aytadir: bir ko'rdim, tushdama, o'ngda.
2. Bu misrada shoir subhidamda sochlari yoyilgan yeldan qahramonini so'rayapti.	B. Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib, Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen.
3. Bu misrada shoir o'z taftidan qochayotgan qahramonga yo'liqadi, u o'ngida bir marta ko'rganligini aytadi.	C. Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen, men suygan suyukli shunchalar go'zal.
4. Bu misrada shoir boshini zo'r ishga berib qo'yganligini, u suygan suyuklining shunchalar go'zalligini ta'riflaydi.	D. Erta tong shamoli sochlarin yoyib, Yonimdan o'tganda so'rab ko'ramen.

Uyga vazifa. Matn asosida rasm chizib kelish.

Dilrabo QUVVATOVA,
BuxDU professori, f.f.d.
Rahima SHARIPOVA,
NavDPI o'qituvchisi

RAUF PARFI SHE'RIYATIDA SHAMOL, BULUT, YOMG'IR, QOR RAMZLARI

Rauf Parfining ramziy-timsoliy fikrlash tarzi, ohorli tashbehlari, chuqur falsafaga yo'g'rilgan she'rlari yangi o'zbek adabiyotining nurli sahifasini tashkil etadi. Ayniqsa, shoir she'rlarida inson ruhiyati, qalb kechinmalari tabiat bilan uyg'unlikda aks ettirilishi muhim xususiyatdir. Adabiyotshunos D.Quronov obraz haqida fikr yuritir ekan, uning bir necha yangi tasnifini keltiradi: "Umumlashtirish darajasiga ko'ra badiiy obrazning yana adabiy madaniy an'analari doirasida muayyan turg'un shaklga aylanib, asardan asarga ko'chib yurish xususiyatiga ega bo'lgan motiv, topos, arxetip deb yuritiluvchi ko'rinishlari ham ajratiladi"[1, 111]¹. SHu ma'noda shamol, bulut, yomg'ir singari tabiat ramzlari shoir she'riyatida motiv obraz darajasiga ko'tarila oldi. Chunki bu obrazlar shoir she'riyatda tez-tez takrorlanib, yangi-yangi ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan:

Shivirlama menga, ey shamol, // Xuddi qalbim yonidan oqma.

Shivirlama menga, ey shamol, // Uzib yaproqlaringni otma.

Shivirlama menga, ey shamol, // Qayga olib borursan tag'in?

Shivirlama menga, ey shamol, // O'tmishlarning qora ertagin [2,80].

E'tibor berilsa, shamol she'rda kecha va bugunni bog'laguvchi rishta sifatida kelgan. Shoir shamolni tashxislantirar ekan, uning tabiatdagi vazifalaridan kelib chiqib, obrazlantiradi. Ma'lumki, shamol esganda, yaproqlar erga to'kiladi. Bunda ham tashxis bor. Ya'ni "yaproqni uzish" uning kuchli esishini bildirib tura. Qolaversa, keyingi bandda hayotiy falsafa yanada kuchayib boradi. Lirik qahramon shamolga "Qayga olib

borursan tag'in", – der ekan, insonning o'tib borayotgan umriga ishora qiladi. Shu bilan birga, shamol, shoir nazdida, kechagi kunni yodga soladi. Uning quloqqa xush yoquvchi holati insonning "shivirlash" harakati orqali jonlantiriladi.

Shovullaydi, shamol uvlaydi, // Na tinim bor, na uyqu unda.

Alamini yoza bilmaydi, // Shodligin ham etolmas udda [2,34].

Bunda shamolning esishi qish izg'irini bilan uyg'un holda bo'rtining uvlashiga qiyoslangan va shu asosda insonlashtirilgan. Sababi, tinim bilmaslik, uxlamaslik, alamini yoza olmaslik singari holatlarda buni kuzatish mumkin. Ya'ni shamol va inson ruhiyati uyg'unligi anglashilib turadi.

Derazamni chertadi u, // Tiqirlatar eshigimni.

Orom bilmas, bilmas uyqu, // Uyg'otadi kelib meni.

Sochlarimga qo'nar shamol, // Shamol qo'nar ko'zlarimga,

Qo'shiq, ertak aytib xushhol, // So'ngra qaytar izlariga [2,57].

Haqiqatan, bunda yoqimli shabada obrazi yaratilgan. SHamolning esishi yana tashxislantiriladi. Ya'ni "derazani chertish", "eshikni tiqirlatish" insonga xos. Yoxud uning tinmasligi ham inson holatlariga hamohangdir. Shoir shu tasvirlar orqali ko'klam shamolining xosiyatini, dillarga zavq berish fazilatini ta'sirchan ifoda etadi.

Shamol, avvalo, tabiat fasllariga mos ravishda turli ma'nolarni ifodalab keladi. Binobarin, ko'klam shamolidagi mayinlik, o'ziga xos ifor, o'ynoqlik lirik qahramon kayfiyati va ruhiyatini ko'taruvchi vosita sifatida ifoda

etilgan. SHamolning esishi bilan bog'liq ifodalar: qishda "uvlashi", bahorda "o'ynashi", "so'ylashi", "shivirlashi", kuzda "shovullashi" singarilarda bu obrazning lirik qahramon ruhiyatiga mutanosibligini, inson umri bilan bog'liqlik kasb etishini ko'rsatib turadi.

Rauf Parfi ijodida bulut ramziy ma'no ifodalab keladi: Kulrang bulut kezinadi jim, // Kulrang bulut o'xshar uyquga.

Kulrang bulut boshlaydi hujum, // Baqirib shivirlar ruhimga.

Nafaslari qisilib go'yo // Qaldirg'ochlar uchar er bo'ylab.

G'amgin-g'amgin ko'rinar dunyo – // O'ylarini qinyaydi o'ylab.

Kulrang bulut quladi oxir, // Parchalandi shu muallaq ko'l [2, 73].

Kulrang bulut to'dasi ko'lga qiyoslangan. Ko'l esa oqmaydi. Sokin turishi jihatdan kulrang bulut uyquga o'xshatilgan. Tabiat manzarasi lirik qahramonning mahzun kayfiyatiga mos. "Kulrang bulutning hujum boshlashi" (tashxis) – yomg'irning yog'ishiga ishora. Qolaversa, qaldirg'ochlar yomg'ir yog'ishini oldindan sezib, pastlab uchadilar. Bunday damda dunyo ham g'amgin ko'rinar. Kulrang bulutning qulashi yomg'ir bo'lib zamanga tushishini bildiradi. Bulutlarning parchalanishi esa ko'lning parcha-parcha bo'lgan holatini ko'z oldimizga keltiradi. Ko'rinar, shoir tabiatdagi holatlarga mutanosib yangi holatlarni topa olgan va lirik qahramon ruhiyatiga munosib tarzda ifodalab bergan.

Oppoq bulut izg'ir sarosar // Oppoq bulut sokin osmonda

Yo'llar oshar manzillar oshar, // Nelar bordir o'sha tomonda.

Oppoq bulut izg'ib yurar jim, // U erlardan nelar izlar ul!..

Bu choq osmon fikrimga hokim, // Dohiyona sukunatga – qul... [2, 68]

Bunda oq bulutning ikki xil holati ifoda etilgan: birinchisi, uning osmonda sarosar izg'ishi, ikkinchisi, ko'kda sokin turishi. Birinchi holatda bulutdan nimadir: qor, yomg'ir yog'ishi, ikkinchi holatda uni samoda muallaq turishi nazarda tutilgan.

Shoir ijodida ham yomg'ir obrazi turli ma'no tovlanishlariga ega. Uning "Yomg'ir emas, marvarid yog'ar" she'ri haqida adabiyotshunos N.Rahimjonov bu haqda shunday yozadi: "Yomg'ir – sharqona tasavvurlarga ko'ra – qut-baraka, ilohiy ne'mat, yaxshilik va ezgulik urug'i. Unga shoirlar o'z ruhoniylar holatlari, kayfiyatlariga monand ma'nolar yuklashadi" [3, 95]. Bu jihatdan shoirning "Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar" deb boshlanuvchi she'ri bu jihatdan e'tiborni tortadi.

Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar, // Tomchilar, tomchilar sochimga,

Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar, // Ham qayg'umga, ham quvonchimga... [2, 56]²

Yomg'ir, ayniqsa, shig'alab yog'ayotgan yomg'ir

lirik qahramonning goh mahzun, goh masrur kayfiyatini o'zida ifoda etadi. Sochlarga tomayotgan tomchilar uning qayg'usi va quvonchini ifodalab keladi. Q.Yo'ldoshevning fikricha: "...Shig'alab yog'ayotgan yomg'ir, yomg'ir tagida ruhi mahzun, goh xushnud turgan shoir, uning ham sochlariga, ham qayg'usiga, ham quvonchiga baravar tomchilayotgan yomg'ir tasviri qahramon ruhiy holatiga bezovtalik paydo qiladi....Shoir yomg'ir yog'ayotgani haqida xabar beribgina qolmay, balki u she'rxonning ko'ziga ko'rsatganiday, tomchilash jarayoniga jon ato etib qulog'iga ham eshittiradi" [4, 88]. Haqiqatan, yomg'ir ostida turgan nozikta b lirik qahramon ruhiyati aks etgan.

Qor obrazi ham shoir ijodida bir qator ramziy ma'no-lar kasb etgan. Z.Sohibovning fikricha, shoir ijodida "qor obrazi ko'p takrorlanuvchi obraz hisoblanadi" [5, 141]. Quyidagi misralar buni tasdiqlab turadi:

Oy suzadi. Muzlagan kecha.

Qor ufurar.

Tumanlarda bir yulduz muncha

G'amgin turar [2, 84].

Qor parchalari yuzga mayin uriladi. Shoir shu tabiat manzarasida go'zallikni tuyadi, xushbo'y iforlar ufuradi. Ya'ni shu go'zal holat qorga nisbatan qo'llanyapti. Bu qorning yog'ishidagi jozibani o'zida aks ettiradi. Qolaversa, bunda tuman ham tabiatning betakror hodisasi. Garchi she'riyatda bu obraz ko'proq salbiy ma'no ifodalaydi. Aniqrog'i, tuman tushishi natijasida allaqanday mavhumlik, qorong'ulik yuzaga keladi. SHu nuqtai nazardan tuman bu she'rda mahzunlik kayfiyatini ifodalab keladi. Lekin shunday vaziyatda ham shoir g'amgin yulduzni ko'rmoqda.

Aylanib tushar qor yo'limga,

Qo'lingni qo'ygil yor, qo'limga [2, 90].

Qish esa odatda, ayriliq ma'nosini ifodalaydi. Lirik qahramon ayriliqning sovuq nafasi kelmasdan turib, yorining qo'llariga talpinmoqda. Qor shu jihatdan ramziy ma'no kasb etgan.

Yo'q, ko'rishmaymiz, xayr endi, // Ortiq ko'rishmaymiz yuzma-yuz.

Sahrolarda sevgimiz qoldi, // Qor ostida qoldi sevgimiz.

Qor ostida qoldi sevgimiz, // Sho'rlik sevgi topmadi omon.

Yakka-yakka bo'ldi ismimiz, // Har xil yo'ldan ketdik har tomon [2, 78].

Muhabbat haqidagi yuqoridagi misralarda shoir ayriliq va qorni yonma-yon qo'yadi. Bunda muayyan mushtaraklik bor. Qor qancha chiroyli bo'lmasin, u qahraton sovuqlarni boshlab keladi. Ayriliq esa yolg'izlikka boshlaydi. Qolaversa, qor uyumi ostida qolgan nihol unmagani kabi ayrilgan sevgining yana qayta birlashishi ancha dushvordir.

Shu bilan birga, har bir xalq yoki elatning turish-turmushi, urf-odati, dunyoqarashi o'ziga xos, ular uzoq davrlar mobaynida shakllangan. Bu narsa hatto rang-

ga bo'lgan munosabatda ham namoyon bo'ladi. O'rta Osiyoda xususan, o'zbeklarda yorqin ranglarga ijobiy ma'no yuklanadi. SHular jumlasidan, oq rangga ham. Oq rang – ezgulik, soflilik, ma'sumlik, pokizalik belgisi sanaladi. Masalan, o'tmishda asir tushgan yoki engilgan qo'shin oq bayroq ko'tarishgan. Rauf Parfi ham shunga ishora qilib, oppoq qorga burkangan bog'ning ilohiy bir joziba baxsh etib turganligini ta'kidlamog'da.

Rauf Parfi ijodida yuz ko'rsatgan tabiat ramzlari obrazlari tahlili yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, shamol timsoli shoir she'riyatida kecha va bugunni bog'laguvchi rishta ma'nosini bildirib keldi. Qolaversa, har bir faslda esguvchi shamollar turli ramziyliklarni ifodalagan. Jumladan, ko'klam shamolin-

ing xosiyatli va dillarga zavq berish fazilati anglashilsa, kuz shamolida inson umrining tez o'tishi aks etganligi kuzatiladi.

Ikkinchidan, bulut obrazi shoir ijodida tez-tez takrorlanib kelishi nuqtai nazaridan motiv obrazlar sirasiga kiradi. Shu bilan birga kuz yomg'iri tasviri orqali shoir lirik qahramon qalbilagi "ismsiz hasrat"lar, uning goh mahzun, goh masrur kayfiyati, tabiatdagi sokinlik kabilar aks ettirganligini ko'rish mumkin.

Uchinchidan, Rauf Parfining lirik qahramoni qor-da ajib go'zallikni tuyadi, muhabbatdan ozorlangan ko'ngilni esa erimagan qorga qiyos etadi.

Demak, Rauf Parfi she'riyatida ifoda etilgan har bir tabiat hodisasi hayotiy, ramziy-timsoliy mazmun kasb etgan.

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr, 2018. –B.111.

2. Р.Парфи. Сакина: шеърлар—Тошкент: "Muharrir" nashriёti.2013. –Б.56.

Adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr, 2018.
2. Parfi Rauf. Sakina (she'rlar). –Toshkent: Muharrir, 2013.
3. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. –Toshkent: Fan, 2007.
4. Yo'ldoshov Q., Yo'ldoshova M., Badiiy tahlil asoslari. –Toshkent, 2016.
5. Sohibova Z. Zamonaviy o'zbek she'riyatida yil fasllarining ramziy-timsoliy talqinlari. Filol. fanl. bo'yicha fals.dokt.(PhD) dissertatsiyasi. –Buxoro, 2021.

Nodira Xolikova,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent

davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, f.f.n.

"YANGI YO'L" JURNALI: XOTIN-QIZLAR MA'RIFATI

Annotatsiya. Maqolada xotin-qizlarning "Yangi yo'l" jurnalida ayollar savodxonligi masalasiga oid maqolalari hamda Hamza, Cho'lpon singari jadid ma'rifatparvarlarining mavzuga doir asarlaridan parchalar keltirilib, tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: savodxonlik kursi, bilim yurti, bilimli murabbiya, Sobira Xoldorova, Ma'suma Qoriyeva

Milliy uyg'onish davri harakatining vujudga kelishi va jadidchilik g'oyalarining keng tarqalishida matbuot, shuningdek, nashr ishlari alohida o'rin tutgan. Bu davr publitsistikasining mavzu doirasi nihoyatda keng bo'lib, davriy matbuotning birlamchi vazifasi xalqaro munosabatlar, dunyoviy voqeliklar, ijtimoiy, siyosiy, diniy islohotlarni qamrab olishga uringan. Tabiiyki, davriy nashrlarning aksar hollarda mualliflari bo'lgan jadid ziyolilari o'lkaning ijtimoiy hayotiga ta'sir o'tkazish, yurtdoshlarining dunyoqarashi va saviyasini oshirish, xalqona aytganda, millat ko'zini ochishdan iborat edi.

XX asr boshida xotin-qizlar erki, ozodligi va savodxonligi, millat tarbiyasida ma'rifatli onaning darkorligi masalasi adabiyotda eng dolzarb mavzu, obrazga aylinishida matbuot hal qiluvchi maydon bo'lib xizmat qilgan. Boshqacha ifodalash mumkin bo'lsa, ijtimoiy hayotda faol ayol timsoli adabiy asarga matbuot daryosi bilan sizib bordi. Zero, urg'u beriladigan jihat shuki, o'sha

davrdagi yashagan onalarimiz, opa-singillarimiz savodxonlikka oid targ'ibot ishlarini va o'z g'oyalarini davriy matbuotda nashr etilishida tashabbuskor bo'lishdi. Bu harakat nafaqat Turkistonda, balki qardosh o'lkalarda ham o'z aksini topdi. Xususan, qozoq tilida "Ayal tandig'i" (1929), ozarbayjon tilida "Sharq qodini" (1924-1927), tatar tilida "Ozod xotin" (1927-1929) kabi jurnallar faoliyati ayollarning sa'y-harakatlari bilan yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu hodisa ularning tamaddun sari qo'ygan sobit qadamlaridan bo'ldi.

1930 yilga kelib "Yorqin turmush", 1941 yildan esa "Saodat" deb nomlana boshlagan o'zbek tilidagi ilk xotin-qizlarga bag'ishlangan jurnal "Yangi yo'l" edi. XX asr boshida o'zbek matbuoti anchayin rang-barang, dolzarb mavzudagi maqolalar, boz ustiga, rangin suratlariga boy bo'lganini birgina mazkur oynomadan bilib olsa bo'ladi. Avvalo, unda e'lon qilingan maqola, e'lon, xabarlar rukni xilma-xilligi bilan diqqatni tortadi:

“Siyosat”, “Maorif”, “Ta’lim-tarbiya”, “Kooperatsiya”, “Ishlab chiqarish”, “Huquq”, “Adabiyot”, “Tibbiy yordam”, “Uy-ro’zg’or”, “Xo’jalik ishlari”, “Pochta qutisi”, “Bizning turmush”, “Chet ellarda”, “Yoshlar”, “Sog’liqni saqlash”, “Fan va texnika”, “Kitobiyot”, “Ilm-haqiqat”, “Ilmiy suhbatlar”, “Sud va maishat”, “Bizga nima haqida yozadirlar?”, “Har tomondan”, “Qurama”, “Yangi yo’l” idorasiga savollar”, “Boshqarmadan javob va maslahatlar” “Kelgan maslahatlar”, “Kelgan xatlardan”, “Aralash-quralash”, “Undan-bundan”, “E’lon va bildirishlar”.

Mazkur ruknlar ostida e’lon qilingan maqolalarning ijtimoiy hayot, mavjud shart-sharoit, ehtiyojidan kelib chiqqani hisobga olinsa, eng ko’p murojaat qilingan mavzu xotin-qizlar savodxonligi va ma’rifati masalasiga borib taqalgani ko’rinadi: “Savodsizlikni bitirishda yangi kuchlar” (Nafisa, 1926, №5, B.15), “O’lka o’zbek xotin-qizlar bilim yurti” (Rahimova Xosiyat, 1926, №5, B.21-22), “Xotin-qizlar uchun hozirliq qurslari” (1926, №7-8, B.22), “Bolalar tarbiyasi to’g’risida zarur maslahatlar” (O’zbek qizi, 1926, №4, B.26), “Xotin-qizlar klubi va uning vazifalari” (A.J., 1927, №1, B.33), “Chaqaloq tarbiyasi va onalar vazifasi” (Maryam Murod qizi, 1927, №10-11, B.30-31), “Xotin-qizlarni qaytadan tayyorlash kursi” (Maryam, 1927, №10-11, B.40), “Savodsizlar kursi: (Samarqand Eski shaharida savodsiz ayollar uchun 6 oylik “Xat-savod” kursi ochilgan)” (Mirxo’jayeva, 1927, №12, B.25), “Toshkent o’lka xotin-qizlar yurti” (R.Nosir qizi, 1927, №8, B.19-20), “Bizga sog’lom ona va bolalar kerak” (Abdullayev, 1928, №2, B.15-16), “Onalik – xotinning ijtimoiy vazifasidir” (Sayfulmuluk I., 1928, №3, B.27-29), “Xotin-qizlar o’rtasida sog’liqni saqlash bilimlarini tarqatish ishi” (Sayfulmulukov Q., 1928, №4-5, B.16-20), “Bilimlik murabbiyalar yetishtiraylik” (Qoriyeva Ma’suma, 1928, №7, B.11-12), “Navbatdagi vazifalarimizning zo’ravoni” (Xotin-qizlar maorifi masalasi), (G’R., 1928, №9, B.2-4), “Xotinlarda uyg’onish” (Sh., 1929, №2, B.2-3) va boshqalar.

Ko’rinadiki, aksar maqolalar deyarli bir xil mavzuda, biri ikkichisini takrorlab, to’ldirib kelgan. Ta’kidlash kerakki, o’sha vaqtda boshqa gazeta va jurnallarda ham ayollar savodxonligi masalasiga murojaat qilingan. Jumladan, “Ishtirokiyun” gazetasida “Xotin-qizlar orasiga ong-bilim tarqatuv” (Bibixonim, 1919, 6 dekabr), “Xotin-qizlarga nashri maorif” (Chaqmoq, 1919, 7 noyabr), “Turkiston” gazetasida “Bizga o’qigan xotin-qizlar kerak” (Anqaboy, 1924, 9 mart), “Xotin-qizlarni o’qitish kerak” (A.Niyoziy, 1924, 9 mart), “Xotin-qizlar maorifi” (S., 1923, 16 may), “Xotin-qizlar maorifi” (G’ozi Yunus, 1923, 3 oktabr), “Xotinlarni maktabalarga jalb qilingiz” (Rachinskaya, 1924, 4 noyabr) kabi mavzulardagi maqolalar fikrimiz tasdig’idir.

Savodxonlik masalasi dolzarblik kasb etib, kun tartibiga chiqqani jadidlar o’z yozganlarini, avvalo, kundalik gazeta va jaridalarda e’lon qilishganida ko’rinadi. Abdulla Avloniy 1919 yilda Toshkentda ochilgan Dor ul-muallimat munosabati bilan “Er ila xotun” deb nomlangan she’rini e’lon qilgan bo’lsa, Hamza Hakimzoda Niyoziy esa “Muhtarama onalarima xitob”, “O’zbek xotin-qizlariga”, “Chin ozodlik davri keldi, sizlar hamon” kabi she’rlarini, “Qalbga bilimni yo’lini ochaylik”, “Millat – ma’rifat bilan tirik” nomli maqolalarini, Abdulhamid

Cho’lpon Andijonda “Ko’mak” hay’ati tomonidan tashkil etilgan kurslar munosabati bilan “Savod qurslari”, “Hozirliq qurslari”, “Xotin-qizlar uchun savod qurslari” singari maqolalarini dastlab matbuotda e’lon qilishgandi. Shuningdek, muntazam o’z maqola va she’rlarini e’lon qilgan ilk jurnalist va shoira Xosiyat Tillaxonova, Maryam Sultonmurodova, Sobira Xoldorovalar ham maorif ishlarini jadallatishda faollik ko’rsatgan. Xususan, 1926 yil 8 martda “Qizil O’zbekiston” gazetasida Sobira Xoldorovaniy “Xotin-qizlar maorifi”, ayni yilning 18 fevralida Oydingin “Xotin-qizlar zamon kishisi bo’lsin” maqolalari e’lon qilingan. Shu o’rinda “Yangi Farg’ona” gazetasining 1927 yil 22 fevral sonida “Chig’irliq” sahifasida “Tovontesha” imzosi bilan bosilgan Hamzaning “O’zbek xotin-qizlariga” she’rini kuzataylik:

Cho’rilikni mullolar senga qildilar takrir,
Kel bugun bu zahmingga, ma’rifatni darmon qil.
Onalik huquqingni hurmat etmaganlarni
Yuzlarini qaro aylab, fe’lidan pushaymon qil.
Oy yuzing qora chimmat zulmidan qutultirg’il,
Chiq qorong’i turmushdan, nur ichida javlon qil.
Sen qachon maorifning dargohiga yo’l topsang,
Nurlarin olib ko’zga surmayi Sulaymon qil.

[Niyoziy H. 1:169]

Hamzaning eng katta maqsadi ayollar erksizligiga qarshi kurash, ularni ilm-ma’rifatli qilish edi. U xotin-qizlarni jamiyatdagi hukm surayotgan “johillik” kishanlaridan qutulishga da’vat etadi. Zero, jaholat nechog’li ayanchli fojia va kulfatlarga olib kelgani jadid ziyolilarining qator asarlarida yoritib berilgan. Shoirning “Chin ozodlik davri keldi, sizlar hamon...” deb boshlanuvchi she’ri ham yuqorida bahs etilgan adabiy asarga uzviy aloqador. U “munglug’ hamshiralari”ni, “singil”larini “ilm, ifon” egallashga chaqiradi.

Chin tarbiya ko’rmay, munglug’ hamshiralari,
Chin turmushda mangu yashab o’tolmaysiz.
Sizdan ko’proq bizga lozim ilm, urfon,
Biz tarbiya ko’rmay siz hech yasholmaysiz.
Bizlar qo’ldan kelganicha ochdik maktab,
Sizlar hamon azo-to’ydand bo’sholmaysiz.
Musovotu adolatni davri keldi,
Hamon haqqu asoratdan, hoy singlim,
bo’sholmaysiz.

[Niyoziy H.H. 1:271]

Zotan, Hamzaga zamondosh barcha qalam ahli millatning ilmu ma’rifati, ziyosi, erki va istiqboli muammosining yechimini, eng birlamchi, xotin-qizlarni ma’rifatli qilishda, deb bilgan va uning in’ikosini matbuot materialarida ko’rish mumkin.

M.Qoriyevaning “Yangi yo’l” jurnalining 1928 yil 7-sonidagi “Bilimlik murabbiyalar yetishtiraylik” maqolasi xotin-qizlar savodxonligi va bolalar tarbiyasiga bag’ishlangan. Uning fikricha, “Xotinlar ozodlig’i uchun eng avvalo ularning bolalari to’g’risida ko’ngillarini tinchitish zarur”. M.Qoriyeva maktab va bog’chalarga tayyorgarlik kurslarini tamomlagan bilimli murabbiyalarni olish kerakligini alohida ta’kidlab yozadi: “Maktabgacha tarbiya ishlarida ilgari tayyorlig’imiz yo’q, pedogugiya

fani bilan oshnolig'imiz juda ozdir. Hozirda fan bilan qurollangan, o'z ishini suyguchi murabbiyalar tayyorlash ishi eng zarur vazifamizdir" [Qoriyeva M. 4:12].

Endi bir og'iz so'z maqola muallifi haqida. Uning kim ekani bilan tanishishdan shunga amin bo'lamizki, o'zbek xotin-qizlari XX asr boshida, ya'ni turkistonlik ayollarning asosiy qismi paranji yopingan bo'lishsa-da, ham ijodda, ham san'atda, ham ilmu ma'rifatda peshqadam bo'lgani Abdulhamid Cho'lponning "Sharafli xizmat" she'ri ostiga yozib qo'yilgan quyidagi so'zlardan ham ma'lum bo'ladi: "O'zbek sahnasining qimmatli san'atkori M.Sa'diya To'tashga". M.Sa'diya-Tutash o'tgan asrning 20-40 yillarida mashhur bo'lgan o'zbek drama teatri artisti M.Qoriyeva (1902-1946) edi [Cho'lpon A. 2:343]. Mazkur she'r 1922 yilda M.Qoriyevaning o'zbek sahna san'ati ravnaqi yo'lidagi o'n yillik xizmati sharafiga atalgan benefis kuni o'qilgan.

O'zbek qizi o'z og'zi-la aytolmagan so'zini
 Sening o'tkir tiling bilan eshittirdi eliga.
 O'zbek qizi sil oqartgan, so'lg'in, g'amli yuzini
 Sen orqali ko'rsatdi-da qutultirish yo'lga.
 O'zbek qizi yana ko'p yil kishanlardan qutulmas,
 Ko'z yoshlari yana ko'p yil o'z yurtiga to'kilur...
 Ko'z yoshlari yana ko'p yil shodlik ko'rmas, ochilmas,
 Yana ko'p yil tovushlari qorong'ida yo'q bo'lur...
 Shuning uchun mendan senga eng samimiy olqishlar,
 Ey yo'qsillar sahnasida eng qimmatli san'atkor!...
 [Cho'lpon, 2:113]

Sahnada ijod qilib, xalq mehrini qozongan M.Qoriyeva tom ma'nodagi ziyoli, ma'rifatli ayol sifatida barcha xotin-qizlarni ilm egallashga chorlagani yuqorida tilga olingan maqola matnida ravshanlashadi. Cho'lponning she'ri esa jamiyat va o'zbek ayoli taqdiri masalasi nechog'li uzviy bog'liq ekanining, ijodkor o'zbek ayoli qismatiga befarq bo'lmaganining isbotidir. Shu bois Cho'lpon yozadi: "Bechora o'zbek xotuni! Senga 12 yoshingda kafan kiygizgan janoblar tug'ilgan kuningdayoq seni irimlarning bema'ni quchoqlariga irg'itadurlar! Bilmaysen. Bilmaysen. Bilmaganing uchun sen hali ko'p yillar shu irimlar uchun eng toza umidlaringni so'ldirgaysen! Sening bilmog'ing, o'rganmog'ing uchun keng yo'l ochilgan shu zamonda senga ochilgusi maktablarning ta'minoti uchun mahalliy mablag'ning ko'payishini tilaylik!" [Xolikova N. 3:94] Cho'lponning bu yonib-kuyishlari bejiz emasdi, chunki u bilardiki, o'zbek ayollari orasida ham zehni o'tkir, zukko va iste'dodli, jasoratli ayollar talaygina. Shoir orzu qilgan kunlar ko'p o'tmay amalga oshdi. Xotin-qizlar uchun ochilgan savodxonlik kurslari va bilim yurtlari haqidagi "Irfon ke-

ladir!" she'ri o'zbek bilim yurtining ilk besh qaldirg'ochiga bag'ishlangan:

Toza qonlarga ishtaha saqlab
 Kutadir yo'lda och, haris dushman;
 U ulug' yo'lni nur bilan tozalab
 Yetasan istagingga, ey irfon!
 Chunki sen yangi, toza bir kuchsan,
 Bilaging bir temir, po'lat kabidir.
 Chunki sen yog'du-nurga ko'p o'chsan,
 Tilaging bir olov, bir o't kabidir.

[Cho'lpon A. 2:160]

Bilim yurtida ta'lim olganlarga ishonchi cheksiz shoir yoshlarni "yangi, toza" kuchga, bilagini "temir, po'lat"ga, tilagini "olov, o't"ga qiyos qilishi bejiz emas.

Olamning xurshidi kundir, odamning xurshidi ilm,
 Olamning zulmati tundir, odamning madori ilm.
 Gar murodu maqsadingga yetmoq istarsan murod,
 Ko'z ochib, bedor bo'l, darkor ilm, darkor ilm.
 Ul haqiqat oshyonig'a sayqal istarsan Nihon,
 Ilm ista, ilm ista, istagil zinhor ilm!

Hamza esa olamning xurshidi – Quyosh, deya ta'kidlab, xuddi shuning kabi odamning Quyoshi, ya'ni qalbini yorituvchi, yo'lni oydinlatuvchi, hayotiga nur, mazmun beruvchi omil – ilm, ilm va yana imldir, deydi.

Qadimiy Chin o'lkasi chegaralaridan tortib to uzoq Ovruponing ich-ichlarigacha uzangan O'zbek davlatining bayrog'i har vaqt balandda turgan, asrlar davomida buyuk xalifaliklar, sulolalar, yengilmas imperiyalar o'laroq jahonga ega chiqib kelishgan. Ular dunyo tamadduni, ilm-fani, tibbiyoti, iqtisodi va siyosati borasida hamisha ilg'orlik yalovini qo'lda tutdilar. Shon-sharaf, betimsol o'tmish, or-nomus va Islom shavkatiga musharraf bo'ldilar. Bularning bari, albatta, millatimizning sof iymoni, jasorati va muhimi, avloddan-avlodga kelayotgan meros ilmlarni egallashga va ularni zamonaviy ilmlar bilan takomillashtirishga intilish tuyg'usining borligidadir.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, 1925 yildan - 1929 yilga qadar muntazam ravishda chop etilgan "Yangi yo'l" jurnali xotin-qizlar ma'rifatini targ'ib qilgan dastlabki jurnallardan biri bo'lgan. Unda zamon kayfiyati, ruhiyati va voqeligini biz uchun yaqqolroq va aniqroq his qilish uchun yordam beradigan tadqiqotlar chop etilgani barobarida kelajak avlodning tarixiy, sotsiologik, adabiy-publitsistik tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Jurnal sho'rolar tuzumi davrida chiqqanidan sobiq Sovetlarning muayyan g'oya, mafkurasini aks ettirgani tabiiy. Zero, uning mundariyasi ommatan noma'lum bo'lsa-da, o'zbek xotin-qizlarining ilmu ma'rifati, ziyosi, dunyoqarashi shakllanishida muhim o'rin tutuvchi manbaligi aniq.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ниёзий Ҳ.Ҳ. Тўла асарлар тўплами. Иккинчи том. Шеърлар. Педагогик рисоалар. Насрий асарлар. – Тошкент: Фан, 1998.
2. Чўлпон А.С. Асарлар. Тўрт жилдлик. 1 жилд. Шеърлар, мансуралар. Шеърий хатлар. – Тошкент: Akademnashr, 2016.
3. Холикова Н., Умаралиев Х. Комил инсон: ғоя, талқин ва тадриж. – Тошкент: Fan ziyosi, 2022.
4. Қориева М. Билимлик мураббиялар етиштирайлик // Янги йўл. – 1928. №

Oysha Rajabova,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Akademiyasi tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

«XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI»

«Xorijiy tillarni o'qitishda axborot texnologiyalari-ning o'rni» mavzusi Respublika miqyosida chet tili o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan eng muhim mavzulardan biridir.

yevropa Kengashining "Chet tilni egallashning umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi hujjati (CECR)ni o'rganish, raqamli texnologiyalarni keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi tillar kafedrasida professor o'qituvchilari qator ishlarni amalga oshirmoqda.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishda axborot texnologiyalarining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlash lozim. Demak, xorijiy tillarni o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning asosiy shartlari:

- og'zaki nutqni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;
- raqamli texnologiyalar bo'yicha mashg'ulotlar olib borish;
- xorijiy tilni o'rganishda videoroliklar va ashulalardan foydalanish.

Raqamli texnologiyalar keng rivojlangan bir paytda og'zaki nutqning belgilari, yozma nutqni qanday qilib og'zaki nutqqa aylantirish, asl nusxadagi og'zaki materiallar tahlili, fonetik va lingvistik fenomenlarni belgilab olishda va hozirgi zamon xorijiy tili og'zaki nutqidagi fenomenlar «xarita»sini yaratish bo'yicha metodik ko'rsatmalarni internet saytlaridan olish mumkin. Mashg'ulotlarda veb saytlarni to'g'ri ochish, izlanayotgan hujjatni to'g'ri tanlash muhim hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari va reklama tilida og'zaki nutqqa xos va jargon so'zlar uchray turadi, bunday holatlar muhokama etilib tartibga solinadi. Ushbu mavzuni yoritishda reklama, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar ustida ishlash metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chet tilini o'rgatishda qo'shiqlardan foydalanish, she'riyat kechalari o'tkazish, turli kechalar uyushtirish ta'lim texnologiyalarining rivojlanishiga, xorijiy tillarni



o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga katta yordam beradi.

Harbiy –texnik kitoblar, qisqartma so'zlar, harbiy hujjatlar, harbiy buyruqlarni maromiga yetkazib tarjima qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli harbiylarning tarjima mahoratini oshirish maqsadida, ta'lim jarayonida badiiy adabiyotlardan, harbiy jurnal va gazetalardan matnlarni o'qib tarjima qilish ko'nikmalari ustida ish olib boriladi.

Og'zaki tarjima ham harbiylar faoliyatida katta rol o'ynaydi. Og'zaki tarjima nutq faoliyatining eshitish va gapirish turlarini o'z ichiga oladi. Eshitib to'g'ridan to'g'ri tarjima qilishda bir til muhitidan ikkinchi til muhitiga o'tish va barchasini xotira orqali tinglovchiga to'g'ri yetkazib berish lozim. Chet el teleko'rsatuvlarini ko'rish, radioeshittirishlarini tinglash tarjimaning bu turini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytganda,

- til o'rgatishda og'zaki nutqqa katta e'tibor qaratish;
- axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni targ'ib qilish;
- chet tilida gazeta va jurnallarni, badiiy asarlardan parchalarni o'qishni ommalashtirish;
- rasm, qisqa metrajli ovozsiz filmlarni ko'rganda o'z fikrini ayta olishga o'rgatish, ya'ni an'anaviy o'qitish metodlaridan biroz cheklanib, noan'anaviy metodlardan keng foydalanishni targ'ib qilish til o'rgatishda samarali natijalar berishi mumkin.

Адабиётлар

1. Давыденко Л.Ю. - Онлайн урок – современная форма учебной деятельности.
2. Миньяр-Белоручев Р.К. Учебник военного перевода.-Москва, 1984.

Наргиза Мирзаева,
Ўзбекистон журналистика ва оммавий
коммуникациялар университети
катта ўқитувчиси

БОЛАЛАР НАШРЛАРИДА ЛИСОНИЙ ВА НОЛИСОНИЙ ВОСИТАЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Аннотация. Мазкур мақолада болалар нашрларидан “Тонг юлдузи” газета, “Гунча”, “Доно ворд” ва “Гулхан” журналлари матнларида фонографик, эмоционал-экспрессив воситалардан фойдаланиш болаларнинг ахборотни яхши тушуниб олиши ва осон фаҳмланишига хизмат қилиши баён этилган. Шунингдек уларда қўлланилган новербал воситалар болалар нутқини жонлантириши, мазмундорлигини ошиши мисоллар орқали таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: болалар нашрлари, вербал, новербал, фонографик воситалар, паремиологик бирликлар.

Аннотация. В данной статье описываются, что использование фонографических, эмоционально-выразительных средств в текстах детских изданий газеты «Тонг юлдузи», журналов «Гунча», «Доно ворд» и «Гулхан» помогает детям лучше понимать и легко понять информацию. Также на примерах проанализировано, что используемые в них невербальные средства оживляют детскую речь и повышают ее содержание.

Ключевые слова: детские издания, вербальные, невербальные, фонографические средства, паремиологические единицы.

Annotation. This article describes that the use of phonographic, emotional and expressive means in the texts of the children's editions of the newspaper «Tong Yulduzi», the magazines «Guncha», «Dono Word» and «Gul Khan» helps children better understand and easily understand the information. Also, using examples, it was analyzed that the non-verbal means used in them enliven children's speech and increase its content.

Key words: children's publications, verbal, non-verbal, phonographic means, paremiological units.

Кичик ёшдаги болалар учун мўлжалланган нашрларда руҳий ҳолатни ёзувда ифодалаш ўзига хос мураккабликни юзага келтиради. Ижодкорлар газета ва журналлар саҳифаларидаги шеър, эртак, ҳикоя ва бадиаларда қаҳрамонлар ички кечинмаларини, хурсанд бўлиши, хафа бўлиши, розилик, таажжуб, ҳайратланиш, норозилик, қўллаб-қувватлаш каби қайфият-ҳолатларини фонографик воситалар орқали берадилар.

Унлиларни бирдан ортиқ ёзиш. Бунда унлини чўзиб талаффуз қилиш тушунилади. Унлини чўзиб айтиш орқали қаҳрамоннинг воқеликка муносабати аён бўлади. Масалан: “–Йўқ, булар қор”¹, “– Воой, жуда зўр-ку! – хурсанд бўлиб кетди қуён”², “–Иккита ка-атта торт, – аниқлик киритди Наташа”³, “– Ҳааа, яна жирафани кўрдим. Бўйни узун экан”⁴, “– Унинг рангини ҳисобласак войбўй... охири йўқ”⁵, “Ҳар кунни йўлда санагани-санаган: биир, иккии, ууч, тўўрт, беш...”⁶.

Ундошларни бирдан ортиқ ёзиш. Бунда белгининг меъёрдан ортиқлиги, ҳаракатнинг давомийлиги, такрорийлиги, товушнинг баланд ёки пастлиги ифодаланади. Масалан: “Қанийди, шу соатлар бўлмаса, мазза қилиб ухлардим”⁷, “Юр, яхшиси мазза қилиб учирамиз, – деди қуён”⁸.

Замонавий медиаматнларда экспрессив контекстлар яратишда антитеза, перифраза, турли услубий бўёққа эга сўзларни қўллаш, паремиологик бирликлар, фразеологик иборалар, сўз ўйинлари ва бошқалардан фойдаланилмоқда. Болалар нашрларидаги материалларда ҳам бу каби экспрессив-э-

моционал воситалар ўқувчининг ахборотни яхши тушуниб олиши ва осон “ҳазм” қилишига хизмат қилади. Масалан:

- антитеза;
- градация;
- перифраза;
- риторик сўроқ, риторик ундов.

Ижодкорлар ўз материалларида тасвир мақсади ва руҳига мос маънодош сўзларни қўллашга ҳаракат қиладилар. Шу орқали улар қаҳрамонлар руҳияти ва тасвир объектини реал акс эттиришга интиладилар. Масалан, “Дўстлик, бирлик, меҳр ва муҳаббатни, Ватанни севиш, инсонларга меҳрибон бўлиш фазилатини улуғлайди”⁹. Бу парчада тасвир объектининг ижобий хусусиятини орттириб ифодалаш мақсадида лексик маънодош сўзлар қўлланган.

Маҳоратли ижодкорлар тилдаги тайёр маънодош сўзлардан фойдаланибгина қолмай, “бадий тасвир эҳтиёжига кўра маънодош бўлмаган”¹⁰ сўзларни ҳам қўллайдилар. Натижада, бу сўзлар худди маънодош сўзлар каби тушунилади: “...бокс, карате, кураш инсонни чаққон, тезкор ва бақувват бўлишига ёрдам беради”¹¹.

Бадий-тасвирий ифодалар ва улардан моҳирона фойдаланиш – янгилик ҳиссини уйғота олишнинг омилidir. Ҳар қандай ифода воситаси, айниқса, эмоционал-экспрессив таъсир кўрсатишга мўлжалланган бўлса, вақт ўтиши билан ўз таъсир кучини йўқотади, ундаги баҳолаш хусусиятлари эса янгила-ниш ёки ўзгаришга мойил бўлиб қолади¹².

Экспрессив-эмоционал сўзларда ижобий ва сал-

бий маъно қирралари аниқ кўриниб туради. Бундай сўзлар қўлланган матнлар, аввало, уларнинг маъно қирралари нима мақсадда қўллангани, кимга нисбатан, қандай вазиятда ишлатилганига эътиборни қаратиш лозим. Одатда, эркалалаш, ҳурмат кўрсатиш, улуғворлик, кўтаринкилик, тантанаворлик каби маъноларни билдирувчи сўзлар ижобий маънога эга. Айнан болалар нашрларидаги матнларда ижобий маъно бўёғига эга сўзлар кўпроқ қўлланилади. Масалан: “—Оппоғим, ўзинг-чи, бирор мазали нарсани хоҳлайсанми?”¹³, “—Болажоним, яқинда қаҳратон киш келади”¹⁴, “—Болажон, улғайгин, ўс!”¹⁵

Болалар нашрларида бадиий нутққа интонацион бутунлик, оҳангдорлик, эмоционал-экспрессивлик бағишлайдиган фонетик усуллар – ассонанс ҳам қўлланилади:

Баданлари чиниққан,
Мускули бўртиб чиққан,
Яхши ухлаб тиниққан,
Қалби олган оромлар,
Соғломларга саломлар.¹⁶

Она юртнинг болалари,
Чечаклари, лолалари.

Дадил, шахдам қадамлари,
Биз эртанинг эгалари.¹⁷

Бердингиз бизга билим,
Одобу юксак илм,

Чексиз меҳрингиз учун

Раҳмат сизга муаллим.¹⁸

Юртимиз тинч, фаровон,
Хонадонлар чароғон,
Раҳмат сизга, Юртбошим,
Юртда тинчлик ҳукмрон.¹⁹

Газета ва журнал саҳифаларида чоп этилган кўплаб шеърларда ассонанс қўлланилган, нафақат машҳур шоирларимиз ижодида, балки ҳаваскор ўқувчилар шеърӣ машқларида ҳам ассонанс кўплаб учрайди. Юқоридаги мисоллар бунинг яққол далилидир.

Ассонанс ҳодисаси мақолларда ҳам кўп кузатилади. Мақолларда унлиларнинг такрорланиши бунга мисол бўла олади: “Билаги зўр бирни, билими зўр мингни...”²⁰, “Тилдан чиққани, дилдан чиққани”²¹, “Олтин ерда ётмас, яхшилик йўлда қолмас”²² каби.

Лисоний воситалар билан биргаликда новербал воситаларнинг қўлланиш кўлами ҳам ҳар бир матбуот материалида турлича бўлиб, бундай воситалар ҳам ижобий, ҳам салбий баҳо кўринишига эга. Новербал воситалар сўзловчи ва тингловчининг дунёқарабини, маданий савиясини, ақлий салоҳиятини кўрсатади. Шунингдек, сўзловчи нутқидан унинг нима ҳақида гапираётгани англашилиб турса, унинг хатти-ҳаракатларидан фикр баён этиш тарзи кўринади.

Болалар доимий тарзда бирор бир машғулот билан банд бўлишлари сабабли ахборотни қисқа,

лўнда ифодалашга ҳаракат қилишади. Ана шундай ўринларда новербал воситалардан фойдаланиш устуворлик қилади. Бу жиҳатни кичик ёшдаги болалар нашрларида кузатиш мумкин. Маълумки, болалар нутқида қўлланувчи новербал воситалар катталар нутқида учрайдиган новербал воситалардан фарқланади. Уларда болаларнинг жинси, ёши, дунёқараши, болаларга хос беғуборлиги жиҳатидан етакчилик қилади. Шунингдек, новербал воситалар маълум бир халқнинг менталитети, урф-одатлари билан боғлиқ. “Имо-ишоралар бирор-бир ахборотни етказишга хизмат қилади. Яна шуниси ҳам қизиқки, бир хил имо-ишора ва мимика ҳаракатлари турли маданиятларда турли маънога эга”²³. Масалан, “тилни кўрсатиш, бурунни кўрсатиш каби имо-ишоралар болаларга тегишли новербал воситалар бўлиб, турли халқларда турлича мазмунга эга. Русларда тилни кўрсатиш масҳара, калака имо-ишораси ҳисобланса, тибетликларда бу ҳаракат ҳам катталар, ҳам болалар томонидан бир хил амалга оширилувчи кутлов ишорасидир”²⁴. Бундан кўриниб турибдики, новербал воситалар ҳар бир миллатда ўзига хос тарзда намоён бўлиб, ўзгача маъно-мазмунни ифодалайди.

Юқорида айтиб ўтилган новербал ҳаракатлар ёш болалар нутқида ҳам учрайди. Аксарияти бола табиатига мос тарзда “калака қилиш”, “масҳара қилиш” маъносида қўлланилади. Кўп ҳолларда бу ҳолат болалар бир-бирини масҳара қилганда кузатилади:

НOVERбал воситаларни ижтимоий-лисоний жиҳатдан таҳлил қилганда, коммуникантларнинг ёш хусусиятига ҳам алоҳида эътибор қаратилади. Чунки коммуникантларнинг ёш хусусияти уларнинг нутқий фаолиятидаги лисоний ва нолисоний бирликларнинг ҳам фарқланишига олиб келади.

Юқорида келтирилганидек, айрим новербал воситалар фақат ёш болаларга хос бўлса, айримлари катталарга хос бўлади, баъзилари умумий қўлланилади. Яна бир тури борки, бу каби новербал воситалар катталар томонидан фақат болаларга қўлланилади. Масалан, “уят” маъносида кўрсаткич бармоқни ёноқ устига қўйиш, “дакки бериш” маъносида боланинг қулоғини чўзиш, “таъзирини бериб қўймоқ” маъносида кўрсаткич бармоқни бармоқларини бир-бирлариникидан ўтказиш каби.

Тилни алоқа-аралашув воситаси сифатида ўрганишда новербал воситаларни тадқиқ қилишнинг аҳамияти катта. Новербал воситаларни болалар нашрлари мисолида тадқиқ қилиш болалар ижодкорлари материалларида руҳий дунёси, орзу-ўйини ёритишга хизмат қилган. Болалар нашрларида бу каби воситалар мулоқот жараёнини бойитиб, тўлдириб, изоҳлаб келади. Шунингдек, ахборотни тўлиқ тарзда ўқувчига етказиш, фикр ифодалашда ёрдамчи восита сифатида намоён бўлади. Шу сабаб-

ли, болалар нашрларидаги материалларда қўлланилган новербал воситалар болалар нутқини жонлантирган, мазмундорлигини оширган.

Умуман, замонавий жамиятда болалар журналистикаси тегишли оммавий ахборот воситалари би-

лан фаол ҳамкорлик қилади. Болалар журналистикаси ва оммавий ахборот воситалари бугунги кунда онгга таъсир қиладиган юқори технологияларга эга бўлган кучли ижтимоий-психологик омил ҳисобланади.

1. Сехрли қор учқуни // Ғунча, 2016 йил, 1-сон. – Б.9.
2. Эринчоқ тарвуз // Ғунча, 2016 йил, 6-сон. – Б.15.
3. Байрам дастурхони // Ғунча, 2016 йил, 7-сон. – Б.7.
4. Жирафа // Тонг юлдузи, 2016 йил, 9-сон. – Б.8.
5. Сўзнинг ранг // Ғунча, 2016 йил, 10-сон. – Б.3.
6. Япроқларни босманг // Ғунча, 2017 йил, 11-сон. – Б.10.
7. Йўқолган соат // Ғунча, 2016 йил, 4-сон. – Б.14.
8. Эринчоқ тарвуз // Ғунча, 2016 йил, 6-сон. – Б.15.
9. Нурбек. Оталар сўзи, ақлнинг кўзи // Тонг юлдузи, 2017 йил 23 январь, 4-сон. – Б.8.
10. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Т.: Фан, 2007. – Б.52.
11. Назарова Н. Бешариқлик боксчилар // Тонг юлдузи, 2017 йил 30 январь. 5-сон. – Б.7.
12. Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.докт. дисс... - Тошкент, 2012. – Б.112.
13. Байрам дастурхони // Ғунча, 2016 йил, 7-сон. – Б.7.
14. Тиканвойнинг "ташвишлари" // Ғунча, 2017 йил, 11-сон. – Б.9.
15. Donoword // 2017 йил, 12-сон. – Б.15.
16. Пўлат Мўмин. Соғломларга саломлар // Ғунча, 2016 йил 1-сон. – Б.12.
17. Шербекова Н. Юрт фарзандлари // Ғунча, 2016 йил, 2-сон. – Б.12.
18. Ўсаров С. Эҳтиром // Ғунча, 2017 йил, 11-сон. – Б.13.
19. Рўзиева Н. Яшаймиз доим шодон // Тонг юлдузи, 2017 йил 11 сентябрь, 37-сон. – Б.12.
20. Рўзиева Н. Яшаймиз доим шодон // Тонг юлдузи, 2017 йил 11 сентябрь, 37-сон. – Б.12.
21. Турсунбоева О. Билаги зўр бирни, билими зўр мингни... // Тонг юлдузи, 2017 йил 18
22. Турсунбоева О. Билаги зўр бирни, билими зўр мингни... // Тонг юлдузи, 2017 йил 18 декабрь декабрь
23. // Ғунча, 2016 йил, 10-сон. – Б.8.
24. Нурбек. Оталар сўзи, ақлнинг кўзи // Тонг юлдузи, 2017 йил 23 январь, 4-сон. – Б.8.
25. Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.докт. дисс... - Тошкент, 2012. – Б.242.
26. Ярашова Н. XXI ўзбек болалар адабиёти тили ва услуги: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – Б.71.

Абдулло Худайкулов
(ТермДУ)

ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ АЙРИМ АНГЛИЦИЗМЛАРНИНГ ДИНАМИКАСИ ХУСУСИДА

Аннотация. Мазкур мақолада инглиз тилидан кирган ўзлашмаларнинг ўзбек тили лексикаси тараққиётида тутган ўрни ўрганилган. Унда ўзбек тилига инглиз тилидан ўзлашган сўзлар тарихи ёзма манбалар асосида тадқиқ қилиниб, ўзлашмаларнинг ривожланиш динамикаси ёритиб берилган. Шунингдек, инглиз ўзлашмаларининг ўзбек тилига мослашиши ҳақида маълумот берилган.

Таянч сўзлар: лексика, ўзлашма, ёзма манбалар, инглиз тили, ўзбек тили, мослашиш.

Abstract. This article deals with the role of English borrowings in the development of Uzbek vocabulary. It explores the penetration history of English borrowings into Uzbek on the basis of written sources and explains the development dynamics of borrowings. Also, the article gives information about assimilation of English borrowings in the Uzbek language.

Key words: vocabulary, assimilation, written sources, English, Uzbek, adaptation.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль английских заимствований в развитии лексики узбекского языка. В нём исследуется история проникновения английских заимствований на основе письменных источников, и объясняется динамика развития заимствований. Также дано информация об адаптации английских заимствований в узбекском языке.

Ключевые слова: лексика, заимствования, ассимиляция, письменные источники, английский язык, узбекский язык, адаптация.

Мамлакатимиз мустақилликка эришгандан сўнг, дунёнинг турли мамлакатлари билан дипломатик, сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқаларни ўрнатилди. Бу ўз навбатида тиллараро алоқаларнинг ривожланишига замин яратди. Шу даврда турли тиллардан ўзлашган ўзлашмалар қаторида инглиз ўзлашмалари (англицизмлар)нинг ўзбек тилига кириб келиши янада жадаллашди. бу чет тил матнларида ўзининг асл шаклини сақлаб қолиш билан ёки сўз олувчи тилнинг ички қонуниятларига биноан ишлатиладиган инглиз тилидан олинган сўз ёки турғун бирикмалардир [5, Б.11]. Англицизмларнинг ўзбек тилига кириши XIX асрнинг охириларидан, Чор Россиясининг Ўрта Осиёга кириб келиши билан боғлиқ. Айни омил дастлабки инглиз ўзлашмалари ўзбек тилига рус тили воситасида кириб келган деган хулосага олиб келади. Албатта, ўзбек тили луғат таркибида рус тили орқали ўзлашган англицизмларнинг миқдори салмоқли.

Бизга маълумки, мустақилликкача бўлган даврда инглиз ўзлашмалари русча-байналминал сўзлари қаторида ўрганилар эди. Бошқа сўз билан айтганда Чор Россиясининг Марказий Осиёдаги ҳукмронлиги таъсирида кўплаб инглиз сўзлари рус тили воситасида ўзбек тилига кириб келган.

Ўзбек тилига русча-байналминал сўзларнинг кириб келишида XIX асрнинг охирида юзага келган жадидчилик ҳаракати муҳим аҳамият касб этган. Жадидчиларнинг қатор хорижий давлатларда таълим олганликлари ва уларнинг хорижий алоқалари натижасида кўплаб Оврупо тилларига мансуб сўзлар ўзбек тили лексикасида муқим ўрин эгаллади. Шулар қатори, инглиз тилидан кирган кўплаб сўзлар ҳам шу даврдан бошлаб ўзбек тилида кенг қўллана бошланган.

Шу билан бирган ўзбек тилига бевосита кирган лексик ўзлашмалар ҳам мавжуд. Ёзма манбалар ва расмий-идоравий ҳужжатлар матнларини ўрганиш шуни кўрсатадики, кўплаб англицизмлар тўғридан-тўғри кириб келганлигини, кейинчалик эса сўз олувчи тилнинг ички қоидаларига фонетик, график, морфологик, семантик жиҳатдан мослашишини кузатиш мумкин.

Хусусан, жадидчилик ҳаракатининг фаолларидан бири бўлган Маҳмудхўжа Бехбудийнинг ўзбек тилида чоп этилган қатор бадий асарлари, илмий мақолалари ва саёҳат хотираларида **вагзал** [ингл. Vauxhall - вокзал], **тунел** [ингл. tunnel - тоннель], **фирма** [ингл. firm-фирма], **порт** [ингл. port-порт], **парламент** [ингл. parliament], **трамвай** [ингл. tram+way] каби бир қатор инглиз ўзлашмаларини учратишимиз мумкин.

Вокзал сўзи ўзбек тилидаги ёзма ёдгорликларда, расмий ҳужжатларда ва лексикографик манбаларда **воксал**, **вагзал**, **вогзал**, **воксал**, **vəxzəl** каби **график кўринишларда** учрайди. Масалан, мазкур сўзнинг **vəxzəl** шаклини К.Д.Громатовичнинг ЎзССР давлат аппаратида хизмат қилувчи овруполиклар учун чоп қилинган русча-ўзбекча луғатидан топиш мумкин [1, Б.33].

Профессор Б. Қосимов томонидан тўпланиб, нашрга тайёрланган М.Бехбудийнинг асарлари тўпламида [2] **вокзал** сўзини **вагзал** график шаклида учратамиз: «Даллолларни ҳожи овламоғи бутун аскала ҳам **вагзалларда** жорийдурки, бу овчиларни(нг) аксари, балки ҳаммаси ўзимизни бухорий, туркистоний сарсари ҳамшаҳарларимиздур» [2, Б.90].

Шунингдек, **банк** сўзи **банка**, **тоннель** сўзи **тун-нел** шаклларида ишлатилган: «3 соат юруб, тоғ **тун-нелларидан** ўтуб, Жабали Лубнон ҳудудидан чиқдук» [2, Б.88].

«...**Банка**, **фирма** фойдахўрники. Табиий, буларға пулларины бермак лозим, на берилур?» [2, Б.157].

М.Бехбудий ҳаж сафари давомида ўша вақтда Яқин Шарқда нисбатан кенг тарқалган инглиз сўзларини ўз ёдгорликларида ёзиб қолдирган. Масалан, «Дамашқ аш-Шомнинг Солиҳия қисми асл Шомға элиқтрикли қўша **трамвай** ила рабт берилган ва Шом марказиға 30 дақиқалик йўлдур». [2, Б.96].

М.Бехбудий асарларида учрайдиган яна бир ўзлашма **порт** [лат.<portus<ингл. port] сўзидир: «6 соат **Пўрт Саидни** саёҳат этиб, шу кун аср Мисрға кирмоқчи эдукки, 3-даражаға келғонимиз учун ҳибсга тушдук» [ўша ерда].

Шуни айтиб ўтиш керакки, Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ)да порт сўзи денгиз бўйида кемалар тўхтайдиган махсус жой, маъносидаги француз сўзи сифатида қайд этилган [ЎТИЛ. 3 жилд, Б.298]. Лекин, мазкур сўз М.Фасмернинг «Этимологический словарь русского языка» луғатида инглизча сўз эканлиги таъкидланади [3, Б. 334].

М.Бехбудий асарларида бир неча марта парламент сўзи ҳам учрайди: «Мисрни ангилис ва туркларға бор муносабатидан ва туркларға яқинлашмоқни мисрийлар учун нафълигини исбот этмоқға зўр берадур. Базилари савол ва эътироз этар, гўё онда йигирма-ўт-туз нафар аъзолик бир **парламент** мажлиси миллат очилгандур» [2, Б.141].

Парламент [фр. parler-сўзламоқ, расмий сўзлашиш жойи. ЎТИЛ, 3 жилд, Б.255] сўзи ҳам ЎТИЛда француз сўзи сифатида берилган. Лекин бизнинг фикримизча мазкур ўзлашма ўзбек тилига инглиз тили воситасида кириб келган. Асосан, таржима матнларида экзотик лексика сифатида ишлатилиб келган. Мамлакатимиз мустақилликка эришгач **парламент** сўзи яна фаоллашди. 1995 йилда Ўзбекистон Республикасининг бир палатали парламентининг ташкил топиши ушбу сўзнинг фаоллашишида муҳим омил бўлди.

Этимологик жиҳатдан француз тилига мансуб бўлган **банк**, **бланк** каби сўзларни ҳам инглиз тили орқали кирганлиги боис англицизмлар қаторига киритиш мумкин. Ушбу сўзлар **банка** [ингл. bank - банк], **бланка** [ингл. blank-бланк] **каби график ўзгаришлар билан ўзбек тилидаги** ёзма манбалар ва расмий-идоравий ҳужжатлар матнларида тез-тез учрайди. Масалан, «Ҳар бир ҳожиға лозимки, мамлакатидан ёниға юз сўм сақлаб, бошқасини **банкаға** бериб, ... **банкадан аккредитив** исминдаги ҳаволанома қоғаз олсун, бу тақдирға **банка** ҳар бир минг сўмға 3 сўм қадар масриф олур» [2, Б.91].

«Олган кунигача пулни **банкаға** беришға паспуртдаги исмини айнан бехато ёздурмоқ керак. ва ҳамда пул эгасининг қўлиға бир дафтар ва бир тахта **бланка** қоғаз берилур» [2, Б.91].

ЎТИЛда бу ўзлашмалар француз сўзлари сифатида қайд этилган: 1. банк [фр. banque< итал. banco-сарроф пештахтаси, курсиси] – вақтинча бўш маблағларни тўплаш, корхоналарга кредит бериш, нақд пулни ҳисоб-китоб қилиш, кредит маблағларини муомалага чиқариш ва ш.к. [ЎТИЛ. 1 жилд, 159 бет.]; 2. бланк [фр.

blance - oq] – бланка графаларининг бўш, очиқ қолган ўринларини керакли вақтда тўлдириш учун мўлжаллаб босмахонада нашр этилган тайёр варақа, босма иш қоғози. [ЎТИЛ. 1 жилд, 289 бет].

Изданишлар шуни кўрсатадики, юқоридаги сўзлар ҳозирги вақтгача деярли семантик ўзгаришларга учрамаган.

Ўзбек тили ёзма манбаларида учрайдиган миля сўзи диққатимизни тортади: «Бир фарсах уч милдан иборат бўлиб, 18 фарсах 54 милга тенг» [6].

ЎТИЛда «миля [лот. milia < mille passuum – мингта қўш қадам] тарзида шарҳланади. «Қадимдан қўллаб келинган, турли давлатларда ҳар хил қийматларга эга бўлган узунлик ўлчови бирлиги (Масалан, денгиз миляси 1852 м, география миляси 7420 м га тенг)» [4: 2-жилд, Б.594].

Мил сўзи юқоридаги маънода ўзбек тилидаги ёзма манбаларда ишлатилади: «Мил бу масофа ўлчови бўлиб, унинг неча метрга тўғри келиши борасида ҳам турли қарашлар бор. Баъзи шаръий манбаларимизда бир мил 4000 газ (зироъ) дейилади». Ўлчов бирлиги маъносини билдирадиган миля сўзи ҳадисларда ҳам учрайди, зеро, унинг ушбу маъноси қадимги грек тилидаги «MILIA passum» сўз бирикмасига хос[6].

Ушбу сўз З.М.Бобур асарларида ҳам учрайди: «Бобурнинг тавсифига кўра, унинг пештоқиға Қуръон оятлари шунчалик йирик ҳарфлар билан битилганки,

уни бир мил, ҳатто икки мил масофадан ўқиш мумкин эди»[7].

«Улуғбек масалани урушсиз ҳал қилишга ҳар қанча интилса-да, бирор натижага эришмади Хиротдан тўрт мил наридаги ерда, Турноб деган жойда уруш бўлди. ... Улар тоғдан уч мил масофага тош ташишга мажбур этилдилар.Темур иқоматгоҳининг ҳақиқий зийнат ва ҳашаматини, шаҳарнинг шимолий шарқ тарафида бир милча чўзилган Зарафшон ва ҳисобсиз ариқлар билан суғориладиган чўлда ўтказилган тун манзарасини та-свирлаш учун киши ўз кўзи билан кўриши зарур» [7].

Шундай қилиб, *миля* сўзининг ўзбек тилига ўзлашиш вақтини аниқлаштириш мунозарали масала. Ушбу сўз-ни ўзбек тилига ўзлашган илк англицизмлардан бири дейиш мумкин. Лекин шуни айтиш лозим, рус тилига XVI асрда кирган миля бир маъноли сўз ҳисобланади, ўзбек тилида эса унинг семантик тузилиши ўзгарганли-гини кузатиш мумкин.

Турли даврда инглиз ўзлашмаларининг ўзбек тили-га кириш тарихини, мослашишини ўрганиш ўзбек тили тарихининг долзарб масалаларидан саналади.

Хулоса қилиб айтганда, ёзма манбаларда учрай-диган англицизмлар миллий колоритни ифодалаш, сўз олувчи тилда мавжуд бўлмаган тушунчаларни, реали-яларни тавсифлаш мақсадида ўзлаштирилган бўлиб, тил тараққиёти давомида сўз олувчи тилга мослаша боради.

Адабиётлар ва манбалар

1. Громатович К.Д. Русско-узбекский словарь для европейцев, служащих госаппарата УзССР. – Самарканд-Ташкент, Узбекское государственное издательство, 1929.
2. Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар/Нашрга тайёрловчи, тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Қосимов. – Т.: Маънавият, 1997 – 232 б.
3. Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. – М.: Прогресс, 1987, Т.III.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 5 жилдлик. 2006-2007 йй.
5. Худайкулов А.Э. Английские заимствования в деловых документах русского и узбекского языков (истoki и современное состояние): Автореф. дисс. ... доктора философии по. филол. наук. – Ташкент, 2020. – 55 с.
6. <https://www.azon.uz/content/views/safar-muddati-masofasi-va-musofirning-na>
7. <http://e-tarix.uz/vatan-tarixi/144-herman-vamberi.html>

G. MUXAMEDJANOVA,

*I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat
neft va gaz universiteti (MTU) Toshkent shahridagi filiali
«Ijtimoiy-gumanitar fanlari kafedrası» dotsenti. p.f.n.*

“YULDUZLI TUNLAR” ROMANINING YARATILISH TARIXI

Yozuvchi Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” ro-
mani XV asr oxiri va XVI asr boshlarida yashab ijod et-
gan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti,
uning murakkab taqdiri va yorqin iste’dodiga bag’ish-
langan. Adib bu ma’suliyatli hamda sharaffli ishni ba-
jarish uchun qo’liga qalam olar ekan, o’z oldida ulkan
vazifa turganligini yaxshi bilardi. Yozuvchi, avvalo, o’z
tasavvuridagi Bobur obrazini va u orqali tarixda muhim
iz qoldirgan shoir va podshoh obrazini yaratish kerak
edi.

Atoqli adiblarimizdan Abdulla Qodiriyning “O’tkan
kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Muso Toshmuhammad
o’g’li Oybekning “Navoiy”, “Qutlug’ qon” kabi mashhur

tarixiy romanlari qo’ldan-qo’lga, avloddan-avlodga o’tib
hamon sevib o’qilayotganining boisi ham shundadir.
Shuning uchun ham tarixiy mavzuda ijod qilish badiiy
asar yozish sohasida eng qiyin va murakkab masalalar-
dan biri hisoblanadi. Bunday ishni bajarish uchun adib-
dan, avvalo, ulkan hayotiy tajriba, uzoq yillar davom et-
gan ijodiy izlanishlar, shuningdek, adiblik mahorati talab
etiladi. Shuning uchun ham tarixiy roman yaratishga bel
bog’lagan adiblarning aksariyatida bunday asar yozish
niyati garchi ilk bor qalam yurita boshlagan chog’lariy-
oq ko’ngilga tug’ilgan bo’lsa-da, ammo amalga oshirish
ijodining kamolot davrida boshlangan.

Ma’lumki, har bir asar adibning hayotiy tajribasidan

quvvat oladi. Shuning uchun ham har bir asar mavzusi tanlanishidan boshlab, uning ro'yobga chiqishi yozuvchining butun bir hayotini belgilaydi. Bu haqida yozuvchi Pirmqul Qodirov adabiyotshunos olim Pirmat Shermuhamedov bilan bo'lgan suhbatda quyidagilarni hikoya qilgan edi: *"Mening kitobga ixlos qo'yishim o'n bir yoshlarimda, "O'zbek xalq qo'shiqlari" degan urishdan oldin lotin alifbosida chiqqan to'plamni o'qishdan boshlangan. Bu qo'shiqlarni Xumsonlik shoir Elbek xalq orasida yurib yozib olganini, kitob qilib chiqargach keyinchalik bildim va undan astoydil minnatdor bo'ldim, chunki bu to'plamdagi ajoib qo'shiqlar mening xotiramga shunday naqshlanib qoldiki, mana sal kam qirq yildan beri men ularni hamon yod bilaman. Eng muhimi – mana shu kitob menda birinchi marta adabiyotga, badiiy asarga, xalq ijodiga mehr-muhabbat uyg'otgan. Shundan keyin A.Pushkinning she'riy er-taklari, L.Tolstoyning "Kavkaz asiri" qissasi, Oybekning "Qutlug' qon" romani, G'afur G'ulomning "Shum bola" va "Yodgor" qissalari, Fitratning "Qiyomat" hikoyasi va boshqa o'nlab asarlarini qo'ldan qo'ymay o'qib chiqqanman."*

Albatta, o'qigan kitoblarimning hammasini sanayversam, qog'ozga sig'maydi. Qog'oz bir yoqda tursin, kata-kata kutubxonalarga sig'maydigan kitoblarning mazmuni va ulardagi ma'naviy ozuqa inson ichki dunyosiga bema'lol jo bo'lishi mumkin. Ne-ne ulug' odamlar o'z ruhlarini, hayotiy tajribalarini, iste'dodlari –yu mahoratlarini kitob sahifalariga ma'naviy ekin qilib ekib ketganlar. Kitob o'qish ana shu ekinning yetuk mevalarini terib olish va ulardan bahramand bo'lib yashash demakdir. (P. Shermuhamedov. P. Qodirov. Adabiy portret. T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti. 1983. – 4 b.)

Kitobga bo'lgan ixlos, adabiyotga bo'lgan qiziqish Pirmqul Qodirovni hali Toshkent davlat universitetida o'qib yurgan studentlik chog'laridayoq, badiiy ijod yo'lga olib kirdi. O'sha paytlarda uning "Studentlar" deb nomlangan ilk hikoyasi, so'ngra "Qadrim", "Erk", "Meros" kabi qissalari, dastlabki badiiy asarlar Pirmqul Qodirovning ijodiy hayotida orttirgan tajribasining mahsuli bo'lib, ular shubhasiz, adibda ulkan reja va niyatlarni tug'ilishiga sabab bo'ldi. Mana shunday rejalaridan biri P. Qodirovda Bobur haqida badiiy asar yozish niyatining paydo bo'lishi edi.

Adib Bobur haqidagi tarixiy romanning yozilishi tarixiga oid savollarga javob berar ekan, bu haqda u quyidagilarni yozgan edi: *"Bobur siymosiga qiziqish menda studentlik paytlaridayoq paydo bo'lgan edi. Sharqshunoslik fakultetining tarix bo'limida o'qib yurgan kezlrimda "Boburnoma" bilan ilk bor tanishib, o'lmas adibning murakkab taqdiri va yorqin iste'dodi oldida lol qolgan edim. O'zbekiston tarixiga oid munozaralarda Bobur ko'p tilga olinar edi. Mening "Studentlar" hayotidan yozgan ilk romanimda munozarali mavzular qatorida Bobur ham aytib o'tilgani bejiz emas. Bobur haqida asar yozishni ilk bor ellig'inchi yillarning oxirlarida ko'ngilga tukkan edim".* (P. Qodirov. " Mehru oqibat" // Sharq yulduzi. – 1984. - № 1, -149 – b.) Shunday qilib, Pirmqul Qodirovning Bobur haqidagi romanining yozilishi tarixiga oid savollariga bergan javobidan

ma'lum bo'lishicha, bu tarixiy asarni yozish niyati adibda ellig'inchi yillarning oxirlarida paydo bo'lgan. Biroq, bunday sharaflil ishni amalga oshirishda shoshilish u yoqda tursin, xatto avvalda unga jur'at ham qila olmagan. Bu to'g'rida Pirmqul Qodirovning bergan izohlariga qaraganda, uning fikricha, bunday tarixiy romanni yozish ulug' adiblarimizning ishi deb tushingan, xatto bu ishni ulardan kutgan. *"U paytda tarixiy mavzuning ulkan pirlari Oybek aka, Shayxzoda domla hayot edilar, - deb yozadi Pirmqul Qodirov, "Boburni ham balki shu ustozlar yozib berishar" degan ilinjim bor edi. Bir chekakasi, meni ularning salobati bosar edi. Shu sabablarga ko'ra tarixiy mavzuga kirishaolmay yurdim. Oybek aka, darxaqiqat, Boburga atab doston va pyessa yozishga kirishgan ekanlar, lekin ular bu ishni oxiriga yetkazishga ulgurmay oramizdan ketdilar. Ulkan ustozlar boshlagan ishni davom ettirish, tarixiy mavzu estafetasini yerga tushirmasdan yangi marralar sari olib boorish keying avlodlar zimmasiga tushdi".* (P. Qodirov. " Mehru oqibat" // Sharq yulduzi. – 1984. - № 1, -149 – b.)

Pirmqul Qodirovning yozishicha, jahonda shuhrat topgan siymo- Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi romanni yozish va nashr qilish uchun o'n yil kerak bo'lgan, undan oldin bu mavzuni ko'ngilga tugib, xayolda pishitib yurishga ham o'n yilcha vaqt ketgan.

"Men bu asarni "Uch ildiz" dan keyin yozish va o'sha paytlarda ilk romanimni o'qib, iliq munosabat bildirgan Muxtor Avezov, Konstantin Simonov kabi buyuk adiblardan maslahat va ko'mak olish orzusida edim, - deb eslaydi Pirmqul Qodirov o'sha kezlarni, - lekin uzoq o'tmishning murakkab va chigal tarixiy muammolari orasiga kirib borganim sari oldimda turgan maqsadning naqadar ulkanligini, mushkulotlar qanchalik ko'pligini, ularning orasidan yo'l topib o'tib, ko'zlangan marra-ga yetish uchun qanchalik kata tayyorgarlik va tajriba zarurligini tobora aniq seza boshladim. Agar bu ishning uddasidan chiqalmasam, xalqimiz uchun behad aziz bo'lgan bir mavzuni xayf qilib qo'yishim mumkinligi mendagi mas'uliyat tuyg'usiga tinchlik bermas edi". (P. Qodirov. " Mehru oqibat" // Sharq yulduzi. – 1984. - № 1, -149 – b.)

Bu satrlar shundan guvohlik beradiki, Pirmqul Qodirov ushbu tarixiy romanni yozish niyatida qo'lga qalam olar ekan, bunday sharaflil ishni bajarishda u, avvalo, kitobxonlarning keng jamoatchiligi, qolaversa, xalqimiz oldidagi ulkan mas'uliyatni chuqur his qilgan. Bunday buyuk maqsadni ro'yobga chiqarish uchun kata tayyorgarlik va ma'lum darajada tajriba zarurligini yaxshi bilgan: *"Shundan so'ng ko'z oldimda turgan zamonaviy eng yorqin tomonlarini va chin yurakdan mehr qo'yishga arziydigan halolu pok odamlarimizni, tog'da, cho'lda, shaharu qishloqlarda jo'shqin hayot kechikib, astoydil mehnat qilib tariximizda yangi sahifalar ochayotgan xalq qahramonlarini baholi qudrat tasvirlab ozmi-ko'pmi tajriba ortirdim. Tarixni harakata keltiruvchi eng zo'r kuch – mehnatkash xalq ekanini faqat og'izda tan olibgina qolmay, amalda asar qahramonlarning taqdirida ko'rsatish tajribasini men zamonaviy mavzularda roman va qissalar yozib yurganimda o'zlashtirib bordim. Mana shu tajriba keyin, tarixiy roman yozgan paytimda menga juda qo'l keldi.*

Tarixiy romanni ham zamonaviy rux bilan sug'orishga o'tmish davrlar haqiqatini to'la saqlab qolgan holda, uning bugungi kitobxonlarni qiziqtiradigan, ularga ma'naviy oziq beradigan tomonlarini bo'rttirib ko'rsatishga harakat qilganim ham shu boisdandir". (P. Shermuhamedov. P.Qodirov. Adabiy portret, 7-8- betlar.).

Pirimqul Qodirov Bobur haqidagi tarixiy romanini 1969 qilda yozishga kirishdi, hatto adib yozilayotgan bu yangi asarga "Bobur" deb nom qo'ydi. (P. Qodirov. " Mehru oqibat" // Sharq yulduzi. – 1984. - № 1, -149 – b.). Asar asosan yozma manbalardan: Zahiriddin Muhammad Boburning memuar asari "Boburnoma", Gulbadanbegimning "Humoyunnoma"; Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Binoiyning "Shayboniynoma" kabi asarlaridan to'plangan juda boy faktik ma'lumotlardan, ayniqsa Sabohat Azimjonovanning "Qobul va Hindistonda Bobur davlati" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining qo'lyozmasidan keng foydalandi.

Shubhasiz, bu asarlardan adib ijodiy ravishda foydaladi. Ayniqsa, "Boburnoma" hamda "Humoyunnoma" asarlari Pirimqul Qodirov uchun asosiy bosh manba bo'lib xizmat qiladi. Biroq, yozma manbalarda to'plangan ma'lumotlar adib ko'z oldiga keltirgan tarixiy manzarani bayon etish uchun ozlik qilar edi. Bu to'g'rida Pirimqul Qodirov quyidagilarni yozadi: "Uning bir necha bobini yozganimdan keyin kitobiy manbalardan olgan taassurotlarim ozlik qilayotganini, hayotiy material yetislmayotgani sababli ishim to'xtab qoldi". (P. Qodirov. " Mehru oqibat" // Sharq yulduzi. – 1984. - № 1, -149 – b.).

Adib o'sha paytlarda Bobur hayotining eng murakkab damlari kechgan Andijon, Samarqand, Toshkentni qayta-qayta kezib, shaharlarda allaqachon vayron bo'lib ketgan eski qo'rg'on darvozlarning qaysisi qayerda bo'lganini ota-bobolaridan eshitib bilgan odamlardan surishtirib aniqlandi. Bobur kezgan vodiylar u o'tgan daryolar, u yashagan shaharu qishloqlarning bugungi qiyofasi garchi o'zgarib ketgan bo'lsa-da, Pirimqul Qodirov Bobur yaxshi ko'rib, o'z kitobida tasvirlangan joylarni yaqindan kuzatish maqsadida Hindiston va Pokistonga ikki marta safar qildi.

–"Bunday joylarni men 1970 yilda Hindiston, Pokistonda, - deb yozadi adib, - Dehli, Agra, Jayrup, Fatxpur – Senri, Lahor, Qarochi shaharlarida yaqinda kuzatdim. Agraning La'l Qal'asi shunday yaxshi saqlanganki, undagi qoravulxonalar, devorlar darvozalar, qo'rg'on devoir atrofidagi suv to'ldirilgan chohlar va ularning ustidan o'tadigan ko'tarma ko'priklarni men o'sha yerda birinchi marta ko'rdim. Bobur davridagi Samarqand qal'asi qanday bo'lganini La'li Qal'a misolida tasavvur qilish mumkin bo'ladi. Qal'a ichidan chiqadigan odam darvoza tashqarisidagi suv to'ldirilgan chohdan osonlikcha o'tolmaydi. Buning uchun chohning ko'tarma ko'prigi tushirilishi kerak. Ko'prikn tushiradigan uzun va yo'g'on zanjir quduqning g'altagi-ga o'xshash yog'ochga o'rab qo'yilarkan. Shu g'altakni darvozaxonada turib aylantirib, zanjirini bo'shatganlarida tashqaridagi ko'tarma ko'priki asta-sekin choh ustiga tushib, odamlarga, otiqlarga yoki aravalarga yo'l berar ekan.

Xullas, bugungacha saqlanib qolgan mana shunga o'xshash juda ko'p tarixiy detallar, joylar, manzaralar menga yetmay turgan hayotiy taassurotlar o'rnini bosdi-yu, ijodiy reja qog'ozga ravon tusha boshladi". (P. Qodirov. " Mehru oqibat" // Sharq yulduzi. – 1984. - № 1, -150 – b.).

Adibning e'tirof etishicha: Bobur taqdiridagi keskin burilishlar uning ruhiy evolyutsiyasidagi o'zgarishlarini o'rganish, uning juda qiyin bo'lgan. "Hindiston va Pokistonga qilgan safarlarim Dehli, Agra, Lohur shaharlaridagi Bobur va ning avlodlari bunyod etishga mangu so'nmas madaniy yodgorliklarni ziyorat qilganim asarni yozishga, Bobur taqdirining, kelajagini ko'rishga katta yordam berdi. Bobur qolgan umrining va iste'dodining hammasini Hindistonga bag'ishladi. Movarounnahr va Xurosoning eng dono, fozil kishilari, Shayboniynon ko'chmanchilari tomonidan quvilgan, sunniylar va shialar kurashining dovulida qolgan barcha garibu g'uroblar Bobur poytaxtiga intilar edilar. Bobur o'z atrofiga to'plangan buyuk to'daga mansub olimu fozillar Hindiston uyg'onish davrining ishiga xizmat qildilar". (P. Shermuhamedov. P.Qodirov. Adabiy portret, 9-10- bet).

Shunday qilib, Pirimqul Qodirovning ko'p yillik ijodiy izlanishlari tarixiy manvalarini sinchiklab o'rganish, Bobur kezgan vodi, shahar va qishloqlarda qayta-qayta bo'lishi, u tasvirlangan joylarni ziyorat qilib yaqindan kuzatishlar natijasida Zahiriddin Muhammad Boburga bag'ishlangan tarixiy roman dunyoga keldi. Bu romanda Boburning murakkab taqdiri va yorqin iste'dodi bayon etilib, uning sermashaqqat umrini qorong'i osmonda olovli iz qoldirib uchgan yulduzga qiyos etish mumkin. Shu bois bo'lsa kerak, adib o'z asariga "Yulduzli tunlar" deb nom berdi.

Shubhasiz, "Yulduzli tunlar" romani Pirimqul Qodirovning uzoq yillar davomida olib brogan ijodiy izlanishlari, kuch va g'ayrat sarflab qilgan mehnati evaziga dunyoga keldi.

"Yulduzli tunlar" romancing yozib tugatgan Pirimqul Qodirov: "Ijodiy ishning mehnati va mashaqqati qanchalik bo'lishini men shu romanga ketgan yillarim bildim Boburga bo'lgan mehr menga doim madad berdi", (P. Qodirov. " Mehru oqibat" // Sharq yulduzi. – 1984. - № 1, -150 – b.) – deb yozadi.

Xulosa qilib aytganda, Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tular" romani o'zbek tarixiy prozasida o'ziga xos o'rln egallab, o'zbek tarixiy biografik romanlari gale-reyasi boyituvchi asarlardan biri sifatida kitobxonlarga manzur bo'ladi.

Demak, "Yulduzli tunlar" romanini yaratishda Primqul Qodirov yozma asarlardan to'plangan juda boy materiallarga hamda o'zi borib ko'rgan tarixiy obidalar, qadimgi shaxarlardan olgan shaxsiy tasavvurlariga asoslangan holda, badiiy to'qima yordamida XV-XVI asarlarda O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiy davr haqida hikoya qiladi. Bu mamalakatlarda bo'lib o'tgan ko'pdan-ko'p tarixiy epizodlarni badiiy shaklda ifoda etadi. Romanda yaratilgan obrazlarning aksiyati tarixiy shaxslardir. Bu shaxslar ishtirok etgan voqealarning ko'pi, garchi ular badiiy jihatdan bo'rttirilgan bo'lsada, tarixiy faktdir.

Akram HAMDAMOV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti

ABDULLA ORIPOV FENOMENI VA ADABIY-IJODIY MUHIT

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida 60-yillar avlodining alohida o'rni bor. Garchand mustabid tuzumning mafkuraviy zug'umlari badiiy ijod sohasiga o'z ta'sirini o'tkazishda davom etayotgan bo'lsa ham, bir muddat hukm surgan ilqlik davrida adabiyot maydoniga yangi bir avlod kirib keldi. Bu avlod ijodida milliy o'zlikni anglash, Vatanni e'zozlash, milliy urf-odatlarini targ'ib-tashviq qilish, milliy his-tuyg'ularni tarannum etish tamoyillari etakchilik qilar edi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdieva, Omon Matjon kabi shoirlar bu adabiy avlodning etakchi shoirlari sanaladi. Davrning tabiiy bir ehtiyoji bu avlod zimmasiga an'anaviy she'riyatni yangilash va badiiy tafakkurda teranlashuvdek ulkan bir vazifani yuklagan edi. Ijod ahli xalq diliga yaqinlashdi, xalqning dardu alamlariga sheriklik tuyg'ularini ilgari surdi; ramzlar vositasida o'z millatining tutqunlikdan ozod bo'lishdek ezgu istagini bayon qildi. Bu avlod vakillari ijodida xalqona poetik tafakkurga xos belgilar paydo bo'ldi. Abdulla Oripovning "O'zbekiston" she'ri, Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasi, Omon Matjonning "Haqqush qichqirig'i" va boshqa shoirlarning qator turkumlari xalqimiz qalbida chuqur iz qoldirdi. Milliy fikr tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Bu shoirlar xalqning chinakam mehr-muhabbatiga sazovor bo'lish uchun ijodkorning estetik ideali yuksak bo'lishini, o'zlari xalq hayotining ichiga kirishi zaruratini juda teran angladilar. SHu bois, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov bir she'rida:

El ustozim men esam –tolib!
So'z durlarin termoqdir ishim.
Odamlarning o'zidan olib
Odamlarga bermoqdir ishim, –

deb umuman ijodkorga xos konsepsiyani g'oyatda muxtasar tarzda ifoda qildi. Tabiiyki, shoir zoti inson ko'nglining tarjimoni sifatida qalam tebratadi. Ayniqsa, uning "men"ida milliy, umuminsoniy ezgu tuyg'ular tajassum topishi lozim. Shu ma'noda: "Ijodkor umuminsoniy dardni shaxsiy darddek qabul qilishi yoki shaxsiy dardini umuminsoniy dard darajasiga ko'tarishi lozim", – deb yozadi Abdulla Oripov. Shoir ushbu talabni o'z ijodiga to'la-to'kis tatbiq ham qildi.

Bu adabiy avlod zimmasidagi mahobatli missiya zamidida "mayda gaplarni ko'tarmagay she'r" (A.Oripov) degan aqida, umuminsoniy g'oyalarni, o'zbekning milliy o'zligini anglashdek, xalqni erkinlikka, qolaversa, istiqboldagi istiqol kunlariga hozirlashdek ulkan fikrlar mujassam edi. Abdulla Oripov fenomeni ana shunday adabiy muhitda tabiiy zarurat, "ehtiyoj farzandi" sifatida

maydonga keldi.

Har qanday badiiy asarni muayyan g'oyaviy-badiiy niyat boshqaradi. Dono o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan og'zaki ijodi namunalarida adashish motivi tez-tez uchraydi. Ba'zan qahramon adashib ketib maqsadiga erishsa, ba'zan hech qachon adashishni o'ziga ep ko'rmaydigan kimsa oxir-oqibatda adashib mulzam bo'ladi. Real hayotda ham yo'ldan adashgan, to'g'ri yo'l qolib pastqam ko'chalarga oralagan odamlarni uchratamiz. Xullas, adashish inson bolasiga domiy hamroh deyish mumkin.

Asardagi badiiy mazmun hayotda ro'y bergan ko'plab shu taxlit voqealardan farq qilmaydi. Lekin shoir ushbu voqeaga qator tafsilotlar, aniqliklar kiritadi, ya'ni oddiy, hayotiy voqeani badiiy shaklga soladi. Rus adabiyotshunosi I.A.Galperin qayd etganidek, "Ayni kuzatib bo'ladigan hodisa kuzatib bo'lmaydigan hodisalar mohiyatini oydinlashtirish uchun imkon beradi". "Hangoma" asaridagi ana shu kuzatilgan voqea asardan ramziy ma'nolar izlashga da'vat etadi. B.To'xliov: "...matnda ikkita ma'no: bir o'qishda yalt etib ko'zga tashlanib turadigan – tashqi qism hamda uning ostiga "berkitib qo'yilgan" – sirli qism mavjud", – deb yozadi. "Hangoma"ning badiiy qudrati shundaki, u o'z voqeyi mazmuni darajasida qolgani holda yuqorida qayd etilgan qator ramziy badiiy umumlashmalar chiqarishga imkon beradi. Asar har ikki (tashqi va sirli) qatlamda badiiy tasvir bilan hayotiy haqiqat mos holda olib boriladi. Keyingi voqealar tafsiloti shoir uchun unchalik aniq emas edi. Shu sababli ikki chol sarguzashtini hayotiy voqelik bilan bog'lamasdan, sof badiiy to'qima yo'lga burib yuboradi. Shunga qaramasdan, asar oxirida badiiy tasvirning hayotiy haqiqatdan unchalik uzoqlashmaganligining guvohi bo'lamiz.

Qo'shni ovulga to'yga otlangan ikki chol adashib – uloqib o'z kampiridan joy so'rab turar ekan, bu ham kulgili ham badiiy jihatdan jozibali holatdir. Har bir asar shuning uchun ham badiiy qimmat kasb etadiki, u o'zining hayotiy voqeyi mazmuni doirasida qolib ketmaydi. U hamisha, ta'bir joiz bo'lsa, o'zidan tashqariga intiladi. Bu asarda bevosita tilga olingan narsa-hodisa va insonlar obrazi o'zining voqeyi mazmunidagi mohiyatiga mos ravishda yana qandaydir ramziy ma'nolar, ramziy haqiqatlarga ishora qiladi. "Hangoma" she'ri ham ayni shunday ramziy talqinga talpinadigan asar. Agar u o'zining voqeyi mazmuni doirasida tushunilgan taqdirda ham baribir yaxshi asar sifatida e'tiborda bo'lur edi. Ma'lumki, semiotika, ya'ni belgi, alomatlar haqidagi fanda badiiy asar ana shu xususiyatlar nuqtai nazari-

dan o'rganiladi. Ushbu fan badiiy obrazni ham belgi deb hisoblaydi. Ammo badiiy obraz o'ziga xos alohida belgi ekani ma'lum. Bu gapda belgi bilan ramz o'rtasida obraz borligini, ya'ni ushbu qator belgi – obraz – ramz tarzida bo'lishini unutmash zarur. Binobarin, "Hangoma" she'ridagi chollar, eshak, ot oddiy belgidan ramzga aylanishi uchun ular avval to'laqonli obraz bo'lishlari lozim, she'rda esa xuddi shunday. Ular to'laqonli obrazlar sifatidagina o'zining ramziy ma'nolarini ko'rsata olgan.

"Hangoma" she'rida, biz ko'rib o'tgan obrazlardan tashqari yana Kampir obrazi ham bor. Jonkuyar, mehribon o'zbek ayolining yorqin timsoli bo'lgan Kampir asarning voqeiy mazmunida jiddiy vazifa ado etadi. Ya'ni u she'r mazmunidagi latifanoma voqeani yakunlaydi. Bunday Kampirning gaplari keskin va achchiq:

- Hoy, senmi bu, er yutkur,
 Imoningdan kechdingmi?
 Aljiraysan yo to'yda
 Aroq-paroq ichdingmi. (1- jild, 210-bet).

Bu gap faqat sirtidan qaraganda o'ta keskin va qo'pol tuyulishi mumkin. Nahotki kampir o'z choliga shunday og'ir gaplarni aytishga jur'at etsa? Bu mehribon va mushfiq, kezi kelganda esa, o'zbek xonadonining odil va qattiqqo'l hakamiga xos xususiyat. Demak, o'zbek oilasida bunday muomalaning bo'lishini inkor etib bo'lmaydi. Zero, u o'zbek milliy mentalitetining o'ziga xos qirralaridan birini namoyon qiladi. Shu sababli bu gaplarni keskinligi uchun qoralashga haqqimiz yo'q. Buning ustiga she'rning ikkinchi ramziy qatlamida kampirning so'zlari qandaydir g'aroyib mahobat kasb etadi. Imondan kechish hazilakam gunoh emas. Imonsiz odam o'zbek millatida odam sifatida qaralmaydi. Bu adashgan, sovuqda qaltirab turgan ikki cholga qaralar ekan, unda ramziy ma'no bo'lishi tayin. Noshud yo'lboshchiga ishonib yo'ldan adashgan xalq yoki jamiyat alal - oqibat o'zining qoralovchisi yoki hakamini topadi. Bu hakam hech bo'lmasa tarix siyomosida maydonga chiqadi. Ko'rinadiki, o'zbek kampiri timsoli zimmasiga shoir tomonidan yuksak badiiy va falsafiy mas'uliyat yuklangan deyish mumkin. Albatta, Kampir obrazi tarix darajasidagi ramziy hakam emas. Lekin u bo'lib o'tgan betayin hodisaga o'zining qat'iy bahosini beradi. Yoshi bir joyga borib qolgan chollar uchun aroq

ichish (aslida ular to'yni, aroqni tushlarida ko'rmagan bo'lsalar ham) yoki imondan kechishi juda og'ir ayblov ekanligi ma'lum. Ayblov sirtidan qaraganda nohaq tuyulsa-da, mohiyatda kampir haq. Bunda g'ayrima'naviy va millatni yo'ldan ozdiruvchi odatlarga keskin salbiy munosabat mavjud. Oliy maqsad (TO'Y!) uchun yo'lga chiqib bunday nochor holga tushish ramziy qatlamda kampirning mutlaqo haq ekanligini tasdiqlaydi. Endi she'rning so'nggi bandiga e'tibor qiling:

Alqissa shu: ot yo'lni
 Uy tomon burgan ekan.
 Chol-chi, o'z kampiridan
 Joy so'rab turgan ekan (1- jild, 210-bet).

Bu so'zlar birinchi, ya'ni voqeiy qatlamda oddiy xulosa, qissadan hissa bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin she'rning ikkinchi ramziy qatlamida oxirgi banddagi ma'no ancha vazminlashadi. Chunonchi, biz avval Ot obrazining ramziy mohiyati haqida so'zlagan edik. Bechora otning xizmati chollarni yo'lga chiqqan ilk manziliga qayta olib kelishdan iborat bo'ladi. Ot bor-yo'g'i yo'lni uy tomon burdi, xolos. Shunda "uy" degan so'zning ramziy ma'nosi bo'rtib ko'rinadi. Izdan chiqqan jamiyat tuzalmoqni istasa, avvalo u hech bo'lmasa uyga qaytishga, adashgan millat esa o'zligini anglashga intilmog'i zarur. SHu ma'noda uy ramziy ma'noda o'zlikni anglatib kelmoqda, deyilsa haqiqatdan yiroq bo'lmaydi.

Oxirgi bandda ikki faol obraz bor – **Ot** va **Chol**. Agar Ot yo'lni uy tomon burgan bo'lsa, chol o'z kampiridan joy so'rab turadi. Bu ramziy qatlamda adashgan millat yoki jamiyatning boshini qayoqqa urishini bilmay dovdirashiga timsoldir.

YUqoridagi tahlillar va mulohazalar Abdulla Oripov ijodiy yo'lining mazmuni va ma'naviy olamiga, she'riyatining go'zalligi va rang-barang ohanglariga xalqona poetik tafakkur nuqtai nazaridan qarash samarasidir. Zeroki, bu tushuncha zamirida insonsevarlik, vatanparvarlik, milliylik, zamonaviylik va umuminsoniylik kabi tamoyillar o'zini yaqqol namoyon etadi. Bunda, ayniqsa, O'zbekiston, ona xalq, Vatan hurligi va ozodligi hamda farovonligi mavzusini da'vatkor ruh bilan kuylaganligi milliy madaniyatimizda Abdulla Oripov "fenomeni"ni vujudga keltirgan omillardan biri bo'ldi.

Adabiyotlar

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000
2. Abdulla Oripov. Ehtiyoj farzandi. – Toshkent, 1988.
3. Baxtin M.M. Estetika slovestnogo tvorchestva. – M., 1986.
4. Galperin I.A. Tekst kak ob'ekt lingvisticheskogo issledovaniya. – M.: Nauka, 1981
5. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: YAngi asr avlodi, 2006.
6. Ostrovskiy A. Russkie pisateli o literaturnom trude. – L., 1954.

Nasiba YARASHOVA,
NavSPI Doctor of Philosophy
(PhD) in philological sciences

GROWTH AND DEVELOPMENT OF CHILD SPEECH IN MODERN SCIENCE RESEARCH

The stages of speech growth and development related to early childhood are of interest to scientists of various fields, including pedagogues-psychologists, linguists, primarily because this is a unique period in the development of speech. Its peculiarity is that it is sensitive to the growth and development of speech: during this period, speech appears and improves as a means of communication; it develops at such a rapid pace that this condition is no longer observed during the entire ontogeny of speech. K.D.Ushinsky stated that "...a child can easily and quickly learn so much in two or three years that even if he studies diligently for twenty years, he will not be able to master half of it"[1].

E.I.Tikheeva, M.M.Kolsova, N.M.Askarina, G.M.Lyamina, M.I.Lisina and many other well-known scientists, pedagogues and methodologists made a significant contribution to the study of early childhood speech.

Growth and development of speech Ėat an early age takes place in two directions:

- 1 – improvement of speech understanding;
- 2 - forming the activity of the child's speech.

According to the classification of F.A.Sokhin and O.S.Ushakova, the study of children's speech from the point of view of psychology and pedagogy can be divided into three areas:

structural - formation of various structural levels of the language system - phonetic, lexical, grammatical levels;

formation of language acquisition skills in the functional - communicative function;

cognitive - formation of understanding of language and speech phenomena in the simplest way[2].

The analysis of scientific researches and trends allows to determine the characteristics of the development of various aspects of preschool children's speech and the level of their study in the scientific literature.

The researches of V.I.Loginova, Yu.S.Lyakhovskaya, V.V.Gerbova, E.M.Strunina and others highlight the specific features of children's acquisition of the lexicon of their native language.

Two aspects are distinguished in preschool children's acquisition of vocabulary: development of vocabulary (vocabulary) of the surrounding world together with understanding; mastering vocabulary as a lan-

guage unit. They proved the need to work on words both in the logic of subject relations and relations, and in the logic of language.

Research in the field of the grammatical structure of children's speech is the formation of morphological and syntactic aspects of children's speech (F.A.Sokhin, M.I.Popova, A.V.Zakharova, V.I.Yadeshko, A.G.Tambovseva, etc.), determining the features of the word formation system of the native language, as well as the grammatical structure of children's speech made it possible to prove that it is necessary to pay attention not only to the study and correction of common grammatical errors, but also first of all to the formation of grammatical generalizations in the pedagogical work related to improvement.

It served as a subject of study in studies conducted by children on the acquisition of the sound system of the language (G.M.Lyamina, E.I.Radina, G.A.Tumakova, A.I.Maksakov, M.I.Gening, N.A.German, etc.).

The preventive direction of speech therapy, which develops the scope of issues related to the prevention of children's speech defects, is widespread.

The above-mentioned approaches to the development of children's speech are related to the study of preschool children's learning of language as a system, that is, the sound side, vocabulary, and grammatical structure.

All the child's achievements in acquiring the language system include fluent speech, which is considered as a meaningful, widespread thought that provides communication. It is distinguished by its content, logic and consistency. Fluent speech is an indicator of how well the child has mastered language, it reflects the level of the child's intellectual, aesthetic, and emotional development.

Researchers of the fluency of preschool children E.I.Tikheeva, E.A.Flerina, A.M.Leushina, L.A.Penevskaya and others, based on a deep understanding of the peculiarities of children's acquisition of oral speech and storytelling, the interdependence of dialogic and monologic speech founded the system of teaching fluent speech[4]. Children's stories are classified by them, the basis of which is the source of opinion: describing objects, narrating literary texts, telling stories

based on pictures, giving examples from personal and collective experience, creative storytelling.

The further development of the theory and methodology of the cultivation and development of monologic speech is characterized by the in-depth study of the features of children's acquisition of various types of fluent speech and expression. The characteristics of explanatory speeches and sentences in the form of reasoning are studied, and a methodology for teaching children different types of monologues is created on its basis.

The research conducted by F.A.Sokhin, O.S.Ushakova and their students on various aspects of the formation of fluent speech made it one of the current tasks to search for more accurate criteria for evaluating fluent speech than just logicity and consistency. The main indicator of fluency is the formation of the ability to structure the text structurally correctly, using the necessary means of communication between words, sentences and parts of thoughts[3].

Research on the development of speech of preschool children began in the 50s of the last century in the Republic of Uzbekistan. A.V.Nikolskaya, the first candidate of science in the field of preschool education, raised the issue of the need to teach the Russian language to children of the local nationality[4]. As a result of the test studies conducted by her (1958-60 years), the main content of the methodology of teaching Russian oral speech to Uzbek children of preschool age was determined and its main issues were developed.

In the 70s of the 20th century, under the scientific guidance of A.V. Nikolskaya, a study was conducted by E.M. Razbaeva on the education of respect for the work of adults based on the works read to older children of preschool age. S.O. Gozieva (under the scientific guidance of E.M. Razbaeva) researched the issues of forming a fair attitude to others based on the use of Uzbek folklore (folk tales, games) in children of preschool age.

From 1979 to the present day, the problem of teaching the native language and a foreign language (Russian, Uzbek) to children of preschool age is the object of research of scientists, methodologists, psychologists of Uzbekistan (F.R. Kadirova, R.M.Kadirova, G.Kh.Jumasheva, D.Abdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.Sh.Nurmuhammedova and others) [5].

All researchers consider the child's speech and its development not separately, but in connection with the pedagogical influence of an adult on the child. This approach is appropriate, because modern research in science is based on the idea that acquisition of speech and social interaction are interdependent processes, and the growth and development of speech is a creative process, but it is not a spontaneous process.

The historically formed content of human experience is summarized in verbal form, and its description and mastering implies the participation of speech in this process. Speech opens the way for a child to all

the achievements of human culture. In general, the formation of personality and all basic mental processes (reception, thinking, etc.) is also related to the development of speech in a child. The special place of speech in the mental formation of a child makes it very important to know the conditions and factors that support its development at different stages. The issue of moving forces with the development of speech becomes important due to the fact that this situation occurs rapidly, in the form of a jump.

Determining the forces that stimulate or hinder the development of speech in children is the key to organizing pedagogical influence on this process with a clear goal in mind.

Scientists are actively working on finding ways to optimally organize children's education to ensure their high level of mental and speech development, to build language skills. The research of theoretical and empirical problems of teaching speech has the following general starting positions, arising from the following theoretical principles:

education is of decisive importance in the development of preschool children's speech, especially in the conditions of the modern unfavorable speech environment;

teaching speech is a creative process that does not conform to strict patterns such as «from ... to ...» and is determined by age laws of speech development and individual characteristics of the child;

the basis of speech development should be a communicative approach, in particular: mastering the mother tongue should be included in speech communication activities, the educational environment should be brought closer to natural communication conditions;

the nature of interaction between an adult and a child in a teaching situation should be determined by the form of communication leading for this child;

it is necessary to work on the language within the framework of the structure of speech activity and taking into account all its components: exhortation-motivation, orientation-research, performance components;

speech teaching should be based on children's independent language learning activities and should be related to other types of children's activities.

Currently, the development of the problem of teaching speech to preschool children is being carried out based on these methodological conditions.

The analysis of psychological and pedagogical research in the field of speech development of preschool children allows us to come to the following conclusions:

growth and development of speech is a complex, multifactorial process of assimilation of socio-historical experience, which plays a central role in the child's individual mental development;

growth and development of speech is a creative process that implies qualified pedagogical guidance, but it is not a spontaneous process;

the pedagogue managing the process of growing and developing the child's speech should know the laws, mechanisms, peculiarities of this process at different age stages, be able to see the peculiarities of

speech development and influence the child's speech, taking into account the individuality of the child should choose the most effective ways of showing.

Reference

1. Ushinsky K.D. **My parenting system. About morality.** – Moscow, 2018. 576 c.
2. Methods of teaching the Russian language in the national children's | F.A.Sakhina, E.I.Negnevitskaya under the pseudonym. – Moscow, 1985.; Negnevitskaya E.I., Shakhnorovich A.M. Language and children. – Moscow, 1981.
3. Methods of teaching the Russian language in the national children's | F.A.Sakhina, E.I.Negnevitskaya under the pseudonym. – Moscow, 1985. – P. 75.
4. Негневицкая Э.И., Шахнорович А.М. Language and children. – Москва, 1981.
5. Kadirova P.M. In the National Children's gardens of Uzbekistan, preschool children inject Russian swimmer speech. – Tashkent, 1992.;
6. Kadirova P.M. Teaching children Russian-language dialogical speech in the National Children's gardens of Uzbekistan. From a collection of scientific works entitled "linguodidactic basics of teaching Russian swimming speech to preschool children". – Tashkent, 1987.;
7. Kadirova F.R. To encourage Russian-speaking children of preschool age to swim in Uzbek. – Tashkent, 1997.;
- Kadirova P.M. Psychological factors of the development of dialogical speech in preschool children. – Kazakhstan, 1998.

Nodira KHATAMOVA,

Tashkent State University of Law, an ESL teacher

MAIN CHARACTERISTICS OF THE THEATRE OF THE ABSURD AS AN ANTI-PLAY MOVEMENT

Martin Esslin has described the Theatre of the Absurd in the words of Ionesco: "Absurd is that which is devoid of purpose... Cut off from his religious, metaphysical, and transcendental roots, man is lost; all his actions become senseless, absurd, useless" [1: 7]. The expression "Theatre of Absurd" has been criticized by some writers, and one also finds the expressions "Anti-Theatre" and "New Theatre". According to Martin Esslin, the four defining playwrights of the movement are Eugène Ionesco, Samuel Beckett, Jean Genet, and Arthur Adamov. Other writers often associated with this group include Tom Stoppard, Friedrich Dürrenmatt, Fernando Arrabal, Harold Pinter, Edward Albee, David Mamet, Sam Shepard and Jean Tardieu. The playwrights of the Theatre of the Absurd engaged in creating extremely grotesque plays both in form and contents, which revealed the conditions of human beings' existence in modern society. With the efforts of these playwrights, the Theatre of the Absurd reached its peak from 1960s to 1970s and became popular not only in France but also in other countries.

In the Theatre of the Absurd, multiple features are used to express tragic theme with a comic form. The features include anti-character, anti-language, anti-drama and anti-plot [2: 1463]. In the Theatres of Absurd, the characters are created with curious and grotesque personalities on the stages from the beginning to the

end. It seems that the author tries to dig out their hopelessness to life and society. They sometimes talk to themselves continually or repeatedly. And most of the time their words and sentences are interrupted or disordered. Therefore, common people will find that it is difficult to understand the character's words and behaviours. Let's take a typical example of "Waiting for Godot" by Samuel Becket. From the beginning to the end of the drama, two men speak continually. Their conversations are messy. Sometimes they blurt out some words and sentences without any implication. They do not reveal any personalities or peculiarities to let us distinguish them. We just know that they are two men. We do not know other information about them, such as their homes, parents and even the times which they belong to. It gives us an illusion that they have not any personalities, but in fact, they are shaped with a kind of special personality by their authors. The characters always have inconstant words, capricious behaviour and odd ideas in their minds.

In the Theatre of the Absurd, language has no fixed or settled form and regularities. The characters usually speak or talk in disorder. What the character has said sometimes is not the words that his partner has asked or wanted to get. Sometimes a character asks his partner something, but the partner says another thing that is irrelevant to what they are talking about. What they

have said cannot be understood by the audience. Just several minutes ago, the characters argue on the question of who will come. A moment later, they change to another irrelative subject, and finally you cannot follow their thoughts, which will lead you misunderstand their mind. In the anti-literary theatre, language is reduced to a very subordinate role. In its devaluation of language, the Theatre of the Absurd is in harmony with the trend of our time.

In the Theatre of the Absurd, the audience and readers fail to identify the characters in the play so it inevitably makes people feel humoristic and funny. We see what happens to the characters from the outside, rather than from their own point of view. With the incomprehensibility of the motivation, the unexplained and mysterious nature of the characters in the Theatre of the Absurd effectively prevents us from identifying the characters [3: 76]. Such theatre is a comic theatre in spite of the fact that its subject-matter is sombre, violent and bitter. That is why the Theatre of the Absurd transcends the category of comedy and tragedy, and combines laughter with horror.

The plot of the Theatre of the Absurd is fractured and scattered. The Theatre of the Absurd is surprising or obscure, and most of the time it has no end or results. For example, in "Waiting for Godot", audience

cannot guess the result of the play. They even do not know what the two men will do or say in the next step. From the beginning to the end of this play, we do not know what they are waiting for and what they are talking about. We just know they are having an endless waiting and an endless talking. In "Waiting for Godot", we cannot get any essence and theme in it when we read it for the first time. In fact, emptiness in the characters' hearts is the essence of the play. Their words and behaviours without any exact purpose tell us the meaning of human being's existence. Emptiness in their heart has formed an atmosphere. To sum up the plays that fall under the caption Theatre of Absurd have no story or plot. The plays have neither a beginning nor an end. Absurd plays lack a final clarity. The plot is essentially repetitive and cyclical. There are isolated characters who are mostly common people. Thus anti-plot is an important feature of the Theatre of the Absurd [4: 187].

The Theatre of the Absurd has the features of anti-character, anti-language, anti-drama and anti-plot. Thus the Theatre of the Absurd is valuable in making research on the western society. Though a lot of troubles and obstacles exist for people to understand the themes and language of the Theatre of the Absurd, many researchers and specialists still try to explore it.

References

1. Martin Esslin. The Theatre of the Absurd. – London: Bloomsbury, 2014.
2. Jiang Zhu. Theory and Practice in Language Studies. – Finland, 2013.
3. Wu Weiren. History and Anthology of English Literature. – Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press, 2004.
4. Richard F. Dietrich. British Drama 1890–1950: A Critical History. – Boston Publishers, 1989.

Vahobiddin BOZOROV,

*ToshDO'TAU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
magistratura mutaxassisligi magistranti*

"SABOT UL-OJIZIN" - ILMIY-MA'RIFIY ASAR

O'zbek adabiyotshunosligiga yangi davr nafasi kirib kelishi yillar, uzoq davrlar chegaralagan buyuk ma'naviy boyliklarni qayta kashf qilish imkoniyatini berdi. Mamlakatimizning mustaqillikka erishuvi nafaqat milliy mumtoz adabiyotimizning haqqoniy baholanishiga yo'l ochdi, balki zamonaviy o'zbek adabiyotining mumtoz irmoqlardan suv ichib yangi va sog'lom o'zanlarda rivojlanishi uchun katta imkoniyat eshigini ochdi. Bu jarayon ma'rifiy va adabiy-g'oyaviy ehtiyojlar mahsuli bo'lib, u, xususan, adabiyotimiz tarixini yanada mukammal o'rganish, beqiyos ma'naviy mulkimiz hisoblanmish badiiy durdonalarning g'oyaviy, badiiy va janriy xususiyatlarini to'laroq ochish, yillar davomida nazardan chet-

da qolgan, ta'qiqlangan qoralangan ijodkorlar merosini xolisona baholash ruhida amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbek adabiyoti tarixida diniy-ma'rifiy g'oyalarini Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniyaning so'ng ko'plab ijodkorlar, jumladan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ubaydiy, Mashrab va boshqalar kengroq ta'riflashga erishdilar. So'fi Olloyorning o'ziga xos xizmati shundaki, ilmiy-ma'rifiy, diniy tasavvufiy fikrlarni turkiy sodda uslubda, xalq onmasiga yaqin adabiy-badiiy shakllarda ifodaladi. Agar Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniyaning o'z fikrlarini badiiy adabiyotning g'azal, muxammas, shuningdek, "hikmatlar" shaklidagi she'rlar orqali ifodalashga erishgan

va ayrim masnaviy she'rlarini yaratgan bo'lsalar, So'fi Olloyor lirik she'riy shakllardan keng foydalangan holda, bu ta'limotni targ'ib qiluvchi to'rt yirik masnaviy – "Masalakul-muttaqiy" (taqvolidar maslasi), "Murodul-orifin" (Oriflar murodi), "Maxzanul-mute'in" (Mute'lar xazinasi), "Sabotul-ojizin" (Ojizlar saboti)ni yaratdi. So'fi Olloyor hayoti va ijodiga oid tadqiqotlar olib borgan olim Sh.Sirojiddinov ijodkor asarlari u yashagan davr va muhit hayoti bilan bog'liq holda o'rganilishini ta'kidlaydi, shuningdek, So'fi Olloyor asarlarida bo'rtib ko'rinuvchi ilohiyot bilan bog'liq qarashlarni bugungi ta'lim – tarbiya jarayoni uchun naqadar qimmatli ekanligiga alohida e'tibor qaratadi. Matnshunos olim Rashid Zohidovning ta'kidlashicha, "Sabotul-ojizin" yaratilgan davr o'zbek tili tarixida ham alohida xususiyatga ega. XIV-XVII asrlarga oid manbalarda (Xorazmiy, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Muhammad Solih, Bobur asarlarida) eski o'zbek tilining leksik-grammatik va uslubiy imkoniyatlari nihoyatda kengligi va rang-barangligi bilan to'laligicha namoyon bo'ladi. XVII asrdan keyingi o'zbek tilida yaratilgan asarlarda ma'lum sabablarga ko'ra, yuqorida ba'zi til imkoniyatlari yuqori darajada aks etmagan. "Sabot ul-ojizin" til tarixining biz shartli ravishda ajratgan mana shu ikki muhim davrning tutash joyida yaratilgan asardir. Olimning fikricha, asarni ilmiy-ma'rifiy asar sifatidagi qiymatini aniqlashda uni faqat bir fan tarmog'i doirasida qaramaslik lozim. Ya'ni biz "Sabotul-ojizin" asarini ham adabiyotshunoslik nazariyasi nuqtayi nazaridan, ham tilshunoslik nuqtayi nazaridan, ham aqoid ilmi nuqtayi nazaridan ilmiy-nazariy o'rganishimiz mumkin. Asar har bir fan tarmog'i uchun bir butun ilmiy manbadir. Shu jihatdan u ilmiy asardir. "Ma'rifiy" asar deyilishini ham olim juda asosli ravishda tushuntirishga harakat qiladi. "Sarlavhadagi "ma'rifiy" so'ziga beriladigan ta'rif esa "ma'rifat" tushunchasi-ning asl ma'nosini anglashga bog'liq. "Ma'rifat" so'zi lug'atda tanimoq, bilmoq ma'nolarini anglatadi. Ammo ilm so'zi anglatgan bilish bilan ma'rifat so'zi anglatgan bilish o'rtasida farq bor. Ma'rifat deganda narsaning belgilarini (sifatlarni) idrok qilish tushunilsa, ilm orqali bilishda narsaning o'zini (zotni) idrok qilish tushuniladi. Boshqacharoq aytilsa, ilgari xabardor bo'lmagan narsani keyin bilish ma'rifatdir. Shuning uchun "ma'rifat" so'ziga o'zakdosh orif sifatini Ollohg'a nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Chunki bexabarlikdan so'ng bilim hosil bo'lishi Yaratuvchiga emas, yaratilganlarga xos sifatdir. Qadim manbalarda, xususan mumtoz adabiyotimizda ma'rifat lafzi orqali Haqni tanish tushunchasi ifodalangan. Keyinchalik tilimizda "ma'rifat" so'zining ma'no doirasi yanada kengaydi. Asl taqozo qiladigan sifatlar aslning o'rnida iste'mol qilina boshladi. Masalan, "ma'rifatli kishi" degan so'zdan endi bevosita Haqni ongli ravishda anglash sifati tushunilmaydi. Balki, "zamonamiz kishisining ma'rifati – ko'p ma'lumotlardan xabardorlik, rasmiy odob etiketlarini o'zlashtirganlik bilan belgilanadi" degan qarash bugun me'yorga aylangan.¹

Diniy-ma'rifiy adabiyotni milliy madaniyat boyliklaridan ajratib bo'lmaydi. Chunki har bir diniy obraz va tushuncha zaminida insonni tarbiyalash va uni kamolga yetkazish vazifasi turadi. Shu jihatdan qaraganda, So'fi Olloyor va Alisher Navoiy ijodida qayta sayqallangan ko'plab diniy timsollarning o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyati borligi, o'z o'quvchisini qayta topganligining boisi ham shundadir.

Diniy-ilmiy she'riyat ikki jihati bilan amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, u diniy-tasavvufiy ta'limotni targ'ib qiladi, haq talab kishilarning Ollohg'a bo'lgan e'tiqodini kuchaytiradi, dinning amaliy shartlarini o'rganishga ko'mak beradi. Ikkinchidan, mazkur she'riyat badiiy ijod maxsuli bo'lib, u shoirning katta iste'dodidan, yuksak badiiy mahoratidan darak beradi. Demak, ilmiy-ma'rifiy asarlar kishiga islomiy ta'limotdan saboq berishi bilan birga kishilarda estetik didni shakllantiradi, tarbiyalaydi. So'fi Olloyor va Alisher Navoiy adabiy merosining salmoqdor bo'lishi unda islomiy ta'limot doirasidagi masalalarning xilma-xil va rang-barang qamrab olinishi bilan belgilanadi.

"Sabot ul-ojizin"da mavjudotlar ichra eng mukarram va mukammal qilib yaratilgan insonning mohiyati, uning hayotdagi o'rni, ilohiy tartib asosiga qurilgan borliq bilan insonning o'zaro munosabati singari umumbashariy masalalar islomiy nuqtayi nazardan atroficha talqin qilingan. "Sabot ul-ojizin" axloqiy-ta'limiy fikrlar bayon etilgan yetuk asar hisoblansa-da, bunday g'oyani ifoda qilish usuli ko'pchilik asarlardan farq qiladi. Masalan, o'zbek adabiyotining ilk davrlarida yaratilgan asarlar, chunonchi, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy", Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" kabi dostonlarida axloqiy-ta'limiy fikrlar diniy hamda dunyoviy manzaralar (majoziy tasvirlar), kechinmalar orqali berilgan.

Akademik B.Valixojayev asar haqida, "So'fi Ollohyorning asarlari, xususan "Sabotul-ojizin"i Sharq adabiyotining mumtoz vakillari bo'lmish Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodiyotlaridagi "Maxzan ul-asror", "Matla ul-anvor", "Tuxfat ul-axror", "Hayrat ul-abror" dostonlaridan ilhomlanish natijasida maydonga kelib, uning tuzilishida (maqolot va hikoyat, masallar) ham, ijtimoiy va axloqiy muammolarning o'rta qo'yilishida ham umumiylik ko'zga tashlanadi"². Bunday qarashlar I.Suvonqulov va I. Salohiddinovning kuzatishlarida ham ta'kidlanadi: "So'fi Ollohyor o'z ijodiy faoliyati bilan Yusuf, Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy, Haydar Xorazmiy, Alisher Navoiy kabilarning falsafiy dostonchilikdagi an'analarini XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning boshlarida o'ziga xos usulda davom ettirgan mutafakkir shoiridir. Darvoqe, u ilg'or fikrli shoir sifatida mehnatkash va halol inson manfaatlarini Boborahim Mashrab va Turdi Farog'iy darajasida himoya qila oldi"³. B.Valixojayev mazkur maqolasida "Sabot ul-ojizin"ning mumtoz shoir-

lar dostonlaridagi ijtimoiy va axloqiy muammolarning o'rtaga qo'yilishida umumiylik borligi, ammo bu asarning bajarishi lozim bo'lgan vazifasi nutayi nazaridan o'ziga xoslik tomonlari mavjudligini ham kuzatadi. "Sabotul-ujizin"ning I.Suvonqulov ta'kidlagan shoirlarning dostonlari bilan ham umumiy o'xshashlik tomonlari mavjud. Umumiylik tomoni shundaki, tilga olingan dostonlarda shoirlarning ijodidagi asosiy mushtaraklik axloqiy-ta'limiy fikrlarni ifodalashda, komil insonni tarbiyalashni bosh vazifa sifatida qarashda namoyon bo'ladi. Bajarilishi lozim bo'lgan vazifasi shundan iboratki, "Sabot ul-ujizin"da "Hazrat So'fi Ollohyor ilmi kalom

va ilmi fiqhda zikr etilgan masalalarni tushunarli tarzda bayon etib, insonlarning e'tiqodi, imoni, diyonatini mustahkamlashni, ularning o'zligini va Xoliqni tanishlari bilan bog'liq masalalardan so'z yuritishni maqsad qilib qo'yganlar va bu maqsadni muvaffaqiyat bilan amalga oshirganlar"⁴.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ilmiy-ma'rifiy asarlar kishiga islomiy ta'limotdan saboq berishi bilan birga kishilarda estetik didni shakllantiradi, tarbiyalaydi. So'fi Ollohyor adabiy merosining salmoqdor bo'lishi unda islomiy ta'limot doirasidagi masalalarning xilma-xil va rang-barang qamrab olinishi bilan belgilanadi.

1. Zohidov R. "Sabotul ujizin" asarining manbalari, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o'rganish muammolari. F. d. diss. – Toshkent., 2018.
2. Valixo'jayev B. Miyonqol adabiy muhitida So'fi Ollohyorning mavqeyi. // "Muloqot" jurnali, 1996, 3-son.
3. Ziyouz.com kutubxonasi
4. Ulug' olim va mutasavvuf shoir. – Samarqand: Zarafshon, 2000.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zohidov R. "Sabotul ujizin" asarining manbalari, sharhlari va ilmiy-tanqidiy matnini kompleks o'rganish muammolari. F. d. diss. – Toshkent., 2018.
2. Valixo'jayev B. Miyonqol adabiy muhitida So'fi Ollohyorning mavqeyi// "Muloqot" jurnali, 1996, 3-son.
3. Ziyouz.com kutubxonasi

Farangiz FAYZIYEVA,
SHDPI 2-kurs magistranti

"MAHBUB UL-QULUB" ASARIDA KOMIL INSON G'OYASI ASOSIDA ILOHIY SIFATLARNING NAMOYON BO'LISHI

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy bobomiz xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafigi dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Alisher Navoiy bobomizni bilmasa, sevmasa, sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa.

"Mahbub ul-qulub" ya'ni "Ko'ngillarning sevgani" asari 1500-yilda yozilgan. Bu nom bilan mazkur kitobda insonga xos eng ezgu fazilatlar, uni ma'naviy barkamol etadigan, o'zgaralar qarshisida go'zal, oliyjanob ko'rsatadigan xislatlar jamlanganini anglatmoqchi bo'ldi. Alisher Navoiy ko'zlagan maqsad nafaqat asar nomida, ayni chog'da uning butun ma'no-mazmunida, ta'rif-u tafsilotlarida to'la mujassamdir. U dunyoning achchiq-chugugini ko'rgan goho "kamronlig", goho "notovonlig" topgan buyuk shoir Navoiyning 60 yillik hayotiga yakun

bo'lgan asardir. Asar o'zaro bog'liq 3 qismdan iborat. 1-qism 40 fasl (bob) ni o'z ichiga oladi. Bunda muallif o'z davrining tipik vakillari hayotini tasvirlagan. 10 bobdan tashkil topgan 2-qismda yaxshi va yomon, maqtovga sazovor va nafratga loyiq hislatlar tafsiloti berilgan. 3-qismga masal va hikmatlar kiritilgan. Har bir jumla o'zaro qofiyadosh. Asarning sajda yozilishi unga alohida badiiy nafosat bag'ishlagan.

Ilohiy sifatlarni namoyon qilgan komil insonlargina (payg'ambarlar, valiyar, haqiqatga etganlar - "muhaqqiqun") tanzih ul- kashf natijasida borliqning barcha imkoniyatlarini oshkor etadilar. Koinot shaklidagi komil inson, shuningdek, inson zotining har bir vakili. Haqoyiqlarni mujassam etadigan ontologik xilqatga ega bo'lganligi tufayli har bir insonda ilm egallash imkoni bor. Sh.Sirojiddinov yozadi: "Inson qalbida odamzod o'z taraqqiyoti davomida asta-sekin kashf etib borishi, ya'ni tilsimlarni yechib borishi lozim bo'lgan jamiki ilmlar joylangan va ular oxir-oqibatda inson uchun ko'rinmas

va yashirin bo'lgan Allohga eltadi... Uning zimmasidagi bosh vazifa ilohiy ne'mat bo'lgan ona-zaminni obod qilish, yuksak sivilizatsiyaga eltish va buning garovi bo'lgan ezgulikni asrashdir."

Komil inson haqiqat ul-haqoyiq bilan teng o'ringa qo'yiladi, insonga haqoyiqlar to'plami sifatida qoraladi, ya'ni inson Allohning buyuk qudrati, san'atini o'zida namoyon etadi. "Haqiqat-al-haq" bilan baravar qimmatga ega bo'ldi. "Haq" sifati ikki xil ma'no kasb etadi: vujudiy va irfoniy. Birinchisi doimiy, uzluksiz real individual mavjudlikka ishora qiladi. Ikkinchi ma'noda Haq aqldan tashqari voqelikka xos tushunchani tavsiflaydi. Navoiy aqidasi bo'yicha, Haqiqat - bu mutlaq haqiqatlarning to'plamini namoyon qiladigan ilohiy zot; kasrat - bu har biri bir-biriga nisbatan joylashgan haqoyiqlarni namoyon qilgan narsalar (sifatlar). Haqiqat ul-haqoyiq -bu ilm va barcha haqiqatlarning umumlashmasi. U narsa yaratilmagan, abadiy ham emas, lekin u Alloh haqiqatidir. Quyida ushbu fikrlar o'z badiiy tasdig'ini topadi. Aql sarrofidan Bahrom:

*Chun javohir haqoyiqin bildi,
Sirridin bu sifat xabar qildi.
Kim: jahon bahri ichra har lu'lu
Ki, erib obutobidin mamlu.
Kishi fahm etsa asl ila budin,
Anglar ul durni qatrai suvdin.*

Bularning hammasi kamolot nafaqat axloqiy-ma'naviy, shuningdek, ontologik ma'no kasb etishini anglatadi. U Alloh uchun ko'zning qorachig'idek: qorachiq idrokni amalga oshirish vositasi. Alisher Navoiy qarashicha, insonning fe'liy sifatleri uning ilmi va amallari bilan bog'liq. Fe'liy sifatlar Alisher Navoiy ijodida Farhod, Majnun, Shoh Iskandar, Suqrot, Bahrom, Sa'd, Suhayl kabi timsollarda yoritildi.

Alisher Navoiy Xoliq va xalq munosabatlari, Olam va odam konsepsiyasida diniy ta'limotlar qobig'idan chiqib mulohaza yuritadi. Uning konsepsiyasida inson - ezgulik bilan yo'g'rilgan xilqat. Ontologik jihatdan komil inson Yagona borliqning muhim bo'g'ini. Ikki olamni birlashtiruvchi, ikki olam sifatlariga ega. Kosmologik xilqat bo'lgan komil inson to'qqiz falak sifatlarini o'zida birlashtirgan, u koinotning, shuningdek butun yaratilmish olamning kichik nusxasi. Revelyativ jihatdan esa u ilohiy vahiy orqali amalga oshgan Allohning azaliy irodasi, maqsadi, Komil Ilmi, Quدراتini o'zida jamlagan, insoniylik farzini namoyon etgan sevimli, oliy yaratig'i.

SAXOVAT VA HIMMAT BOBIDA

Saxovat insoniyat bog'ining borvar shajaridur, balki ul shajarning mufid samaridur. Odamiylik kishvarining bahri mavjvari, balki ul mavj bahrining samin gavhari. Saxovatsiz kishi-yong'insiz abri bahor va royhasiz mushki totor. Mevasiz yig'och hamon-u o'tun hamon va yog'insiz bulut hamon-u tutun hamon. Saxosiz kishi bir-la gavharsiz sadafning bir hukmi bor. Dursiz sadaf birla o'lub qurug'on kashafg'a ne e'tibor.

SAXOVAT VA HIMMAT TO'G'RISIDA

Saxovat insoniyat bog'ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizidir, balki u to'iqinli dengizning bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam yog'insiz bahor bulutiga va hidi yo'q mushk-anbarga o'xshaydi. Mevasiz daraxt ham bir-u, o'tin ham bir; yog'insiz bulut ham bir-u, tutun ham bir. Saxovatsiz odamdan ichida gavhari bo'lmagan sadafning farqi yo'q; dursiz sadaf bilan qurib qolgan toshbaqa chanog'ining farqi yo'q.

HILM ZIKRIDA

Hilm inson vujudining favoqihlig' bog'idur, odamiylik olamining javohirlig' tog'i. Hilmninhavodis daryosida kishilik kemasining langari desa bo'lur va insoniyat mezoni toshig'a nisbat qilsa bo'lur. Axloq shaxsning og'ir baholig' libosidir va ul libos jinsining sangin debosi. Muxolif nafslar sarsari uchurmoqdin asrag'uvchi va munofiq, bulhavaslar harzasi tundbodi sovrurmoqdin saqlag'uvchi. Xaloyiqdin kishiga mujibi ta'zim va e'zoz va akobirdin asog'irg'a boisi iltifot va imtiyoz. Necha ulug' kishi tamasxur va tiybat qilsa, aning qoshida beshukuh va viqor.

HILM TO'G'RISIDA

Hilm (muloyim tabiyatlik) inson vujudining xushmanzara mevalik bog'idur va odamiylik olamining jovohirga boy tog'idur. Yushoq ko'ngillilik-hodisalar to'la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo'ladi va insoniyat qadrini o'lchaydigan tarozining toshiga tehglashtirsa ham bo'ladi.

Hilm-axloqli odamning qimmatbaho libosi va u kiyim turlarining eng chidamli matosidir. U yomon nafsni daydi shamol uchirishidan asraguvchi va ikkiyuzlama munofiqlarning behuda harakatidan himoya qiluvchi.

Hilm natijasida odam xaloyiqning izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi; hilm tufayli kattalardan kichiklarga iltifot va marhamat yetishadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ҳайитов Ш. Алишер Навоий "Махбуб ул кулуб" асарининг манбалари ва ғоявий бадиий хусусиятлари. Филол.фан. номз.дис. ... автореферати. – Т., 1997.
2. R. Vohidov. Alisher Navoiyning ijod maktabi. Buxoro. 1994. 31-bet.
3. С. Айний. Асарлар. 10том Т. 1967., 169-бет

Diana RUZMETOVA,
 Chirchiq davlat pedagogika
 universiteti, stajyor-tadqiqotchi

INGLIZ TILINI O'QITISHDA GRAMMATIK INTERFERENSIYANING OLDINI OLIISH TADQIQOTI

Annotatsiya. Mazkur maqola doirasida olib borilgan tadqiqot natijalari respublikamiz sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalariga ingliz tilini o'qitish jarayonida grammatik aralashuvlarning oldini olish bo'yicha taklif etilayotgan metodikani samarali tadbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar tayyorlash imkonini berdi. O'zbekiston. Shu jihatda, tayyorlanayotgan metodikaning maqsadli guruhi, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi sharoitidagi oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar, bo'lajak o'qituvchilar ekanligini alohida ta'kidlash o'rinli ko'rinadi.

Kalit so'zlar: metodologiya, grammatik aralashuv, samaradorlik, modellashtirish, didaktika, ingliz tili, pedagogika, oliy o'quv yurtlari.

Abstract. The obtained results of the research conducted within the framework of this article allowed us to prepare practical recommendations for the effective implementation of the proposed methodology for preventing grammatical interference in the process of teaching English to students of higher educational institutions in the conditions of the Republic of Uzbekistan. In this aspect, it is considered appropriate to emphasize that the target group of the prepared methodology consists primarily of students, future teachers studying in higher educational institutions in the conditions of the Republic of Uzbekistan.

Key words: methodology, grammatical interference, efficiency, modeling, didactics, English, pedagogy, higher education institutions.

Аннотация: полученные результаты проведенного исследования в рамках данного состояния позволяют подготовить практические рекомендации для эффективной реализации предложенных методов профилактики грамматической интерференции в процессе обучения английскому языку студентов высших учебных заведений и условий Республики Узбекистан. В данном аспекте подчеркивается целесообразным, что целевую группу подготовленной методики составляют, прежде всего, студенты, будущие педагоги, обучающиеся и высшие учебные заведения и условия Республики Узбекистан.

Ключевые слова: методика, грамматическое вмешательство, эффективность, моделирование, дидактика, английский язык, педагогика, высшие учебные заведения.


Grammatik interferensiyaning oldini olish maqsadida didaktik modellashtirish orqali ko'p tillilik muhitida grammatikani o'qitishni tashkil etishning quyidagi asosiy bosqichlari belgilandi:

birinchi bosqich – o'zuvchi izoh bo'lib, bunda kontakt tillar tizimlari, ya'ni o'rganilayotgan, ona tili va avval o'rganilgan tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar haqidagi ma'lumotlar beriladi;

ikkinchi bosqich – grammatik hodisalar bilan ishlash bo'lib, bunda o'rganuvchi tomonidan grammatik hodisalarning mohiyati va o'rganilayotgan tilning tushunchalar tizimini anglab etishi uchun maxsus mashqlar tashkil etiladi va o'tkaziladi;

uchinchi bosqich – mos sharoitlarni yaratish, bunda o'rganuvchilar uchun kundalik amaliyotda va bo'lg'usi kasbiy faoliyatda kechadigan turli kommunikativ vaziyatlarda grammatik hodisalarni mustaqil ravishda qo'llash uchun sharoitlar yaratiladi.

Ma'lumki, amaliyotda qo'llash huquqi mavjud bo'lgan istalgan turdagi pedagogik ishlanmalar maqsadi bo'yicha samaradorlikka tekshirib o'rganiladi. Grammatik interferensiyaning oldini olish bo'yicha tayyorlangan metodikaning samaradorligini o'rganish maqsadida eksperimental tadqiqot o'tkazildi. Mazkur ishning tajribalari sxemasi bu kabi tadqiqotlarning klassik tarkibini aks ettiradi (3.1-rasm).



1-rasm. Grammatik interferensiyaning oldini olish metodikasi samaradorligini eksperimental tadqiq etish sxemasi

Eksperimental tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida tahsil oladigan jami 145 nafar o'g'il va qiz talabalar qatnashdi. Qiyosiy tahlil va ingliz tilini o'qitishda grammatik interferensiyaning oldini olish jarayoniga ta'sir etuvchi turli xil murakkab omillarni hisobga olish maqsadida eksperimental tadqiqotning ishtirokchilari tanlovi ikki

guruhga ajratildi: ingliz tilini o'qitishda grammatik interferensiyaning oldini olish metodikasini o'tkazish jarayonida bevosita ishtirok etgan 72 nafar talabadan iborat eksperimental guruh; ingliz tilini o'qitishda grammatik interferensiyaning oldini olish metodikasini o'tkazish jarayonida bevosita ishtirok etmagan 73 nafar talabadan iborat nazorat guruhi. Shu bilan birga, qiyoslash guruhlarini tasodifiy sonlar jadvali yordamida, ya'ni randomizatsiya texnikasini qo'llash orqali tasodifiy tarzda shakllantirildi.

Eksperimental tadqiqotda qatnashgan respondentlar [1, 2]. ikki marta, ya'ni grammatik interferensiyaning oldini olish metodikasini o'tkazishdan oldin va keyin baholandi. Baholash jarayoniga ingliz tilini o'qitish bo'yicha salmoqli pedagogik tajribaga ega 26 nafar ekspert jalb qilindi.

Olingan ko'rsatkichlar talqini qiyoslash guruhlarini respondentlarining aksariyat qismida grammatik interferensiyaning o'rta darajasi kuzatilganligini ko'rsatdi (37 kishi – eksperimental guruh 51,4%; 38 kishi – nazorat guruhi 52,1%). Grammatik interferensiyaning o'rta darajasidan yuqoriroq bo'lgan daraja ahamiyati bo'yicha keyingi o'rinda turadi. Bu daraja eksperimental guruh talabalarining 20,8 foizida (15 kishi) va nazorat guruhi talabalarining 20,5 foizida (15 kishi) kuzatildi. O'z navbatida, grammatik interferensiyaning yuqori darajasi eksperimental guruh respondentlarining 19,4 foizida (19,4 kishi) va nazorat guruhi respondentlarining 17,8 foizida (13 kishi) kuzatildi. Shu bilan birga, grammatik interferensiyaning quyi darajalari ham kuzatildi:

O'rta darajadan pastroq daraja eksperimental guruh talabalarining 5,6 foizida (4 kishi) va nazorat guruhi talabalarining 6,8 foizida (5 kishi) kuzatildi.

Quyi daraja eksperimental guruh talabalarining 2,8 foizida (2 kishi) va nazorat guruhi talabalarining 2,7 foizida (2 kishi) aniqlandi.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, qiyoslash [3, 4]. guruhlarida grammatik interferensiya darajalari bo'yicha miqdoriy ko'rsatkichlar tajribani o'tkazishdan oldin va keyin deyarli farqlanmadi.

Mazkur fakt statistika jihatidan ham tasdiqlanib, bu borada qiyosiy tahlil o'tkazildi. Bunda qiyosiy tahlilning u yoki bu statistika mezonini to'g'ri tanlash maqsadida ularni qo'llash shartlarini hisobga olib, SPSS-23 dasturi yordamida Kolmogorov-Smirnovning noparametrik mezonini bo'yicha ekspert baholash natijalarining (tayyorlangan metodikani o'tkazishdan oldin grammatik interferensiyaning namoyon bo'lish darajasi, n=145) me'yoriy taqsimlashga mosligini tekshirish uchun

dastlabki tahlil o'tkazildi. Bajarilgan ish natijalariga ko'ra Kolmogorov-Smirnovning noparametrik mezonini bo'yicha asimptotik (ikki tomonlama) ahamiyati nolga teng ($r=0,000$), ya'ni 0,05dan kichik ($r<0,05$). Shunga bog'liq holda tahlil qilinayotgan empirik taqsimot me'yordan ancha farqlanishini e'tirof etish maqsadga muvofiq. Mazkur holatni hisobga olgan holda qiyoslash guruhlarida grammatik interferensiyaning ekspert baholash natijalarini qiyosiy tahlil qilish maqsadida noparametrik statistika, xususan o'zaro bog'liq bo'lmagan tanlanmalar uchun Mann Uitnining U-mezonini qo'llandi. Ushbu mezonni qo'llash natijalari asimptotik (ikki tomonlama) ahamiyati 0,755 teng ekanligini ko'rsatdi, ya'ni 0,05dan katta ($r>0,05$). Shundan kelib chiqib, tayyorlangan metodikani o'tkazishdan oldin va keyin eksperimental va nazorat guruhlarida grammatik interferensiyaning namoyon bo'lish darajalari bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli tafovutlar kuzatilmadi.

Mazkur ish doirasida o'tkazilgan tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi sharoitida oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ingliz tilini o'qitish jarayonida grammatik interferensiyaning oldini olishga qaratilgan metodikani samarali qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalarni tayyorlash imkonini berdi. Bu borada, tayyorlangan metodikaning asosiy guruhlarini oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar – bo'lajak pedagoglar tashkil etishini e'tirof etish maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, mazkur tadqiqot doirasida olingan natijalarga tayanib, grammatik interferensiyaning oldini olish metodikasini samarali qo'llash bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu ishlanmani qo'llash jarayonida pedagog-o'rganuvchi tizimidagi tayyorgarlik va o'zaro ta'sir jarayonining asosiy strategiyasini mohiyatan aks ettiradigan didaktik va metodik xarakterga ega xorijiy tilni o'qitishning muvofiqlashtirilgan tamoyillari kompleksiga amal qilish maqsadga muvofiq. Maxsus mezonlarni qo'llashni e'tiborga olgan holda tizimlilik, shaxs-faoliyat va eksplitsit yondashuvlariga amal qilish asosida o'rganuvchilarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirishga mo'ljallangan tegishli grammatik strukturalarni ajratish samarali natija beradi. Interferensiyaning oldini olish nuqtai nazaridan grammatik kompetensiyaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: tushunish va unga mos ravishda fikrni ifodalash qobiliyati; grammatika qonunlari va me'yorlariga muvofiq ona tili va o'rganilayotgan tilning grammatik shakllarini ongli qo'llash; tilning grammatik tizimini ichki noverbal bilish; tilning morfologik, sintaktik tizimi va qoidalarini bilish.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Дадаян Э.Г. К вопросу о затрудненном общении на иностранном языке: Меж-вуз. Сб. науч. Ст. – Пятигорск: ПГЛУ, 2004. – С. 78-84.
2. Дечева С.В., Ильина К.А. Явление языкового контакта: проблемы и перспективы исследования. // Вестник Самарского государственного университета. 2015. – №7. – С. 9-15.
3. Динес Л.А., Орлова Н.М. Лексическая система и лексическая интерференция. // Технологии обучения и творческий потенциал учителя: Сб. науч. трудов. Саратов, 2002. Вып. 3. – С. 213-217.
4. Дьяков А.С. Принципы классификации языковых интерференций. // Научный вестник Черновицкого университета. Германская филология: Сборник науч. трудов. – Черновцы, 2000. – № 3. – С. 92-95.
5. Дьяков М.Л. Типология языковых интерференций. // Обучение иностранным языкам и культурам. Материалы международной науч. метод. симпози.: Пятигорск: ПГЛУ, 2006. – С. 56-60.
6. Жумашева А.Ш. Лингвокультурная интерференция как следствие диалога культур. // Режим доступа: http://www.rusnauka.com/28_OINXXI_2010/Pedagogica/72304.doc.htm

Muyassarxon BAHRIDINOVA,
 Toshkent davlat yuridik universiteti Chet tillar kafedrası
 katta o'qituvchisi

O'ZBEK VA NEMIS YURIDIK TERMINLARIDA ICHKI VA TASHQI OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek yuridik terminlarini o'rganish, yuridik terminologiyaning asosiy xususiyatlari hamda o'zbek yuridik terminlarini shakllantirishning ichki va tashqi imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada o'zbekistonlik va xorijlik olimlar, jumladan, huquqshunos va tilshunoslarning fikr-mulohazalari o'rin olgan.

Kalit so'zlar: yuridik terminologiya, terminlar, o'zbek tili, ichki va tashqi imkoniyatlar, kodekslar, nizomlar, sud amaliyoti.

Annotation. This article discusses the study of Uzbek legal terms, main features of legal terminology and the internal and external opportunities in the formation of Uzbek legal terms. Views of both Uzbek and international scholars including lawyers and linguists are provided.

Keywords: legal terminology, terms, Uzbek language, internal and external opportunities, codes, normative acts, jurisprudence.

Аннотация. В данной статье рассматривается изучение узбекских юридических терминов, основные особенности юридической терминологии и внутренние и внешние возможности образования узбекских юридических терминов. В статье были представлены мнения как узбекских, так и зарубежных ученых, в том числе юристов и лингвистов.

Ключевые слова: юридическая терминология, термины, узбекский язык, внутренние и внешние возможности, кодексы, нормативные акты, судебная практика.

Yuridik faoliyat sohasida tabiiy til bir qator o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bu o'zgarishlarning keng tarmoqli ekanligi rus tilining funksional huquqiy xilma-xilligini mustaqil tizim sifatida ko'rib chiqishga asos bo'ladi. Yuridik til, huquqiy til sohasining boshqa hodisalari kabi, adabiy substratdan to'liq olinmaydigan o'ziga xos xususiyatga ega.

Yuridik tilning o'ziga xos jihati tabiiy tilning antinomik mavjudligi, uning mavjud bo'lish qonuniyatlarining stixiyaliligi, til birliklari semantikasining maydon tuzilishi yuridik matnlarda buyruq mayllarining qo'llanilishi va yuridik nutqda qo'llaniladigan til birliklarining qattiq semantizatsiyasi bilan ziddiyatga keladi.

Yuridik tilning muhim tarkibiy qismi yuridik terminologiyadir. Yuridik terminlar "yuridik texnikaning elementi, davlat-huquqiy tushunchalarning og'zaki belgilari bo'lib, ular yordamida davlat-huquqiy normalarining mazmuni ifodalanadi va mustahkamlanadi".

Lingvistik mohiyatiga ko'ra, yuridik terminlar huquqiy hodisalarni bilish jarayonida tayanch nuqta bo'lib, bunday terminlar huquqning tartibga solish funksiyasi bilan bevosita bog'liq, huquqiy normalarning samarali faoliyat yuritishi va qo'llanilishi yuridik terminlarning realizatsiyasi hisobiga amalga oshadi. Shu sababdan yuridik terminlarni nafaqat til tizimining birliklari sifatida, balki ularning amaldagi faoliyati, oddiy ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan idrok etilishi nuqtayi nazaridan ham o'rganish zarurati tug'iladi.

Ushbu maqolaning maqsadi huquqiy terminologiya muammosini struktur va antropotsentrizm nuqtayi nazaridan o'rganish xususiyatlarini aniqlashdir.

Yuridik terminologiyaga bag'ishlangan tadqiqotlarning aksariyati huquqiy terminologiyaga sistemali yondashuv doirasida amalga oshirilgan (T.M.Balixina, A.S.Pigolkin, S.P.Xijnyak, D.I.Miloslavskaya va b.).

Ushbu yondashuv doirasidagi asosiy jihatlar strukturaviy-semantik, ortologik, funksional-stilistik yondashuvlardan iborat.

Strukturaviy-semantik jihatdan T.M.Balixina tadqiqot olib borgan bo'lib, unda huquqiy terminlarning tematik guruhlari, yuridik terminologiya shakllanishining genetik manbalari ko'rib chiqilgan, terminologik nominatsiyaning asosiy va mahsuldor vositalarini aniqlash maqsadida yuridik terminlarning so'z yasallish qonuniyatlari va struktur-grammatik tashkil etilishi tahlil qilingan.

Tadqiqotchining fikricha, terminologik iboralarini tarkibiy tasniflashning asosini komponentlar soni va ularning grammatik belgilari tashkil etadi, ikki komponentli tuzilmalar esa eng mahsuldor hisoblanadi. T.M.Balixina birinchi bo'lib terminologik iboralarining semantik, strukturaviy, grammatik va funksional xususiyatlarini har tomonlama o'rganadi. Tadqiqot natijasida T.M.Balixina "terminologik iboraning ma'nosi lingvistik va ekstralingvistik tarkibning dialektik birligi vazifasini bajaradi", degan xulosaga keladi.

S.P.Xijnyak funksional-stilistik jihatdan tadqiqotlar olib borgan. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, yuridik terminologiya turli xil bo'lib, "huquq (qonun) terminologiyasi va huquqshunoslik (yurisprudensiya) terminologiyasi"ni ajratib ko'rsatish mumkin, bunday bo'linish "yuridik terminologiya faoliyatining turli sohalari: rasmiy-ish terminologiyasi va ilmiy terminologiya bilan bog'liq". Yana ta'kidlanadiki, huquqshunoslik terminologiyasi huquq terminologiyasiga qaraganda ancha murakkab, chunki unda qonunlar matnlarida uchramaydigan nazariy tushunchalarni bildiruvchi atamalar (gipoteza, moddiy huquq) qo'llaniladi.

S.P.Xijnyak ta'kidlashicha, yuridik terminlarning me'yoriy bahosi qator parametrlarni o'z ichiga oladi: 1) terminlar tarkibi; 2) nominatsiya (nom berish) usullari;

3) shakllanish manbalari; 4) atama va tushuncha o'rtasidagi munosabat.

S.P.Xijnyak huquqiy terminologiyada maxsus terminologik yondashuvlarni (so'z yasashida umumxalq so'zlashuv tili tizimiga nisbatan tartiblilik; tushunchalarni farqlashga intilish) va turli xil variativlik turlarida ifodlangan umumiy til yondashuvlarini qayd etadi: semantik (polisemiya), so'z yasovchi, leksik (dubletlar).

S.P.Xijnyak, shuningdek, o'z izlanishlari natijasida yuridik terminologiyani soddalashtirish uchun yuridik ta'riflarga qo'yilishi kerak bo'lgan talablarni ham belgilab bergan.

Umumiy adabiy so'zlarning terminga aylanish jarayoni ikki shaklda sodir bo'ladi: 1) adabiy tilga xos mono-

semik so'z bir xil, ammo chuqurroq va keng ma'noli monosemik termin hosil bo'lishiga asos bo'ladi (masalan, jinoyat, jazo, harakatsizlik terminlari); 2) terminologik ma'no ko'p ma'noli so'zning bir ma'nosi asosida, bu ma'no mazmunini kengaytirish va chuqurlashtirish orqali rivojlanadi. Shunga ko'ra, "tabiiy" so'z va shu so'zning yuridik termin sifatidagi semantikasi o'rtasida yuzaga keladigan farqlar haqida savol tug'iladi. Til birliklarini tilda so'zlashuvchi subyektlardan ajratgan holda o'rganadigan sistemali yondashuv doirasida bu savolga to'liq javob berish mumkin emas. Ushbu birliklar ularni retsipiylar tomonidan talqin qilish jarayonida tekshirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A brief political dictionary. 2nd edition. – Tashkent: Uzbekistan, 1975. – 310 p.
2. Boyko L.M. Improvement of legislative techniques in the context of accelerating the socio-economic development of Soviet society. 1988. – p. 92.
3. Criminal code of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent: Adolat, 1998. – 335 p.
4. Civil code of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent: Adolat, 1996. – 556 p.
5. Doniyorov R. Some issues of technical terminology of the Uzbek language. – Tashkent: Fan, 1977.
6. Doniyorov R. On an important issue of Uzbek lexicography // Uzbek language and literature, 1981, (6), pp. 32–37.
7. Dictionary of legal terms and expressions. – Tashkent: Adolat, 1993. – 141 p.
8. Explanatory dictionary of the Uzbek language. Vol. II. – Moscow: Russian, 1981. – 715 p.
9. Economic procedural code of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent: Uzbekistan, 1998. – 191 p.
10. Kochimov Sh. Language of the laws of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent, 1995. – 125 p.
11. Russian-Uzbek educational dictionary of legal vocabulary. – Tashkent, 1991. – 228 p.
12. Legal encyclopedia. – Tashkent: Sharq, 2001.
13. Family code of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent: Adolat, 1995. – 303 p.
14. Karimova L.A. Legal and moral aspects of language laws. Abstract of thesis. diss. ... cand. jurid. sciences. – Tashkent, 1991.
15. Kasimov A. Pharmaceutical terminology in the modern Uzbek language. Abstract of thesis. diss. ... cand. philol. sciences. – Tashkent, 1982.
16. Kasimova M.Kh. Structural and systemic features of the legal terminology of the Uzbek language. Abstract of thesis. diss. ... cand. philol. sciences. – Tashkent, 1985.
17. Rahimova B.M. The lexicographical aspects of legal terms in the German and Uzbek languages // Oriental Art and Culture, 2020, (V).

Dilnozaxon MUROTOVA,
Farg'ona davlat universiteti

MULOQOTDA UZR SO'RASHNING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI

Annotatsiya. Maqola nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar, xususan uzr so'rashning lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Uzr so'rashning leksik-semantik hamda kognitiv tomonlari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, uzr so'rashning milliy-madaniy xususiyatlari, kommunikatsiya jarayonida o'ziga xos ma'noda qo'llanishiga sabab bo'lgan asosiy pragmatik omillar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Muloqot, nutqiy etiket, uzr so'rash, tafakkur, kommunikant, idrok, mentallik, lingvokulturologiya, pragmatika.*

Bugungi kunda tilshunoslikda tilning faoliyat jarayoni bilan aloqador yo'nalishlaridan biri bo'lgan pragmatikaga qiziqish ortdi. Pragmatikaning asosiy vazifasi nutqning tarkibiy qismlari mazmunini aniqlashdir. Pragmatika belgilarning shu belgilar tizimidan foydalanuvchilarga munosabatini o'rganadi. Pragmatika ilmiy

hayotga tilshunoslar tomonidan e'tibor qilinmagan juda muhim faktlarni olib kirib, bu faktlarga nazariy maqom berdi. Pragmatik tahlillarga ko'ra, nutq qismlarining mazmuni tasdiq, inkor, iltimos, e'tiroz, taxmin, javob kabilarga ajratiladi. Nutqiy muloqotning asosi bo'lgan nutq qismlari pragmatik yo'nalishda so'z, so'z birikma-

si, gap tarzida emas, balki ularning faoliyat jarayonida anglatgan mazmuni – iltimos, buyruq, savol, javob, uzr soʻrash va shu kabilar asosida tekshiriladi.

Oʻzbek tilshunosligida nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar, boshqa koʻplab xalqlar tilshunosligi tarixida boʻlgani kabi, dastavval, madaniyatshunoslik, odob-axloq meʼyorlari qatorida oʻrganilgan. Bu davr adabiyotlarida oʻrganilgan nutqiy etiket, jumladan, muloqot shakllari til birligi sifatida emas, balki tarbiya ifodasi, inson shaxsiyatining namoyon etuvchi tushunchalar sifatida tahlil etilgan. Bu kabi asarlar mohiyatiga koʻra ilmiylikka nisbatan koʻproq didaktik xarakterga ega hisoblanadi. Ularda pand-nasihat qilish, yoʻl-yoʻriq koʻrsatish va asar maqsadiga koʻra ham oʻrganishdan koʻra oʻrgatish ustuvorligi seziladi.

Oʻzbek tilida nutq madaniyati, nutqiy odatlar masalalarining nazariy tadqiq etilishi hamda tilshunoslikda alohida tarmoq sifatida shakllanishida taniqli olimlar S.Ibrohimov, R.Qoʻngʻurov, X.Doniyorovlar tamal toshini qoʻygan boʻlsalar, keyinchalik boshqa olimlar katta mehnat qilib, bu yoʻnalishda muayyan sohalarni shakllantirishga erishdilar. Professor S.Moʻminov oʻz ilmiy izlanishlarida oʻzbek muloqot xulqini ilk bor ijtimoiy lisoniy aspektida oʻzbek kommunikantlari faoliyatining kompozitsion bosqichlari, kommunikantlar oʻrtasidagi munosabatning milliy oʻziga xos xususiyatlari, muloqot xulqining jins, yosh, sosial va hudud jihatidan xoslanishini atroflicha tadqiq etdi¹. Sh.Iskandarova nutqiy etiket uchun muloqotning oʻrni va paytining mavjudligi, soʻzlovchi va tinglovchining ishtiroki, maqsad, asos, aloqa vositalari, xulq-atvorning maxsus belgilangan shakllari, ifoda mavzusi, soʻzlashuvchilarning oʻzaro munosabatlariga xos xususiyatlar, ijtimoiy belgilar, vaziyatning rasmiy va norasmiyligi belgilarini tanlab, ularni barqaror va oʻzgaruvchan belgilarga ajratib tadqiq etadi². Z.Akbarova murojaatning inson nutqiy faoliyatidagi oʻrni, mavqe, bosqichlari, murojaat ifodalashning oʻziga xos turli shakllari, murojaat maydoni strukturasi, murojaat ifodalovchi ekstralingvistik vositalar, murojaatning inson nutq faoliyatining ajralmas qismi sifatidagi universal hodisa ekanligini tadqiq etdi³.

Oʻzbek tilida hurmat kategoriyasi ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida mavjud boʻlib, oʻz leksik-grammatik vositalariga va ifodalanish usullariga egadir. Oʻzbek tilida hurmat maʼnosini ifodalovchi vositalarning tuzilishi, vazifasi, semantik xususiyatlari va qoʻllanish jihatlarining tahlili hurmat maʼnosi lisoniy va nutqiy vositalarga ega boʻlgan ijtimoiy-ijobiy subʼyektiv maʼno ekanligini koʻrsatadi. UZR soʻrashda ijtimoiy omil muhim rol oʻynaydi. Ijtimoiy omilning asosiy belgisi nutq jarayoni, imkoniyati, sharoiti, vaziyati va vaqti kabildir. Barcha xildagi munosabatlar kabi ijtimoiy munosabatlar ham insonlar tili orqali nutqida reallashadi. Nutq shu tilda soʻzlashuvchi insonlarning ruhiyati, maʼnaviy dunyoqarashi, madaniyati kabi jihatlarini oʻzida aks ettiradi. UZR soʻrash kommunikatsiyada, monologik va

dialogik nutqlarda, madaniy-maʼrifiy, axloqiy-huquqiy, ruhiy-hissiy kabi munosabatlarda muloqot xulqi tarzida voqelanadi. Kishilarning borliq hodisalariga, eng avvalo, odamlarga boʻlgan barcha ijobiy munosabatlar (fikri, soʻzi, tuygʻusi...) muloqot hulqi, muloqot odobi, muloqot madaniyati (soʻz boyligi, nutqining nafis va goʻzalligi...), muloqot fazilatlar (muomala odoblari, xush feʼllik, shirinsuxanlik, mayinlik, muloyimlik kabi) koʻrinishida namoyon boʻladi. Mazkur tizim zaminida hurmat nutqi yotadi⁴. Demak, hurmat kechimida hurmat kategoriyasining mazmun – mohiyati, ifoda usullari, tasvir vositalari (shakllari) va lisoniy – nutqiy rang-barangliklari mujassamlashgan. Tildagi hurmat maʼnosi voqelanishi oʻzining barcha koʻrinishlari bilan leksik – grammatik kategoriya doirasida birlashadi. U tilning barcha sathlarida xilma – xil shakl va koʻrinishlarda namoyon boʻladi. Tadqiqot obyekti boʻlgan uzr soʻrashning verbal va noverbal (imo-ishoralar, xatti-harakatlar) usullari keng qoʻllaniladi. UZR soʻrashning voqeanish holatlari tahlili shuni koʻrsatadiki, uning tildagi ifodasi turli darajada reallashadi. Albatta, oʻzbek millatining mentalitetiga xos boʻlgan uzr soʻrash tushunchasi boshqa millatlardagi ayni tushunchani anglashdan anchayin farq qiladi. Bu holda, soʻzsiz, noverbal oʻziga xoslik mavjud. Shu bilan birga, ifodalanish usuli, oʻrni, shakliga koʻra ham oʻzbek tilidagi uzr soʻrashda oʻziga xoslik kuzatiladi. Bu oʻrinda oʻzbekona hurmat va uzr soʻrash tushunchalari, hurmatning darajalanishi, unda milliy mulohaza, anʼana, urf-odatlarining ahamiyati alohida eʼtiborni taqazo etadi.

— Moneʼmi? — dedi Otabek va kulimsirab: — Men sizga bir katta gunoh qilib ketkan edim... Yoʻlda boraturib gunohimdan oʻkindim-da, sizga tavba qilgʻali Qoʻqondan qaytdim... Agar siz **gunohimni kechirsangiz**, men shu daqiqada Toshkand joʻnayman. Usta Alim ajablanib Otabekka qaradi...

Pragmatik kontekstni muloqot xulqi nuqtai nazaridan toʻgʻri tahlil qilish uchun kommunikativ vaziyat diqqat markazida boʻlishi kerak. Kommunikativ vaziyat zamon va makon, milliy qadriyatlar kabi ijtimoiy mezonlar nuqtai nazaridan yondashilsa, muloqot xulqi tizimida oʻta muhim tushuncha ekanligi maʼlum boʻladi. Milliy xarakter deganda, maʼlum ijtimoiy guruh oʻrtasida asrlar mobaynida avlodlardan avlodga oʻtib kelgan oʻziga xosliklar majmui tushuniladi. Milliy xarakterga mazkur millat aholisi sigʻinadigan din, atrof-muhit va ijtimoiy turmush tarzi jiddiy taʼsir koʻrsatadi va bu taʼsir oʻz-oʻzidan muloqot xulqida namoyon boʻladi⁵.

Rus tilshunos olimi N.I. Formanovskaya nutqiy etiketga quyidagicha taʼrif beradi. “Nutqiy etiket tushunchasi nutqiy xulqni tartibga soluvchi qoidalar, suhbatdoshlar oʻrtasida aloqa oʻrnatish, koʻzlangan maqsadda aloqani saqlab turish va uni toʻxtatish uchun jamiyat tomonidan qabul qilingan aloqaning oʻziga xos milliy qoʻliplari hamda turgʻun shakllar tizimidir”⁶. Nutqiy odat vaziyatlari soʻzlovchi va tinglovchining ishtiroki bilan sodir

bo'ladi. Faqat so'zlovchilar sharoit, holatga ko'ra, birliklarni tanlaydilar. Nutqiy odatning har qaysi vaziyatida ma'lum millat urf-odatlar, tiliga mansub bo'lgan maxsus turg'un qoliplar xizmat qiladi, bu aloqa vositasi sanaladi. Masalan, o'zbek xalqida uzr so'rayotgan shaxs nutqida *"Kechiring"*, *"Uzr so'rayman"*, *"Avf eting"*, *"Ming bor uzr"*, *"Oldingizda xijolatdaman"*, *"O'tinaman, kechiring"*, *"Rozi bo'ling"*, uzr so'ralayotgan shaxs nutqida unga mos ravishda *"Kechirdim"*, *"Xijolat bo'lmang"*, *"Hechqisi yo'q"*, *"Bo'пти"*, *"Xo'p"*, *"Roziman"* singari jumlar yuzaga kelgan. So'zlovchi tinglovchiga ta'sir etish maqsadida mavjud propozitsional uslubiy andozalardan nutq vaziyati uchun xarakterli bo'lgan optimal variantini tanlab oladi.

Usta Alim ajablanib Otabekka qaradi:

— Hazillashasiz...

— Hazillashmayman, agar siz **kechiraturgan bo'lsangiz**, gunohimni ham hozir iqror qilaman. Usta Alim kulimsirab so'radi:

— Qani iqror qilingiz bo'lmasa.

— Ilgari **kechirishka va'da berib qo'yingiz**.

— Menga qolsa sizning hech gunohingiz yo'q...

Menga noma'lum **gunohingiz bo'lsa kechirdim**.

— **Gunohimni kechirgansiz-a?**

— **Kechirganman.**

— Men siz bilgan Shokirbek emas, toshkandlik Yusufbek hojining o'g'li va marg'ilonliq Mirzakarim akaning kuyavi — Otabek!

So'zlovchi nutqiga oid ifodaning qaysidir elementlarida uslubiy belgi va ma'lum vositalar muallifning ichki ruhiy olami yoki sotsial mavqe ko'rinishlari haqida ma'lumot berish uchun xizmat qiladi. Bularning barchasini birlashtiruvchi aspekt lingvistik pragmatika hisoblanadi. Pragmalingvistikaning umumiy va xususiy masalalari markazida belgidan foydalanuvchining belgi orqali ob'ektiv olamga va belgiga munosabatini o'rganish egallar ekan, o'z-o'zidan belgini anglash, uni qayta namoyon qilish, u bilan suhbatdoshga ta'sir ko'rsatish ehtiyojini yuzaga keltirish ifodaning semantik strukturasi mazmuniy elementlardan iborat bo'lib, ularni pragmatik va semiotik birliklar sifatida alohida-alohida ajratish hamda pragmasemantik elementlar sifatida tahlil qilish pragmalingvistikaning muhim masalalaridan biridir.

1. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот ҳулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фанл. докт. ... дисс. автореф. — Тошкент, 2000. — Б.47.

2. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одафининг мулоқот шакллари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. — Самарқанд, 1993. — Б.27.

3. Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. — Тошкент, 2007. — Б.11.

4. Содикова Ш. Ўзбек тилида ҳурмат категорияси. — Тошкент, 2010. Б.15.

5. Сухарев В. А. Характер, поведение и деловые качества народов мира // Этика и психология делового человека. — М.: Гранд, 1997. С. 119.

6. Формановская Н.И. Русский речевого этикет: лингвистический и методологический аспекты. — М.:1982. —С. 7.

Alijon Esanov

Термиз давлат университети,

Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси тадқиқотчиси

ЎЗБЕК БОЛАЛАР МАВСУМИЙ МАРОСИМ ФОЛЬКЛОРИНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ

Ўсиб келаётган ёш авлодни миллий анъаналарга садоқат руҳида тарбиялаш бугунги куннинг асосий масаларидан биридир. Бу борада эса фольклор асарларининг ҳам ўрни беқиёс. Фольклор асарларини тинглаб воёга етаётган болаларнинг ўйинлари, шўхликлари, ҳаёллари, қизиқишлари, гап-сўзлари... Булар болаларнинг маънавий дунёсини бойитадиган омиллардандир. Агарда катталар бу ўзига хос болалар дунёсини тушуниб, уни тўғри баҳолай олсалар, болаларнинг келажаги учун катта иш қилган бўладилар.

Маълумки, оғзаки адабиёт ёзма адабиёт пайдо бўлмасдан илгари, узоқ, ўтмишдаёқ мавжуд бўлган. Бу адабиёт халқ бадиий камолоти ва маънавий бойлигининг битмас туганмас хазинасидир. Халқ оғзаки ижоди халқнинг меҳнат жараёни асосида юзага келган бўлиб, унинг кундалик турмуши билан чамбарчас боғланган. Болалар фольклори халқ поэтик ижодининг узвий бир таркибий қисмини ташкил этади. Мазкур таркиб тез айтиш, санама, топишмоқ каби кўплаб жанрлардан ташкил топган. Катталар халқ оғзаки ижодидаги қўшиқ ва эртақлар болалар

фольклоридаги болаларга мослаштирилган ҳолда яратилиб келинган. Уларни болалар жуда севиб тинглайдилар ва ўқийдилар. Халқ оғзаки ижоди билан болалар мактабгача тарбия ёшидан бошлаб таниша бошлайдилар. Халқ оғзаки поэтик ижодидаги образларнинг ёрқинлиги, сўз маъноларининг аниқлиги, матннинг оҳангдорлиги, муסיқийлиги каби хусусиятлар бола руҳига ором, ҳузур бағишлайди, уни ўзига маҳлиё этади. Халқимиз томонидан асрлар мобайнида ижро этилиб, сайқалланиб келган фольклор асарларининг болалар томонидан ёки болалар учун катталар томонидан яратилган оғзаки ижод намуналари болалар фольклори кичкинтойлар олами билан катталар дунёсининг уйғунлашуви оқибатида юзага келган ўйинлар ва қўшиқларнинг бутун бир мавзувий йўналиши тарзида таркиб топган. Шу билан бирга болалар фольклорининг қўламини анчайин кенг ва хилма-хил бўлиб, унинг намуналари халқ оғзаки ижодининг деярли барча жанрларида яшаб келмоқда. Булар алла қўшиқлари, айтим-олқиш, эркалама, овутмачоқ ва қизиқмачоқ сингари эркалаш мотивига лиммо-лим жанрларда ўз аксини топган. Катталар болани бешикка солиш, ўтқизиш, юргизиш, сакратиш, ўйнатиш ва овутишларда оналар ва ёши катта аёллар томонидан бола эркалаш мақсадида кўпгина эркалатадиган сўзлар айтадилар. Шу тариқа инсон яралгандан буён унинг ижтимоий ҳаётида рўй берган барча воқеа ҳодисалар фольклорнинг узвий ажралмас қисми сифатида яшаб келмоқда.

Мавсумий маросим қўшиқлари орасида Наврўз билан боғлиқ “Муборакбод”, “Йил боши”, “Бойчечак”, “Салом, Наврўз”, “Баҳор келди”, “Сумалак”; фасллар билан боғлиқ чақириқлар “Сушт хотин”, “Чой момо”, “Қор келди”; шарқ тақвими билан “Рамазон” ёки “Ё раббиман” каби айтим-терма ва қўшиқлар кенг тарқалган. Мавсумий-меҳнат маросимларида “Қўш ҳайдаш», “Шох мойлар”, “Майда, “Обло барака” (эркаклар томонидан эркин услубда, баланд ва очик овоздаги айтилган) қўшиқлар мавжуд. Оилавий-маиший маросим қўшиқлари тўй, аза-мотам ва даволаш маросим ва урф-одатлари билан боғлиқ. Булар “Она алласи”; тўй маросим қўшиқлари жанрлари “муборак” (Тўй муборак, Ал муборак, Тўй бошлови), “қутлов” (Хуш келдингиз, Келин ва қуёв қутлови), “ёр-ёр” (Ёр-ёр ёки Ўлан), “келин салом” (Келин салом, Чор салом, Хазор али), айтишувлар (Муборак, Байтхонлик, Лапар), “ҳайрлашув” (Тўй жавоби, Хоразм воҳасида тарқалган) каби қўшиқ жанрлари мавжуд. Аза-мотам маросимларининг асосий айтим шакли “йиғи” ва “йўқлов”дир; “марсия” қўшиғи дафн маросимда чолғу жўрлигисиз эркаклар томонидан куйланган. Даволаш маросимда аёллар томонидан якка ва жўрсиз “бадик” айтими ўтмишда кенг ўрин олган.

“Маросим фольклори” тушунчаси, ўз навбатида, икки муҳим компонентни ўзида мужассамлаштиради. Булар маросимнинг сюжетикаси (кечиш тарзи ва бажариладиган хатти-ҳаракатлар) ва унинг сўз (вербал) компоненти билан боғлиқ узвлардан иборат”².

Ўзбек болалар мавсумий маросим фольклорининг генезисига назар ташлайдиган бўлсак, аждодларимизнинг қачонлардир анимистик ва тотемистик эътиқодлари асосида шаклланиб, эндиликда ўша моҳиятини йўқотган ялинчоқлар ва ҳукмлагичлар болалар репертуарида ҳозирги кунгача яшаб келмоқда.

Моҳиятан табиат ҳодисалари билан боғлиқ бўлиб, ибтидоий анимистик қарашлар замирида вужудга келган болаларнинг табиат ҳодисаларига алоқадор мавсумий маросим қўшиқларидан яна бири ялинчоқ қўшиқларидир. Улар қачонлардир катталар репертуарида юзага келган. Бироқ даврлар ўтиши билан анимистик эътиқод ҳам сўна борган, натижада, унга дахлдор маросим ҳам сўнган. Лекин шу маросимнинг вербал қисми бўлган айтим-қўшиқлар, қуёшга, ойга, юлдузларга, камалакка, шамолга, ёмғирга ва бошқа табиат ҳодисаларига сиғинишни ифодалаган қўшиқлар ҳам аста-секин ялиниш-сиғинишдан иборат қўшиқлар болалар репертуарида яшай бошлаган. Ҳоят кенг тарқалган ва хилма-хил вариантларга эга бўлган “Офтоб чикди оламга” ялинчоғида болаларнинг ўзига хос арази, норозилиги ифодаланган:

Офтоб чикди оламга,
 Югуриб бордим холамга.
 Холам: – Ана ер, – деди,
 Бориб ўтин тер, – деди.
 Ўтин тердим бир кучоқ,
 Нон ёпди ўчоқ-ўчоқ.
 Менга берди элакдай.
 Ўзига олди ғилакдай.
 Отиб урдим эшикка,
 Бошим тегди тешикка.

Ялинчоқнинг қуёш эндигона кўрингандагина унга қараб куйланишида аждодларимизнинг қуёшга сиғинишдан иборат қадимий анимистик эътиқодларининг тарихий илдизларини фаҳмлаш қийин эмас.

Мавсум ва маросим қўшиқларининг ижодкорлари ҳар доим ҳам катталар бўлган ва маросимлар катталар томонидан уюштирилган. Маросимлар билан боғлиқ расм-русумлар ва ижро этиладиган қўшиқларни ҳам катталар ижод этганлар. Лекин маросимларнинг бирортаси ҳам болалар иштирокисиз ўтмаган.

Ўзбек болалар фольклори намуналарини тўплаш, нашр этиш ва илмий эстетик қимматини ошириш масалалари ўтган асрнинг 20-йилларига тўғри келади. 1919 йили Фитрат бошлиқ бир гуруҳ шоир ва олимлар биринчи адабий уюшмани тузганларида,

унга “Чиғатой гурунги” деб ном беришган. Фитрат ва унинг маслакдошлари мўғул истилосидан ўзларига қадар туркий тилда яратилган адабиётни ўзбек халқининг маънавий бойлиги сифатида сақлаб қолиш ва халқнинг том маънодаги мулкига айлантириш мақсадида бу бой адабий меросни тўплаш, ўрганиш ва нашр этишни ўз олдларига вазифа қилиб қўйдилар... “Гурунг”нинг илмий ва ижодий дастурини амалга оширишга киришган Фитрат ўзбек мумтоз адабиётини унинг қадимги даврларидан бошлаб ўрганишга киришди; Элбек халқ ижоди намуналарини тўплаш ва ўрганишни ўз зиммасига олди”². 1937 йилда Элбек томонидан тўплаб тартиб берилган “Болалар қўшиғи”, Охунжон Сафаров томонидан тартиб берилган “Ўзбек халқ ижоди” сериясида 1984 йилда босилиб чиққан “Бойчечак” тўпламлари жуда катта илмий аҳамиятга эга бўлди. Ўзбек болалар фольклорини ўрганиш 60 йиллардан эътиборан изчиллаша борди. З.Хусаиновнинг “Ўзбек топишмоқлари” (1966), Ғ.Жаҳонгировнинг “Ўзбек болалар фольклори” (1975), шунингдек О.Сафаровнинг “Болаларни эркаловчи ўзбек халқ қўшиқлари” (1983), “Ўзбек болалар поэтик фольклори” (1985), “Алла-ё алла” (1999), “Читтигул” (2004), “Ўзбек халқ болалар ўйинлари” (2012), Ш.Галиевнинг “Ўзбек болалар ўйин фольклори” (1998) сингари тадқиқотлар туфайли изланишларнинг самаралари кўзга ташланди¹.

Фольклоршунос Ҳ.Рўзметовнинг тадқиқотида ўзбек болалар фольклори ўрганилиш тарихининг тадрижий тараққиёти алоҳида тизим сифатида тадқиқ этилган. У ўз ишида XX аср бошларидаги Н.Будзинскийнинг тадқиқотида алоҳида эътибор қаратиб шундай ёзади: Бу мақолада тошкентлик Одил Рашид деган бир боладан ёзиб олинган қўшиқлар матни ўзбек тилида нашр этилганлиги фольклоршунослик учун муҳим илмий қимматга эга. Айниқса, “Бойчечак қўшиғининг матни оригиналлиги билан ажралиб туради. Қўшиқлар орасида бугунги кунда ҳам болалар репертуарида сақланиб қолган “Олатой-булатой” типидagi матнлар ҳам учрайди.

Шунингдек, Ҳ.Рўзметов тадқиқотчилар рўйхатини давом эттирар экан, Ю.Казбеков, А.Диваев, Н.Н.Пантусов, А.Васильевнинг мақола ва қайдларини санаш билан бирга “ўша давр матбуоти ва адабиётини янада батафсилроқ кўздан кечирганда бу рўйхатни яна давом эттириш мумкин бўлади”³, деган қарашларни илгари суриш орқали қимматли маълумотларни бериб ўтади:

“XX асрнинг 20-30-йилларига келиб, ўзбек фольклори ва этнографияси билан изчил шуғулланган рус шарқшунос ва этнографлари М.С.Андреев, Е.М.Пешчерева, А.К.Боровков, Е.К.Боровковаларнинг болалар фольклорини тадқиқ этишга бағишланган дастлабки жиддий илмий тадқиқотлари юзага келди. Хусусан, М.С.Андреев

“Хавзак-хавзак” ўйинининг бир нечта вариантини қиёсий тадқиқ этган бўлса, Е.М.Пешчерева Фарғона водийси, Тошкент шаҳри ва вилояти, Зарафшон воҳаси ва Жанубий Ўзбекистон ҳудудларидан ўзи тўплаган болалар ўйинлари ва ўйин фольклори намуналарини таҳлил қилиб, “Ассалом жийда бодом”, “Читтигул”, “Чучвара қайнайдиё”, “Офтоб чиқди оламга”, “Олатой-булатой”, “Садр”, “Аша болам”, “Ўғолоқ” каби ўйин қўшиқлари ҳақида қизиқарли мулоҳазаларни билдирган. А.К.Боровков эса ўзининг “Ўзбек болаларининг ўйинлари” номли мақоласида Чимкент, Каттақўрғон, Тошкент шаҳарларидан тўпланган фольклор материаллари асосида ўша даврда болалар орасида урф бўлган анъанавий ўйинлар тўғрисида муҳим маълумотларни келтирган”.

Истиқлол туфайли маросим фольклорининг илгари нашр этилмаган ёки қисман оммалаштирилган намуналари чоп эттирилди. Фольклоршунос олимлар Т.Мирзаев ва М.Жўраевлар томонидан нашр эттирилган “Наврўз” китоби (тузувчилар: Т.Мирзаев ва М.Жўраев, 1992 йил), йилбоши байрами ва баҳорий удумлар билан алоқадор урф-одат ҳамда маросимлар. Унда ижро этиладиган қўшиқлар таҳлиliga бағишланган “Наврўз қўшиқлари” (М.Жўраев, 2007 йил) халқимизнинг табиат ҳодисалари билан алоқадор инонч ва таъбирлари жамланган “Об-ҳаво даракчилари” тўплами (тўплаб нашрга тайёрловчи; М.Жўраев, 1996 йил), “Улуғ ой умидлари”, “Ё рамазон қўшиқлари” (тўплаб нашрга тайёрловчи: М.Жўраев ва Ш.Шомусаров, 2001 йил), ўзбек дафн ва таъзия маросимлари фольклори намуналаридан таркиб топган. “Бўзлардан учган ғазал-еу” (нашрга тайёрловчи О.Сафаров, Д.Ўраева, 2005 йил) сингари китоблар халқимизнинг маросим фольклорини тўла нашр этиш йўлидаги муҳим қадамлардан бири ҳисобланади”².

Сурхон воҳаси фольклорининг ўзига хос хусусиятларини очиб берувчи алоҳида тадқиқотлар ҳам олиб борилмоқда. Олима Латифа Худойкулованинг “Сурхондарё тўй маросим қўшиқлари” номли номзодлик иши шулар жумласидандир.

Кейинги йилларда Сурхон воҳаси халқ оғзаки ижоди намуналарини ёзиб олиш, нашрга тайёрлаш бўйича бир қанча ишлар амалга оширилган. Жумладан, Сурхон воҳаси бахшиларидан Умир бахши Сафаров, Марданакул Авлиёкул ўғилларидан “Алпомиш” достони, Ўзбекистон халқ бахшиси Абдуназар Поёновдан “Олтин қобок” достони, Чоршанби бахши Раҳматуллаев, Шоберди бахши Болтаев, Абдуназар Поёновлардан “Малла савдогар” дostonлари ёзиб олинган ва ушбу дostonларни Тўра Мирзаев, Жаббор Эшонкулов ва бошқалар томонидан 2019 йилда нашр эттирилган. Бундан ташқари Р.Мустафакулов томонидан “Ўзбек халқ миллий ўйинлари” номли услубий қўлланмаси³, М.Наимовнинг Сурхон воҳаси урф-одати ва маро-

сим фольклори намуналаридан тузилган тўпламми⁴ бу борадаги олиб борилаётган ишлар намунаси сифатида муҳим аҳамият касб этади.

Мустақиллигимиз шарофати билан қайта нишонланиб келинаётган мавсумий маросимлар билан боғлиқ қўшиқларнинг ўзига хос қимматга эга бўлган фольклор асарларини юртимизнинг барча ҳудудла-

ри бўйича тўплаш ва тадқиқ этиш долзарб вазифалардан биридир. Бу соҳада ўзбек халқ оғзаки ижоди таркибида алоҳида ўринга эга бўлган болалар мавсумий-маросим фольклорининг бадииятини, ўзига хос хусусиятларини, бунга алоқадор жанрларни аниқлаш, поэтик белгиларига доир янги назарий хулосалар чиқариш муҳим аҳамиятга эга.

1. Жумабоев М. Болалар адабиёти. – Т.:Ўқитувчи, 2008. – Б.8.
2. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. Тошкент, “Фан”, 1986. – Б.16.
3. O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. Toshkent. "Musiq" nashriyoti, 2010. – Б.343
4. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. 1-китоб. Тошкент. “O'zbekiston”, 2008.- Б.235.

Юлдуз Ҳайитова

Термиз давлат университети ўқитувчиси

СУРХОН АДАБИЙ МУҲИТИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ШЕЪРИЯТИГА БИР НАЗАР....

Аннотация. Ушбу мақолада Тилланисо Нурғди, Башорат Отажонов, Раҳмат Бобожон, Нодирабегим Иброҳимова, Мадина Норчаева, Шерзод Ортиқов ва бошқалар қаторида воҳамизнинг истеъдодли шоираси – Наргиза Одинаева ижоди таҳлилдан тортган.

Калит сўзлар: туркум шеърлари, шеър, лирик қаҳрамон, сўз

Аннотаци. В этой статье анализируется творчество талантливой поэтессы нашего оазиса – Наргизы Одинаевой, а также Тилланисо нурьягды, Пророка отаждоновой, Рахмата бобожон, Нодирабегим Ибрагимовой, Мадины Норчаевой, Шерзода Артыкова и других.

Ключевые слова: категория стихи, стихотворение, лирический герой, слово

Annotation. In this article, the work of Tillaniso Nuryogdi, prophecy Otajonova, Thank you Bobojon, Nadirabegim Ibrahimova, Madina Norchaeva, Sherzod Ortikov and, among others, the talented poet of our oasis – Nargiza Odinaeva-was drawn in the analysis.

Keywords: category poems, poem, lyrical hero, word

XXI аср ўзбек адабиётига янги мавзу, янги ғоя, янги нафас ҳамда янги дард билан кириб келаётган бир қатор ёш ижодкорлар : Тилланисо Нурғди, Башорат Отажонов, Раҳмат Бобожон, Нодирабегим Иброҳимова, Мадина Норчаева, Шерзод Ортиқов ва бошқалар қаторида воҳамизнинг истеъдодли шоираси – Наргиза Одинаева ҳам “юракни ҳаққиртирадиган даражада оғриқли дардлар”, “аллақандай соғинч”, “ўзига сиғмай тўлғонилар” билан ийманибгина кириб келди .

Ҳозирги кунгача шоиранинг “Йўлдаги мактублар” ҳамда “Тўрт томон” номли шеърий тўпламлари нашр этилиб ,бир қатор устоз ижодкорлар мактовига сазовор бўлган. Бинобарин, шоиранинг дастлабки оғриқли шеърлари мазасини туйган Ўзбекистон халқ шоири Усмон Азим бу ҳаяжонли учрашувни шундай баҳолайди: “Наргизанинг шеърларида олифтахчилик йўқ.Шеърлари аллақачон ўзлаштирилган йўлларда ёзилган. Аммо, улар ажиб бир –кутилмаган чиройда балқийди. Демак,

юрилавериш уладаси чиққан йўлларни истеъдод янгилар екан-да!...”¹

Шоир учун борлиқнинг бутун бўй-бабини, табиат манзараларини, фаслларнинг қайтарилмас тасвирини оддий сўз билан чизиб бериш, ўқигувчи кўз ўнгида жонлантириш анча мушкул иш. Бунинг учун ижодкор, ижодкор бўлишидан ташқари мусаввир, тугал, уйғун қилиб айтганда, “мусаввир-ижодкор” бўлиши талаб этилади. Ўзбек шеъриятида Ойбек, Абдулла Орипов, Рауф Парфи, Шавкат Раҳмон, нисбатан кейинги авлодлардан - Фаҳриёр, Абдували Қутбиддин, Хуршид Даврон, Хосият Рустомова, Ҳалима Аҳмедова каби бир қатор мусаввир-шоирлар борки, улар чизган суратлардаги ғоят баҳоррўй тасвирлар, нафосатли манзаралар кишини шоир олиб кирган соҳир манзараларда яшамоққа,улардан таралган оҳангларда муайян вақт парвоз етмоққа қодир қилади. Наргиза Одинаева ҳам том маънода, бурунги жамийи ки мусаввирларнинг беназир давомчиси, ҳаёт ва хаёлнинг жозиб суратлари-

ни камалакнинг оламдан ташқари, илоҳий рангла-ри орқали тасвирлаган умидли сўз суракташидир. “Зеро, бунда шоир ҳис-туйғунинг ифодасини бево-сита сўз билан емас, балки манзаранинг ёрқин та-свири воситасида беришга мажбур. Бундай шеър-ни ўқийдиган шеърхон ҳам асарда чизилаётган ман-зарани кўз ўнгига гавдалантириши, ўзи кўраётган тасвирдан таъсирланиши керак бўлади.

Тун оёқ қоқмайди
Ўзидан чўчиб,
Уйғонган осмонга тикилади сой.
Кўзимда чайқалган дарёни кечиб,
Олтин бешигини ахтиради ой

мисралари лирик қаҳрамон ҳис-туйғуларини та-биат манзарасининг кўринишлари билан қоришти-риб юборади. Бу еса ўқувчига манзарани кузата туриб шоир ҳисларини туйиш имконини беради ².

Шоиранинг бир туркум шеърлари мавжудки, у-ларда ҳар қандай ҳаётий тимсоллар, ўхшатишлар ва қиёслар алоҳида моделлашган ва уйғунлашган рамзларга айланиб улгурган ҳолда ифодаланади. Наргиза Одинаева ҳаётнинг инсонга очиқ ва аён бўлган ташқи белгилари ҳамда кундалик жараён-ларини юзаки, бепарво ҳаспўшлаб ўтмайди, балки борлиқни шу борица, турмушни ўз қафтида ипақдек айлантган ҳолда, дунёнинг бутун югурикларини кўзларига жам етган ҳақиқатни ҳақиқатлигича кўн-гилларга етаклайди. Жумладан, “Уфққа зувиллар умр чиллаги”, - мисрасида ижодкор халқимиз ора-сида азалдан маълум ва машҳур бўлган халқ ўй-ини “чиллак”ка мурожаат қилади. Яъни, у болалар томонидан бир ердан бошқа ерга улоқтириб, енг узокқа етказилиши лозим бўлган чиллак чўпини – бир отилишда оламнинг энг олис ва завол маскани уфққа қадар зувиллаб учиб ўтган, бебаҳо инсон умрига қиёслади.

“Умримнинг лабига тошди учуқлар” сатрида унданда ажиб ва музаффар метафорик ташбеҳ орқали ўқувчига суггестив таъсир ўтказди. Энди у киши ҳаётида кечадиган кучли ҳаяжон, қўрқинч туш, ғам-андух ёхуд бетобликдаги ошкор алаҳси-раш оқибатида лабга бемаҳал тошадиган “учуқ” деталдан унумли фойдаланади ва ботинда кеча-диган муқаррар изтиробни лирик қаҳрамон умри лабига бемаҳал урчидиган бир учуққа менгзайди.

“Кунини бир хўплаб ичган одамлар”да еса ижодкор дунёқараши ва воқеликнинг тасвир ку-чида юксак кўтарилиш ва асл бадиий қадриятлар инъикоси сифатида кўзга ташланади.

Ижодкор ҳар бир қишлоқ оилаларида кузати-ладиган одатий ва ноодатий ҳолатларни абстракт тушунчаларсиз, қайтариқли ўхшатишларсиз халқо-на шевада, фақат ўзигагина хос тилда, таъсирли ифодалайди.

Зеро,

Онам хамир қориб, тандир ёқади

Гоҳи боши оғрир, нони оқади, - мисрасида қаламга олинган жараён орқали инсон ҳаётидаги чексиз тинч ва нотинч табиат, қоронғи ва ёруғ муҳитга ишора қилинса, “Отам ҳалол нонин танглайида ер”, - сатрида еса бутун ўйловларини ҳалоллик ва покликнинг покиза тимсоли бўлган “ота” номига қаратади.

Наргиза Одинаева адабиёт даргоҳида аллақа-чон егалланиб ва қадамланиб улгурган бир қадар ески ва такрор қофиялардан, ташбеҳлардан, қайта-риқ улгилардан четланиб, ўзи айтганидек, тарихнинг қадим йўлларида орттирилган кўҳна дардларда, оҳорли образларда шеър емас кўшиқ, кўшиқ емас ялла айтади.

Унинг кўнгил яллалари йиғлоқи ва хафақон, тушкунлик кўзғайдиган кўринишда емас, хуррият ва ҳақликнинг енг олий сийратларини ўзида акслан-тирган олийжаноб ва тортинчоқ қалбнинг ҳароратли ва зулфиқор ўртаниши янглиғ жаранглайди.

Наргиза Одинаеванинг шеърини адабий танқид-чилкни ҳам бефарқ қолдирмади. 2021 йилги шеър-ият ҳисоботида Олим Тошбоев Наргиза шеърини шундай баҳо беради: ““Шарқ юлдузи” журнали (2021 йил 10-сон) ҳамда “Китоб дунёси” газетасида (2021 йил, 20-сон) истеъдодли шоира Наргиза Одинаева туркумлари эълон қилинган. Наргизанинг шеърла-ри сиртдан сокин кўринади, аммо тасвир ва таш-беҳлардаги ботиний долғаларни, ҳол оламини кей-ин англайсиз.

Кулгимни шафақдан қайтаради тонг,
Ғамимни уфқдан ўтказмайди шом.

Тақдир, менда қилган энг катта хатонг
Шундай йўлларимга қўймагансан ном.

Дунёга тўзимлар тилаган, умрини бахт қаричида ўлчаган исёнкор шоирамиз иқболи баланд бўлсин.

Бирда уйқу қочган, бирда ранг қочган
Кечамиз, кундузмиз – қўрилган тушмиз.
Худо, деб тебраниб ҳавода учган
Мусофир қушлармиз, мусофир қушмиз.”³

Буюк сўфий Боязид Бистомий: “Илон пўст ташлагандай, мен ўзимдан кечдим”, - деб айтган. Хўш, илон нега пўст ташлайди.

Тасаввуф илмида тириклик суви инсон ўзлигида воқе топанлиги боис, вужуднинг руҳдан тараддудга тушиши яъни “ўзидан кетиш” ва “ўзига келиш”, “мен-га етиш” ва “мендан тониш” деган софланиш ва покланиш мақомлари мавжуд. Бинобарин, шундай мақомлардан бирини илоҳий тўзим деб билиб, Ҳақ даргоҳига йўналган сўфийларга, бибиларга ергаш-ган, Яссавий ва Машраб сингари пирлар етагидан

тутган, юрагининг иқрори ҳам ,қарори ҳам “ишқ” бўлган ёш шоира ҳам тўрт томонга сўнгсиз йўналган ҳақиқат йўлларида ўзини, ўзлигини излаб машаққатли қадамлар тартади.

Пойида турибман энг катта дорнинг -
 Ўзимни ўзимдан қутқар, ей осмон дея ўзидан
 ўзига тўзим, нажот истаса,

Мен ўзимни ахтариб кетдим
 Менга бироз чапдек йўллардан,-

деб бошланувчи мисралари еса ўзи тилаган мақомнинг уфқлари нечоғлик ёришиб бошлаганидан дарак беради.

Шунингдек, унинг деярли барча шеърларида халқ оғзаки ижоди оҳанги, ўзи тетапоё бўлиб вояга етган тупроқнинг аллалари, айтимлари, яллалари, худудий диалектлари, ота-боболар, момоларнинг дилбар шевалари ҳам яққол кўзга ташланади. Жумладан, синор, ўрмак, сер, кокил, ёбон, шаб, сиғи, умоч, саримой, кабир, куви сингари бундай сўзларни кўплаб келтиришимиз мумкин.

Эътиборимни тортган яна бир жиҳат шундаки, бадиий адабиётимизнинг забардаст вакиллари Усмон Азим, Шавкат Раҳмон, Ойдин Ҳожиёва ва воҳамизнинг таниқли ижодкорлари Гуландом Тоғаева, Исроил Шомировлар ижодларида анчайин фаол қўлланилиб, муайян ҳислар уйғотувчи – қишнинг энг олис ва энг қоронғи туни бўлмиш “ялдо”-бадиий образининг ижодкор шеърларида ўзгача тасаввур ва ўзгача оҳангларда мақомланиши ҳисобланади. Гарчи, шоира шеърларидан бирида - “Бу ялдода ёқолмадим чироғимни”, -дея ўқувчида бир қадар дарднок ва мунгли ҳиссиётлар уйғотишига қарамай,

Онам қаримасин қишнинг қўйнида

Художон, ялдонинг тонглари бери, - дея лирик қаҳрамоннинг онасига узоқ умр сўраш қабилдаги сатрларида Яратганга мурожаат орқали шоира дунёга келтирган умид ва илинж кишини ҳайратлантиради, онгимизда онага бўлган қуюқ шафқат ва энг олий муҳаббат ҳисларини уйғотади.

“Дард нима? Денгиз ирмоққа сиғмагани сингари дард ҳам ҳеч вақт ҳарф бағрига сиғмас. Жаҳонда таърифга сиғмас иккита тушунча бўлса, биттаси шу – дард. Муҳаммад Фузулий дардни комилликнинг дояси ҳисоблаган: “Ким дардли бўлса, у комилдир”.⁴

Ҳақиқий дард хоҳ кичик бўлсин, хоҳ йирик бўлсин, у, албатта, ишқни, ишқ орқали еса юракни, мухтасар қилиб айтганда, ижодкор юрагининг мумтоз хилқатларини ифодалайди. Шу мумтоз дардларнинг энг қадим ва энг пок нашълари ватан, халқ, миллат суврати билан омукхалашиб кетган ҳолда яшаб келади.

“Ватан ҳақида самимий ёза олиш ҳамма шоирнинг ҳам қўлидан келавермайди. Шунинг учун бўлса керак, ватан ҳақида таъсирли, ёдда қоларли шеърларни жудаям кам учратамиз. Билъакс, ватан ҳақида ёзганда жудаям “жўшиб”, “ҳаяжонланиб” баланд-парвоз сўзларни бот-бот такрорловчи шоирлар кўп. Бундай шеърларни ўқиркан, киши ватанга бўлган чин муҳаббатни ҳис қилолмайди”.⁵ Бироқ, шоира ижодида ватан тимсоли, унинг покиза сийрати ва суратини чизишда фойдаланилган илоҳий ранглар, зулфиқор оғриқлар, сержаранг оҳанглар бошқа ҳеч қайси тилда бу қадар оташин ва навқирон кўринишда балқиган емас.

Айланди урчуқдек чархпалак
 Чўмичи неча бор қуйилди.
 Кафтида улғайдим, эй фалак
 Момом ҳам ватандек туюлди
 Бобом ҳам ватандек туюлди.

Сурхон адабий муҳитининг қиёфасини аниқлашда ва белгилашда вилоятнинг истеъдодли ёшлари ижодидан тузилган баёзлар муҳим ўрин тутди. Бу борада вилоятнинг фидойи инсонлари ташаббуси билан тузилган ва 2013 йилда нашр етилган “Ёшлар баёзи” муҳим ўрин тутди⁶. Мазкур баёзга кирган ёшлар ижодини ўқиш кишида умид уйғотади. Бир вақтлар Термизий таҳаллуси билан 100 дан ортиқ ижодкорларни етиштирган бу қадим масканда ижод яна тўхтаб қолмаслигига амин бўласиз. Масалан, Дўрмон семинари иштирокчиси Барно Донаева “Дунё бу” шеърида шундай ёзади:

Мен ол гуллар сўрасам...
 Куллар тутган дунё бу!
 Муҳаббатни асрасам,
 Фироқ битган дунё бу!
 Лойга чаплаб юракни,
 Оҳ, тупроққа қориди.
 Онам айтган ертақлар
 Ботирлари қариди.

Ёш ижодкорнинг дунё ҳақидаги фалсафий ўйлари сизни мушоҳадага чорлайди ва онаси айтган ертақларнинг ботирлари қариши кишини ўйга толдиради.

Тўпладан жой олган шеърлардан яна бири Азиза Аллаёрованын:

Остонага қийин, тунлари инграр...
 Бир кунда минг-минглаб тақдирга гувоҳ.
 Кимлар тепиб ўтар, кимлар бош урар,
 Остонадан ўтар савобу гуноҳ

сатрлари ёшлар шеърятни ва ўз остонасини муқаддас билиши, азиз туйғуларни вақтида англаб етиши жуда муҳимлигига бир далилдир.

Чинакам шеърят бир дардки, ундан фақат ёзиб қутулиш мумкин. Ёзмасликинг иложи қолмаганда ёзилиши керак. Ана шундай чинакам дарддан туғилган бадий ижод намуналарини Зилола Яхшиева ижодида учратиш мумкин. Масалан ёш шоира “Ватан ичра” шеърининг бир бандида Ватанни шундай тасаввур қилади, шундай англайди:

Қалдирғоч ин солган айвон пастаккина,
Дунёларни тутиб турган дастаккина.
Уйимдаги сатин кўрпам тахтдаккина,
Ватан ичра Ватанларим бордир менинг.⁷

Энг муҳими лирик қаҳрамон жуда катта умидлар билан ўз орзуларини шундай самимий сатрлар билан якунлайди:

Бир куни ҳали умидлар-ла бахт тутаман,
Она бўлиб беланчаклар тебратаман.
Мен боламга Ватан сўзин ўргатаман,
Ватан ичра Ватанларим бордир менинг.⁸

XX аср ўзбек шеърятига Бойсун образини олиб кирган Усмон Азим анъаналарини бугунги ёш ижодкорлар собитқадамлик билан давом еттирмақдалар. Шоира Самия Ақиева ижодида катта Ватан Бойсун образи шундай чизилади:

Ойнадан боқаман, адирлар зар ранг,
Қишлоғим, чиройинг шу бугун билдим.
Поезд вагонини тортади аранг,
Бойсунжон, хаёлан суратинг чиздим⁹.

Самиянинг “Бойсунжон” деб номланган шеърида яна шу Бойсун поетик образи давом этади:

Хаёл оғушининг ўтида ёниб,
Бўғзимга тиқилар соғинч, ҳаяжон.

Мен ишқ деб яшайин, ўзликдан тониб,
Томиримда оққан қоним-Бойсунжон¹⁰

Сурхон ёшлари орасида воқеабанд шеърлар ёзадиган ижодкорлар ҳам бор. Шундай ўзига хос ижодкорлардан бири Сирожиiddин Иброҳимовдир. Мумтоз адабиётимизда воқеабанд ғазаллар бўлгани сингари, Сирожиiddин ҳам воқеабанд шеърлар ёзишга ўзини чоғлаган ҳаваскор шоир. Баёздан ўрин олган “Сурхон кузи”, “Январ ўтгач”, “Бобом боғини кезаман”, “Руҳимдаги кекса назари” каби шеърлари шундай дейишимизга асос беради. “Сурхон кузи” (Мактуб) манзумасига бир назар ташлаймиз:

Баҳорни бағрига яшириб турар,
Сурувлар шип-шийдам қилган далалар.
Оқшом бўрибосар кучуклар ҳура,
“Оқсуяк” ўйнайди завқли болалар¹¹.

Бу воқеабандлик Сирожиiddиннинг шеърларига улуғ бир салобат бағишлайди.

Ёш ва умидли ҳаваскор шоирларимиздан бири Улуғбек Олломуллоев шеърятни қирғоқлари жуда йироқ, етиб бўлмайдиган бир сирли уммон деб билади ва қутилмаган ўзига хос поетик ечим топади:

Сирлар уммонида сузиб боряпман,
Бир қирғоқ истайман, кўринмас, йироқ.
Ҳолдан тоймоқдаман, сезиб боряпман,
Халоскор истайман, кўринмас бироқ.

Эй, дунё сирларинг толдирди мени,
Уммон ўртасида қолдирди мени.
Кўзларим олдидан ўтишиб бир-бир,
Қўлларимга қалам олдирди мени¹².

Хулоса сифатида айтадиган бўлсак, бугунги замонавий сурхон адабий муҳити кишида катта умидлар уйғотади. Наргиза Одинаева, Шодмонкул Салом изидан бораётган ёшларнинг айримлари ҳам шеърятнинг баланд-паст кўчаларида ўз йўллари-ни излаб, ўз сўзларини айтишга уринаётгани қувонарли ҳолат.

1. Усмон Азимнинг сўз бошиси. Наргиза Одинаева. Ўйлабди мактублар. –Т.: Турон-замин, 2012. 3-бет.
2. С.Қуръонов. Истеъдод ва интеллект уйғунлашса// Ёшлик, 2016 йил, 8-сон. 4-бет.
3. Олим Тошбоев. 2021 йил шеърятини. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмасининг йиллик ҳисоботида ўқилган маърузадан.
4. Муҳаммад Фузулий. Танланган асарлар. –Т.: Бадий адабиёт, 1959. 39-бет.

Gulnigor MAVLANOVA,
Termiz davlat universiteti

XIX-ASR OXIRI XX – ASR BOSHLARIDA YARATILGAN INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTLARIDA DAVR RUHIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida yaratilgan badiiy asarlarda davr ruhi qay darajada ufrilib turganligi badiiy tahlil vositalari orqali ochib berilgan. Mavjud sharoit holatidan kelib chiqib yozilgan asarlarda xalq turmush tarzining turli xil mavzulari mohirlik bilan tasvirlanganki, ularni o‘qib o‘sha davr ruhiyatiga tushib qolish hech gap emas.

Kalit so‘zlar: davr ruhi, ma’rifatparvarlik, milliy ogohlik, Abdulla Qodiriy, modernism, V.Woolf, Mrs.Dalloway

Bilamizki, dunyodagi har bir xalqning tarixi, madaniyati, yashash tarzi, urf-odati, mentaliteti, bir so‘z bilan aytganda, butun bir qiyofasi o‘z ona tilida aks etadi. Ona tilining muqaddasligi, uning Vatan rivojidadagi bebaho o‘rni, mustaqillikning asosiy nishonasi ekanligi, nemis olimi V. fon Gumbold ta’biri bilan aytganda, **“xalq ruhi”** ekanligi hech qachon hech kimning yodidan ko‘tarilmaydigan dardor.

Dunyo adabiyotida davr sinovlaridan muvaffaqiyat bilan o‘tgan, hozirgi kunlarda ham kitobxonlar tomonidan sevib o‘qib kelinayotgan ajoyib asarlar ko‘p. Professor N. Karimov **“XX-asr mening taqdirimda”** nomli maqolasida shunday fikrlarni keltirgan edi: **“XX- asr – insoniyat tarixidagi eng ulug‘ asrlardan biri. Bu asrda qanchalik ko‘p qon to‘kilgan, qanchalik nohaqliklar va adolatsizliklar ro‘y bergan bo‘lmasin, insoniyat xuddi shu asrda kelajak sari katta qadam tashladi... Bu asrda sodir bo‘lgan barcha voqealar insoniyat tarixining ajralmas tarkibi. Ularning bizlarga maqbul bo‘lmagan qismlarini yoddan chiqarishga, tarixdan o‘chirishga urinish be‘manilikdir.... XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o‘rnatdi. Bunday aloqa adabiyotimizning avvalgi bosqichlarida bo‘lmagan. XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyatni o‘z ortidan yetaklab, ularni hurriyat va milliy taraqqiyot manzillariga olib borishga intildi va bu inilishda muayyan yutuqlarga erishdi.”**[1]

Yozuvchi adiblarning ijodi yoki ularning muayyan bir badiiy asarlarini tahlil qilish jarayonida, o‘sha adib yashagan va o‘sha asar yozilgan davrning talabi bilan izohlanadigan ba’zi nuqsonlarga qarab emas, balki badiiy saviyaga qarab hukm chiqarish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Negaki, adabiyot ham, yozuvchi ham o‘zi yashagan jamiyatdan uzoqda turishi mumkin emas. Holbuki, o‘zbek adabiyotida sho‘rolar davrida adabiyotning maqsad va vazifalari tor tushunilib, bir tomonlama talqin etildi. Badiiy asarni baholashda uning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy mahoratga taaluqli tomonlari, adabiyotning so‘z san’ati ekanligi inobatga olinmadi.

O‘zbek xalqi tarixining muhim bir qismini tashkil etadigan bu davr tarixga Turkistonda jadidchilikning paydo bo‘lishi, muxtoriyatning tiklanishi va sho‘rolar jamiyatini

qurish uchun kurash yillari sifatida kiradi. Ma’lumki, XX asrning birinchi choragida Rossiya imperiyasida uch marta (1905-yilda, 1917-yil fevral va oktabr oylarida) sotsial to‘ntarish sodir bo‘ldi. Bu bejiz emas, albatta. Bu davrda zulm va istibdodga qarshi ijtimoiy norozilik keskin o‘sganligi uchun ustma-ust to‘ntarishlar yuz berdi.[2]

Xalqni ilmi, ma’rifatli qilishga bel bog‘lagan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Fitrat, Siddiqiy-Ajziy, Hoji Muin Shukrulla, Abdulla Qodiriy singari o‘z davrining ilg‘or ziyolilari mamlakat va xalqni ilmsizlikdan qutqarib ma’rifatli qilish yo‘llarini izlay boshladilar. Natijada, XX asr boshlariga kelib milliy uyg‘onishga chorlovchi jadidchilik harakati yuzaga keldi va tobora rivojlana bordi. Bu harakatning maqsadi- xalq ommasini ma’rifatli qilish orqali mamlakat rivojiga , mehnatkashlar hayotini yaxshilashga ko‘maklashishdan iborat edi.

Ushbu maqolamizda biz asarlarini tahlil qilib o‘rganayotgan o‘zbek romanchiligining asoschisi, adabiyotimizni zamonaviy jahon badiiyati yuksakliklariga yaqinlashtirgan Abdulla Qodiriyning nomi asarlari bilan birga jahonga tanildi. Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatining boshlanishi XX asr boshiga to‘g‘ri keladi. **“Sadoyi Turkiston”** gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida Abdullar Qodiriy imzosi bilan **“Yangi masjid va maktab”** sarlavhali xabar bosiladi. Bu bo‘ljak adibning birinchi chiqishi edi. Oradan ko‘p o‘tmay Abdulla Qodiriy **“To‘y”**, **“Ahvolimiz”**, **“Millatimga”**, **“Fikr aylag‘il”** kabi she‘rlarni yozdi. **“Fikr aylag‘il”** she‘rida oqil insonlarga murojaat qilib:

Oqilo, fikr aylagilki, na ishlayur ahli vatan,

Qaysi fosiq, qaysi johil, qaysisi bo‘ldi chapan? – deb kuyunadi.

Millat ahvolini o‘nglash uchun o‘zga yarasha kuch g‘ayrat kerakligini anglagan Abdulla Qodiriy o‘z tengqurlari bo‘lgan yoshlardan, hammaslarklari bo‘lgan ziyolilar shijoatidan umid qiladi. Millatni uyg‘otish, ma’rifatni ulug‘lash, Vatanni e‘zozlash, ilmga da’vat – bularning bari jadid davri adabiyotining asosiy motivi. She‘rlarida ilmsizlikni, jaholat va nodonlikni qoralaydi. Uningcha, nodon kimsa uchun har to‘rt fasl bir xil – qish. Bunday tuban hollardan qutulishning yagona yo‘li maktablar

ochish, ilm – ma’rifat o’rganishdir. Adibning davr manzaralariga bo’lgan munosabatini uning asarlaridan anglab olish qiyin emas. Shuni ta’kidlaydiki, jaholat dardlarining da’vosi – ma’rifat. Ma’rifat ziyosidan bahra olish – millatning qalbini nurlantirish demakdir. Zero, Abdulla Qodiriyning soda she’rlari, mitti hikoya va hajviyalaridan tortib to ulkan romanlarigacha bo’lgan adabiy merosida inson qalbining, o’zbeklar turmush tarzining turli qirralari aks ettiriladi.

Abdulla Qodiriy ijodining dastlabki namunalari millatparvarlik, ma’rifatparvarlik ruhida yozilgan bo’lib, jadidchilik go’yali asosida yaratilgan edi. Muallif unda xalqning zabun holatidan kuyunib so’zlaydi, jaholatni qoralaydi, ma’rifatni ulug’laydi. Millatni ogohlik, uyg’oqlik va fikrlashga chorlaydi. Adib shunday kayfiyatda asarlarida millatni ichdan yemiradigan illatlarni tanqid qiladi, xalqni o’zligini anglashga, yangilikka chaqiradi.

XIX asr oxiri va XX asr boshi G’arbiy adabiyotda modernizm deb ataladi va bundan ko’rinib turibdiki, modernizm-bu zamonaviy san’at va adabiyotdagi yangi uslubiy ta’limot bo’lib, modern so’zining o’zda ham ma’nolari aks etib turibdi. Tan olish kerakki, dunyoga yangicha qarash har doim yozuvchi va faylasuflar zimmasiga tushib kelgan. Prof. M. Xolbekov fikriga ko’ra, XX asr adabiyoti va san’atidagi yo’nalishlarning ko’pchiligiga, xususan ekspressionizm, surrealizm, “yangi roman”, “ong oqimi”, “absurd teatri”ga shaxsdagi shizofreniya, ya’ni iroda va ixtiyorni namoyon qilishning susayishi, psixika yaxlitligining parchalanib ketishi aloqmatlari, tushkunlik kayfiyati, ruhiy va hissiy depressiya holatlari vosita ob’ekti tarzida xizmat qildi.

Realizm davrining eng muhim jihati inson harakteridagi hamma yaxshi va yomon xususiyatlarning asosiy sababi mavjud sharoit ekanini ochib beradi. Angliya modernizm namoyondalaridan biri bo’lgan Virjiniya Vulf (1882-1941) asarlarida hayot falsafasi va ayollarning o’ziga xosligi aks etgan. U feministik savolga katta qiziqish bilan o’sgan va uning romanlari hayotning ma’nosi va mavjud patriarxal jamiyatdagi ayollarning mavqeini ochib beradi. U patriarxal ingliz jamiyatining ayollar hayotiga ta’sirini, axloqiy, mafkuraviy va odatiy omillar bilan shakllangan ayollarning hayotidagi yolg’izlik va umidsizlikni tasvirlaydi.

“Mrs. Dalloway” Virjiniya Vulfning murakkab mavzular bilan qamralgan eng yaxshi asari sifatida tanilgan. Vulf jamiyat va urushdan keyingi o’zgarishlar haqida ko’p narsa aytishi mumkin, ammo kitobdagi asosiy mavzular - bu feminizm, o’sha davrdagi ayollarning roli va ahamiyatsizligidir. Asosan, bu Klarissa Dallowayning xarakteri, Sally Seton bilan munosabati va boshqa ayollar personajlari Miss Kilman, Lucrezia Warrenn va romanning turli kontekstlarida Klarissa atrofida to’plangan ayollarning ayollik dunyosi, ularning dilemmasi, subyektivligi, shahvoniylik va an’anaviy patriarxal jamiyatda konditsionerlik, jismoniy va ruhiy jihatdan barcha tomonlarini to’la-to’kis ochib beradi. Vulf erkaklar ustunlik

qiladigan jamiyatda ayollarning shaxsiyati, shaxsiy hayoti va erkinligi uchun kurashdi. Ushbu qarashlar “Mrs. Dalloway” romanida gullaydi. Klarissa va Piter o’rtasidagi munosabatlar sevgi va ozodlik o’rtasida doimiy tanglikni boshdan kechirdi. Klarissa sevgiga va sevilishga intilgan bo’lsa ham, u shaxsiy hayoti va mustaqilligini xohlardi. U o’zining bokiraligini saqlab qolishni xohladi va uni tajovuzkor bir jamiyatning ta’siri ostida erkinlik bilan tenglashtirdi. Shunday qilib, Butrusning o’rniga u Richerdga turmushga chiqishni tanladi, chunki u uning baxtiga zarur bo’lgan erkinlikni bermaydi deb o’yladi. Shunga qaramay, Butrus hissiy ehtiyoj muhimligini tushuna olmadi.

“For in marriage a little license, a little independence there must between people living together day in day out in the same house; which Richerd gave her, and she him (where was he this morning, for instance? Some committee, she never asked what.) But with Piter everything had to be shared, everything gone into.”[3]

Romanda Klarissaning eri Richerd Dalloway bilan bo’lgan munosabatlari muvaffaqiyatsiz bo’lgan. Richerd xotinidan ko’ra ko’proq siyosat bilan mashg’ul edi. Yuqori sinfning ijtimoiy vazifalariga sodiqligiga javoban u xotinini o’zi uchun ahamiyatsiz bo’lgan uchrashuvga qoldirdi. Yana, Richerdni Lady Brutonning kechasiga xotini bo’lmasdan taklif qilishganini topamiz. Shu payt Klarissa bo’shliq va ahamiyatsizlik hissini his qildi. Klarissa erining issiq suv o’rnini bosadigan stakanni olishga urinishini mazax qildi.

“And if she raised her head she could just hear the click of the handle released as gently as possible by Richerd, who slipped upstairs in his socks and then, as often as not, dropped his hot-water bottle and swore! How she laughed!”[4]

Klarissa - Richerd munosabatlari orqali, Vulf nikoh baxtli munosabatlarning kafolati emasligini yoki patriarxal jamiyatda er va xotin o’rtasidagi o’zaro tushunishni kafolatlamasligini ta’kidlaydi, hatto bitta tom ostida yashagan bo’lsa ham. Yana, bu ikki munosabatlar Klarissa-Piter va Klarissa-Richerd jamiyatda ayollarning mavjudligini ochib beradi. Ikkala erkak ham, Piter ham, Richerd ham, Klarissani ayol, past va ahamiyatsiz deb bilishgan. Butrus hech qachon Klarissani tushunishni xohlamadi. Aksincha u dunyo ishlari bilan juda qiziqar edi:

“It was the state of the world that interested him; Wagner, Pope’s poetry, people’s characters eternally, and the defects of her own soul.” [5]

Shu sababli, “Mrs. Dalloway” patriarxal va imperialistik jamiyatning rasmini tasvirlaydi va mazmunli hayot kechirish uchun ayollarning imkoniyatlari cheklangan omillarni batafsil bayon qiladi. Romanda ayollar yolg’iz o’zlari azob chekishadi, individuallik yo’q, ilqlik yo’q va o’z ehtiyojlarini qondirishga majbur bo’lishadi. Vulf romanni kelajak avlod ayollar erkinligi umid bilan yakunlaydi. Uning ta’kidlashicha, ayollar o’zlarining nazokatini

ni yo'qotmasliklari va shu bilan cheklanmasliklari kerak. Kelajakdagi ayol o'zining nozik fazilatlarini ulug'lashi, qadrini bilishi, yetuk aql-farosatga ega bo'lishi va shu bilan birga mardlik-dovyuraklik hislarini o'zida mustahkam egallab turishi kerak deb e'tirof etadi.

Xulosa qilib aytganda, "Mrs.Dalloway"ning yozil-

ishidan ko'zlangan asosiy maqsad, Vulf patriarxiya va uning vakillariga qarshi chaqiruv yubormoqchi bo'lganligidadir. U ayollarga ayol shaxsini berish uchun patriarxal tuzilmalarni yo'q qilishga, ayollarning tarixini ayol ko'zlari orqali qayta yozishga va o'zlari va o'zlarining hayotlari to'g'risida haqiqat bilan gapirishga chaqirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. XX asr mening taqdirimda. – "Jahon adabiyoti" jurnali, 2001-yil, yanvar, 24-bet.
2. XX asr o'zbek adabiyoti. – Saydullar Mirzayev, Toshkent, 2005, 9-bet.
3. Woolf, Virginia, Mrs. Dalloway, London: Penguin books 1996, p. 4
4. Woolf, Virginia, Mrs. Dalloway, London: Penguin books 1996, p. 24
5. Woolf, Virginia, Mrs. Dalloway, London: Penguin books 1996, p. 4
6. Woolf, Virginia. 2002. A Writer's diaries: Being Extracts from the Diary of Virginia Woolf. Leonard Woolf. Boston: Mariner Books

Shoxista ABDUJABBOROVA,
Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

TOPISHMOQLARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqola o'zbek topishmoqlarining lingvokulturologik va lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Topishmoqlarning leksik-semantik hamda kognitiv tomonlari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, ularning milliy-madaniy xususiyatlari, kommunikatsiya jarayonida o'ziga xos ma'noda qo'llanishiga sabab bo'lgan asosiy pragmatik omillar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Xalq og'zaki ijodi, topishmoq, tafakkur, obraz, kommunikant, idrok, mentallik, lingvokulturologiya, pragmatika, ko'chim.*

Hayotni o'ziga xos badiiy idrok etish shakli bo'lgan topishmoq o'zbek folklorining ommaviy janrlaridan biridir. Inson va uni o'rab turgan olam, topishmoqlarda ko'chimlar, o'xshatishlar, taqqoslashlar, solishtirishlar, savollar vositasida o'ziga xos poetik shaklda aks etadi. Bu jihati bilan u insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida favqulodda hodisa bo'lib, unda obrazli zuhur etgan hayot parchasi topishmoqning javoblari orqali realla-shadi. Topishmoq xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan farqli holda tasvir obektini imkon boricha mavhum qilib, yashirib tasvirlashga intiladi. Natijada, tushunarli bo'lgan so'z, gaplar ham yangi kuzatilmagan belgi-xususiyatlar kasb etadi. Tinglovchini fikrlashga undaydi.

Tepamda **ko'k dasturxon,**
Dasturxonda **shirmoy non.**
Shirmoy non bir donadir,
Sindirilmas hech qachon.
(Osmon, oy)

Xalq og'zaki ijodida nomi sir saqlangan holda obra-zi ifodalar bilan berilib turli topishmoqlar yaratiladi.¹ Topishmoqlar javobini topish, aniqlash esa insonni kengroq fikrlashga undaydi. Inson narsa va predmet, hodisalarni bilishda, idrok qilishda qator man-

tiqiy-ruhiy harakatlarga ega bo'lgan faoliyatni amalga oshiradi. Topishmoq bu moddiy olamdagi narsalarning rang-barangligi va poetik go'zalligini ko'z o'ngimizda ochib berish maqsadida yaratilgan biron-bir narsaning mazmundor poetik tasviri, topilishi lozim bo'lgan narsa-hodisaning boshqacha ifodasidir². Har qanday til birligi shakli (moddiy) va mazmunij jihatlarining muayyan butunligidan tashkil topadi. Albatta, shakli jihat deganda, ushbu birlikni boshqa birliklardan ajratib turuvchi farqlar yig'indisi nazarda tutiladi.

Topishmoq – borliqni real tasvirllovchi adabiy, eng ommaviy janr. Shu o'rinda M. A. Ribnikovaning "Topishmoq konkret predmetni, uning kelib chiqishi, vazifasi va hayoti dialektikasida bilib olib, ifoda etadi"³, degan ta'rifini keltirish o'rinli. Janrning poetik tabiatiga xos bo'lgan bunday umumiy xususiyat barcha xalqlar topishmoqlariga xos xususiyatdir. Shu bilan birga har bir xalqning topishmog'i o'sha xalq hayot tarzining ifodasi sifatida o'ziga xosdir. Shakli, vazifasi, ish-harakati va holati jihatidan bir-biriga o'xshash ikki predmet, narsa va hodisadan jumboqlanib, ikkinchisiga o'xshash belgilar asosida uni topishga mo'ljallab she'riy yoki nasriy tuzilishda berilgan savol yoki topshiriqlar topishmoq deb yuritiladi. Topishmoq aytish hozirgi paytda aql-zakovat, ziyraklik musobaqasiga aylangan. Xalq topish-

moq qilib yaratadigan hodisa va narsalar insonning tarixiy yashash sharoitida bo'lmagan, uning ongidan uzoq bo'lgan xayoliy uydirmalar bilan emas, balki real hayotda inson o'z ko'zi bilan ko'rgan, hayotida ishlatgan, duch kelgan, hatto o'zi ishlagan, etishtirgan narsalar –mahsulotlar, o'zi sezgan, eshitgan hodisalardan iboratdir. Demak, "Topishmoq borliqni real tasvirllovchi adabiy janrdir"⁴. Ma'lumki, topishmoq atrofimizdagi narsa va hodisalarni yashirin (implitsit) shaklda nomlaydi. Semema tarkibiy qismlari atash, ifoda hamda vazifa semalariga ajraladi. Bu semalar ichida ifoda semasi ayni pragmatika uchun tadqiqot obekti bo'ladi.

Oltin kosada toshib turar,
Dala husnin ochib turar. (Paxta)

So'z kontekstda o'zining funksional qo'llanish o'rnini o'zgartirishi bilan atash semasi o'rnida so'zlovchining konkret munosabatini bayon qiluvchi ifoda ma'nosi birinchi darajali mavqeni egallaydi, natijada pragmatik tahlilga ehtiyoj seziladi. V. A. Beloshapkova shunday yozadi: "Semantik sintaksisning taraqqiyoti munosabati bilan juda ko'p tilshunoslar tomonidan turli vaqtlarda aytilgan gap ma'nosida bir-biridan farqlanuvchi ikki tur mazmun - borliqni aks ettiruvchi obektiv mazmun va fikrlovchi subektiv mazmun qo'shilgan, degan fikr alohida dolzarblik kasb etdi"⁵. Topishmoqlarda ma'lum bir obekt boshqa obektlar qatoridan ajratib olinadi. Bunda, albatta, uning farqlovchi belgilari e'tiborga olinadi. Farqlovchi belgilar asosida boshqa obekt bilan qiyoslash harakati amalga oshirilib, xotirada shu obektga oid hissiy obraz shakllantiriladi va mantiqiy faoliyat natijasi bo'lgan tushuncha obraz va lisoniy ma'no bilan umumlashib konseptni yuzaga keltiradi.

Ifodaning yashirin bayoni, jumlaning tagma'nosi kommunikatsiya ishtirokchilarining fikrlash faoliyati bilan va ularning olam haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog'lanadi. So'zlovchining tashqi olam haqidagi tasavvuri qancha keng bo'lsa, u nutqiy vaziyat darajasini shu qadar tez fahmlaydi. Shuning uchun ham ifoda semantik strukturasidagi axborot ko'rinishlarini oshkora yoki yashirin bayon qilish, oshkora ifodalab bo'lmaydigan axborot ko'rinishini tagma'no shaklida berish so'zlovchining ichki maqsadi bilan bog'liqdir. Umumyashirin mazmun verbal shaklning tagma'no usuliga aylantiriladi.

Tilning obrazli qurilishida bunday so'zlar bilan beriladigan topishmoqlarning o'zni o'ziga xosdir. Ma'lumki, topishmoqlarning tub mohiyati predmetlararo yashirigan savol bo'lib, uning javobi obrazlar orqali jumboqlangan obekt-narsa yoki tabiat hodisalari, biror voqelikning nomini aytib berish hisoblanadi. "Topishmoq biror narsa yoki tabiat hodisasini obrazli ifodalar vositasi bilan ikkinchi narsa yoki tabiat hodisasiga taqqoslangan metaforik mazmunni ochib beradi"⁶. Haqiqatdan

ham, qadimda xalq topishmoqlari hozirgidan o'zga-cha ahamiyatga ega bo'lgan. Biz topishmoqlarning yaratilishi, uning obrazlari ko'pgina hollarda mifologiya, qadimiy hayot tarzi bilan bog'liqligiga ishonamiz. Takrorlanmas metaforalar, yorqin qiyoslashlar, obrazli ifodalar bilan jilolangan o'zbek topishmoqlari qadimiy yurtimizning jozibasi va o'ziga xosligini tasvirlabgina qolmay, folklor asarlar silsilasida ulkan estetik qimmat bilan xalq ma'naviy dunyosi taraqqiyotining xazinasini sifatida bizning kunlarimizda ham jamiyatimiz yaxlit madaniy hayotining muhim tarmog'i bo'lib qolmoqda. Aynan ana shu materiallar orasida o'zbek xalq og'zaki poetik ijodida milliy poetika qonunlari asosida yaratilgan lingvokulturologik va lingvopragmatik xususiyatlarga ega bir qancha topishmoqlarni uchratish mumkin. O'zga xalqlarda bo'lgani kabi o'zbek xalq ijodida ham badiiy nutqning qiyoslash, istiora, jonlantirish, sifatlash kabi asosiy ko'rinishlari bir maqsadga – poetik idrok qilishga, voqelikni poetik tavsiflashga bo'ysundirilgan. O'zbek topishmoqlarida o'zbek voqeligi, o'zbek tabiati ifodalangan.

Eski-eski choponim,
Esimdan chiqmas choponim,
Janda-janda choponim,
Yonimdan ketmas choponim. (Soya)

Obrazlilikning aks etish nuqtai nazaridan o'zida yashirin ma'nosi to'lig'icha ifoda etuvchi topishmoq janriga xos matnlarda insonni o'rab olgan narsa, voqea hamda hodisalar haqida ko'chma ma'noda so'z yuritilib, jumboq yaratiladi va tinglovchidan ana shu jumboqqa javob talab qilinadi. Demak, bu janrga xos matnlarda barcha so'zlarning asosan ko'chma ma'noda qo'llanishi obrazlilikni kuchaytiradi.

Kommunikantlarning turlicha bilim saviyasi belgilovchilik vazifasini turli aspektida bajaradi. Tushunchaga ega kommunikant bilan ham tushuncha, ham uning atamasi haqidagi bilim ega kommunikantlarning o'zaro til topishishlarida ma'lum darajada muammolar paydo bo'ladi va bunda mazkur maqsad-vazifalarda qo'llangan so'zlarning grammatik ma'nolari turli manfaatlarga yo'naltirilgan intensiyalarni qondirish uchun xizmat qiladi. Lingvistik belgilar madaniyat belgilarini ifodalash imkoniga ega va shu bilan madaniyatning asosiy nuqtalarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi, chunki V.A.Maslova ta'kidlagandek, "Har bir ona tilida so'zlashuvchi madaniyat tashuvchisi, shuningdek, ma'lum bir xalq falsafasining tashuvchisi hamdir. Shuning uchun ham til o'z so'zlovchilarining milliy-madaniy mentalitetini aks ettira oladi"⁷.

To'rt yonida to'rtta oy,
Boshimga berar chiroy.
(Do'ppi)

Ma'lumki, til fikrni ifodalash vositasidir. Har bir xalq madaniyati umuminsoniy va etnomilliy bo'lgani kabi,

har bir tilning semantikasida ham umumiy va universal madaniy komponent, muayyan xalq madaniyatining o'ziga xosligi aks etadi. Bu tadqiqot lingvomadaniy aspektida topishmoqlarning milliy-madaniy kompo-

nentlarini aniqlash imkonini beradi. Semantik, sintaktik va ayniqsa, pragmatik xususiyatlarni ma'lum lingvistik mezonlar vositasida ajratish bugungi tilshunoslikning asosiy masalalaridandir.

1. Сехрли қор учқуни // Ғунча, 2016 йил, 1-сон. — Б.9.
2. Эринчоқ тарвуз // Ғунча, 2016 йил, 6-сон. — Б.15.
3. Байрам дастурхони // Ғунча, 2016 йил, 7-сон. — Б.7.
4. Жирафа // Тонг юлдузи, 2016 йил, 9-сон. — Б.8.
5. Сўзнинг ранг // Ғунча, 2016 йил, 10-сон. — Б.3.
6. Япроқларни босманг // Ғунча, 2017 йил, 11-сон. — Б.10.
7. Йўқолган соат // Ғунча, 2016 йил, 4-сон. — Б.14.
8. Эринчоқ тарвуз // Ғунча, 2016 йил, 6-сон. — Б.15.
9. Нурбек. Оталар сўзи, ақлнинг кўзи // Тонг юлдузи, 2017 йил 23 январь, 4-сон. — Б.8.
10. Иўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. — Т.: Фан, 2007. — Б.52.
11. Назарова Н. Бешариқлик боксчилар // Тонг юлдузи, 2017 йил 30 январь. 5-сон. — Б.7.
12. Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.докт. дисс... - Тошкент, 2012. — Б.112.

Muxlisaxon SAYDALIYEVA,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

PRETSEDENT NOM VA DEONIMLASHISH HODISASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada pretsedent nomlar asosida til tizimida yangi leksik birliklar — deonimlar hosil bo'lishi va uning tadqiqi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'z va iboralar: pretsedentlik, pretsedent nom, atoqli ot, apellyativ (turdosh ot), deonim, deonimlashish.

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование и изучения в системе языка новых лексических единиц — деонимов на основе прецедентных имен.

Ключевые слова и фразы: прецедентность, прецедентное имя, имя существительное, апеллатив (имя нарицательное), деоним, деонимизация.

Annotation. This article discusses the formation and research of new lexical units in the language system — deonyms based on precedent names.

Keywords and phrases: precedent, precedent name, onym, appellative, deonym, deonymization.

Zamonaviy tilshunoslik izlanishlarida pretsedentlar borliq hodisalarini bilish va ularni tilda aks etish dinamik jarayonlarini ifodalovchi lingvokognitiv, lingvomadaniyatshunoslik hodisasi sifatida talqin qilinadi. Pretsedentlik hodisasi deganda, tilshunos D.Gudkovga ergashgan holda, milliy ixchamlashtirilgan determinant tasavvurlarning ongda saqlanish hodisasini tushunamiz. Ayni vaqtda, uning birligi bo'lgan pretsedent nomlar yuqori informativ, allyuziv va ekspressiv xarakter kasb etadi, shuningdek, bu nomlar milliy o'ziga xos bilimlarni o'z ichiga oladi, birgina nom ostida unga aloqador qator faktologik ma'lumotlar bazasi shakllanadi. Pretsedent nomlar pretsedent matnga yoki pretsedent vaziyatga bog'lanadi yoki ma'lum sifatning etalon majmui bo'lib (simvolik yoki etalon) muayyan til vakillari lisoniy ongda kod sifatida saqlanadi.

Pretsedent nomlar turli pretsedent hodisalarining semantik kondensati sifatida turli kontekstlarda

bir xil bo'lmagan konnotatsiyalarni hosil qiladi, bunda ular umumiy ikkilamchi — tavsiflovchi (ekspressiv-baho) funksiya bajaradi¹. Pretsedent nomlar lingvomadaniy hamjamiyat vakillari kognitiv bazasi bilan izchil bog'langan; ularga ma'lum tarixiy davrning va shu davr madaniyatining ochiqch kalitlari deb qarash to'g'ri bo'ladi. Aynan shu lisoniy birliklar asosida yana bir jarayon sodir bo'ladi — pretsedent nomlar asosida til tizimida yangi lisoniy birliklar ham paydo bo'ladi, bunda mashhur onimlar turli semantik usullar bilan transformatsiyaga uchraydi va yangi leksik birliklarga aylanadi. Xalq orasida mashhurlikka erishgan va til tizimida keng qo'llanishga o'tgan mashhur atoqli otlar (pretsedent nomlar) ma'lum bosqichga yetgach, predmetni (obyekt, subyekt, shaxs, joy va h.k.) individuallashtirishga xizmat qila olmay qoladi, ular emotsional-ekspressiv xususiyat kasb etadi, yangi mazmuniy yuk bilan boyiydi. Shu sababli ham deonimlar boshqa turdosh otlardan

shartli emotsional pragmatik komponenti mavjudligi bilan farqlanadi. Nolisoiniy omillar ta'sirida ba'zi hollarda denotat bilan leksik birlik orasidagi aloqa uzoqlashadi yoki uziladi, atoqli ot so'zlashuv orqali yoki til vakillarining ixtiyoriy, o'z muloqot maqsadlaridan kelib chiqqan holda qo'llashi natijasida onim tarkibidagi denotat apellyativga ko'chadi. Bu jarayon natijasida hosila apellyativ yangi ma'no kasb etishi, boshqa denotatga bog'lanishi, yangi hodisa-jarayon, tushuncha, predmet yoki onimlarni anglatishi mumkin. T.Fedotova bu holatni "joriy davrning kalit so'zlari" bo'lgan onimlarning pret-sedentga aylanishi yoki atoqli otlarning turdosh otga ko'chishi natijasida sodir bo'ladi², deb tavsiflaydi.

O'zbek tilida atoqli otlar, jumladan, pret-sedent nomlar asosida deonimlashish, tranonimizatsiya va turg'un birikmalar hosil qilish jarayoni orqali apellyativ (turdosh otlar) va yangi onimlar yasaliishi keng uchraydi. Bu jarayonlar dunyo tillarida faol leksik qatlamni shakllantiruvchi omil hisoblanadi, har qanday zamonaviy tilning lug'at tarkibi o'rganilsa, bu turdagi yangi so'z yasaliish shaklini uchratish mumkin.

Y.Kravchenkoning fikriga ko'ra, til va madaniyat o'rtasidagi izchillik inobatga olinsa, bir tildagi so'zlarning boshqa tilga o'tishida, bu jarayon avvalo madaniyat taraqqiyoti bilan bog'liqligini ko'rish mumkin³. Yunon tili antik davr sivilizatsiyasini tashkil etgan asosiy kommunikativ elementlarni o'zida jamlagani sababli ham boshqa madaniyat vakillarining taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan va keyingi davrlarda dunyoviy muloqot tili maqomini olgan lotin tili shakllanishida ham asos vazifasini o'tagan⁴. Lotin tili keyinchalik aristokratlar tili, qonun va hujjatlar tili, ilm-fan tili, g'arbiy xristianlik, ya'ni din tili sifatida o'z nufuzini mustahkamlashi barobarida bu tilga oid nomlar ham yondosh xalqlar madaniyatiga o'zlashib boradi. Hozirgi zamonaviy tillarning lug'at tarkibi o'rganilsa, yunon-lotin tillariga oid ko'plab so'zlarni uchratish mumkin. Deonimlar hosil bo'lgan asoslar, motivlar tahlil qilinsa, bu madaniyatga xos mifonimlar ham salmoqli ekanini kuzatish mumkin. Qadimgi antik madaniyat va e'tiqodida muhim o'rin egallagan xudolar, ma'budlar, ular bilan uzviy bog'langan tabiat hodisalari, turli jarayonlarni ham nomlashda asos vazifasini bajar-ganlar. Masalan, ko'plab tillarga *vulkan* (*vulqon*) tarzida o'tgan so'z qadimgi Rim mifologiyasida olov xudosi – **Vulcanus** nomi bilan bog'liq ekanini ko'rish mumkin. *Vulkan* so'zini llatiyadagi tog' nomiga bog'lash ham kuzatiladi⁵, fikrimizcha, bu yerda mifonim ham tranonimizatsiyaga, ham deonimlashishga uchrab, yangi onim va turdosh ot hosil qilgan. Yevropa xalqlari orasida atoqli otlarga, ayniqsa, antroponimlarga bo'lgan munosabat boshqa mintaqa xalqlarining atoqli otlarga bo'lgan munosabatidan farq qiladi. Aynan Yevropa tillarida onimning apellyativga o'tishi, fandagi kashfiyot yoki yangilikka ixtirochi nomi berilishi, onimning biror alohida belgi, ramz sifatida boshqa so'z turkumlariga ko'chishi, atoqli otning boshqa obyekt yoki subyektlarni nomlashga xi-

zmat qilish holati sezilarli darajada ko'p ekanini kuzatish mumkin.

Ko'rib turganimizdek, onomastik leksika ma'lum bir xalqning madaniyati, tarixi, an'analari haqida boshqa etnos vakillariga axborot beruvchi birlamchi vositalardir, shunga ko'ra ular tillararo, madaniyatlararo ko'priki vazifasini o'taydilar. O'zlashtirish jarayonida atoqli otlar o'z asosi, semantikasida so'z shaklini, uning lug'aviy ma'nosini saqlab qoladi, yangi konnotatsiyalar bilan boyiydi, alohida subyekt yoki obyektgagina xos bo'lgan jihatlar shu singari tashqi, funksional xususiyat va sifat-larga ega boshqa birliklarni umumlashtirib nomlashga xizmat qila boshlaydi. O'zlashgan deonimlarning asosini tashkil etgan onim to'g'risida ma'lumot mavjud bo'lmasa-da, so'zning shakliy tomoni orqali u qaysi til-dan kirib kelganini aniqlash mumkin bo'ladi.

Deonimlashish, deonim terminlari rus tilshunosligidagi ba'zi tadqiqotlarda "otokonomastik yasalmalar" ("отокономастические производные имена")⁶, pret-sedent nom asosida yasalgan nomlar⁷ deb ham beriladi. Deonimlashish hodisasi tilshunoslikda yangi hodisa bo'lmasa-da, uning tarkibiy birliklari yuzasidan ilmiy qarashlar bir-biridan farqlanishini kuzatish mumkin.

Deonimlashish jarayoni affiksali so'z yasaliishini inkor etsa-da, lug'atda har qanday atoqli otga affiks qo'shish yordamida turdosh ot yuzaga kelishi deonimik substantiv, sifatning yuzaga kelishi esa deonimik adyektiv deb keltiriladi: *shovinizm*, *berdanka*, *alpinist*, *antisemitizm* (anti- + Som – Nuh payg'ambarning o'g'li + -izm) kabi. Bu kabi holat, ya'ni deonim tarkibiga affiksali hosilalarni kiritish keyingi davr ilmiy tadqiqotlarida ham uchrab turadi, tilshunos olimlar orasida bu borada ikki xil qarash shakllangan. Bazi tilshunoslar deonimlar tarkibiga affiksali yasalmalarni ham kiritadilar⁸. Aksariyat olimlar esa affiksatsiya usuli bilan atoqli otdan turdosh ot hosil bo'lishi deonimlashishga taalluqli hodisa emas, degan xulosadalar. Xususan, tarkibida antroponim yoki toponim mavjud bo'lgan terminlarni **eponimlar** deb qarash holati ham tilshunoslik tadqiqotlarida kuzatiladi⁹.

L.Isakova deonimlashish hodisasi avvaldan ma'lum bo'lgan onimda inson ongida hosil qilingan konkret realiya yoki tushunchaning so'z ko'rinishidagi ifoda nusxasi bo'lib, o'zida voqelikning bir qismini saqlaydi, deb hisoblaydi. Olima XX asr o'rtalariga kelib rus tilidagi yangi antropodeonimlar soni topodeonimlarga nisbatan uch karra ortiq bo'lgani haqida aytadi va bu davrda rus tilshunosligida deonimlarni o'z ichiga olgan quyidagi leksik-semantik guruhlar farqlanganini aytadi: xulq-atvorlari va qilmishlaridan kelib chiqqan kishilarning salbiy tavsifi; hayot tarzi, dunyoqarash pozitsiyalari, ijtimoiy oqim va siyosiy tashkilotlarga a'zo kishilar toifasi; olimlar, kashfiyotchilar, fabrikantlar nomidan kelib chiqqan asbob, qurilma, metrologik birliklar nomlari¹⁰. Olimaga ko'ra, deonimlashish mexanizmi ikki hodisaniing ketma-ketligi asosida sodir bo'ladi: 1) onimning birlamchi funksiyasi nominativlikning neytrallashtirishi

(shaxs yoki obyektning uning shaxsiy belgilarini ifodalashga emas, balki faqat nomlashga xizmat qilishi); 2) sobiq onim asosida paydo bo'lgan shaklning yangi ma'nolar bilan boyishi¹¹.

Y.V.Kravchenko o'z dissertatsiyasida deonimik o'tishlar semantik, so'z yasash va semantik-nominativ usullar orqali sodir bo'lishini aytib o'tadi: agar nomlanayotgan obyekt noaniq bo'lsa, atoqli otning apellyativga o'tishi semantik (metaforik, metonimik, sinekdoxa), semantik-nominativ yondashuvda yangi leksik hosila atoqli ot asosida yasallilishini keltiradi¹². Olima: "Deonimlashish va deonimlar – onomastik tizimda ichki rivojlanish jarayonlarining o'ziga xos ifodalanishi. Onimning deonimga o'tishi yangi nomlarni topish va real holat fragmentlarini aniq aks ettirish ehtiyoji kabi ekstralingvistik omillarga asoslangan", degan fikrni ilgari suradi¹³.

Ba'zi atoqli otlar umumiy leksikaga bevosita o'tadi, bunda onim lingvomadaniy jamiyat vakillari orasida mashhurlikka erishadi, keyinchalik shu nom zamirida ba'zi sifatlar majmui sifatida ishlatilishga o'tadi, bu jarayon uzoq vaqt davomida asta-sekinlik bilan sodir bo'ladi. Ikkinchi usulda esa onimning apellyativlikka o'tishi shartli (semantik-nominativ) amalga oshiriladi. Bu usul bilan aksariyat tor sohaviy termin va turg'un birikmalar hosil qilinadi, masalan, *bertolle*, *rentgen*, *dizel*, *algoritim*, *amper*, *berkliy* terminlari o'z kashfiyotchilari, shu soha rivojiga ulkan xissa qo'shgan olimlarning, shuningdek, apellyativ yaralishi bilan bog'liq joy nomidan foydalanish natijasiga yuzaga keladi.

Bugun o'zbek tilida mavjud bo'lgan terminologik deonimlarning aksariyati rus tili orqali G'arbiy Yevropa

tillaridan kirib kelgan. So'nggi uch-to'rt asr oralig'ida G'arbiy Yevropada jamiyatning sog'lom turmush darajasini oshirish, kundalik hayot tarzini qulaylashtirish va faoliyatni osonlashtirish, ishchi kuchi va boshqa turli resurslarni tejash, foydali ish koeffitsiyentini oshirishga intilish ortidan ilm-fan, texnika-sanoat, tibbiyot, ijtimoiy-gumanitar kabi sohalarida olamshumul kashfiyotlar amalga oshirildi. Bunday ilg'or taraqqiyot terminologiyaning rivojlanishiga, uning bazasi yangi birliklar bilan boyishiga olib keldi. Ilmiy sohalaridagi metrologik birliklarning antropodeonim orqali nomlanishi antroponimlarning barcha turlari tillarning terminologik qatlamini kengaytirish, boyitish uchun tuganmas manba ekanidan dalolatdir. Onimlar asosida terminlar, apellyativlar, shuningdek, barqaror birikmalar ham paydo bo'lishiga olib keladi: *Mendeleyev jadvali*, *Pifagor teoremasi*, *Nyuton qonunlari*, *Daun sindromi* va hokazo.

Atoqli otlar asosida paydo bo'lgan yangi so'zlar okkazional ma'no bo'lgani bois doim ham lug'atlarda aks etavermaydi, shu bilan birga ularning imlosida qator xatoliklar bilan qo'llash holati ko'p uchraydi. Ularning son jihatdan keskin ko'pligi tilimiz doirasida deonimlar tadqiqiga jiddiy e'tibor qaratilishi lozimligini, shu bilan birga atoqli otlar imlosidagi chalkashlikka yechim berilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Milliy pretsedent nomlarni chuqurroq tahlil qilish bilan milliy deonimlar bazasini yangi deonimlar bilan kengaytirishimiz mumkin bo'ladi. Bu esa o'zbek tili lug'atlarida aks etmay qolgan apellyativlarni yangi leksik birliklar sifatida tilimiz lug'at tarkibiga olib o'tishga katta xissa qo'shadi.

1. Ли Я. Коннотативная система субстантива в функциональном аспекте (на материале российских СМИ). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва: Московский гос. ун-т им. М.В.Ломоносова, 2020. – с. 2, 10.
2. Федотова Т. В. Динамика ключевых имен собственных в аспекте их прецедентности и деонимизации // Вестник ВГУ серия: лингвистика и межкультурная коммуникация. 2015. № 4. С. 39
3. Кравченко Е.В. Деонимизация иноязычных имён собственных в английском языке. Дисс. на соис. уч. ст. канд. филол. наук. – Владивосток: Дальневосточный гос. ун-т, 2004. – С. 36.
4. Кабакчи В.В. Основы англоязычной межкультурной коммуникации. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 1998. С. 12.
5. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 11 b.
6. Исакова Л.Н. Антропodeонимы в русских словарях науки, производства и социально-политической жизни России XVII-XX веков. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Орёл: Орловский гос. ун-т, 2004. – с. 9.
7. Захарова А. Г. Лингвокогнитивное моделирование семантики производных слов, образованных от прецедентных имен (на материале английского языка). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва: Московский гос. лингв. ун-т, 2020. – с. 9.
8. Ханичев Р.З. Сопоставительная характеристика процессов деонимизации в русскомианглийском языках. Автореф. дис. ... канд. филол. наук, 2004; Мельникова Т.Н. История английской апелляции, 1996; Атарщикова Т.Н. Семантика и словообразовательная структура отономастической лексики, 1985.
9. <https://medconfer.com/node/6465> Трехлебова И.В. От античных имён собственных к русским нарицательным // Bulletin of Medical Internet Conferences, 2016. Volume 6. Issue 5.
10. Исакова Л.Н. Антропodeонимы в русских словарях науки, производства и социально-политической жизни России XVII-XX веков. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Орел: Тульский гос. пед. ун-т, 2004. – С. 4.
11. O'sha asar. B. 15.
12. Кравченко Е.В. Деонимизация иноязычных имён собственных в английском языке. Дисс. на соис. уч. ст. канд. филол. наук. – Владивосток: Дальневосточный гос. ун-т, 2004. – С. 11.
13. O'sha asar. C. 12.

Nilufar KARIMOVA,

Shahrisabz davlat Pedagogika institutining
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich magistranti

ALISHER NAVOIY DEVONLARIDAGI LIRIK JANRLAR MIQYOSIDA HAMD MAVZUSINING YORITILISHI

Annotatsiya: Alisher Navoiy ijodi bilan qiziqish Navoiy davridan to hanzuga qadar davom etib kelayotgan juda ham uzoq bir jarayondir.

Maqolada navoiyshunoslik fanining so'nggi yutuqlari asosida basmala, hamd, na't va munojotlarning Alisher Navoiyning lirik merosi va dostonlarida uchraydigan namunalarini aniqlash, ularning matni va mazmunini badiiy asarda san'atkorona qo'llashning usul va vositalari singari masalalarni Navoiy she'riyat misolida tadqiq etilgan.

Аннотация: Алишера Навои – это очень длительный процесс, который продолжается со времен Навои и до сих пор.

В данной статье на основе последних достижений навоиведения рассматриваются такие вопросы, как выявление образцов басмалы, хамда, ната и муноджота, встречающихся в лирическом наследии и эпосе Алишера Навои, методы и средства художественного применения их текста и содержания в художественном произведении. произведения исследуются на примере поэзии Навои.

Annotation: Alisher Navoi is a very long process that continues from the time of Navoi to the present.

This article, based on the latest achievements of Navoi studies, considers such issues as identifying samples of basmala, hamd, nata and munojot found in the lyrical heritage and epic of Alisher Navoi, methods and means of artistic application of their text and content in a work of art. works are studied on the example of Navoi's poetry.

Avvalgi boblarda ta'kidlaganimizdek, hamd g'azallar ham alohida tadqiqot mavzusidir. Mumtoz adabiyotimizda komil inson (Payg'ambar s.a.v.) siymosi tasvirini batafsil ilmiy tadqiq etgan olim M.Q.Muhiddinov hamd-na'tlar xususida quyidagi fikrlarni o'rtaga tashlaydi: «Bizning fikrimizcha, hamd va na'tlar muallif dunyoqarashini oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega... "hamd" va "na't"da qasida xususiyati bor, ya'ni ta'rif-tavsifi, til uslubi ko'tarinki ruh bilan yozilgan. Lekin qasidaning shakli qofiyalanish tartibi boshqa (aa, ba, va...) bundan tashqari, qasida janrining ob'ekti «na't hamd»lardan farq qiladi. Na't-hamdarda muallifning falsafiy mushohadalari ham ifodalangan».

Tadqiqotimiz Alisher Navoiy devonlaridagi lirik janrlar ustida borgani sabab Alisher Navoiyning Badoe' ul-bidoya» devoni debochasida mufassal bayon qilingan devon kompozitsiyasi to'g'risidagi mashhur qoidalarini bir yodga olaylik:

1. Avval budurkim, har kishikim devon tartib qilibdurur, 32 harfdinki, xaloyiq iboratida voqe'durur va ulus kitobatida shoe', to'rt harfga ta'aruz qilmaydururlar». Demak, Navoiy ta'kidicha, devon tartib beruvchi shoir-lar turkiy yozuvda mavjud bo'lgan to'rt harfga (پ (pe) چ (che) ج (je) گ (ge)) munosib e'tibor ko'rsatmaydilar.

2. Har harf g'azaliyotining avval bitigan g'azal bila o'zga g'azallar orasida uslub haysiyatidin tafvut rioya qilmaydururlar. Muqarrardurkim, har amrda bir lahza Haq Subhanahu va taolo hamdidin yo rasul alayhissalom na'tidin, yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g'ofil bo'lmamog'liq avlodurur.

3. Yana bir bukim, go'yiyo ba'zi el ash'or tahsilidin va devon takmilidin g'araz majoziy husnu jamol tavsifi

va maqsud zohiriy xattu xol tasviridin o'zga nima angla-maydururlar. Devon topilmag'ay va g'azal bo'lg'aykim, anda mav'izatangez bir bayt bo'lmag'ay. Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda zahmat va zoyi' mashaqqat tortilg'on bo'lg'ay. Ul jihatdin bu devonda hamd va ma'vizadin boshqa har sho'rangiz g'azaldinkim, istimo'i mahvashlarg'a mujibi sarkashlik va g'amkashlarg'a boisi mushavvashliq bo'lg'ay, biror-ikkiror nasihaturo va ma'vizatoso bayt irtikob qilindikim, alarning lam'ai ruxsori iffat burqa'idin ko'p tashqari lomi' bo'lmag'ay, to alarning vujudi xirman ul barq ixroqidin bilkul zoyi' bo'lmag'ay, yo'qkim, bu g'azallar g'izolalari jilvagarlik soz, balki pardadorlik og'oz qilsalar, bu baytlarning nasihatsoz vo'izlari va mav'izapardoz nosihlari mone' bo'lg'aylar».

4. G'azal yozgan ayrim shoir-lar she'ring «mat-la'i maxsus nav'da voqe' bo'lg'on bo'lsa, hamul matla' uslubi bila itmom xil'atin va anjom kisvatin kiydurmay dururlar, balki tugaguncha agar bir bayt mazmuni visol bahorida guloroyliq qilsa, yana biri firoq xazonida xornamoyliq qilibdurur...» SHuning uchun ham shoirga «bu surat dog'i munosabatdin yiroq va muloyamattin qiroq ko'rindi».

5. Shoirning o'z zamonida shoe' bo'lgan barcha nav' (janr)dagi she'rlarini devon tarkibiga kiritishga harakat qilganidir. «Badoe' ul-bidoya»ga o'sha davr forsiy va turkiy adabiyotida mavjud bo'lgan qariyb barcha tur-dagi she'rlar – «diltortar g'azal»lar, «ruhafzo muxam-mas»lar, «ravonoso musaddas»lar, «mufit ruboiyot», «barjasta qit'a»lar, «dilpazir musta'zod»lar, «o'xshash-siz fard»lar, muammolar, lug'zlar, tarje'lar, tuyuq sing-arilar kiritilgandir. Devonga faqat masnaviy va qasida

janrida yozilgan asarlar kiritilmagan. Chunki, shoir ularni «alar dog'i har qaysi boshqa mujallad bo'lg'ay» degan umid bilan alohida-alohida kitoblar sifatida jam' etishni rejalashtirgan.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan namunaviy qoidalarning ikkinchisi biz tadqiq etayotgan mavzuga bevosita aloqadordir. Navoiyga ko'ra, har harf g'azaliyotining avval bitigan g'azal bila o'zga g'azallar orasida uslub haysiyatidan tafovut rioya qilmaydururlar. Muqarrardurkim,

har amrda bir lahza Haq Subhanahu va taolo hamdiddin yo rasul alayhissalom na'tidin, yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g'ofil bo'lmamog'liq avlodurur. Demak, bu qoidaga ko'ra, devonda har bir harf turkumidagi she'rlarning boshida hamd yoxud na't mazmunidagi she'rlarning kiritilishidir. Bu tadbir devon tarkibidagi har bir guruh g'azallarga o'ziga xos mustaqillik ruhini bag'ishlaydi, desak ayni muddao. Qolaversa, nazarimizda, hamd g'azallar bilan devonlarni boshlash insoniy ehtiyojdir.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Muhiddinov M.Q. Komil inson – adabiyot ideali. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – 208 b.
2. Alisher Navoiy. Badoyi' ul-bidoya. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, birinchi tom. – Toshkent: Fan, 1987. – 724 b.
3. Salohiy D. «Badoe' ul-bidoya» malohati. – Toshkent: Fan, 2004. – 135 b.

Gulinor XOLMUROTOVA,

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

ONA TILI TA'LIMIDA LUG'AT BILAN ISHLASH KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

Nutqiy kompetentlikni shakllantirishning asosiy omillaridan biri til ta'limida lug'at bilan malakasini rivojlantirishdir. Lug'at bilan ishlash orqali so'zlarning leksik ma'nolariga ega bo'lish bilan birga nutqda har bir so'zning o'z o'rnida qo'llanilishiga erishiladi. Chunki nutqda so'z to'g'ri ifodalanmas ekan, ifodalanayotgan fikrdagi g'alizlik yaqqol ko'zga tashlanaveradi. Ba'zan bir-biriga yaqin talaffuz qilinuvchi so'z-paronimlar, ma'nodosh so'zlar, ayniqsa, til tarkibidagi o'zlashma birliklarni noto'g'ri qo'llash nutqning sofligiga putur yetkazadi. Shuningdek, matnlar tahlili ustida ishlashda tafakkur qilishga qiynaladi. Bunday holatlarni bartaraf etish esa leksikologik bilimlarni egallashni talab etadi.

Bilamizki, o'zbek tili leksikasi tarixiy jihatdan ikki qatlamga ajratiladi: o'z qatlam va o'zlashgan qatlam. O'z qatlamga umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar kirsa, boshqa tillardan kirib kelgan til birliklari o'zlashma qatlamni hosil qiladi. O'zbek tili lug'at tarkibini o'rganar ekanmiz, eng ko'p o'zlashgan so'zlar arab, fors va tojik tillaridan olinganining guvohi bo'lamiz. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlardan farqli o'laroq, ushbu o'zlashmalar o'zbek tilining «qon-qoniga» singib ketgani bilan ahamiyatlidir. Tilshunos olimlar o'zlashma so'zlar semantik tuzilishidagi o'zgarishlarni quyidagicha tasnif qiladi:

1. O'z ma'nosini saqlab qolgan o'zlashmalar;
2. So'z ma'nolarining kengayishi;
3. So'z ma'nolarining torayishi;
4. O'zlashmalarining umuman yangi ma'no kasb qilishi,

ya'ni so'z ma'nolarining o'zgarishi va zidlashuvi.

Quyida lug'at bilan ishlash kompetentligini shakllantirishda namuna sifatida arab tilidan o'zlashgan ayrim birliklarning o'z ma'nosiga ko'ra kengayishi, torayishi, shuningdek, yangi ma'no kasb etishini muqoyasa (a. – taqqoslash, solishtirish) qilsak. Chunki solishtiruv asnosida yuqoridagi vazifalardan tashqari, o'quvchi uchun ko'p hollarda qiyinchilik tug'diradigan mumtoz matn bilan ishlash ko'nikmasi tez va qulay usulda shakllanadi.

Ayyom (أيام ayyam) so'zi arabchada **kunlar** (ko'plikda), (birlikda: **yavm** يوم) ma'nosini bersa, o'zbek tili leksikasida so'z ma'nosida torayish hodisasi ro'y berib, alohida nishonlanadigan kunga nisbatan qo'llaniladi: *ulug' ayyom, muborak ayyom* va hk.

Alvon (الألوان al'avn) so'zi arabchada **ranglar** (ko'plikda), (birlikda: (اللون allavn) ma'nosini bersa, o'zbek tili leksikasida, asosan, **qizil tusli, qip-qizil, qirmizi** ma'nolarini ya'ni rang turlaridan birini ifodalaydi. Ba'zi o'rinlarda mato hamda xilma-xil, turli-tuman ma'nolarini ham beradi: *qizil rangli mato; alvon qog'oz*. Arab tili leksikasi esa **qizil, qirmizi** so'zlari **ahmar** (أحمر) ko'rinishida namoyon bo'ladi: **ahmar allavn** (أحمر اللون).

Anhor (الأنهار al'anhar) so'zi arabchada daryolar (ko'plikda), (birlikda: (النهر alnahr) ma'nosini bersa, o'zbek tili leksikasida **katta ariq, katta sug'orish kanali** ma'nolarini ifodalaydi. Ko'rinib turibdiki, bunda so'z ma'nosining torayish hodisasi ro'y bergan.

Ayni (عين ayn) so'zi arab tilida jiddiy, muhim so'zlari

bilan sinonimik qatorni hosil qiladi. O'zbek tiliga o'zlashish jarayonida ma'no o'zgarganiga guvoh bo'lamiz: 1. Narsa hodisaga ishora qiladi; shu, o'sha. *Ashula nihoyasiga yetdi. Lekin bir zumdan keyin yana ayni (o'sha) tovush parvoz qildi.* Oybek. 2. Ta'kid, kuchaytiruv ma'nosini beradi; *xuddi, rosa. Imtihon ayni (rosa) qizigan kunlar edi.* A. Qahhor. Bugung kunda arab tili leksikasida "shu, o'sha" ishora so'zlari haza huva هذا bu birligi bilan ifodalanadi.

Vaj so'zi arab tili leksikasida ham, o'zbek tili leksikasida ham ham sinonimlik xususiyatga ega.

Vaj I (وجه vajah) – arab tilida **yuz, chehra** ma'nolarini ifodalasa, ushbu so'z o'zbek tilida **asos, sabab** ma'nolarini ifodalaydi. Ya'ni o'zlashgan so'z ma'no o'zgarishi hodisasiga uchragan. **Asos, sabab** so'zlarining arab tilidagi yozilishi va o'qilishiga e'tibor bersak ham fikrimiz oydinlashadi: **asos** أساس, **alsabab** السبب. Vaj so'ziga misollar keltirib o'tamiz: *Menga aytgin yig'laganing vajini, Ne sababdan bunday o'ksib yig'laysan?* "Bahrom va Gulandom". Yoki bahona ma'nosida. *Dangasaning vaji ko'p, ohangsizning – avji.* Maqol.

Vaj II (وجه vajah) – arab tilida **xizmat haqi, badal** ma'nolarini ifodalasa, o'zbek tili izohli lug'atida muayyan maqsadga mo'ljallangan narsa ma'nosi sifatida izohlanadi: *Dehqon yoki bog'bon bozorga olib kelgan vajini ko'tarasiga naridan beri sotadi-yu, kam-ko'stini xarid qilib, tirikchiligiga shoshiladi.* K.Yashin. So'zning ushbu muqobili ham o'z ma'nosida ko'chmay, yangi ma'no hosil qilgan holatda o'zbek tili leksikasiga o'zlashgan.

Nafis (نَفِيس nafiis) so'zi arab tilida **qimmatbaho** ma'nosini ifodalaydi. Nutqimizda ushbu o'zlashgan arabiy birlikni nozik (arab tili leksikasida nahif - nozik) ma'nosini bildirish uchun qo'llaniladi. Bunda o'zlashma so'zning o'z ma'nosiga ko'ra kengayishini ko'ramiz: **go'zal, nozik va latif. Nafis gazlama.** Yoki **yoqimli** ma'nosida: *Ikkovining ko'zlarida ehtiros, chaqmoq chaqar, ulardan go'yo bahor gullarining nafis hidi anqirdi.* C. Anorboyev. **Nafis** so'zi **juda yuksak** ma'nosida ham keladi: *Shoirning nafis she'rlari hozir uning uchun tuzsiz so'lar yig'indisidan boshqa bir narsa ham emas edi.* A. Qodiriy.

Yuqorida tilimizga o'zlashgan ayrim arabcha so'zlaridan misollar keltirdik. Yana qisqa izohi bilan, nafosat (نَافِئَة nafaasat - ahamiyat, qimmatbaho narsa, boylik); naqs (بَاطِل batil - baxtsizlik, omadsizlik, musibat); raqobat (رَقَبَات roqobat - kuzatish, nazorat); raqib (رَقِيب roqib - soqchilikda turuvchi; nazoratchi, kuzatuvchi, ayg'oqchi;

nozir); siyoh (سِيَاه siyah - qora, qorong'ulik; baxtsiz, g'amgin); taassurot (تَأَثُّر taassurot - ta'sirchanlik, hassoslik; g'am-anduh, xafagarchilik); tavakkal (تَوَكَّل tavakkal - vakolat olish; umid bog'lash, suyanish, ishonish); tavallo (تَوَالَا tavalla - amal, mansabga ega bo'lish; biror his-tuyg'uga berilish; do'st bo'lishga intilish); tazarru (تَضَرُّع tazarru - o'zini past tutish, itoatkorlik); tadbir (تَدْبِير tadbir - boshqarish, idora qilish; tejamkorlik; chora, iloj, yo'l-yo'riq; harakat tarzi); tanazzul (تَنْزُل tanazzul - o'zini past tutish; tavozeli bo'lish; tubanlashish); mushtariy (مُشْتَرِي mushtariy - sotib oluvchi, xaridor); jabha (جَبْهَة jabha - peshona; front, urush); jarima (جَرِيمَة jariima - jinoyat, gunoh); joriy (جَارِي jariy - urayotgan; o'tayotgan, borayotgan); iztirob (إِضْطِرَاب iztiroob - hayajon, g'alayon, betoqatlik; beqarorlik); ilhaq (إِلْحَاق ilhaq - qo'shish, bog'lash); kasal (كَسَال kasal - dangasalik, dangasa, ishyoqmas); kasaba (كَسْبَة kasaba - kosib so'zining ko'pligi; mayda savdogar); majol (مَجَال majaal - joy, fazo; muhit; imkoniyat); fuqaro (فُقَرَاء fuqoro - faqir (kambag'al) so'zining ko'pligi); xodim (خَادِم xoodim - xizmatchi; xizmatkor; yugurdak); shaddod (شَدَاد shaddood - kuchli, qudratli; juda yomon (og'ir; qiyin; zolim, qahrli); huzur (حُضُور huzuur - bor, mavjud bo'lish, hozir bo'lish; kelish; ko'rinish, namoyon bo'lish); hofiz (حَافِظ hoofiz - saqllovchi, muhofaza qiluvchi; yodda saqllovchi; Qur'onni yodlab olgan kishi); g'arib (غَرِيب g'oriib - yot, begona, o'zga; notanish, noma'lum); g'adir (غَدِير g'odiir - ko'lmak; hovuz, ariqcha) kabi so'zlar leksemasini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Bunday o'z ma'nosiga ko'ra toraygan yoki kengaygan, shuningdek, yangi ma'no hosil qilgan: o'zgargan va zidlashgan arabiy birliklar nihoyatda ko'p, ya'ni qatorni anchagacha davom ettirsak bo'ladi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek tili lug'at tarkibiga kirgan o'zlashma so'zlarning katta qismini arab tilidan kirib kelgan so'zlar tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, lug'at bilan ishlashda ushbu o'zlashma so'zlarga aynan to'xtalib o'tishimdan maqsad, nutqimizda faol qo'llaniladigan adabiy so'zlarning til leksikasidagi o'rnini bilish orqali bir tomondan nutqiy kompetentlikni: so'zlarni o'z o'rnida qo'llash, ya'ni so'zlash, tinglash, yozish hamda o'qish jarayonida nutqiy auditoriyaga moslashish; mumtoz asarlarini qiyinchiliksiz mutolaa qilish layoqatini rivojlantirish bo'lsa; ikkinchi tomondan tillararo solishtiruv vositasida o'zlashgan so'zlarning leksik qatlamini o'rganishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Shoabdurahmonov va boshqalar. Toshkent. O'qituvchi. 1980
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. I-V jildlar. Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti – 2020

Iqboloy ILASHEVA,
 ToshDO‘TAU 1-bosqich magistranti

SAIDBEK HASANOV ILMIY BIOGRAFIYASI VA MATNSHUNOSLIK FAOLIYATI

O‘zbek matnshunoslik va manbashunosligining rivojlanish bosqichini kuzatar ekanmiz, ma’lum bo‘ladiki, har bir davrning o‘z olimlari va umrini ilmga bag‘ishlagan fidoyi insonlari bor, albatta. O‘tgan asrning 60-70-yillarida adabiyotshunoslik olamiga kirib kelgan ana shunday insonlardan biri filologiya fanlari doktori, professor Saidbek Hasanovdir. Olim 1945-yil 28-sentabrda Toshkent viloyatining Yangiyo‘l shahrida dunyoga kelgan. O‘rta maktabdagi o‘qishini Yangiyo‘l shahridagi 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabida tamomlagach, hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining arab filologiyasi fakultetida tahsilni davom ettiradi. 1967-yildan O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida kichik ilmiy xodim bo‘lib ishga kiradi. 1993-2017-yillarda muzey direktori, 2017-2019-yillarda muzey yetakchi ilmiy xodimi bo‘lib faoliyat yuritgan. Professor Hamid Sulaymonov rahbarligida “Boburning “Aruz risolasi” mavzusida nomzodlik ishini yoqlagan. 1990-yilda esa “Alisher Navoiyning “Sab’al sayyor” dostonining qiyosiy-tipologik tahlili” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladilar.

Olimning ijodiy laboratoriyalari juda keng bo‘lib, isbot sifatida manbalarda qayd etilgan 100 ga yaqin kitoblari va 200 dan ortiq maqolalarini ko‘rsatishimiz mumkin. Olimning ilmiy faoliyatlarini kuzatar ekanmiz, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburlar ijodi bilan bog‘liq tadqiqotlar o‘ziga xos o‘rin tutganiga guvoh bo‘lamiz.

Olimning Bobur ijodiga oid ko‘plab maqolalari va “Zahiriddin Muhammad Bobur” nomli risolasi, “Boburning “Aruz risolasi”, “Bobur. “Boburnoma”, “Bobur. “Mubayyin”, “Bobur. Tanlangan asarlar” kabi asarlari misolida olim faoliyatida Bobur ijodining o‘rni naqadar katta ahamiyat kasb etganini ko‘ramiz. Ushbu asarlarning barchasi o‘z qadr-qimmatiga ega.

Shunday asarlardan biri “Zahiriddin Muhammad Bobur” nomli risolasi haqida to‘xtalib o‘tsak. Ushbu risola “Ulug‘ siymo hayoti”, “O‘zbek xalqining ulug‘ shoiri”. “Bobur shaxsiyati va ijodining o‘rganilish tarixi”, “Bobur va uning qo‘lyozma merosi”, “Buyuk qomusiy asar”, “Bobur – aruzshunos olim”, “Bobur – fiqhshunos olim”, “Xoja Ahror Valiy asari Bobur tarjimasida” kabi 8 bo‘lim va xulosa qismdan iborat. “Ulug‘ siymo hayoti” bo‘limida Boburning hayoti, yurishlari, Hindistonda barpo etgan saltanati, hukmronlik yillarida Hindiston shaharlarini obod etish uchun amalga oshirgan islohotlari haqidagi ma’lumotlarni aniq fakt va manbalar

orqali keltirib o‘tgan. Olim Bobur lirikasini tilga olar ekan shunday deydi: “Shoir lirikasining markazida muhabbat mavzusi, insonning pok sevgisini ulug‘lash, visol orzusi, vafodorlik motivlari turadi. Bobur tushunchasidagi sevgi-sadoqat, vafodorlik, oliyjanoblikdir” [1; 12].

Masalan, Boburning:

Xulqingni rost qilg‘il har sorig‘akim borsang,
 Ahsanta der bori el gar yaxshi ot chiqarsang [1; 17].

Muammosini keltirib, “Haqiqiy inson nomiga ega bo‘lish uchun axloqning barcha normalariga rioya qilish kerakligini, shundagina kishi el hurmati va baxtiga sazovor bo‘ladi” [1;17] deya, izohlaydi. Bu bo‘limda Saidbek Hasanov matnni chuqur tadqiq qilish bilan birga, o‘zining sharh va izohlarini ham o‘rinli qo‘llagan. “Bobur shaxsiyati va ijodining o‘rganilish tarixi” bo‘limida olim Bobur ijodining xorijda va o‘zimizda o‘rganilishiga katta e’tibor qaratgan. Jumladan, Bobur ijodi ayrim sabablarga ko‘ra XX asrning 40-yillarigacha deyarli o‘rganilmagan. 50-60-yillardan Bobur ijodi keng o‘rganila boshlangani haqida ma’lumotlar keltirilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning ijodini xorijda o‘rganish dastlab, Gollandiyalik olim Vitsen tomonidan boshlangan bo‘lib, Leyn Pull, Eduard Davson, Eduard Xolden, Monstyuart Elfinistonlar “Boburnoma”ni ingliz tiliga tarjima qilishgani va Boburga atab asar ham yozganliklari qayd etib o‘tilgan. Bobur va uning qo‘lyozma merosi bo‘limida Boburdan bizga boy qo‘lyozma meros: she’riy devoni, “Boburnoma”, “Aruz risolasi”, “Xatti Boburiy”, “Mubayyin”, “Risolai volidiya” (tarjima), “Musiqi ilmi” va “Harb ishi” kabi ilmiy va badiiy asarlar qolganligi ma’lumot sifatida keltirib, har bir asariga alohida to‘xtalib o‘tilgan va ma’lumotlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Risolada “Boburnoma” uchun alohida bo‘lim bo‘lib, olim uni “Buyuk qomusiy asar” deya nomlaydi. Bo‘limda asarning yozuvchi xotirotlari va esdaliklaridan tashkil topganligi, shu sababdan muallifning o‘zi asarini “Vaqoyinoma” ya’ni “Voqealar kundaligi” deb nomlaganligini aytib o‘tadi. Navbatdagi bo‘lim “Bobur -aruzshunos olim” bo‘limidir.

Ushbu bo‘limda Bobur aruzning yangi 248 vazni aniqlangani, juzvlar haqidagi yangi qarashlari, aruz tizimida zihoflar sonini 44 taga yetkazgani, Alisher Navoiyning “Mezon ul –avzon” asarini chuqur o‘rganib, o‘zining mukammal “Aruz risolasi” asarini yaratganligi haqida qimmatli ma’lumotlar va dalillarni keltiradi.

Quyidagicha baholaydi: Bobur “Aruz risolasi” asarini yaratib, o‘zbek aruziga asos solgan adabiyotshunos olim sifatida ham maydonga chiqdi. Boburning bu asari adabiyotshunoslik tarixini o‘rganishda va turkiy xalqlar klassik she‘riyati tadqiqoti uchun ayniqsa muhimdir”[1; 71]. Bu dalillardan ko‘rinadiki, olim aruz ilmidan ham chuqur xabardor bo‘lgan. Boburning “Risolayi aruz” kitobini o‘zbek aruzi qonuniyatlarini aniqlashda Navoiyning “Mezon ul-avzon” kitobi bilan barobar turishini ta’kidlaydi. “Xoja Ahror Valiy asari Bobur tarjimasida” bu bo‘lim Boburning “Risolayi volidiya” nomli tarjima asari bilan bog‘liq. Bo‘limda Xoja Ahror Valiy haqidagi ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tilgan. Boburning bu asarni o‘zbek tiliga tarjima qilishdan maqsadini keltiradi “Bu risola mazmunini yaxshi o‘zlashtirib, uni nazmda bayon qilishni ko‘nglumga tugdimki, mening uyquga ketgan ko‘nglumni uyg‘otib hushyor qilsa va uni o‘qigan har bir o‘quvchi ko‘nglida rag‘bat hosil bo‘lsa.....Ey o‘quvchi, sen diqqatingni risolani bayon etuvchiga qaratma, sen bugun e’tiboringni uning so‘zlariga qarat! Chunki bu so‘zlar hazrati Xoja Ahrorniki, men esa uning tarjimoniman” [1;77].

So‘nggi bo‘lim Boburning fiqhshunoslik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan “Bobur –fiqhshunos olim” bo‘limidir.

Olim bu bo‘limda Boburning “Mubayyin” asariga e’tiborini qaratadi. “Mubayyin” risolasi islom dini asoslarini she‘riy uslubda bayon qilishga bag‘ishlangan yirik asar bo‘lib, 1522-yilda yozilgan besh qismdan iborat ekanligini, asarning kirish qismi Allohga hamd-u sano bilan, so‘ngra Payg‘ambarimiz Muhammad sollollohu alayhi vasallamning naqlari bilan boshlanishi ta’kidlagan. Keyingi o‘rinlarda risolaning har bir qismini dalillar keltirib izohlagan.

Kuzatishlarimizdan ayon bo‘ladiki, Saidbek Hasanov matnshunos olim sifatida Bobur asarlarining deyarli barchasini chuqur o‘rganib tadqiq etgan. Yuqorida ko‘rib o‘tgan risolamizda esa, olim boburshunoslik ilmiga oid tadqiqotlarini bo‘limlarga bo‘lib, umumiy ma’lumotlarni va xulosalarini taqdim etgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, olim yozgan har bir ilmiy tadqiqot o‘zining uslubiy xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ularning o‘rganilishi, tadqiq etilishi madaniyatimiz, tilimiz, fanimiz tarixi, ma’naviy merosimiz sarchashmalarini aniqlash, ularni tadqiq etish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Xossatan, olimning “Zahiriddin Muhammad Bobur risolasi” adabiy manbashunoslik, matnshunoslik hamda o‘zbek mumtoz adabiyotshunosligi va tilshunosligi tarixida muhim o‘rin tutishiga shubha yo‘qdir.

Adabiyotlar ro‘xati:

1. Hasanov S. Zahiriddin Muhammad Bobur. –T.: O‘zbekiston, 2011. –88 b.
2. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik qirralari. –T., 2018.
3. Ilm fan fidoiysi-zahmatkash olim. Maqolalar to‘plami. –T.: VNESHINVESTPROM, 2020.

Nilufar Namazova,

*Xalqaro islom akademiyasi o‘qituvchisi
filologiya fanlari nomzodi*

ULUG‘ MO‘JIZALARDAN BIRI TARIXI

Inson qo‘lga kiritgan bilim durdonalarini avlodlarga qoldirish uchun “ulug‘ mo‘jizalardan biri” (M.Gorkiy) kitobni yaratishga juda qadim zamonlardan intilib kelgan. Yozuv paydo bo‘lgandan keyin olimlar, faylasuflar, hukmdorlar o‘z bilim va tajribalarini toshbitiklar, sopol parchalari, xurmo yaproqlari, papirus, pergament o‘ramlari va bosma sahifalarda avlodlar uchun qoldirganlar. Qiyinchilik bilan yaratilgan kitoblarni asrab-avaylash maqsadida kutubxonalar barpo etilgan. Qadimgi Shumer kutubxona – arxivlari, arab xalifaliklarining bilim uylari, tangutlarning qadimgi shahri – Xaroxoto kutubxonolari, Iskandariya kutubxonasi, qadimgi Rus kitob palatalari, Mirzo Ulug‘bek kutubxonasi... bular “insoniyat xotirasi” (Bernard Shou shunday atagan) o‘laroq tarixda qoldi.

Eng qadimgi kutubxonalarga misol qilib Mesopatamiyada shumerlar, ularni “tarixni bosh-

lab bergan xalq” deb ham atashadi, qoldirgan sopolga mixxat yozuvida bitilgan bitiklarni aytish mumkin. “Shumerlarning go‘zal va tushunib bo‘lmas yozuvini takrorlash mening uchun katta quvonch baxsh etadi”, deb yozadi Assuriya shohi Ashurbanipal (er.oldingi 669–633 yillar). XVIII asrning o‘rtalarida olimlar Dajla daryosi sohilidagi Assuriya mamlakatining poytaxti Nineviyani qazishganda podsho Ashurbanipalning kutubxonasini topishadi. Kutubxona 20 mingdan ortiq kesak plitadan iborat bo‘lib, bu “kitob”larning ko‘pi 5000 yildan ortiq saqlangan.

Qadimiy Misrda kitoblarga katta hurmat bilan “inson umri uchun malham” deb qaralgan. Misrliklar xat yozish uchun qamishsimon o‘simlik papirusdan foylanishgan. **Papirus so‘zi “Pa-puro” – “shohona” so‘zidan olingan. Uni nodirligi, kamyoblighi, nafis**

yozuv materiali ekanligi uchun shunday atashgan bo'lsa, ajab emas. Yunonlar uni "biblos" deb aytishgan. Keyinchalik bu so'z umuman kitob degan ma'noni anglatadigan bo'lib qolgan. "Biblioteka" so'zi ham shu o'zakdan vujudga kelgan. U "Kitoblar ombori" degan tushunchani beradi. [1]

Meloddan bir necha asr muqaddam kitob uchun pergament, ya'ni buzoq, echki, qo'y terisi yaxshi oshlanib, yupqa teri ishlatilgan. Bir tarixchi: "Kattaroq qo'lyozmani pergamentga bir nusxa ko'chirish uchun butun bir podaning bahridan o'tish kerak edi", deb yozadi. Shu sababli 500–1000 ta pergament o'ramdan iborat to'plam g'oyat nodir va qimmatli boylik sanalgan. Bisotida bit-tayu bitta kitobi bo'lgan kishilar boy hisoblanib, uni vorislaridan qaysi biri olajagini vasiyatnomada ko'rsatib qo'yar edi.

Xitoydagi eng qadimgi kitoblar bambuk taxtachalarga yozilgan. Bu taxtachalar hozirgi kitoblarning varaqlari kabi bir-biri bilan bog'langan. Buning uchun ipakdan foydalanilgan. Bunday kitoblar og'ir, beso'naqay bo'lgan. Meloddan oldingi V asrda yashagan xitoy olimi Mo Di sayohatga boradigan bo'lsa, kitob tashib yurish uchun kamida uchta arava qo'shtirib olgan.

N.P. Lixachevning yozishicha, "Iso payg'ambar tavalludidan ikki asr ilgariyiq Xitoyda ipak va bambuk tolasidan qog'oz tayyorlab kelishgan, lekin bu qog'oz o'z tarkibi va tayyorlanish jihatidan umumevropa miqyosida kanop va zig'ir tolasidan tayyorlangan qog'ozdan farq qilgan. Latta qog'ozning haqiqiy vatani Turkistondir, bu qog'oz Turkistondan Suriyaga, Misrga tarqalgan, Janubiy va G'arbiy Yevropaga o'tgan" [2]. Manbalarda yozilishicha, 650-yilda Samarqandda qog'ozdan foydalanishgan.

Bu bashariyat fikrini saqlab qolish uchun ajoyib ixtiro edi. Alisher Navoiy qog'ozni donishmandlar fikrini olamga yoyuvchi qushga o'xshatgani bejiz emas. Kitoblar ko'payib, dovrug'li hattotlar mahorati avlod-dan-avlodga boyib bordi. Hattotlik, ayniqsa, Sharqda kamolotga erishgan. Siyoh bilan bo'yoqqa hushbo'y moddalarni qo'shib ishlatadigan bo'lishgan. Bu mutolaa jarayonida kishining bahri-dilini ham ochib turgan. XV asrga oid ba'zi Sharq qo'lyozmalaridan hozirgacha hushbo'y hid anqib turar ekan. [3]

Shunday qilib odamlar xat yozish uchun ming yillar mobaynida turli-tuman materiallarni, vositalarni sinab ko'rishgan. Turkistonda XIX asrning 60-yillarida kitob nashr qilish ishlari yo'lga qo'yila boshlagan. Bu davrgacha o'lkaga asosan chetdan toshbosma kitoblar olib kelingan. Turkiston o'lkasida 1868-yilda tashkil etilgan birinchi bosmaxonada dastlab rus tilidagi kitoblar nashr etilgan. Jumladan, I.A. Seversovning "Chu va Norin tog' rayonlari hamda ulardan Xitoy Turkistoniga yo'l haqida xabarlar" nomli kitobi chop etilgan. XIX asrning 70-yillaridan boshlab o'zbek tilida kitoblar nashr etila boshlandi. Ulardan dastlabkisi 1872-yilda 500 nusxada

chop etilgan Shohimardon Ibrohimovning "Kalendary" kitobi edi. Nashr ishlarining avj olishi bosmaxona va litografiya tarmoqlari kengayishiga olib keldi. Xususan, 1872-yilda Turkiston general-gubernatorligi devonxonasida bosmaxona ochildi. O'rta Osiyoda birinchi milliy matbaa esa Xiva xoni, shoir Muhammad Rahimxon II (Feruz) tashabbusi bilan 1874-yilda tashkil etilgan. XX asr boshlarida o'lkada xususiy tipografiyalari ko'payib borgan. Jumladan, I. I. Geyer tipografiyasi 1903-yildan 1910-yilgacha faoliyat yuritgan, asosan shu yerda chop ettirilgan gazetalar chiqarilgan. 1910-yillarning boshida Toshkentda yana beshta tipografiya, ikkita litografiya ishlab turgan. 1906-yilda Toshkentning «eski» shahar qismida Ko'kchadagi Chaqichmon mahallasida Fulom Hasan Orifjonov litografiya ochgan va xalq orasida tezda obro' qozongan. Ushbu litografiya sovet hokimiyati o'rnatilgan davrgacha faoliyat yuritgan [4].

Mahalliy millat vakillari tomonidan ochilgan bosmaxonalar ichida taraqqiyparvar Ishoqxon Ibratning 1908-yilda tashkil etgan litografiya alohida o'rin tutadi. Ishoqxon Ibrat 1908-yilda Ufa va Orenburg shaharlarida bo'lib, orenburglik bir matbaachidan pulini o'n yil mobaynida to'lash sharti bilan 1901-yilda ishlab chiqarilgan litografik mashina sotib oladi. U litografiya anjomlarini katta qiyinchiliklar bilan Orenburgdan Qo'qonga poyezdda, Qo'qondan To'raqo'rg'ongacha tuyalarda olib keladi¹⁶ "O'zi qurdirgan hammom o'rnida (hammom 1905-yilda qurilgan bo'lib reaksiya ruhoniylari uni "harom" deb e'lon qilgan edilar, xalq hammomga bormay qo'ygan edi) bosmaxona tashkil qildi va "Matbayi Ishoqiya" nomi bilan ishga solib yubordi" [5] deb yozadi U. Dolimov bir maqolasida. Matbaa ishlaridan yaxshi xabardor Husayn Makayev unga bu ishda yordam bergan. Samarqandda matbaachilik Toshkentdan so'ng boshlandi, deb habar beradi H. Shamsiy [6]. Samarqandning birinchi matbaasi polkovnik Poltaranov tashabbusi bilan Ashxaboddagi matbaasini samarqandga ko'chirish bilan boshlandi. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Samarqandda 19 ta katta-kichik bosmaxona bo'lgan. Mahmudxo'da Behbudiy ham 1910-yillarda "nashriyoti Behbudiya" nomli o'z nashriyotini ochadi. Fitratning "Bayonoti sayyohi hindi" asarini 1913-yili ruschaga tarjima qildirib, nishr ettiradi. Turkiston xaritasini tuzib, bosmadan chiqaradi.

Farg'ona vodiysidagi matbaalar soni 30 ta bo'lib, shulardan o'n to'rttasi Qo'qonda, to'rttasi Yangi Marg'ilonda, to'rttasi Andijonda, Namanganda o'nta bosmaxona bo'lgan. [7]

Buxoroda bosmaxonalar ochish va matbuot ishlarini yo'lga qo'yish 1883-yildan boshlab amalga oshirilgan. Ayrim adabiyotlarda Buxorodagi ilk bosmaxona 1894-yilda yahudiy Levin tomonidan ochilganligi qayd etilgan. Levin bosmaxonasidan ilgariroq 1884-yilda Buxoroga haj ziyoratidan qaytgan Mullo Muhsin toshbosma uskunalarini Hindistondan olib kelgan. Uning bosmaxonasida "Haftiyak", "Aqoid" va Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" asarlari bosilgan.

Sovet hukumati 1918-yil 11-yanvarda qabul qilgan “Davlat nashriyoti to’g’risida”gi birinchi dekretida mam-lakatda darhol keng noshirlik faoliyatini boshlab yubor-ish kerak, deb ko’rsatdi. Dekretga muvofiq Turkiston partiya va sovet organlari o’lkada noshirlik ishini tashkil etishga katta ahamiyat berdi. Turkiston Kommunistik partiyasining birinchi syezdida “Nashriyot to’g’risida” maxsus rezolyusiya qabul qilindi.

1918-yil martda “Bosmaxona va litografiyalarni natsionalizatsiya qilish to’g’risida” dekret qabul qilindi. 1918-yilning may oyiga kelib, 20 ta poligrafiya korxonasi natsionalizatsiya qilingan edi. [8] Milliy ishlar bo’yicha o’lka xalq komissarligi broshyuralar, varaqalar, chaqiriqlar bosib chiqardi. Bular da Kommunistik partiya siyosati tushuntirib berilar, hukumatning dekret va qarorlari propaganda qilinardi.

Nashriyot bo’limi Turkiston ASSRda kitob savdosi-ni tashkil qilishga kirishdi. 1919-yil yanvarida Toshkent soveti tomonidan musodara qilingan O’rta Osiyodagi Sobberiya va Petro yirik kitob maganzinlaridagi 101.775 kitob uning qaramog’iga topshirildi.

1919-yil 21-mayda Butun Ittifoq Markaziy Ijroiya Komiteti “Davlat nashriyoti to’g’risida”gi qarorni tasdiqladi. Nashriyotlar faoliyatni boshqarib borish va xususiy kishilar tomonidan kitoblar chiqarish bundan buyon yagona davlat organiga topshirildi. 1919-yili oktabrda shu nizom asosida Turkiston respublikasining Madaniyat va Maorif soveti tomonidan “Davlat nashriyotini ta’ sis etish haqida” qaror qabul qildi.

1921-yilda Turkiston davlat nashriyotining faoliyati kengaytirildi, u Buxoro va Xorazm xalq respublikalarini ham kitob va broshyura bilan ta’minlay boshladi. 1923-yilning o’rtalarida Turkiston davlat nashriyoti qayta tuzildi va unga O’rta Osiyo davlat nashriyoti deb nom berildi. 1925-yil 3-fevralda “O’zdavnashr” nizomi tasdiqlandi. Shu kun nashriyot tashkil topgan kun hisoblanadi. 1964-yili O’zdavnashrga “O’zbekiston” nashriyoti nomi berildi. “O’zbekiston” nashriyoti bugungi kunda ham o’z faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Respublikamizda bugungi kunda matbaachilikka e’tibor kuchaygani ma’naviyatga bo’lgan e’tibordan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Muhammad. Xazinalar oroli. – Toshkent, 2007, 3-bet.
2. I.T.Milkin. Qog’oz tarixi. – SSSR FA nashriyoti, 1940 yil, 19-bet.
3. L.Tranis. Kitoblar olamiga sayohat. – Toshkent: “Qizil O’zbekiston”, “Pravda Vostoka” va “O’zbekistani Surx” birlashgan nashriyoti. 1964.
4. Shodmonova Sanobar. Turkistonda noshirchilik va kitob savdosi. <https://einfolib.uz/index.php/2021/08/02/turkistonda-noshirchilik-va-kitob-savdosi>
5. Dolimov U. Tuyada keltirilgan matbaa. // Guliston jurnali, 1975 yil, 8-son.
6. Shamsiy Husayn. Matbaachilik va uning qisqacha tarixi. – Toshkent: O’znashr, 1930. 50-52-betlar.
7. Boboxonov V. O’zbek matbaasi tarixidan. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. 111-112-betlar.
8. Bu haqda qarang: Sh.Mansurov, Sh.Shoabdurahimova. O’zbekiston nashriyoti moziyda va bugun. – Toshkent: O’zbekiston, 1995. 8–22-betlar.

Almardanova Iroda
TerDU magistranti

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARINING POETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shukur Xolmirzayev hikoyalarining poetik xususiyatlari: realistik voqelik, bayon usulida voqelikning personajlar xatti - harakati orqali idrok etish, voqelikni badiiy idrok etishda yozuvchining hikoyalari uch bosqichga davrlashtirilib tahlilga berildi. Sh.Xolmirzayev hikoyachilik an’anasini o’rganishda, A. Chexov, R.Tagor, Jek London va A.Qahhor ijodini kuzatish asosida hikoyanavislarning katta tajribasi saboq bo’lganligi talqin qilingan.

Kalit so’zlar: Hikoya, hikoya poetikasi, realistik voqelik, personaj, syujet, badiiy idrok, bayon usuli.

Annotation: In this article the poetic features of SHukur Xolmirzayev stories: reality through the behavior of characters in the narrative method, the writer’s stories in the artistic perception of reality were analyzed in three stages. It is interpreted that SH.Xolmirzayev’s great experience of story writers was a lesson based on observing the work of A.Chekhov, R.Tagore, Jack London and A.Qahhor in learning the storytelling tradition.

Key words: story, narrative poetics, realistic reality, character, plot, artistic perception, narrative method.

Аннотация В этой статье поэтические особенности рассказов Шукура Холмизаева реалистическая реальность, восприятие действительности через поведение персонажей в повествовательном методе, художественное восприятие действительности, рассказы писателя анализируются в этапах. Шукур Холмирзаев интерпретировал большой опыт писателей-рассказчиков как урок, основанный на наблюдении за произведениями А.Чехова, Р.Тэгора, Джека Лондона, А.Каххора в изучении традиции повествования.

Ключевые слова: рассказ, поэтика повествования, реалистическая действительность, персонаж, сюжет, восприятие, метод повествования.

O'tgan asrning 60 - yillarida o'ziga xos hikoyachilik an'anasiga ega bo'lgan o'zbek hikoyachilik realizm ifodasi namoyondalaridan Sh.Xolmirzayevning poetik mahorati adabiyotshunoslar diqqatiga sazovor bo'lib keldi."XX asr hikoya antologiyasi " kirish qismidagi berilgan so'z boshida filologiya fanlari doktori Bahodir Karim ham 60- yillardagi avlod vakillari orasida Sh.Xolmirzayev alohida ajralib turishi haqida shunday so'z yuritadi:" Voqelikka ortiqcha aralashmay , qahramonlarni yetaklamasdan xolis turib tasvirlash unga xos .Eng ko'p va eng go'zal , badiiy jihatdan pishiq asarlar yozgan bu adibning bayon usulida hikoya janrining hajmi chegaralari parchalandi. Yozuvchi asr oxirida qalamini erkin qo'ydi va "Ozodlik " , "Bulut to'sgan oy " , "O'zbek bobo " kabi hajman yirik hikoyalari bayon usulida ham ajoyib poetikaning bir ko'rinishi ifodasida ko'zga tashlanadi." [1:1] "Sog'inch " , " Ko'kboy" , "Kechagi kun kecha", "Yosuman" , "Ahad Mirzo yig'ladi", "Og'ir tosh ko'chsa " , "Tabassum " kabi hikoyalarida yozuvchi asarni kitobxon mutolaa qilgandan syujet qahramonlari kim ekanligi , voqelikning qaysi personaj haqidaligini idrok qiladi. "Sog'inch " hikoyasida "Azim tabiatan bo'sh ta'sirchan yigit .Lekin besh yil shaharda yashab qoldi: shahar odamlariga xos ishchanlik, vaqtini tejash , sovuqqonlik va bir qadar takabburlik paydo bo'ldi"[2:8]" Ko'kboy" Choyxonani berkitib qaytayotgan qalandar aka ovchi o'rtogi Hoshim akaning chorbog'i yonidan o'tayotib , uning baland darvozasi qiya ochiqekanligini ko'rdim va yakka kift bo'lib , ichkariga kirdi..." [3:8] "Yovvoyi gul " Vosit nimjon , yalqov va hayolparast bola edi.Madaniy oqartiruv bilim yurtini tamom qilganidan keyin shaharda qoldi"[4:8] shu kabi poetik yo'nalish Sh.Xolmirzayev uslubining o'ziga xosligini ko'rsatadi.Shu o'rinda adabiyotshunos M.Qo'shjonov fikrlariga ham tayanamiz: " Shukur Xolmirzayevning asarlarida hali hamma narsa atroflicha aks ettirilmagan bo'lishi , ba'zan avtor naturalistik tasvirlardan ham qutula olmagan bo'lishi mumkin.Lekin voqealarni tasvir etishda topgan yo'li kishini quvontiradi".[5: 5]Sh.Xolmirzayev hikoyachilik an'anasini boshlagan bosqichda yozuvchining realistik tasvir yo'llari orqali voqelikni o'ziga xos tarzda ibratli voqealarni tasvirlash orqali kishilar tabiatidagi qusurlar ochib boriladi.

Shukur Xolmirzayev ijodi yuzasidan ko'plab maqola va tadqiqotlar , jumladan H.Karimovning "Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti"[6:3] , Sh.Doniyorovning "Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy - uslubiy o'ziga xosligi"[7:2] mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi va

akademik B.Nazarovning "Shukur Xolmirzayev " nomli maqolasi , G.Tavaldiyevaning " Shukur Xolmirzayev hikoyalarida voqelikni badiiy idrok etish prinsiplari"[8: 6] mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalari yozuvchining ijodiga bag'ishlangan keyingi tadqiqotlar uchun mezon bo'lib xizmat qildi. Sh.Doniyorova dissertatsiyasida Sh.Xolmirzayev ijodida uslub va qahramon muammosi badiiy tasvirning o'ziga xosligi orqali ko'rsatib berilgan. G.Tavaldiyeva dissertatsiyasida Sh.Xolmirzayevning XX asr o'zbek adabiyotida o'rni belgilash maqsadida tadqiqotchi yozuvchi hikoyalarini uch bosqichda voqelikni badiiy idrok etish prinsiplarining shakllanish davri (60- 70yillar) ikkinchi bosqich (80 yillar mustaqillikgacha) , uchinchi bosqich istiqloq davri (90 - yillar) o'z ichiga oladi. Tadqiqotda yozuvchining hali to'la bahosini olmagan eng yangi hikoyalari , jumladan , "Navro'z " , "Bandi burgut " , " Ozodlik", "Bulut to'sgan oy " kabi asarlari boshqa o'xshamaydigan yangicha yo'sinida tahlilda berilgan.Shu o'rinda yozuvchining hikoyachilikda poetik strukturasi o'ziga xosligi davrlashtirilgan jarayonlarda o'zining badiiy qiymati bilan ahamiyatlidir.

Shukur Xolmirzayev hikoyachilik poetik mahorati A.Chexov , A.Qahhor , tasvir uslubining yozuvchi ijodida ayrim qirralari aks etganini ko'ramiz.Bu haqida hikoyanavis shunday xulosalar beradi:" Men Chexov domlaga hikoyada xarakter nima - fe'l- u atvorli tirik odam qanday aks etishini ko'rib hayratda qoldim, to'g'ri yigirma yoshimgacha domlarning hikoyalarini o'qib tush-unolmagandim, keyin shunchalik rohat oldimki, hali-hali eslasam , maza qilaman ...

Ammo Jek Londonning Chexovdan farq etib , kezi kelganda o'zi tasvirlagan , kuchli olijanob qahramonlarni sevishini baralla aytishi , hatto uni o'ta bo'rttirishi ham menga ma'qul tushdi.Demak , chin hikoyada yozuvchi kezi kelganda qahramonlarga munosabatini berkitmasa ham bo'laveradi... Tagorni o'qiganimdan keyin hikoyada chuqur bir ma'no bo'lishi kerak degan xulosaga keldim[9:7] Shukur Xolmirzayev hikoyachilik maktabi an'analarni ustozlaridan o'rganibgina qolmay, Chexov, Tagor , Jek London va A.Qahhor hikoyalaridagi obrazlarni izchil o'rganib , o'zi yaratgan hikoyalarida to'laqonli personajlar xarakterini ochib berdi.Bu albat- ta , yozuvchining o'zbek hikoyachilik an'anasining bir ifodasi sifatida adabiyotshunoslar tomonidan tanqid va tahlillarga sabab bo'ldi. O'z o'rnida esa Shukur Xolmirzayevning hikoyachilik maktabining shakllanishi o'zbek nasridagi o'ziga xos uslubi mezon bo'lib xizmat qildi va yozuvchining poetik mahoratini ochib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi - O'zbekiston milliy ensiklopediyasi , Toshkent, 2009
2. Doniyorova Sh.Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy -uslubiy o'ziga xosligi.Filol.fanlari.nomzod.diss-Toshkent , 2000
3. Karimov H.Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti.Qatortol - Kamolot , Toshkent , 1999
4. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O.XX asr o'zbek adabiyoti tarixi.- O'qituvchi, Toshkent ,1999
5. Qo'shjonov M.Saylanma- Toshkent , Adabiyot va san'at , 1982. 1 jild.
6. Tavaldiyeva G.Shukur Xolmirzayev hikoyalarida voqelikni badiiy idrok etish prinsiplari .Filol.fanlari .nomzod.diss-Toshkent , 2001
7. Shukur Xolmirzayev .Hikoya haqida// Sharq yulduzi.1971, 1- son
8. Shukur Xolmirzayev .Tanlangan asarlar 1 - jild , Sharq ,Toshkent, 2003

Nilufar ATAQULOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
2-kurs magistranti

O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ROMANIDA ESTETIK KATEGORIYALARNING BADIY IN'IKOSI

Shiddat bilan o'tib borayotgan bugungi zamonda chiroyli yashashga intilgan har bir inson o'z ustida ishlashi, tinmay mehnat qilishi, qator bilimlarni o'zlashtirishi zarur. Insonning o'sishi va rivojlanishi uchun ta'sir qiluvchi omillar sirasiga oila, ta'lim va tarbiya, atrof-muhit barobarida badiiy adabiyotni ham kiritish ayni muddaodir. Darhaqiqat, adabiyotning bosh maslagi tarbiyadir. To'g'ri tarbiya o'zi bilan birgalikda ko'plab insoniy fazilatlarini shakllantiradi. Bundan tashqari, badiiy adabiyotdagi estetik kategoriyalar ham tarbiyaning yaxlit namoyon bo'lishiga ko'maklashadi. Badiiy asarni mutolaa qilar ekanmiz, undan ma'naviy ozuqa olish bilan birga estetik zavq olamiz. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani kitobxon badiiy-estetik didini oshiruvchi go'zal manbadir. Roman orqali kitobxon urush va u qoldirgan alamli iztiroblarni his etar ekan, obrazlarning nazokat, go'zallik, nafosat kabi xislatlarini o'ziga singdiradi. Bu o'z navbatida ma'naviy go'zallikni uyg'otib, uni rivojlantiradi. Yozuvchi obrazlarning qiyofasi, ichki kechinmalari, orzu-umidlari va intilishlarini tabiat manzaralari tasviri bilan uyg'un tasvirlaydi. Bunday tasvirlar bevosita kitobxon ma'naviy dunyosiga ta'sir qiladi. Uning badiiy va estetik qarashlarini shakllantiradi. Go'zallikka intilish insonning ko'p asrlik estetik mezonlaridan biridir.

"Ikki eshik orasi" romani qahramonlarining xatti-harakatlarida estetik kategoriyalar nechog'li aks etganini tahlil qilsak. Asardagi Ra'no obrazi juda go'zal, xushbichim, kelishgan, dilbar personaj sifatida tasvirlanadi, ammo bu obraz o'z go'zalligining qurboniga aylanadi. Asar boshida bir qarashda muallif uni ijobiy qahramon sifatida tasvirlasa-da, ammo zehni o'tkir kitobxon Ra'noning asl qiyofasini asta-sekin anglaydi. Atlas ko'ylakli, qirq kokilli yangi kelin farishtadek namoyon bo'lishiga qaramasdan, aslida o'zini zo'rg'a tiyib yurgan "zakunchi"ni gunohga boshlashiga birinchi uchrashuvdagi hadiksirab boqishlari-yu jilmayib ortidan qarab turishlari turtki bo'lgan edi. Shu bilan birga uning Umar zakunchining ayyorona tuzgan tuzog'iga tushganini ham inkor etib bo'lmaydi. Kelajakdagi bir qator fojialar va og'ir gunohlarga shu ikki personaj tanishuvi turtki bo'ladi.

"Umar zakunchi o'ta pastkash, harom odam edi. U kolxozga kelib odamlarga zulm qildi, maishat qilishni o'yladi. Ra'no esa hali juda yosh, bebosh, hoyu-havasga berilgan qahramon edi. Umar Ra'noni domiga ilintirgach, Robiyaga tuzoq tashladi. Robiya Umarni

o'ldirishiga bir bahya qoladi. Voqealar silsilasi xiyonati fosh bo'lgan Ra'no zakunchi bilan Qo'qonga qochib ketgandan keyin yanada jadallashadi. Umar zakunchi umrining oxirida qilgan ishlarini jabrini torta boshlaydi, u na elga, na urug'-aymog'iga qo'shila olmaydi. Ra'no ham o'la-o'lguncha sharmandagarchiligining azobini chekib yashaydi"¹.

Nopok yo'lni tanlaganlar hech qachon chin baxtni his qilishmaydi. Bu personajlar tilidan aytilgan hikoyalarda ular qator vajlar keltirib, o'z gunohlarini bекitishga, bahona qilishga intilishadi. Ayollarda or-nomus, iffat, ibo-hayo kabi hislar hozirgidan-da kuchli bo'lgan o'sha davrda Ra'noning bu ishlari, xudbinligi-yu beqarorligi odamda nafrat hissini uyg'otadi. Uning oppoq shohi ro'moli-yu, egnidagi oppoq shohi ko'ylagi va baxmal nimchasi go'yo butun taqdirini o'zgartirib yuborgan va asarning mazmunida katta burilish yasa-gan eng og'ir gunohlarini bekitib turgandek bo'lsa-da, u gunohlaridan pushaymon bo'lib, yaratgandan panoh so'rasa-da, aslida shunday bo'lishini ich-ichidan o'zi xohlaydi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, muallif romanda ayollar obraziga alohida yondashishga harakat qiladi. Qahramonlarni kamsitish, salbiy bo'yoqdor so'zlar bilan ta'riflash kabi holatlarga yo'l qo'ymaydi. Hatto eng tuban kimsalarning ham o'z haqiqatlari borligini hikoyalari bilan isbotlashga harakat qiladi.

"Adib uslubiga xos xususiyatlardan biri o'zbek ayo-liga xos xislatlarni birgina qahramon tabiatiga singdirmaydi, aksincha, har bir ayol timsolida yangi-yangi xarakter qirralariga urg'u beradi. Jumladan, adib hat-to hayot mashaqqatlari natijasi o'laroq Ra'no obrazi "adashishlari"ni keskin qoralamaydi. Balki, yuzaga kel-gan holatning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga uri-nadi"².

Xuddi shu yerda "dunyoni go'zallik qutqaradi", degan mashhur naqlning teskari aks etishini ko'rish mumkin. Aslida, go'zallik mohiyatan botiniy va zohiriy ma'noda uyg'unlashgandagina o'z mohiyatiga erishadi. Asarda Bashorat obrazi ham alohida ajralib turadi. Aynan shu personaj bilan Ra'noni qarama-qarshi qo'yish mumkin. Bashoratni erkakshodi, ko'rinishiga mos ravishda ozroq qo'pol, qo'llari sovuqdan tars-tars yorilib ketgan bo'lsa-da, uncha-muncha erkaklarni yer tishlatadigan jasorati va mehnatsevarligi, bag'rikengligi, insoniy xislatlarni

har narsadan ustun qo'yishi tufayli ma'nan go'zal insonlar safiga qo'shish mumkin, Ra'noda esa bularni tamomila aksini ko'ramiz. Romanning so'ngiga kelganda Bashorat qilgan "yaxshiligidan" pushaymon bo'lib, Ra'noni yer mushtlab qarg'aydi. Taqdir charxpalagi bu ikki ayolni ko'rinmas rishta bilan bog'lagan edi.

Besh qo'l barobar bo'lmaydi, deganlaridek, go'zallik doim ham tubanlik keltirmasligini Robiya obrazi misolida ko'rsak. Muallif qahramonni qoramag'iz bo'lsa-da, ayri-cha go'zallik, nafasat egasi sifatida tasvirlaydi. Ammo bularni to'ldirib turadigan mohiyat – bu ichki go'zallikdir. Aqlli, odobli, o'zbek qizlariga xos or-nomusli, mehnat-sevar, qalbi pok bu qizning umri hijron bilan, bolaligida "ertaga kelaman" degan dadasini kutish bilan o'tadi. Ilk muhabbati, sof va samimiy tuyg'ulari sababchisi bo'lgan Kimsan esa el-yurt ishiga kamarbasta bo'laman, deya bir umr sevgilisini kuttiradi. Boshiga tushadigan kunlardan bexabar baxt osmonida keng quloch yozib uchgan Robiya taqdir izmi qarshisida ojiz qoladi.

"Hali boshimga bundan og'ir kunlar tushishini, bundan og'ir bedodliklar ko'rishimni, Kimsan akam ikkalimizning o'rtamizda sindirilgan non uvol ketib, ushatilgan holva bekor bo'lishini bilmagan ekanman. Shu tobda kimdir: Behuda ovvora bo'lyapsan, suyganing qaytib kelmaydi, bir yil emas, besh yil emas, o'n yil kutasan-da, oxiri Kimsan akang u yoqda qolib yaxshi ko'rgan yangang Ra'no kelinoyingning eriga xotin bo'lasan, sevasanmi yo'qmi vaqti-soati yetib shu odamdan o'g'il tug'asan, desa shu zahoti yuragim yorilib o'lgan bo'lardim"³.

Vaziyat taqozosi bilan taqdiriga tan bergan Robiya obrazi har qanday sharoitda ham o'z insoniy qiyofasini saqlab qoladi. Bir zumda besh yashar bolasi bor onaga aylanib qolgan Robiya Muzaffarga bor mehrini beradi. Aynan shu bolakay uning iztirob to'la qalbiga malham bo'ladi.

Shu bilan birga, fojiaiviylik kategoriyasi roman syujetini asosiy harakatga keltirib turadigan muammodir. Zero, romandagi fojiaiviylik hayot va o'lim, haqiqat va yolg'on, muhabbat va nafrat, tubanlik va olijanoblik, erkinlik va tutqunlik, aql va tuyg'u, shaxsiy va ijtimoiy muammolar bir vaqtning o'zida o'zaro ziddiyatga kelishida namoyon bo'ladi. Aslida ulug'vorlik fojiaiviylikning davomidir. Asl fojia qahramoni sofdil, vatanparvar va mehridaryo inson sifatida ulug'vorlikka erishadi. Chin fojia oldida haqiqiy jasorat ko'rsatgan qahramonlar talaygina. Urush zamoni har bir inson hayotida alamli, og'riqli fojialar qoldirgan. Xususan, birato'la ikki pahlavonidan judo bo'lgan Oqsoqol kelini Zuhrani olomon kutgandek yomonotliq qilish o'rniga duduq askarga ming nadomat ila nikohlab bergani, undan avval mardlarcha belida belbog'i bor odamdek o'z o'rnini zakunni yaxshi biladigan yangi rahbarga bo'shatib bergani va bunga xalqni ko'ndirgani, zakunchi "jar yoqasidagi gul" deya Robiyaga chang solmoqchi bo'lganida Robiyaning o'ta qaltis vaziyatda

unga yaxshigina "saboq" berib qo'ygani, Kimsanni esa Ugri daryosida muz ustidagi qahramonligi – vaxshiy fashist ofitserini yer tishlatgani, ma'naviy barkamollikka erishgan Olimjonning zakunchi ustidan qozongan g'alabasi va nihoyat tinchlikning urush ustidan qilgan g'alabasi esa baxtli tasodif tufayli Kimsanning hoki o'z ona yurtiga qaytarilishi, ko'plab ona-bolalar singari Qora amma va Kimsanlarning ruhi bo'lsa-da diydorlashish onlari haqiqiy ulug'vorlikni aks ettirgan. Bunday dalillarni ko'plab keltirish mumkin. Muallif deyarli har bir qahramon hayotida ulug'vorlikni – fojiani ko'rsatishga harakat qiladi. Rashid abzining pochtaga Kimsandan yangi xat olish ilinjida borgan Qora amma non do'koni oldidagi turnaqator navbatni ko'rib yuragi eziladi. Zamon nozik vaqtda odamlar ochlikdan noiloj hamma narsaga tayyor ekaniga guvoh bo'ladi. Shu onda ochlikdan sillasi qurigan norasida bola o'g'irlik qilib qo'lga tushadi. Olomon orasida tartib o'rnatib yurgan Ismoil militsiya vaziyatni nazorat qilishga majbur bo'ladi: "Bolaning yelkasidan tortib, quloq-chakkasiga tarsaki tushirgan edi, bola bukachayib qoldi. Xotin jonholatda nonga chang soldi. Bola nonni qo'yib yubormadi. Chala-chulpa chaynab ochko'zlik bilan yeya boshladi. Besh-olti kishi yordamga yetib keldi. Gavdalibroq erkak bir musht tushirgan edi, bolaning telpagi boshidan uchib qorga tushdi. Bolapaqirni birpasda hamma urib ketishdi, shuncha odam savalab yotibdi-yu, bola parvo qilmaydi, qorga muk tushgancha non kavshaydi. Non burnidan oqqan qondan qizarib ketgan. Qarasam o'ldirib qo'yishadi, dod solib olomonga otildim"⁴.

Shu kabi manzaralar barcha ko'rgulikning asl aybdori o'sha mash'um urush fojiasidir. Ko'rib turganimizdek, millat, din, irq, yosh tanlamagan bu savdolar murg'ak qalblarni bir zumda ulg'aytirib qo'ygandi. Urush nafaqat jang maydonlaridagi yosh, norg'ul yigitlarni umriga zomin bo'lgan, front ortidagi begunoh xalq ahvolini yanada tang qilgan, balki, tugaganiga bir qancha yillar o'tgan bo'lsa-da, kishilarning baxtiga, hayotiga chang soladi.

Ijod ahlining boshqalardan ajralib turadigan muhim jihati shuki, jamiyatdagi, insonlar fe'l-atvoridagi, umuman butun borliqdagi narsa va hodisalarga ayri-cha, ya'ni tanqidiy nigoh bilan qaraydi, jamiyatdagi muammoli vaziyatlar xususida yonib, jonkuyarlik bilan munosabat bildiradi. Badiiy asar so'z orqali jamiyat hayotining turli qatlamlariga kirib boradi. Haligacha keng kitobxonlar orasida qizg'in muhokama qilinadigan "Ikki eshik orasi" romani O'.Hoshimovning eng salmoqli asarlaridan bo'lib, deyarli har bir satri o'quvchida tushkunlik, g'am-anduh, achinish hislari bilan birga o'tmish ajdodlarimizdan faxr-iftixor, g'urur tuyg'ularini uyg'otadi. Asardagi qahramonlar taqdiri xayolimizdan ketmaydi. Deyarli har bir qahramon taqdirida alamli, iztirobli yo'qotishlar, afsus-nadomatlar, pushaymonli vaziyatlarini uchratamiz. Roman chigal taqdirlar, kutilmagan vazi-

yatlar, urush va u keltirib chiqargan turli qiyinchiliklarda o'z odamiyligini yo'qotmagan insonlar qismatidan iborat. Bu jarayonlarni aks ettirish o'z navbatida turli estetik kategoriyalar orqali namoyon bo'ladi. Fojiaiviylik, go'zallik, ulug'vorlik kabi kategoriyalar orqali obrazlar qismati, ajdodlarimizning go'zal va barkamol ma'naviy qiyofalari haqida va xalqimiz hayotining muhim jihatlari xususi-da bilib olamiz. Asar qahramonlari hech qachon o'zlari

uchun yashamaydi, ular o'z dardini el-yurt, vatan taqdiri bilan bog'laydilar. Hatto hech biri "o'zing uchun ham yashay olasanmi", degan savolni bermaydi. O'z nafsining qurboniga aylanganlarning so'nggi pushaymoni esa o'ziga dushman bo'lishini hayot ko'rsatib beradi. Asardagi har bir qahramon hayoti, taqdirini tasvirllovchi estetik kategoriyalar kitobxonning ma'naviy, ruhiy, estetik olamini bir pog'onaga bo'lsa-da yuksaltiradi.

1. Rasulov A. Ardoqli adib. – T.: Sharq, 2001. 109-b.
2. Duysenbayev O.U. O'tkir Hoshimov ijodida ona obrazi // Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. – T., 2011.
3. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. - T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. 161-b.
4. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. 135-b.

Navro'z MADALOV,
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi

MAQOLLARDA SINONIMIK MUNOSABATNING IFODALANISHI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida ilk bora maqollarning paremiologik sistemadagi o'rni belgilandi va ular lingvistik asosda tekshirildi, xalq maqollaridagi sinonimik munosabat tahlil etildi, maqollar tarkibidagi leksemalarning uslubiy imkoniyatlari izohlandi.

Kalit so'zlar: maqol, sinonimik munosabat, parema, ma'nodoshlik, bosh ma'no, hosila ma'no, leksema.

АННОТАЦИЯ. В данной статье впервые в узбекском языкознании определено место пословиц в паремиологической системе и рассмотрены они на лингвистической основе, проанализированы синонимические отношения в народных пословицах, объяснялись методологические возможности лексем в пословицах.

Ключевые слова: пословицная, синонимичная связь, пареме, семантика, первичное значение, производное значение, лексема.

ABSTRACT. In this article, for the first time in Uzbek linguistics, the place of proverbs in the paremiological system was determined and they were examined on a linguistic basis; the synonymous relationship in folk proverbs was analyzed; the methodological possibilities of lexemes in proverbs were explained.

Key words: proverbial, synonymous relationship, paremia, semantics, primary meaning, derived meaning, lexeme.

Maqollarda sinonimik munosabat haqida fikr yuritilganda, avvalo maqol tarkibidagi ma'nodosh leksik birliklar – parasegmentlar, qolaversa, maqollar sinonimiyasini nazarda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yana bir jihati borki, maqollarda leksik sinonimlarning qo'llanishi leksik antonimlarga nisbatan juda oz, deyarli, sezilarsiz. SHunday bo'lsa-da, maqollarda sinonimik munosabatni leksik va sintaktik sath doirasida kuzatish va ular o'rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Ideografik semalari teng, bir yoki bir necha jihati o'zaro farqli leksemalar leksik sinonimlar deyiladi. Leksosinonimis kamida ikkita leksema orasida vujudga keladi. O'zaro sinonim birliklarni tilshunoslikda sinonimik qator, sinonimik uya deb nomlash mavjud. So'nggi ilmiy adabiyotlarda **sinonimik mikrotuzum**^[1] deb nomlash ham uchraydi. Leksik birliklar o'zaro sinonim bo'lishi uchun ular umumiy va farqli belgilarga ega bo'lishi kerak. Farqlanish odatda biror ideografik semaning

ma'no qirrasida(nam, shalabbo), baho semasida (xunuk, badbashara), nutq ko'rinishga xoslanish (ko'klam, bahor) belgisida voqe bo'ladi.

Agar ikki leksema har jihatdan teng bo'lsa, farqlovchi belgilari aniqlanmasa, bunday sinonimlar to'liq hisoblanadi; leksik sinonimlar ideografik semasining ma'no qirrasida bilan farqlanib tursa, ideografik sinonimlar yoki ma'noviy sinonimlar hisoblanadi. Masalan, **yanglish – noto'g'ri – xato leksemalari ayni bir ma'noni anglatadi, ya'ni ideografik semalari teng, ammo yanglish fikr – xato fikr** birikmalarining birinchisida "ayblash" yumshatiladi, ikkinchisida kuchaytiriladi.

Ora va o'rta leksemalari ham bosh leksik ma'nosida o'zaro sinonim emas: ora–ikkita nuqtani ajratib turuvchi oraliq(masofa, vaqt) o'rta–ikkita nuqtani ajratib turuvchi oraliqning qoq yarmidagi nuqta (masofa, vaqt). **Oraga qil ham sig'maydi** deyiladi-yu, lekin **O'rta qil ham sig'maydi** deyish xato. O'rta leksemasi oldidan ikki

miqdor sifatlovchisini ishlatib bo'lmaydi. Lekin o'rta leksemasi qatnashgan xalq maqollarida ikki leksemasi distant holatda qatnashishi mumkin. Masalan, **Ikki ot tepinsa, o'rtada eshak o'ladi**.

Sinonimlar o'zaro baho semasi bilan farqlansa, baholovchi sinonimlar deyiladi. Masalan, **kulmoq-iljaymoq-irjaymoq-tirjaymoq-ishshaymoq - hiringlam-oq-tabassum qilmoq-haholamoq** sinonimik uyasidagi *kul* leksemasi baho semasi jihatidan betaraf, qolgan leksemalarda esa baho semasi bo'rtib turibdi va ular ijobiy va salbiydir[2]. E'tiborlisi shuki, kulmoq so'zi mazaxlash semasini namoyon qilganda bu leksemaning baho semasi salbiy tomonga og'ishini kuzatish mumkin: **Kulma qo'shningga, Qaytib kelar boshingga**.

SHunday ekan, sinonimik uyadagi baho semasi faqatgina atash semasida betaraf bo'lishi kuzatiladi, ifoda semasida baho salbiy yoki ijobiy tomonga siljiydi. *CHiranmoq* va *kuchanmoq* sinonimi qatorida birinchi leksemaning baho semasi neytral, kuchanmoqda esa salbiydir. Xuddi ana shu baho semasi maqol mazmuniga mos keladi, ya'ni maqolda tanqid ostiga olingan salbiy xususiyatlar aynan shu so'z vositasida yuzaga chiqadi. Aytish mumkinki, sinonimik uyadagi qaysi so'zning tanlanishi ko'proq maqol semantikasiga bog'liq bo'lib qoladi va qolaversa, maqol poetikasiga ham bog'liq: **Kuchim bor deb kuchanma, Kuchsiz seni qul etar**.

Sinonimlar o'zaro nutq uslublariga xoslanishiga ko'ra ham farqlanishi mumkin. Bunday holda uslubiy sinonimlar shakllanadi. **Quyosh-kun-oftob** sinonimik uyasida kun leksemasi so'zlashuv uslubiga, oftob – kitobiy uslubga mansub, quyosh esa uslubiy betaraf hisoblanadi. Tabiiyki, kun so'zi qo'llangan maqollar boshqalariga qaraganda etakchilik qiladi: **Kun qizig'i demagin, Suyagingni sindirmas**.

Maqollarda sinonimik munosabat o'z til va o'zga til leksik birliklari orasida shakllanishi mumkin:

bir tilning o'z leksemalari orasida: **Anqov o'yin buzar, Tentak – uyin; O'git ber o'git olganga, Nasihat qil, quloq solganga**. Tentak va anqov so'zlari tarkibidagi semalar tahlilida bu birliklarning semantik o'xshashligini aniqlash mumkin. O'TILda **anqov**[2] so'zi **es-hushini tezda yig'a olmaslik, gapga tushunib eta olmaslik, ovsar, esar** semalari asosida izohlangan. **Tentak** so'zida ham deyarli shu semalar ishtirokini kuzatish mumkin: **to'g'ri fikr yurita olmaydigan, aqli noraso, esi past**. Bu o'rinda tentak so'zining telba, devona, jinni ma'nolari hosila ma'nosi sifatida namoyon bo'lishini unutmash kerak. Tentak so'zi o'zining atash ma'nosi bilan ijobiy baho semasiga ega va bu baho anqov semantikasi uchun ham xos.

Maqollarda o'z leksema bilan olinma leksema orasida: **Oriq o'lsa, mazasi yo'q, G'arib o'lsa, azasi..**

Maqollarda qo'llangan sinonim leksemalar umumtil va dialektgga munosabati asosida ham farqlanadi:

umumtil birliklari orasida: **Kambag'al o'lay desa, o'lolmaydi, Tiriklay go'rga kirolmaydi**(sinonim birliklar so'z va ibora birligidan tashkil topishi mumkin);

umumtil birligi bilan shevaga xos birlik orasida: **marza olmoq– yop qazimoq/ Yig'lab-yig'lab marza olsang, O'ynab-o'ynab sug'orasan–Yig'lab-yig'lab yop qazisang, Kulib-kulib sug'orasan**. Marza umumtil birligi, yop(katta ariq) shevaga xos birlik sifatida xalq maqollarida sinonim sifatida qo'llangan.

shevalarga xos birliklar orasida: **g'o'ra-dovuchcha/ Sabr qilsang, g'o'radan holva bitar, Besabrlar o'z oyog'idan etar/**

Leksik qo'llash (nutqiy ma'no) asosida sinonim yuzaga kelmaydi, chunki nutqiy ma'no lisoniy birlik deb emas, balki nutq hodisasi deb qaraladi. Sinonimik munosabat lisoniy birliklar orasida yuzaga keladi, shu asosda *uzual sinonimiya* deb yuritiladi. Sinonimik munosabat lisoniy ma'no bilan nutqiy ma'no orasida voqe bo'lsa, *kontekstual sinonimiya (nutqiy sinonimiya)* deyiladi. Xalq maqollarida bunday sinonimlar uchrab tura-di. Masalan: **Yurtda o'g'ri topilmasa, zargarni dorga os** (xalq zargarlarni ham kishining haqiga xiyonat qiluvchi o'g'rilar qatoriga kiritgan, shuning uchun ham mazkur maqolda har ikki leksema kontekstual sinonimni yuzaga keltirgan). Yana bir misol: **Qimiz ichganing – qirchil-laganing, Sut ichganing – so'lqillaganing** maqolida ham *qirchillamoq* va *so'lqillamoq* yasama fe'llari nutqiy sinonim bo'la oladi. Har ikki fe'lda ham ham yashar-ish, go'zallashish semalari yuzaga chiqqan. Bu semalar sabab ifodalovchi fe'llarning natijasi bo'lgan holat fe'llarining matniy ma'nodoshligiga olib kelgan. SHuningdek, ushbu leksik birliklar erkak va ayol jinsini farqlovchi omil sifatida qimiz va sut leksemalarini o'z aktantiga aylantirmoqda.

L.A.Novikov sinonimlarni simmetrik giponimiya sifatida ikki tomonlama implikasiya termini bilan tushuntiradi, ya'ni:

1) **ekvivalent holatlar (simmetrik ifoda)**. Ekvivalent holat xalq maqollarida bir oz boshqacharoq ifoda topgan bo'ladi [3]. Bunday leksik birliklar xalqning assotsiativ tafakkuriga bog'liq bo'lib qoladi. Quyidagi misolda forscha, bir yoshli qo'zi ma'nosini ifodalovchi *shishak* so'zi forscha *pishak* (mushuk) so'ziga ekvivalent sifatida tanlangan: **SHishak so'ydim – pishak so'ydim**. Ko'rinib turibdiki, ushbu maqol fors tili ta'siri kuchli bo'lgan shevalarda qo'llanuvchi xalq hikmati hisoblanadi. **Qayg'u qaritar, g'am o'ldirar** maqoli tarkibidagi *qayg'u* va *g'am* leksemalari ma'noviy jihatdan tengdir.

2) bir tomonlama implikasiya (simmetrik giponimiya): **Sakkiz sigir asraguncha, Bir govmish asra** maqolidagi sigir va govmish leksemalari esa tur-jins munosabatini ifodalovchi simmetrik giponimiya hisoblanadi va ular bir tomonlama implikasiyani ifodalaydi.

Sinonimlardan birini tanlab ishlatish bilan voqeli-kning ma'lum qirradi bo'rttirib anglatiladi, ifodalanadi. O'z fikrini anglatishda, voqelikka o'z munosabatini ifodalashda yagona o'rinni leksemani sinonimlari orasidan tanlab ola bilish kerak [5].

Ma'nodoshlik hodisasi dastlab leksik hodisa sifatida kuzatilgan. Maqollar sinonimiyasi bo'yicha yaratilgan lug'at o'zbek tilshunosligida B.Jo'raeva nomi bilan

bog'lanadi. B.Jo'raevaga qadar maqollar leksik birliklar sinonimiyasi bilan bog'liq ishlarda frazeologiyaning ob'ekti sifatida, sintaktik uslubiyatda esa sodda yoki qo'shma gap sinonimiyasi bilan aloqador ishlarda fikrni asoslash uchun misol tariqasida keltirish bilan chegaralanganligini unutmaslik kerak.

Sinonim maqollar borliqda mavjud bo'lgan bir-biriga o'xshash harakat-holat, hodisalar mazmunini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday maqollar bir mazmunni turli xil shakllarda, obrazlarda ifodalaydi. Sinonim maqollar umumiy mazmunni ifodalashi jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, o'ziga xos ma'no nozikliklari, ayrim qo'shimcha ottenkalari bilan o'zaro farqlanib turadi. Maqollar ma'nodoshligining quyidagi tamoyillari mavjud:

- 1) yagona ma'no asosiga egalik;
- 2) bir tematik guruhga tegishlilik;
- 3) har bir maqol alohida obraz asosiga qurilgan bo'lishi;
- 4) ayrim mazmun nozikliklari va qo'llanish darajasi bilan farqlanishi.

Sinonim maqollarning eng asosiy omili ularning shakllaridan, obrazlaridan qat'iy nazar mazmun jihatidan biri ikkinchisining o'rnida qo'llana olish imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi.

Bunday almashtirish natijasida ma'noda, stilistik bo'yoqda ma'lum o'zgarish yuz beradi. Bu – tabiiy. Aks holda almashtirish o'z mantiqini yo'qotib qo'yadi. Almashtirish natijasida nimadandir xalos bo'lamiz, nimagadir ega bo'lamiz. Ana shu "nimalar" sinonim haqida gapirish uchun asos bo'ladi. Aks holda sinonimga emas, dubletga ega bo'linadi:

"It qutursa egasini qopar" maqoli dominant bo'lgan sinonimik uyaga mansub bo'lgan 14 ta xalq maqollari "**Boshiga keladigan baloga insonning o'zi sababchi bo'ladi**", - degan umumiy mazmunga ega. Bu maqollarning faqat etakchi koponentigina o'zgariganligini ko'rish mumkin. Bunda harakat sub'ektlarining barchasi *sichqon, echki, ilon, kiyik, parvona, chivin, bo'ri, buqa, to'rg'ay, eshak, tulki, bola, mushuk* o'zidan jismoniy, moddiy va mavqei jihatidan kuchli bo'lgan, yuqori turadigan shaxs tushunchasini beruvchi zoonimlar bilan olishadi va shubhasiz, o'z kuchini baholay olmagan bu olishuvda mag'lubiyatga uchraydi. Mazkur maqollarda sinonim birliklar tushirilsa, quyidagicha gap shakllari hosil bo'ladi. Ana shu birliklar maqollar sinonimiyasini shakllantiradi, ayni paytda, har bir maqolda oppozitiv munosabatni ham yuzaga chiqaradi[6]. Har ikki munosabat ham quyida maqol matnida ishtirok etmagan bo'laklar evaziga shakllanadi.

it —————→ egasini qopar
sichqon —————→ mushuk bilan
o'ynashar
echki —————→ cho'ponning tayog'iga
surkanar
ilon —————→ shig'irda yotar
kiyik —————→ adirga qochar
parvona —————→ sham bilan o'ynashar

chivin —————→ bolga qo'nar
Yuqoridagi maqollarda sinonimiya hol yoki aniqlovchi bo'laklar mazmuniga yashiringan bo'lib, ular

o'lgisi kelsa(Hsh-1),

ajali etsa(Hsh-2),

qutursa(Hsh-3),

semirsa(Hsh-4),

yig'lagisi kelsa(Hsh-5),

kaltak egisi kelsa(Hsh-6) kabi shart fe'llari va bu fe'llarning formal jihatdan o'zgargan sifatdash oborotlari

ajali etgan(As-1),

o'lgisi kelgan(As-2),

yig'lagisi kelgan(As-3)) shaklida qo'llanishi maqolning aniqlovchi va shart holi tipidagi bo'laklarini shakllantiradi. Bu bo'laklar qaysi maqol strukturasi o'rinishuvini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

it(Hsh-3) egasini qopar

sichqon(Hsh-1) mushuk bilan o'ynashar

echki (Hsh-6)cho'ponning tayog'iga surkanar

ilon (Hsh-1)shig'irda yotar

(As-1)**kiyik** adirga qochar

parvona (Hsh-1) sham bilan o'ynashar

(As-2)**chivin** bolga qo'nar

bo'ri(Hsh-3)o'z qavmiga chopar

Garchi yuqoridagi maqollarning har biri sinonim bo'lishiga qaramay, ular ichki ziddiyatga asoslanadi. Bu o'rinda maqollar sinonimligi yuqorida qoliplashtirishga harakat qilganimiz aniqlovchi va hol kabi bo'laklar sinonimligi evaziga yuzaga chiqadi, ya'ni kontekstual sinonimdir. Ana shunday ma'nodoshlik –sa shart mayli va o'tgan zamon sifatdoshi –gan formasidagi fe'l oborotlarining kontekstual sinonimligiga sabab bo'ladi[7].

Mazkur maqollarni gap bo'laklari tartibi asosida ikki xil modelashtirish mumkin:

1. **As+E+Tvli/vsiz +Kfuz**. Bu modelga ko'ra maqol strukturasi sifatlovchi aniqlovchi, ega, vositali to'ldiruvchi hamda umumiy zamon tushunchasiga ega bo'lgan fe'l-kesim ishtirok etadi.

2. **Aq+Hsh+Tvli/vsiz+Kfuz**. Bu modelga asosan maqol qaratqich aniqlovchi, shart holi, vositali to'ldiruvchi, umumiy zamon tushunchasiga ega bo'lgan fe'l-kesim ko'rinishida shakllanadi. Har ikki qolipdan ko'rinib turibdiki, maqollarning ma'nodoshligini ta'min etuvchi leksik birliklarning sintagmatik munosabatlari o'zgarasada, sinonimlikka putur etmaydi.

Ushbu semantik uyadagi maqollarning barchasida bo'ladigan yagona mazmun orqali ular bir tematik guruhga birlashadi, ularning har biri alohida obraz asosiga qurilganligi va ayni paytda har qaysi maqol o'zining ma'no nozikligi hamda qo'llanish darajasi bilan muayyan tafovutga ega. Masalan, **Yig'lagisi kelgan bola otasining soqolini o'ynar** maqoli o'zi mansub bo'lgan mavzuiy uyadagi maqollar orasida o'z ma'nosida qo'llanilishi bilan boshqa 13 maqoldan tubdan farq qiladi.

Yuqoridagi paremalarning mazmunan umumiy bir fikrni ifoda etishi hamda o'zaro farqli tomonlari shuni ko'rsatadiki, biz muayyan nutq momenti sharoitida

ularning kerakli turini tanlash imkoniyatiga egamiz. Tanlash tarzi maqollarning mazmuniy va uslubiy tomoniga asoslangan holda ma'lum bir kontekst talabi bilan yuzaga chiqadi.

Tildagi ma'lum bir mazmuniy munosabat nutqda bir necha maqollar yordamida reallashar ekan, turli maqollar vositasida bir xil mazmuniy munosabatning ifoda etilishi esa sinonim maqollar guruhini – qatorini yuzaga keltiradi. Maqollarning sinonimik qatorini kuza-tish, o'z navbatida, har bir maqolning mazmunini aniq belgilashda muhim ahamiyatga ega. Tilni yaxshi bilish, uning boy imkoniyatlaridan to'la foydalanish uchun, ayniqsa, sinonimik qatorga ega bo'lgan maqollarni bilish nihoyatda zarur. Chunki nutqda o'rinsiz takrorlardan qochishning eng qulay usuli ham sinonim birliklardan foydalana bilishdir. Maqollar haqida ham shunday deyish mumkin[4].

Qatordagi maqollarning o'zaro sinonim yoki sinonim emasligini aniqlash uchun eng qulay yo'l ularni kontekstda bir-biri bilan almashtirib ko'rishdir. Kontekstual sinonimlar haqida bunday deyish qiyin.

Maqollar sinonimik qatorida qo'llanish darajasi yuqori bo'lgan, shuningdek, so'zlari umumiste'molda bo'lgan maqolni dominanta desa bo'ladi.

Sinonim maqollarda ham xuddi leksik sinonimlar kabi semantik jihatdan darajalanish kuzatiladi va xalq maqollari lug'atda ana shu mazmuniy kuchayish tartibida ketma-ket joylashtiriladi. Masalan, "Tejamkor va tadbirli inson hech qachon qiyin ahvolga tushib qolmasligi"

haqidagi, etakchi komponentlari bor-yo'q modal so'zlaridan tashkil topgan xalq maqollarini taqqoslab ko'raylik:

1. Borida –kuldiring-kuldiring, Yo'g'ida qarab o'tiring.

2. Borida – pora-pora, Yo'g'ida – banda bechora.

3. Borida –tiqa-tiqa, Yo'g'ida – siqa-siqa.

Maqollarning barchasi bog'lovchisiz qo'shma gap shaklida bo'lib, konstruktiv jihatdan hol va kesim sintagmatik munosabatidagina tashkil topgan. Maqol semantikasida etakchi komponentlar payt tushunchasini ifodalaydi, ular haqidagi hukm tub va yasama fe'l-leksemalar, ot va sifat leksemalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. E'tibor berilsa, ushbu maqollarda predikat orqali ifodalangan hukmlar takror so'z shaklida ifoda etilgan, ularning aksariyati taqlid va ular asosidagi yasalmalardir.

Ta'kidlash joizki, maqollarda sinonimik munosabatni leksik va sintaktik sath doirasida kuzatish mumkin. Sintaktik sath doirasida maqol matni semantik jihatdan boshqa bir maqolga ekvivalent sifatida tanlandi.

Maqollarda qo'llangan leksik birliklar o'rtasidagi sinonimiya baho semasiga ko'ra, nutqiy xoslanishiga ko'ra farqlanadi. Ma'nodoshlik o'z til va o'zga til leksik birliklari orasida; bir tilning o'z leksemalari orasida; o'z leksema bilan olinma leksema orasida; umumtil va dialektgga munosabati asosida shakllanadi. Shuningdek, maqollarda kontekstual sinonimiya ham kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Juraeva B. Maqollarning lisoniy mavqei va ma'naviy-uslubiy qo'llanishi: Filol. fanlari nomzodi diss. – Buxoro, 2002. – 136 b.
2. O'zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug'ati. Tuzuvchi: Jo'raeva B. M. – Toshkent: Fan, 2006. – 96 b.
3. Narmuratov Z.R. Ingliz va o'zbek tillarida ta'lim va ilm konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fanlari falsafa doktori diss. Termez, 2022. – 129 b.
4. Narmuratov Z.R. Ta'lim, ilm hikmatlari. Termiz davlat universiteti, NMM nashriyoti, Termiz, 2022, – 89 b.
5. Rahmatullaev SH. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T.: "Mumtoz so'z", 2010. 80-b.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomli / Z.M.Ma'ruflov tahriri ostida. – M.: Russkiy yazyk, 1981. Tom 1. 631b.
7. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – 320 b.

Abduraufxon ORIFJONOV,
ToshDO'TAU 2-bosqich magistranti

MUNISNING HAYOTI VA IJODIGA VA UNGA OID MANBALAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Devoni Munis" asari matni tadqiq obyekti sifatida olingan.

Kalit so'zlar: matn, qo'lyozma, manba, devon, kotib.

Аннотация. В данной статье в качестве объекта исследования взят текст "Девони Мунис".

Ключевые слова: текст, рукопись, источник, девон, секретарь.

Annotation. In this article, the text of "Devoni Munis" is taken as an object of study.

Key words: text, manuscript, source, devon, secretary.

O'zbek adabiyoti rivojida Xorazm adabiy muhiti va killarining o'rni va hissasi katta. Hukmdorlarning ijod ahliga bo'lgan e'tibori, moddiy-ma'naviy qo'llab quv-

vatlashi adabiy muhit rivojida katta o'rin tutdi. Mumtoz adabiyot an'analari, xususan, Alisher Navoiy ijodidan ta'sirlanish natijasida ko'plab iqtidorli ijodkorlar yetishib

chiqdi. Mazkur shoirlar sirasida o'z davri adabiy muhitida ega alohida iqtidori bilan tanilgan, ziddiyatli hayot sinovlariga qaramay, ijoddan tinmagan ijodkorlardan biri Shermuhammad Avazbiy o'g'li Munisdir. U XVIII asrning oxiri XIX asrning I yarmida Xorazm madaniyatining atoqli namoyondasi, talantli shoir, tarixchi, mohir tarjimon, yaxshi xattot, adolat va ma'rifat kuychisi sifatida shuhrat qozongan. Xorazmda yashab ijod qilgan taniqli shoir Shermuhammad Munis 1778-yilda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Avazbiy mirob oilasida tug'ildi. Otasi yuz urug'idan chiqqan Avazbiy xonlikning bosh mirobi bo'lib, ishlab chiqarishi to'lig'icha sug'orma dehqonchilikka asoslangan Xiva xonligida miroblik eng katta mansablardan sanalardi. Shoirning nomi Shermuhammad bo'lib Munis uning taxallusidir. "Munis"ning lug'aviy ma'nosi "do'st", "ulfat" demakdir. Shermuhammad Munis o'z zamonasining yetuk shoiri, adibi, tarixchisi, tarjimoni, murabbiysi va ma'rifat kuychisidir. U faqat zamonasidagina emas, balki keyingi davrlarda ham xalq o'rtasida, xususan, madaniyat muxlislari, shoirlar, olimlar, san'atkorlar va tolibi ilmlar o'rtasida ham shuhrat qozongan.

Munisning faoliyatini va adabiy merosini o'rganishda ma'lum yutuqlar qo'lga kiritildi. Dastlab sharqshunoslar Munisning Firdavs ul-iqbol» (davomini Ogahiy yozgan) asarini o'rganib unga ko'proq murojaat qildilar. Munisning tarixiy asarini o'rganishda V.V.Bartold, P.P.Ivanov ma'lum xizmat qildilar. Keyingi yillarda esa S.P.Tolstov, Y.G'ulomov, M.Yo'ldoshev va Q.Munirovlar o'rgandilar.

Yirik tarixchi, mohir tarjimon Munis, eng avvalo, iste'dodli va sermahsul shoir bo'lib, uning «Munis ul-ushshoq» devoni o'zbek adabiyoti xazinasining ajoyib durdonalaridan biri hisoblanadi. Devonda shoirning o'zi debochada ta'kidlanganidek, g'aroyib qasidalar, dilkusho g'azallar, fasohatli tarkibbandlar, latofatli qit'alar, sharif musaddas va muxammaslar, shirin masnaviy va rangin tuyuqlar bor. Yoshligidan boshlab adabiyot va tarixni sevgan Munis bo'sh vaqtlarini ko'pincha kitob mutolaasiga bag'ishlaydi. U o'ziga qadar o'zbek va fors-tojik adabiyotida yaratilgan lirik merosning ajoyib namunalari bilan yaqindan tanishib ulardan cheksiz bahramand bo'ladi, shu bilan birga o'zi ham boshqalarga o'rnak bo'la oladigan go'zal asarlar yaratib keng shuhrat qozonadi. Munisning she'riyatda shuhrat topishi Sharq mumtoz adabiyotining eng porloq yulduzlari: Nizomiy, Jomiy, Xusrav Dehlaviy, Ansoriy, Hofiz Sheroziy, Attor, Firdavsiy, Hoqoniy, Anvari, Sa'diy, Iroqiy, Bedil ijodlarini chuqur o'rganib, ulardan cheksiz bahramand bo'lishi tufayli ekanligini bir g'azalida g'urur bilan bayon etadi:

**Voliyi mulki tariqat gar Nizomiydur manga,
Manzili ma'niga Hizri roh Jomiydur manga.
Xotirimg'a Xisravidin har zamon sho're yetib
Banda davronning bori shirin kalomidur manga.¹**

Munis, ayniqsa, buyuk Navoiy ijodidan juda ko'p narsalar o'rganganini ta'kidlab, uni o'ziga homiy deb biladi:

**Qilsa hosed dahlia bejo so'z aro yo'qtur g'amim,
Kim bu ma'nida Navoiy ruhi homiydur manga².**

Shu bilan birga, u o'z zamondoshi shoir Kiromiy ham o'ziga ustoz deb biladi:

Tong emas, Munis, agar bo'lsam kiromiyqadrkim,

Listodi zohiru botin Kiromiydur manga³.

Bulardan tashqari Munis Fuzuliy va Andaliblarni ham o'ziga ustoz deb biladi. Navoiyni esa hammadan o'ziga yaqin tutadi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki Navoiy asarlarida olg'a surilgan insonparvarlik, vatanparvarlik, haqqoniylik, mardlik, to'g'rilik, ma'rifatparvarlik g'oyalari Munis ijodining ham asosini tashkil etadi. Bu ikkala shoirning ijodlari shuning uchun ham bir-biriga juda yaqin, hattoki ayrim paytlarda o'xshab ham ketadi. Navoiy ijodida kuylangan gumanizm, hayotga muhabbat, din va din ahliga bo'lgan munosabatlar Munisda kuchli taassurot qoldiradi. Yana shu narsa diqqatga sazovorki, Munisning ham siyosiy qarashlarining asosini yakka hukmron, adolatli xon uchun kurash g'oyasi tashkil qiladi. Munis o'z ijodida ilm masalasiga katta e'tibor beradi. Yoshlikda umrini zoye ketkazmay kasb-hunar o'rganib kamolotga erishish lozimligini quyidagi riboysida mana bunday bayon etadi:

Munis, talab et kamol - erursen chu yigit,
Kim yaxshidur etsa fazl uchun qayg'u yigit.
O'q qilg'on ishin yo qila bilmas hargiz,
Qarilar ila barobar o'lg'aymu yigit⁴.

U qayoqqa qaramasin, hammaning boshida dardu alam borligini ko'radi, lekin o'zining g'ami ham el dard-u g'amidan qolishmas edi:

Har sori boqsam elga, mungsiz kishi topilmas,
Go'yo jahonga qilmish dardu g'amim saroyat⁵.

Jamiyatdagi tengsizlik, adolatsizlik, razolatning asosiy sababi qayerda nimadan iborat ekanligini to'la tushunib yetmagan Munis el boshida yog'ilayotgan turli ofat, g'am-alam va baxtsizlikning bosh sababi falak - charxi dun" deb biladi:

**Ey falak, muncha nedur aylamay izhori sitam,
Urubon har nafas el bag'riga yuz nishtari g'am.
Yaxshilarga yetibon anvoyi xazon qahrindin,
Kim yomon ersa, alar zaxmig'a qilding marham.⁶**

Shoir falakdan noliq orqali o'sha (o'zi yashab turgan) tuzumni qorala undan shikoyat qilmoqda. Biroq

uning shikoyati isyon darajasiga ko'tarilmaydi keyingi baytlarda esa u o'z fikrini yana ham chuqurlashtirib, aytayotgan fikri aniqlashtirishga harakat qiladi:

**Shod bo'lding, qora qayg'u bila kim cheksa
fig'on,
G'am botding, kishikim ichsa qizil may bir dam⁷.**

Xulosa qilib aytganda, Xorazm adabiy muhitining iste'dodli vakili, bugungi kun o'quvchisiga ma'lum bo'lgan Munisning ijodiy merosini tadqiq etish, bu ijodiy merosni hajm va mazmun jihatidan baholab, targ'ib qilish hayrli vazifalardan biridir.

1. Munis. Tanlangan asarlar. – T.: O'zSSSR Davlat badiiy adabiyoti nashriyoti, 1957.
2. Ўша асаp.
3. Ўша асаp.
4. Munis. Tanlangan asarlar. – T.: O'zSSSR Davlat badiiy adabiyoti nashriyoti, 1957.
5. Ўша асаp.
6. Ўша асаp.
7. Ўша асаp.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanmurodov Muhammad Amin o'g'li Laffasiy. Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimaiy hollari. O'z FASHI, qo'lyozma 9494 raqam.
2. Munis. Tanlangan asarlar. – T.: O'zbekiston davlat badiiy adabiyoti nashriyoti, 1957.
3. "Devoni Munis", O'z FASHI. Inv.1793.
4. "Devoni Munis", O'z FASHI. Inv.1793.
5. Munis. Tanlangan asarlar. – Toshkent.: O'zSSSR Davlat badiiy adabiyoti nashriyoti, 1957.

Navro'za KARIMOVA,
Jomboy tumanidagi 12-umumiy
o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

JAMIYATDA MUALLIMNING O'RNI

Yosh avlod tarbiyasi biz ustozlardan juda katta ma'suliyat talab qiladi. Chunki bugun maktab partasida o'tirgan o'quvchi ertaga jamiyat va davlat taraqqiyoti, yurt rivojiga hissa qo'shishga mas'ul shaxs hisoblanadi.

Shu bois har bir o'quvchimizning bilimli, tarbiyali va har tomonlama yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun muallim zimmasida katta mas'uliyat bor. O'qituvchi dars davomida faqat darslik mavzusini yoritish, nazariy bilimlarni berishi bilan cheklanmasligi lozim. Har bir mavzuni amaliyot bilan bo'lgan holda qiziqarli tarzda tashkil etish muhim ahamiyatga egadir.

Bu esa ko'p jihatdan o'qituvchining bilim va mahoratiga bog'liq. Masalan, adabiyot darsida Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanini o'qib o'rganish, tahlil qilish orqali o'quvchilarda insoniylik tuyg'ularini rivojlantirish mumkin.

Insonga hech qachon to'la-to'kis "yaxshi" yoki "yomon" deb ta'rif berishga shoshilmaslik kerak. Ushbu romandagi Razzoq su'fi obrazi o'quvchida bir qarshda salbiy taassurot qoldiradi. Asosiy qahramon sanalgan Zebining ixtiroblarini his qilgan inson beixtiyor unig otasi — Razzoq su'fidan nafratlanadi. To'g'ri, kulishi

kasal odamning kulishiday og'ir, ziqna, ta'magirlik va tekinox'rlilik orqasidan kun ko'ruvchi insonni yaxshi deb bo'larmidi? Buning ustiga u boshliq uy qizi va xotini uchun zindon, o'zi esa shu zindonning ko'zi ko'r, qulog'i kar qorovuli. Biroq, so'fi ham ijobiy hislatlarga ega inson. Kuztganmisiz, tabiatning in'omi bo'lmish kaktusning ham turgan-bitgani tikondan iborat. Mana shu tikonli gulning ochilishi bilan inson undan voz kechmaydi. Razzoq su'fi ham qattiqqo'l, lekin qiz bolaning tarbiyasi uchun aynan shunday jihat muhim emasmi? Birgina misol, bugungi kunda ayrim qizlarimizning zararli illatlar ta'siriga tusib qolishiga va yomon yo'llarga kirishiga ham aynan erkaklarning, xususan, otalarning qattiqqo'l va ma'suliyatli bo'lmagani sabab emasmikan?

Yigit-qizlarimizni nafaqat nazariy bilimlarni o'rtirishiga, balki tarbiyali bo'lishiga biz ustozlar mas'ulmiz. Bu vazifamizni hamisha yodda tutuшимiz talab etiladi. Ammo ota-onalar ham bu borada burchlarini unutmasliklari zarur. Shundagina bilimli, ahloqli va barkamol farzandlarimiz tufayli yuzimiz yorug', orzumiz ro'yobga chiqadi.

Dilafroz ISMOILOVA,
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti katta o'qituvchisi

TA'LIM JARAYONIDA TARBIYA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonida tarbiya xususiyatlari muammosi tahlil etilgan va tavsiyalar taqdim qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, professional, jismoniy, axloqiy, aqliy, ijtimoiy, estetik, mehnat, individual, konsepsiya, qonun, kompetensiya, xarakter, ong, insonparvarlik, ezigulik, umuminsoniylik, bunyodkorlik.

Аннотация. В статье анализирована проблема специфики воспитания в процессе образования и представлены рекомендации.

Ключевые слова: образование, воспитание, профессиональный, физический, нравственный, умственный, социальный, эстетический, трудовой, индивидуальный, понятие, закон, компетенция, характер, сознание, гуманизм, доброта, общечеловеческий, творчество.

Annotation. The article analyzes the problem of the specifics of upbringing in the educational process and presents recommendations on this issue.

Keywords: education, upbringing, professional, physical, moral, mental, social, aesthetic, labor, individual, conception, law, competence, character, consciousness, humanitarian, kindness, common human, creativity.

O'zbekistonda milliy va xalqaro pedagogik tajribalar asosida ta'lim jarayoni yo'lga qo'yilgan. Bunda ta'limning asosiy yo'nalishlaridan birini *tarbiya* tashkil etadi. Bu o'rinda ta'lim jarayonida tarbiya xususiyatlari tahlili masalasiga e'tiboringizni tortamiz.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida (2020-yil 23-sentabr) mamlakatda quyidagi ta'lim tizimi amalda bo'lishi belgilangan:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim (boshlang'ich ta'lim, tayanch o'rta ta'lim va to'liq o'rta ta'lim bosqichlari);
- o'rta maxsus, professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim.

Mazkur tizimda tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlar asosida amalga oshiriladi. Shu jihatdan bunday xususiyatlar quyidagi ko'rinishlarga ega:

1. *Umumiy mutanosiblik.* Bunda quyidagi umumiy xususiyatlar mavjudligi ustuvor hisoblanadi:

- shaxsni tarbiyalash zaruriyligi;
- shaxsni tarbiyalashda davlat ta'lim standartlari va davlat talablariga rioya qilish;
- tarbiyada shaxs huquqining ustuvorligi;
- tarbiyadan davlat va jamiyatning manfaatdorligi.

2. *Individual farqlilik.* Bunda ta'lim tizimida amalga oshiriladigan tarbiya jarayonida quyidagi individual farqlilik mavjud:

- shaxsning yosh, jismoniy va ruhiy xususiyatlariga doir farqlar;
- ta'lim muassasasining vazifasiga oid farqlar;
- shaxs tarbiyasida metodlar va texnologiyalarning erkin tanlanishi bo'yicha farqlar;

- shaxs tarbiyasida individual va ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish yuzasidan farqlar.

E'tibor berilsa, ta'lim tizimida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni umumiy va individual xususiyatlarga ega bo'ladi. Ayni paytda, bu xususiyatlar bir-birini to'ldiradi va umumiy samaraga erishish uchun tipiklashadi.

Respublika ta'lim tizimida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni ta'lim muassasalarining vazifalaridan kelib chiqib uzviylik, uzluksizlik va bosqichma-bosqichlilik tamoyillariga asoslanadi. Shu jihatdan ta'lim tizimida amalga oshiriladigan tarbiyaning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari idrok etiladi:

1. *Maktabgacha ta'limda tarbiya xususiyatlari.* O'zbekiston Respublikasida ilk bor qabul qilinib, amalga kiritilgan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunda maktabgacha ta'lim muassasalari 1–6 yoshli bolalarni quyidagilarga asosan tarbiyalashi belgilangan:
 - maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalash;
In conclusion, I would like to state that investigating the motivation to learn in this thesis greatly contributed to my professional growth as a teacher and it made me realise the importance of the role of the teacher in the learning process of my students. Therefore, I hope that this study will also help to other teachers to understand their enormous capacity to affect their students' willingness to learn the English language.

References

1. Blatchford, Peter., Kutnick, Peter., Baines, Ed. Galton, Maurice. Toward a social pedagogy of classroom group work. – London: Elsevier Ltd., 2003.
2. Burroughs S.G. Peer effects on the motivation of adolescents with learning difficulties // International Journal of Adolescence and Youth, 1989, 2:1, 13-29, DOI: 10.1080/02673843.1989.9747657.
3. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. – New York: Plenum, 1995.
4. Dörnyei Z. Conceptualizing motivation in foreign language learning // Language Learning, 40, 46-78. Retrieved from <http://www.zoltandornyei.co.uk/>
5. Gardner R.C. Lambert W.E. Attitudes and motivation in second language learning. – Rowley, MA: Newbury House, 1972.

Nargiz ARTIKOVA,

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
universiteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi
kafedrası o'qituvchisi*

ILMIY TADQIQOT VA DIAGNOSTIKA

So'nggi yillarda ta'lim va tarbiya amaliyotida pedagogik jarayon, holat, hodisalarni tashxislashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, tashxislash pedagogik jarayon, holat, hodisalarning mavjud holatidan kelib chiqqan holda istiqbol vazifalarni belgilash imkonini beradi.

E'tiborli jihati so'nggi o'n yilliklarda "pedagogik diagnostika" tushunchasi ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga tortmoqda. Garchi mazkur tushuncha ular tomonidan shaklan turlicha talqin qilinayotgan bo'lsa ham, nazariy jihatdan umumiy mazmunga ega.

Pedagogik diagnostika – pedagogik tizimning turli elementlari holati va uni barcha bosqichlarda bashor-

atlash, mo'tadil rivojlanish tendensiyalarining buzilishini bartaraf etish uchun ularni amalga oshirish sharoitlarini tavsiflovchi belgilarni aniqlash va o'rganish (E.A.Mixalichev), ta'lim va tarbiya natijasini baholashda shaxsning ma'lum bir xususiyatlarini aniqlash uchun mo'ljallangan pedagog va pedagogik kollektivlarning o'ziga xos faoliyat tizimi (V.S.Avanesov).

Maqsad, vazifa, tashxis shakllari, metodlari, vosita yoki jihozlari, tashxisni amalga oshiruvchining ma'lumoti, malaka darajasi, ish tajribasi, tashxis mezonlari va ko'rsatkichlari, tashxis bosqichlari, tashxis natijalari, korreksiyalovchi metodika pedagogik tashxisning muhim asoslari bo'lib, har qanday vaziyatda ham ular

yaxlit holda inobatga olinishi zarur.

V.Uruskoy esa pedagogik tashxislash o'z mohiyatiga ko'ra ikki maqsadga erishishga xizmat qiladi, deb hisoblaydi. Ular: 1) o'qituvchining kasbiy darajasini o'rganuvchi metod, vositalarning tizimi sifatida kasbiy faoliyatdagi qiyinchiliklarni o'rganish, ularni barataf etishning samarali yo'llarini izlash zaruriyatini anglash; 2) pedagogik faoliyatni tashkil etishning individual uslubiga ko'ra o'qituvchining kuchli tomonlarini aniqlash, ularni mustahkamlash hamda rivojlantirishning aniq yo'llari va vositalarini aniqlash.

Yanada aniqroq qilib aytganda, pedagogik diagnostika – aniq maqsaddan kelib chiqqan holda muayyan holat (fazilat, bilimlarni o'zlashtirish) bo'yicha o'rganiluvchi shaxs faoliyatini kuzatish, tekshirish va baholashga oid statistik ma'lumotlarni yig'ish, ularni tahlil qilish, dinamik rivojlanishni aniqlashga qaratilgan nazorat yoki monitoringning tarkibiy qismi; ta'lim oluvchilar, pedagog yoki ta'lim muassasasi rahbarining faoliyati darajasida jarayon yoki hodisani bir vaqtning o'zida tezkor o'rganish, baholash, yo'naltirish va to'g'rilash demakdir.

O'z mohiyatiga ko'ra ma'lum jarayon, hodisa yoki obyekt bo'yicha pedagogik tashxis qo'yishga qaratilgan faoliyat esa pedagogik tashxislash sanaladi. Chunki tashxislash negizida shaxs yoki avtomatik qurilma tomonidan amalga oshiriladigan real harakat yotadi.

O'quv-tarbiya jarayonining zamonaviy darajada rivojlanib borishini ta'minlash uchun asosiy mas'ul shaxslar o'qituvchilar bo'lib, hozirda ulardan o'z ishlariga mas'uliyat bilan yondashish, kasbiy bilimdonlik, kasbiy malaka va metodik mahoratlarini uzluksiz oshirib borish, zamonaviy pedagogik texnologiya, innovasiyalar asosida ishlash talab qilinadi. Buning uchun ular uzluksiz ravishda mustaqil mutolaa va malaka oshirish bilan shug'ullanishlari zarur.

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning poydevori va maktabdagi ta'lim-tarbiyaning sifati hamda samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanligi, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zlari o'qitadigan o'qish, ona tili, matematika, tabiatshunoslik, mehnat, odobnoma, jismoniy tarbiya fanlari bo'yicha ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirishlari mexanizmini takomillashtirish qanchalik jiddiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi. Hozirda bu mexanizmni takomillashtirish uchun kasbiy pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy pedagogik diagnostikaning mazmuni o'qituvchilarning zamonaviy talablar darajasida kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash yuzasidan amalga oshiriladigan ilmiy-metodik yo'nalishdagi tashkiliy-pedagogik va amaliy ishlardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 25-son qaroriga muvofiq

ta'limni boshqarish hududiy organlari tomonidan maktablardagi pedagog kadrlar kasbiy diagnostikasining natijalari umumlashtiriladi. Bunda har bir pedagogga tegishli natijalar bo'yicha o'xshash yo'nalishlarni belgilash va guruhlashtirish amalga oshiriladi. Bunday umumlashtirish natijasida tegishli ta'lim muassasalari bo'yicha jami pedagog kadrlarga xos bo'lgan umumiy kasbiy muammolar yo'nalishlari ma'lum bo'ladi. Uning asosida pedagoglarning uzluksiz malaka oshirishlarini tashkil qilishning mazmuni va, shu bilan birga, maqsadga muvofiq shakl va usullari ham aniqlanishi mumkin.

O'qituvchi faoliyatining kasbiy diagnostikasi uning o'z ishida yanada yuqori natijaga erishishini ta'minlash uchun o'zlashtirishi va o'z faoliyatida qo'llashi zarur bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ish ko'nikmalari va malakalarni aniqlashdan iborat. Buning uchun o'qituvchi kasbiy faoliyatining tarkibiy qismlari bo'yicha tayyorgarlik darajasi aniqlanib, xulosalar chiqariladi.

O'qituvchi faoliyatini quyidagi asosiy tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qilish mumkin:

- mutaxassisligi bo'yicha nazariy va metodik bilimlarni, shu sohada so'nggi yangiliklarni va ularni amalda qo'llashni bilishi;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi va amalda qo'llashi;
- ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishi va ulardan amalda foydalanishi;
- pedagogika, psixologiya va ma'naviyat asoslari bo'yicha tayyorgarligi darajasi;
- o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi;
- maktab fan metodika birlashmasi ishidagi faolligi, tayyorlagan metodik ma'ruzalari, axborotlari;
- tegishli me'yoriy hujjatlarni bilishi;
- sinfdan tashqari mashg'ulotlar olib borishi sifati va samaradorligi;
- ota-onalar, mahallalar bilan hamkorlik ishlari samaradorligi;
- tanlov, ko'rik, musobaqa, konferensiya, seminarlarda ishtiroki;
- ommaviy axborot vositalarida chiqishlari;
- o'qituvchining pedagogik faoliyatiga hamkasblarining, o'quvchilar va ota-onalarning baholari.

Yuqorida keltirilgan tarkibiy qismlar bo'yicha kasbiy diagnostika quyidagi kabi tegishli shakl va usullarda amalga oshiriladi: hujjatlar asosida o'rganish, kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test, o'z-o'zini tashxislash, o'qituvchining pedagogik faoliyati to'g'risida hamkasblari, o'quvchilar, ota-onalar fikrlarini o'rganish hamda to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish va tavsiyalar berishdan iborat.

Har bir fan yoki o'quv fani kabi "pedagogik diagnostika va korreksiya" o'z oldiga muayyan maqsadni qo'yadi, ushbu maqsadga erishish yo'lida ma'lum vazifalarni belgilaydi. Qolaversa, mazkur fan o'zining tadqiqot obyekti, predmeti hamda tayanch kategoriyalari (asosiy tushunchalari)ga ega.

O'quv fanining maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va kategoriyalari uning tadqiqot yo'nalishi, fan sifatida o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra belgilanadi.

"Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining maqsadi – pedagogik ahamiyatga ega ma'lumotlarni aniqlash va ulardan foydalanish asosida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, tarbiyalash, o'quv hamda kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan samarali tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Har bir fan yoki o'quv fani oldiga muayyan vazifalar qo'yiladi. Ularning aniq belgilanishi maqsadga tezkor va samarali erishish imkonini beradi.

"Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining obyekti – pedagogik jarayon hamda uning barcha tarkibiy elementlari – pedagog, o'quvchi, pedagogik faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari, metodlari, vositalari, shart-sharoitlari, texnologiyalari hamda natijalari.

O'quv fanining obyekti, o'z navbatida, uning predmetini belgilashga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, "pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining predmeti uning obyekti asosida belgilanadi. Bunda ikkita subyekt – o'quvchi (bola) va pedagog, shuningdek, ta'lim va tarbiya sharoiti nazarda tutiladi.

"Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining obyekti sifatida		
<i>O'quvchi (bola) ko'zda tutilganda</i>	<i>Pedagog ko'zda tutilganda</i>	<i>Ta'lim va tarbiya sharoiti ko'zda tutilganda</i>
O'quv fanining obyekti quyidagicha belgilanadi:		
O'quvchi (bola)ning o'ziga xos (shaxsiy) xususiyatlari; ta'lim olganlik, tarbiyalanganlik, rivojlanganlik, faoliyat ko'nikmalari, qiziqish, xohish-istak va mayllari, tipologik xususiyatlari, xulq-atvorining namoyon bo'lish darajalari; uning tengdoshlari hamda kattalar bilan munosabatining o'ziga xosliklari	Pedagogning kasbiy kompetentligi, shaxsiy xususiyatlari, o'quvchi (bola)lar bilan munosabatining o'ziga xosliklari	Turli yosh davridagi shaxsni o'qitish metodlari; mikro guruhdagi muhit; muayyan yosh davridagi shaxsga beriladigan ta'lim (tarbiya) mazmuni hamda ta'lim (tarbiya) vositalari, texnologiyalari; shaxsning rivojlanishiga turli omillar, xususan, oilaning ta'siri

Ma'lumki, har bir fan yoki o'quv fani kabi "pedagogik diagnostika va korreksiya" ham o'zining tayanch tushunchalari (asosiy kategoriyalari)ga ega.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika g'oyalarini amaliyotda qo'llash didaktik va tarbiyaviy jarayonlarning ilmiy, metodik, tashkiliy,

amaliy jihatdan to'g'ri tashkillashtirilishini ta'minlaydi. O'quvchilar tomonidan bilim, malaka va ko'nikmalarning samarali o'zlashtirilishi uchun sharoit yaratadi. Qolaversa, pedagogik jarayonda muayyan kamchiliklar ko'zga tashlansa, ularni tezkor bartaraf etish, istiqbol vazifalarni oqilona belgilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-dekabrda "Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1026-son qarori.

Raxmatova X. Pedagogik diagnostika. Ma'ruza matnlari. – Namangan: Namangan DU, 2014.

Yo'ldoshev J.G., Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika. O'quv-metodik qo'llanma. – 2014.

Jumanova F.U., Artikova N.S. PIRLS tadqiqotlariga tayyorlashda "Organayzer" metodidan foydalanish imkoniyatlari // Academic Research in Educational Sciences, 2021, 2(CSPI conference 1), 1471-1475.

Jumanova F.U., Artikova N.S. Shaxs kamoloti va faoliyat (muloqot), ularni boshqarish ma'rifiy pedagogik muammo sifatida // Academic Research in Educational Sciences, 2021, 2(4), 81-88.

Sultanova D.A., Artikova N.S. Ta'lim tarbiya jarayoniga psixologik muhit ta'siri // Academic Research in Educational Sciences, 2021, 2 (Special Issue 1), 418-423.

Usmanova K.A., Artikova N.S., Xasanov R.N., Qarshiboeva O. Oziq-ovqat sanoatida anjirning o'rni // Science and Education, 2022, 3(5), 188-190.

Xudayqulova F.B. Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences, 2021, 2 (CSPI conference 1), 1668-1671.

Olima KHALILOVA,
*Senior teacher of the Karshi
 Engineering-Economic Institute*

VOCABULARY IS A VITAL PART OF LANGUAGE TEACHING

The basic reason for learning foreign languages that all people have in common is communication - communication in any mode. It is a two-sided process, which requires the ability to understand each other, to be able to code a message that someone wants to convey to someone else in a way, which will be comprehensible to the receiver and also appropriate to a concrete situation and status of all participants. Vice versa the person should be able to interpret a message that someone else is conveying to them. To acquire a good skill of communication in foreign language it is necessary to be familiar not only with vocabulary (single words and their meanings, collocations, phrases and phrasal verbs etc.) but also with language structures and above all with strategies for using them in right context according to concrete situations. Learners can generally communicate well, having learnt all the basic structures of the language. However, they need to broaden their vocabulary to express themselves more clearly and appropriately in a wide range of situations. Students might even have a receptive knowledge of a wider range of vocabulary, which means they can recognize the item and recognize its meaning. Nevertheless, their productive use of a wide range of vocabulary is normally limited, and this is one of the areas that need greater attention. At this stage we are concerned not only with students understanding the meaning of words, but also being able to use them appropriately, taking into account factors such as oral / written use of the language; degree of formality, style and others. Vocabulary is the knowledge of words and word meanings [1].

"Vocabulary knowledge is knowledge; the knowledge of a word not only implies a definition, but also implies how that word fits into the world." Vocabulary knowledge is not something that can ever be fully mastered; it is something that expands and deepens over the course of a lifetime. Instruction in vocabulary involves far more than looking up words in a dictionary and using the words in a sentence. Vocabulary is acquired incidentally through indirect exposure to words and intentionally through explicit instruction in specific words and word learning strategies. There are four components of an effective vocabulary program:

- wide or extensive independent reading to expand word knowledge;
- instruction in specific words to enhance comprehension of texts containing those words;
- instruction in independent word-learning strategies;
- word consciousness and word-play activities to motivate and enhance learning [2].

Nowadays it is widely accepted that vocabulary teaching should be part of the syllabus, and taught in a well-planned and regular basis. Some authors argue that vocabulary should be at the center of language teaching, because 'language consists of grammaticalised lexis, not lexicalized grammar'.

The importance of teaching vocabulary. New words have to be introduced in such a way as to capture the students' attention and place the words in their memories. Students need to be aware of techniques for memorizing large amounts of new vocabulary in order to progress in their language learning. Vocabulary learning can often be seen as a laborious process of memorizing lists of unrelated terms. However, there are many others much more successful and interesting ways to learn and teach vocabulary in the ESL classroom [3].

If vocabulary is taught in an uninteresting way such as by drilling, simple repetition and learning lists, then the words are likely to be forgotten. Teachers need to teach vocabulary so that the words are learned in a memorable way, in order for them to stick in the memory of the student. Indeed, learners need to retain large amounts of vocabulary in their long-term memory.

Teaching vocabulary is the basis for forming four main skills. Knowing a language means to master its structure and words. Thus, vocabulary one of the aspects of the language to be taught in school. The problem is what words and idioms pupils should retain. It is evident that the number of words should be limited because pupils have only 2-4 periods a week; the size of the group is not small enough to provide each pupil with practice in speaking; schools are not yet fully equipped with special laboratories for individual language learning. The number of words pupils should acquire in school depends wholly on the syllabus requirements. The later are determined by the condition and method used. For example, experiments have proved that the use of programmed instruction for vocabulary learning allows us to increase the number of the words to be learned since pupils are able to assimilate them while working independently with the programme [4].

The main aim of teaching vocabulary is assimilation of the meaning, form of the words and its usage in oral and written speech – that is formation of lexical habits. People can have many aptitudes, but without a large and precise English vocabulary to express them, they cannot take full advantage of these abilities. Unlike aptitudes, vocabulary is not a natural ability; it can be improved if one is willing to make the effort to do so. Building vocabulary is a powerful way to enhance your

life and career. Learning how to build a better vocabulary can be a pleasurable and profitable investment of both your time and effort. At least fifteen minutes a day of concentrated study on a regular basis can bring about a rapid improvement in your vocabulary skills, which in turn can increase your ability to communicate by writing, conversing, or making speeches. Acquiring a large vocabulary can benefit you in school, at work, and socially. It will enable you to understand others' ideas better and to have the satisfaction of getting your thoughts and ideas across more effectively. Of course, you already know thousands of words, and you will continue to learn more whether you work at it or not. The fact is that many of the words you know were probably learned simply by coming across them often enough in your reading, in conversation, and even while watching television. But increasing the pace of your learning requires a consistent, dedicated approach. If you learned only one new word a day for the next three years, you would have over a thousand new words in your vocabulary. However, if you decided right now to learn ten new words a day, in one year you would have added over three thousand to what you already know, and probably have established a lifetime habit of learning and self-improvement [5].

Vocabulary is a vital part of language teaching. Word cards - teachers can use devices for vocabulary teaching such as simple flash-cards or word-cards. The teacher writes the English language word on one side of the card and a sentence containing the word, its definition, its synonyms and pronunciation on the other. Word cards can be excellent methods of memory aid. This is also a handy way for students to carry their new vocabulary around with them to look at whenever they have the opportunity.

Word association - another successful method of vocabulary teaching is the word association technique. If words are stored individually, they are more difficult to remember as they have no context. But if the words are stored together in commonly used phrases and sentences, they are more readily absorbed. Putting words with collocational partners in this way helps the students to relate connected words together.

Visual techniques - teaching vocabulary can become easier with the use of cards with pictures, diagrams and liberal colour coding for grammatical clarity. In this way, words are remembered by their colour or position on a page or their association with other words, pictures or phrases. Images can link to a word; words can also be linked to other words, for example, a student might link

the word 'car' with 'garage' and with 'mechanic'. This idea of engaging the other sense can also help with developing a kind of semantic map where words are listed which relate to each other, which creates a situation where one word reminds the student of another.

Brainstorming - when teaching new vocabulary, the method of delivery needs to be fresh and interesting for the students or else they will not remember the words. Ways in which to liven up the introduction of new vocabulary could include brainstorming around an existing word in the students' vocabulary knowledge. This key word should be written up in the middle of the board and the new vocabulary relating to it can be written around it. Use colourful pens if writing on a whiteboard to emphasize different words.

Matching columns - once the new vocabulary has been taught, a useful way to test if students have understood the meanings of this new vocabulary is to ask them to match new words from one column with definitions from another column. The new words are numbered in column one and the definitions are mixed up and lettered in column two. Students can also make up sentences using this technique, matching the beginning of the sentence or phrase from column 1 with the end of the sentence or phrase from column 2 [6].

Vocabulary is an important part of the English teaching process. It is supposed to be a very effective communicative device as it carries the highest level of importance within peoples' verbal interaction. However, language itself is not only individual lexemes put together, but it is necessary to follow a set of grammar rules to assure correct comprehension of speaker's intention. Therefore, vocabulary together with grammar rules acquisition plays significant role in foreign language teaching. The purpose of the article is to find out the appropriate principles and methods for teaching vocabulary. The main goal is to assess the relationship between teaching approach and students' final knowledge, focusing on vocabulary load. Language with problems to integrate it within context, - conscious learning of rules does not lead to language acquisition, - communicative approach prepares students for real communication, students are not anxious about experiments with language and they are able to respond the context well.

In conclusion, first, teachers should prepare themselves for the following principles and methods of teaching vocabulary in FLTL, because foreign language training will be more efficient.

References

1. Allen E. and Valetta R. Modern language classroom techniques. A handbook. - New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1972.
2. Spaulding C. Motivation in the classroom. - New York: McGraw-Hill, Inc, 1992.
3. Williams L. Teaching for the two-sided mind. - New York: Simon & Schuster, 1983.
4. Witt rock M. The human brain. - New York: Prentice-Hall, 1977.
5. Rogova G.V. Methods of teaching English. - Moscow, 1970.

Tumaris KABULOVA,
*Uzbekistan State University of World
 Languages, a master's student*

MORAL CRISIS IN AMERICAN LITERATURE OF THE 20TH CENTURY

The general theme of US literature in the first third of the 20th century is the Great American Dream. The first settlers who arrived in North America from Europe on the Mayflower ship and founded New England on its Atlantic coast were inspired not only by the acquisitive dream of enrichment. The white pioneers of the continent, they would later be called pioneers, dreamed of returning the lost paradise, of recreating an "earthly sanctuary" for a person who creates both himself and his happiness. The boundless undeveloped continent seemed to them a place where they could start building an earthly paradise from scratch. Later, when New England announced its separation from the mother country, became an independent state called the United States, this religiously colored dream of the pioneers acquired the status of a national task. Very strongly ideologically corrected by the thesis that America is a country of equal opportunities for all, it became the foundation on which the conviction in its exclusivity, even God's chosenness, was based. This idea of the American educators of the 18th century gave rise to an ideological and ontological phenomenon called the "Great American Dream". It entered into flesh and blood, into the genetic memory of several generations of Americans. The outstanding writer W. Faulkner, who already lived in the 20th century, wrote about it: "We were not even allowed to accept or reject the dream, because the dream already possessed and owned us from the moment of birth." Here is the reason for the belated maturation of a critical attitude towards the values of Americanism in US literature: the thesis of equal opportunities for all "worked" throughout the 19th century. Only by the beginning of the 20th century did reverence for the "dream" and "equal opportunities" change in American literature to a fair amount of skepticism and denial.

The moral crisis, the depreciation of the traditional system of values based on the traditions of bourgeois individualism, led to a serious crisis of hopes and ideas about the future. In his book "The cultural contradictions of capitalism", Bell writes specifically about the "crisis of hope": "Three unspoken assumptions have always existed in the United States: the assumption that individual values will rise, that rising material wealth will solve all the problems arising from inequality, and that experience will be the basis for solving all the problems of the future. And now all those hopes have been shattered. Growing prosperity does not eliminate inequality,

but, on the contrary, creates new problems. Experience is no more reliable guide to the complex technical problems of today's society. And the values that form the basis for hopes for successful material well-being are now in question" [1].

Thus, D. Bell criticizes the counterculture from the standpoint of neoconservatism. Speaking of a deep moral and cultural crisis, he looks for ways to overcome the cultural contradictions of capitalism. He sees this path in the renewal of moral values, in the creation of new moral principles based not on bourgeois individualism, which has degenerated into hedonism and pop culture, but on new forms of "collectivity", "self-restraint", moderation, and cultural tradition [2: 56].

The moral crisis recognized today by most American sociologists and ideologues is largely related to the crisis of individualism, which has historically been the basis for the development of many American values. Yu. A. Zamoshkin convincingly wrote about the causes of this crisis, its forms and stages. In particular, he showed that under the conditions of state-monopoly capitalism the class basis for individualism narrows. "Changes in the class structure of contemporary American capitalism are one of the most important causes of the general crisis of individualism. These changes confront millions of Americans with a sharp contrast between the formal democratic shell (which wraps the traditional slogans of US individualism, and above all the slogan of "equal rights for everyone to succeed") and reality" [3].

Indeed, the principle of individualism and the norms of morality and behavior based on it corresponded to the early stages of the formation of capitalism in the United States, the practice of free enterprise and the unrestricted elements of the market. The activities of these large bureaucratic organizations are based on authority, on a "hierarchy of prestige and power", that is, on norms of behavior that go beyond individualistic ethics. Hence the attempts to substantiate a new, "corporate ethic" opposed to the ethics of individualism.

In the twenties, the creative path of Ernest Hemingway (1899–1961), the most prominent representative of the American literature of the lost generation, began, among which, along with the early Fitzgerald, criticism also included the first literary experiments of W. Faulkner ("Soldier's award") and D. Dos Rassos ("Three soldiers"). He debuted with a collection of short stories, "In our time" (1925); the heroes of most of them are young Americans who have returned from

the front and are unable to adapt to civilian life, who no longer find a common language with their parents, relatives, and loved ones. The feeling of restlessness, loneliness dominates in them. In the novel "The sun also rises" (Fiesta), published a year later, the action takes place in France, its heroes – five young Americans (Bret Ashley, Jake Barnes, Michael Campbell, Bill Gorton, Robert Cohn and Francis Cline) lead a strange life of Bohemia, burning time and money in empty conversations, nightly trips to taverns and haunts of Paris. The author did not condescend to explain the causes of universal pessimism and some kind of moral emptiness of most of the heroes (except, perhaps, Barnes) – one can only guess about this from individual hints, details of their dialogues. He was belligerently factographic in his first novel, unwilling to seek out motives or give his own assessments of the behavior of his characters. For which he received a lot of reproaches from the then critics for distorting the truth of life, for the unartistic, compositional helplessness of the novel. As regards the novel form, they were right in many respects; but the generalized portrait of the so-called lost generation, which lost the old ideals and did not find new ones, is accurately recreated.

Nevertheless, he listened to critics in the next novel about the same generation, "A farewell to arms!" (1929) did not neglect the social motivations of the hero's behavior along with the psychological ones. Lieutenant Henry went to the front as a volunteer, believing the official propaganda that this war was for democracy and freedom, allegedly threatened by Germany. Front-line everyday life, the spectacle of cruelty and violence, communication with ordinary Italian soldiers, injury and love for Katherine Barclay dispelled the young man's urapatriotic frenzy. He realized that "this is not my war", and decided to conclude a "separate peace". True, this world looks like a desertion, an escape to neutral Switzerland, where he wants to hide from the cruelty of the world along with his beloved. "I am not born to think; I was born to eat, drink and sleep, yes, hell, sleep with Katherine. But the dream of being able to get away from the storms of the world, to hide in a cozy bay of personal life turned out to be illusory. During childbirth, his lover and child die, Henry is left with nothing. On the saddest note of loneliness, the novel ends, confirming the illusory nature of the hopes and aspirations of a generation of peers of the century.

After "A farewell to arms!" Hemingway has what some researchers call a creative crisis. Probably because before the appearance of the next novel "To have and not to have" eight years pass filled with small epic

genres. The theme of the "lost generation" has been worked out, the search for a new one has dragged on. A writer who demands of himself looks for something real, for which it is worth living and dying, with which one can go to the reader. In his search, he turns to people of exotic occupations and professions – bullfighters, travelers, lion hunters, smugglers.

The writer's search for the present in life leads him to the theme of the fate of man in society, to the common theme of the "American dream" for many American writers. They bring him to Republican Spain, fighting against fascism. There he saw real people and captured their feat in the play "The fifth column" and the novel "For whom the bell tolls" (1940). His hero Robert Jordan is a young American who voluntarily came to Spain to fight against fascism. He receives the task to cross the front line and, when the offensive of the Republican army begins, with the help of a partisan detachment, blow up the bridge in the rear of the Nazis in order to prevent them from sending reinforcements. Developing the plot of a small operation, the author solves a number of moral problems. And first of all, this is the problem of the value of human life in relation to the moral duty, voluntarily accepted in the name of a lofty idea. Realizing that completing the task could end in death for him, Jordan, however, argues that everyone must do their duty. And he remains to certain death, deciding to cover the retreat of his comrades. As an epigraph to the novel, Hemingway took the lines of the English poet John Donne, which very accurately express the humanistic orientation of the novel, speaking both about the enduring value of every human life and about the fusion of the fate of each person with the fate of all mankind: "There is no person who would be like an Island, himself to myself: each person is a part of the Continent ... The death of each Human also diminishes me, for I am one with all Humanity".

The most significant work of Hemingway after the Second World War was the philosophical story-parable "The old man and the sea" (1952). Here, for the first time in the work of Hemingway, the hero became a hard worker who sees his life calling in his work. Santiago's courage is extremely natural; it has nothing of the tetrality of a matador playing a deadly game in front of an audience. The old man is defeated in an unequal battle with sharks that destroy his prey, which he got at such a high price. But he does not have any feeling of hopelessness and doom: "Man is not created to endure defeats. Man can be destroyed, but he cannot be defeated".

References

1. America in crisis. Ed. by R. Lee and D. Palmer. – Cambridge, 1972.
2. Bell D. The cultural contradictions of capitalism. – N. Y., 1976.
3. Замошкин Ю.Л. Кризис буржуазного индивидуализма и личность. – Москва, 1966.

Dilshod Rajabov
Buxoro davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası professori
To'xtamurod Rajabov
Buxoro davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası o'qituvchisi

BADIY KO'CHIM VOSITASIDA RAMZLARNING YUZAGA KELISHI VA ULARNING BADIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Zamonaviy she'riyatda uchraydigan ramzlar, misrada yuzaga kelishi, shoirning fikrini to'laqonli ochib berishga xizmat qilishi va shu jarayonga aloqasi nuqtai nazaridan alohida bir ko'rinish hosil qiladi. Ko'chim va timsol tugallangan obraz yaratishda o'zaro yaxlitlikka erishishi shart. Buning uchun esa, ijodkordan ma'lum bir me'yor va aniq ritm talab etiladi.

Xalq og'zaki ijodi orqali butun bir millatning ongiga singib ketgan ba'zi obrazlar bugungi zamonaviy she'riyatda ramz darajasiga chiqqan. She'riyatda uchraydigan metaforalarga ramz tarzida qarash holatlari uchraydi, ammo ko'chim ramz darajasiga chiqishi uchun bir qator talablarga javob berishi kerak. Barcha davr she'riyatida ramz va ramziy obraz majozning bir turini o'zida ifodalab kelgan.

Kalit so'zlar: Ramz, misra, ko'chim, metafora, she'riy vazn, timsol, obraz, an'anaviylik, majoz, metonimiya, tasviriy ifodalar, fraza, kompozitsiya.

Abstract. The symbols found in modern poetry, found in poems, serve to fully reveal the poet's thoughts and create a special view from the point of view of his connection with this process. The avalanche and the emblem must achieve mutual integrity when creating a complete image. And for this, a certain norm and a clear rhythm are required from the creator.

Some of the images that have penetrated into the consciousness of an entire nation thanks to the creativity of the people's mouths have reached the level of a symbol in today's modern poetry. There are cases of considering metaphors found in poetry in the style of a symbol, but in order for migration to reach the level of a symbol, there must be a number of requirements. In poetry of all times, the symbol and the symbolic image were a kind of metaphor.

Keywords: symbol, stanza, avalanche, metaphor, poetic weight, emblem, image, traditionalism, metaphor, metonymy, pictorial expressions, phraseology, composition.

Аннотация. Символы, встречающиеся в современной поэзии, встречающиеся в стихах, служат для полного раскрытия мысли поэта и создают особый взгляд с точки зрения его связи с этим процессом. Троп и образ должны достичь взаимной целостности при создании завершённого образа. А для этого от творца требуется определённая норма и чёткий ритм.

Некоторые из образов, которые проникли в сознание целой нации благодаря творчеству народных уст, достигли уровня символа в сегодняшней современной поэзии. Есть случаи рассмотрения метафор, встречающихся в поэзии, в стиле символа, но для того, чтобы троп достигла уровня символа, должен быть ряд требований. В поэзии всех времён символ и символический образ представляли собой своего рода метафору.

Ключевые слова: Символ, строка, тропа, иетафора, стихотворный размер, условное обозначение, оюраз, традиционность, метонимия, перенос, художественное изображение, фраза, композиция.

Krish. Zamonaviy she'riyatda uchraydigan ramzlar, misrada yuzaga kelishi, shoirning fikrini to'laqonli ochib berishga xizmat qilishi va shu jarayonga aloqasi nuqtai nazaridan alohida bir ko'rinish hosil qiladi. Umuman olganda, ramz barcha sohalarida uchrashi va shu xususiyatining she'riyatga singishida ham shoirning mahorati jiddiy o'rin egallaydi. Poetik ramzlar tashqi ko'rinish jihatidan intim tuyg'ularni belgilar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, ramz o'zi ifodalayotgan tushunchani aniq va badiylik me'yorlariga amal qilgan holda ko'rsatishi ham shart hisoblanaadi. Ramzning turli sohalarida uchrashini N.Kostoromov ham ancha to'g'ri tahlil qilgan. "Ramzlashtirish nisbatan turli sohalarida uchraydi. Farq shundaki, ayrim hollarda (poetik ramzlarda) ramz insonning mavjud psixik xususiyatlariga suyangan holda yuzaga keladi, boshqalarda esa (ramz-belgida) u suniy bo'ladi, shuning uchun ham u o'ta shartli mohiyatga ega"¹ Ramz she'riy misrada qo'llanilishi orqali hajm jihatidan hikoyaga teng bo'lgan

bir ma'noni ochadi. Albatta, bu o'rinda, she'riy parchada keltirilgan ramzni to'g'ri va aniq tahlil qilish uchun o'sha ramz anglatgan ramziy ma'noni tushunib yetish talab qilinadi.

Otlar tishi qariydi,
 Palaxmonlar belog'riq.
 Shahar devor ko'ksida
 Kunda ochilar yoriq.²

Adabiyotshunos olim D.Quronov ta'kidlaganidek: "Badiy asar ijodkorning borliq bilan munosabati mahsuli o'laroq dunyoga keladi." Yuqoridagi she'rda ham shoira o'zini tarixning bir qatiga tashlaydi. Barcha urushlar, vayronagarchiliklar tugab dorilomon kunlar boshlanayotgani haqida to'laqlanib gapiradi. Barcha fikrning mazmunini ochib berishda esa, asosiy rolni palaxmon obraziga yuklaydi. "Palaxmonlar belog'riq" satri orqali urushlar bugun ancha bizdan yiroq ketgani-

ni ifodalashga harakat qiladi. Palaxmon so'zi ramziy ma'noda qo'llangan bo'lib urush va vayronagarchilik ramzini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Xalq og'zaki ijodi an'analari ta'sirida sug'orilgan adabiyotimizda bitta obraz ham ramz darajasiga chiqishi ham ko'chma ma'no ifodalashi mumkinligini kuzatishimiz mumkin. Xalq og'izaki ijodi orqali butun bir millatning ongiga singib ketgan ba'zi obrazlar bugungi zamonaviy she'riyatda ramz darajasiga chiqqan. Masalan, Alpomish, Farhod, Tohir obrazlari butun bir fikrni ifodalovchi ramzlardir. Chunki bu obrazlarda alohida holatlar va ustunliklar boshqa obrazlarga, nisbatan, ancha chuqur o'rnanishgan. Shuning uchun ham, davrlar davomida qahramonlik, fidokorlik, sevgi tushunchalari shu obrazlarning atrofida mujassamlashtirilgan. Natijada, boshqa obrazlarga nisbatan katta ma'noni ifodalagan tushunchalar ramz darajasiga ko'tarilgan. Davr shoirlari umumiy holatni ifodalashda mazkur ramzlardan foydalanish an'anasini o'rganganlar. Ushbu an'anaviy xususiyatga ega bo'lgan ramzlar hech qanday qoidasiz, hech qanday ifodasiz ham to'g'ridan-to'g'ri ko'chim turi sifatida ma'no kasb etadi.

O'g'lim desang osmonlarga
G'iro't bo'lib uchgayman,
Chambil yurtida Alpomishga
Navkar bo'lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib
Ulug'beging quchgayman,
G'ichir-g'ichir tishimdagi
So'lig'imsan, Vatanim....³

Alpomish obrazi butun bir millat uchun qahramonlik na'munasi ekanligi oyday ravshan. Shoir, aynan, mana shu holatni nazarda tutadi. Biron kishining o'g'il farzandi bo'lsa beixtiyor "Alpomishday yigit bo'lsin" iborasi ishlatiladi. Alpomish o'zbek xalqi uchun qahramonlik ramzidir. Shoir shu holatdan foydalanib butun bir millatning bir vakili sifatida o'zini qahramonning navkari bo'lishini xohlaydi. Umuman olganda, ramz bir qator kishilarda uchraydigan fazilatlarni bir kishi atrofida birlashtiradi. Ya'ni yuzlab insonlardan umumiy yaxshi sifatlarini oladi va o'zi gavdalantirayotgan obrazda umumlashtiradi. Shu orqali adabiyotshunoslikda ramz yuzaga keladi. Ramziy obraz yillar o'tgani sari zamon zayliga qarab to'lishib, murakkablashib boradi. Shu orqali barcha davr kishilari uchun o'zining ahamiyatini yoqotmasdan, yangilanib boraveradi. Davr ijodkori esa o'zi uchun zamonlardan oshgan ushbu obrazni o'zi uchun qayta yangilab ijodiy ishlanmalarida foydalanib

boraveradi.

She'riyatda ramzlarning tuzilishi va uning turli o'rinlarda turli ma'nolarda kelishini majoziylik nuqtai nazaridan davrlar she'riyatini tahlil qilib anglash mumkin. Har bir ramz ma'lum bir poetik ifoda va shu ifodaga asos bo'luvchi ma'lum bir unsumni ifodalaydi. Shoirning ruhiy holati obrazlarni qanday ramziy ma'noda qo'llanishi uchun asos bo'lishini ta'minlab beruvchi unsur sanaladi. Shu orqali bir-birini takrorlamaydigan, bir-birini inkor qilmaydigan, o'zaro yaqinlikka ega, ammo jiddiy farqlarga uchragan bir qator ramziy obrazlar she'riyatga kirib keladi. Xuddi mana shu holat poetikada xilma-xillikka sabab bo'ladi. Ushbu holatlarning barchasi esa, poetik ifodaning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi vositaga aylanib qolganini sezish ham qiyin bo'lib qoladi. So'zning belgilari boshqa so'zlar bilan bog'langanidan keyin yaralgan obraz o'zining xususiy ifodasiga aylanib qoladi. Shundan so'ng poetik ifoda ikki so'zning qo'shilishini emas, balki ramzga aylangan obrazni o'zida ifodalab boradi. Natijada, misrada aks etilgan so'zlar yuzaga keladi. Bu esa, poetik ifodalovchi va poetik ifodalanuvchi degan tushunchalarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Somon yo'llarida yuribmiz, mana,
Falak burjlaridan irjaymoqdamiz.
Ko'kda Zuhrodan ham so'rab ko'rmana,
Goh hingirlab, goho tirjaymoqdamiz.⁴

Ustozlar ijodini davr ijodidan yuqori baholab yozilgan she'r. Zuhro yulduz yetolmaslik va go'zallikning ramzi sanaladi. Zuhro yulduz eslanganda beixtiyor yuksaklik va ulug'vorlik nazarda tutiladi. Bu yerda Zuhro yulduzi ifodalanayotgan ramz sanaladi, atrofida so'zlar o'z-o'zidan ifodalovchiga aylanib boradi. Ushbu misoldan anglash mumkinki, shoirning tafakkur darajasi o'quvchining tafakkuridan ustunroq bo'lishi shart. Shundagina shoir o'zi anglagan ifoniy tuyg'uni o'quvchiga o'xshashi yo'q ko'chim tarzida yetkazib beradi.

-Xulosa. Myetafora bu qisqartirilgan, sodalashtirilgan o'xshatish, ramz esa murakkab bir kompozitsiyalarni o'zida ifodalay olgan ko'chimidir. Metaforada o'xshatish va o'xshamish hamisha nutqdan anglashinib turiladi. Ramzda esa, o'xshatilmishdan o'xshagan narsani anglash uchun harakat qilinadi. Yana bir-ikki tushunchani bir-biridan ajratib turuvchi holatga e'tibor berish shart. Metafora, ko'pincha, har bir xalqning mintalitetiga xos bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi, ramzlar esa jahoniy bir xilliklarni nazarda tutish xususiyatiga ham ega hisoblanadi.

¹ Н.Косторомов "Историческое значение южно-русского народного творчества", журнал "беседа", 1872, стр. 48.

² Ражабова И. Варзруд гулоби —Т.: Академнашр 2015. —Б. 64

³ Юсуф М. Сайланма. — Т.: Шарқ. 2007. —Б. 10.

⁴ Сирожиддин Саййид. Элдосларим, дилдосларим. — Т.: Адабиёт. 2021 —Б 208

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi — Т.: Fan, 2008 —Б. 8.
2. N.Kostoromov "Istoricheskoye znachenie yujno-russkogo narodnogo tvorchestva", jurnal "beseda", 1872, str. 48.
3. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. T.: Akademnashr. 2010. — B. 38.
4. Rajabova I. Varazrud gulobi —Т.: Akademnashr 2015. —Б. 64
5. Sirojiddin Sayyid. Eldoshlarim, dildoshlarim. — Т.: Adabiyot. 2021 —Б 208
6. Yusuf M. Saylanma. — Т.: Sharq. 2007. —Б. 10.



Рашид МАТЕНОВ,

и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета

ОБ АКТУАЛЬНЫХ ЗАДАЧАХ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ГРУППАХ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ В ВУЗЕ

Формирование навыков употребления синтаксических вариантных единиц в речи студентов неязыковых специальностей – актуальная задача методики преподавания русского языка в группах с узбекским языком обучения в вузе.

В современной методике преподавания русского языка в национальных группах сделано очень многое по изучению вопроса о синтаксической вариантности в современной лингвистике и лингводидактике. Однако всё еще отсутствуют исследования по формированию навыков употребления синтаксических вариантных единиц в речи студентов неязыковых вузов, оставляя вопрос до конца неисследованным.

Для выявления особенностей формирования навыков употребления синтаксических вариантных единиц русского языка в речи студентов, для которых русский язык не является родным, необходимо обосновать, разработать и апробировать систему опытно-экспериментального обучения. При создании системы такого обучения следует учитывать условия многоязычия, в которых происходит процесс обучения основным (неязыковым) специальностям, а также наличие в достаточном для обучения объеме изучаемого материала в учебно-методической литературе по русскому языку. Как показывает анализ имеющихся учебных материалов по русскому языку, необходимо дополнить имеющийся дидактический массив комплексами специальных упражнений, электронных обучающих программ, раздаточным материалом, выстроить весь имеющийся материал в стройную методическую систему для реализации программных и методических целей: активизации синтаксических конструкций для повышения эффективности использования в речи вариантных единиц, способствующих формированию профессиональной речи студентов неязыковых специальностей.

При подготовке, проведении и анализе экспериментально-опытного обучения ставятся следующие вопросы: выработка гипотезы и задач экспериментального обучения; определение цели, варьируемых условий обучения, подбор испытуемых; проведение опытно-экспериментального обучения; анализ количественных и качественных показателей результатов; обработка данных; аспекты проверки в процентах.

При проведении опытно-экспериментального обучения можно предположить следующее: если в процессе формирования навыков употребления синтаксических вариантных единиц в речи сту-

дентов узбекских групп будут использованы учебно-методические пособия, комплекс упражнений, электронные обучающие программы, дидактический раздаточный материал и при этом учитывать родной язык студентов, то навыки употребления синтаксических вариантных единиц в речи студентов будут более эффективными, прочными и глубокими по сравнению с традиционной системой обучения, а значит, и русская речь будет более правильной и обогащенной. Будут заложены необходимые основы для освоения языка специальности и самосовершенствования в языке на этапе магистратуры и послевузовского образования.

Всё перечисленное способствует осознанному усвоению грамматических объектов – языковых вариантных единиц, снятию трудностей их употребления в речи и закреплению навыков путем формирования специальных умений, что позволит понимать и предупреждать возможные ошибки как результат действия интерференции.

